

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,  
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK  
VA TARJIMASHUNOSLIK**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,  
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND  
TRANSLATION STUDIES**

2025 Vol. 3 (1)

[www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)  
[www.uzlctscls.tsuull.uz](http://www.uzlctscls.tsuull.uz)

**Bosh muharrir:**

Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Uzoq Jo'raqulov  
Nozliya Normurodova  
Ziyoda Teshaboyeva

**Mas'ul kotib:**

Mahmadiyor Asadov

### **Tahrir kengashi**

Qosimboy Mamurov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nigora Sulaymonova, Ilhom Aslonov, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Olmos Xurramov, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev, Nilufar Do'stmamatova, Ozoda Gulyamova, Manzura Abjalova, Nargiza Yusupova, Zebiniso Bekmuradova, Sevinch Yoqubova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlctscls.@navoiy-uni.uz

**Website:** www.uzlctscls.tsuull.uz

**Editor-in-Chief:**

Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy editor-in chief:**

Uzok Djurakulov  
Nozliya Normurodova  
Ziyoda Teshaboeva

**Executive secretary:**

Mahmadiyor Asadov

### **Editorial Board**

Qosimboy Mamurov, Bahodir Kholiqov, Komiljon Hamroev, Nargiza Rashidova, Aidakhon Bumatova, Nigora Sulaymonova, Ilhom Aslonov, Yulduz Ziyaeva, Zulfiya To'khtakhadjaeva, Olmos Khurramov, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillaev, Nilufar Do'stmamatova, Ozoda Gulyamova, Manzura Abjalova, Nargiza Yusupova, Zebiniso Bekmuradova, Sevinch Yoqubova.

### **About the Journal**

*Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies* series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be Uzbek, English and Russian. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.  
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)

**Website:** [www.trans.compliterary.tsuull.uz](http://www.trans.compliterary.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

#### **Uzoq Jo'raqulov**

Milliy tarjimashunoslik haqida qaydlar .....8

#### **Dilnoza Shonazarova**

O'zbek tilida Google tarjimon tarjimasi va uning tahriri .....21

#### **Shexrozbek Ibragimov**

"Bobur-Yo'lbars" romani va uning o'zbekcha tarjimasida ayrim badiiy san'atlarning pragmatik xususiyatlari .....32

#### **Nazokat G'offorova**

Zulfiya she'rlari tarjimasida badiiy tasvir vositalarining qayta berilishi .....46

#### **Nigina Temirova**

Tarjimonlik faoliyatini freymalar asosida kognitiv shakllantirish .....57

#### **Elgiza Sobirova**

Somerset Moem hikoyalaridagi ayrim frazeologik birikmalar tarjimasi .....66

### JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

#### **Olmos Xurramov**

Hozirgi o'zbek tarixiy nasrining janr xususiyatlari .....78

#### **Mahmadiyor Asadov**

Ijodkor shaxs tabiati yoxud poetik tafakkur modeli .....87

#### **Nigora Sulaymonova**

Zamaxshariy asarlarida insoniy fazilatlar talqini .....96

#### **Sobir Mansurov**

"Gulshani Dilaftor" to'plamidagi she'rlar badiiyati .....104

#### **Nilufar Dilmurodova**

Asad Dilmurod nasrining biografik va qiyosiy-tarixiy talqini .....114

#### **Dilnavoz Najimova**

Antologiya – adabiyot tarixining ko'zgusi: G'arb adabiy an'alarida poetika va tanlov .....124

#### **Shuxrat Nuritdinov**

Ijtimoiy tarixiy romanning epik bayon markazi .....139

**Barno Abdullayeva**

“Boburnoma”da uzilgan yil voqealari xorij sharqshunoslari talqinida .....149

**CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TERMINSHUNOSLIK**

**Nargiza Rashidova**

Ta'limga oid ayrim o'zakdosh arabizmlar va ularning leksik-semantik xususiyatlari .....159

**Zebo Salimova**

Turk va o'zbek tillarida fitomorf birliklar orqali inson obrazining ifodalanishi .....172

**Dilafruz Otaxonova**

Arab tilida fe'l so'z turkumi Sibavayh va Zamaxshariy talqinida .....180

**Sirojiddin Yuldoshev**

O'zbek va ingliz tillarida lokativ sintaksemalar qiyosi .....187

**Shahnoza Nazarova**

Savdo sohasida nutqiy etiket qoidalari .....192

**Dilnura Sattorova, Shaxnoza Jalolova**

Ingliz va o'zbek matnlarida ommalashgan so'zlar ya'ni buzzwordlar hamda jargonlarning qo'llanilishi .....201

**To'lg'anoy Quljanova**

“Izohsiz lug‘at”ga ayrim izohlar .....212

## CONTENT

### TRANSLATION AND TRANSLATION STUDIES

#### **Uzok Zhurakulov**

National notes on translation studies .....8

#### **Dilnoza Shonazarova**

Google translation and its edition in Uzbek language .....21

#### **Shekhrozbek Ibraghimov**

Pragmatic analysis of some stylistic devices in the novel of “Babur the tiger” and its translation in Uzbek .....32

#### **Nazokat Gofforova**

Retranslation of figurative speech in Begoyim Kholbekova’s translations of Zulfiya’s poems .....46

#### **Nigina Temirova**

Translation activity cognitive structuring based on frames .....57

#### **Elgiza Sobirova**

Translation of certain phraseological units in Somerset Maugham’s short stories .....66

### TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

#### **Olmos Xurramov**

Genre features of contemporary uzbek historical prose .....78

#### **Mahmadiyor Asadov**

The Nature of the creative personality and the model of poetic thought .....87

#### **Nigora Sulaymonova**

Interpretation of human qualities in Zamakhshari's works .....96

#### **Sobir Mansurov**

The art of poems in the collection "Gulshani Dilafgor" .....104

#### **Nilufar Dilmurodova**

Biographical and comparative-historical interpretation of Asad Dilmurod's prose .....114

#### **Dilnavoz Najimova**

Anthology as a Mirror of Literary History: Poetics and Canon Formation in Western Literary Traditions .....124

#### **Shuxrat Nuritdinov**

The epic narrative center of the social-historical novel .....139

**Barno Abdullayeva**

“Interpretations of the gap(lacuna) year events in memories by foreign orientalists .....149

**CONTRASTIVE LINGUISTICS**

**Nargiza Rashidova**

Some cognate arabic words related to education and their lexical-semantic features .....159

**Zebo Salimova**

Expression of human image through phytomorphic units in Turkish and Uzbekistan .....172

**Dilafruz Otaxonova**

Verb phraseology in Arabic according to Sibavayh and Zamakhshari .....180

**Sirojiddin Yuldoshev**

Comparative locative syntaxemes in Uzbek and English .....187

**Shahnoza Nazarova**

Rules of speech etiquette in the field of business .....192

**Dilnura Sattorova, Shaxnoza Jalolova**

Use of jargons and buzzwords in English and Uzbek texts .....201

**To'lg'anoy Quljanova**

Some commentaries “Izohsiz lugat” .....212

## TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

## Milliy tarjimashunoslik haqida qaydlar

Uzoq Jo'raqulov<sup>1</sup>

## Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek tarjimashunosligi taraqqiyoti, uning tarixiy bosqichlari va nazariy asoslari tahlil etiladi. Tarjima faoliyatining o'zbek adabiy tafakkuri bilan uyg'unlashuvi, jadidlar va sovet davri adiblarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi. Ayniqsa, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Komil Yashin kabi ijodkorlarning tarjimaga bo'lgan munosabati, ularning maqolalari va amaliy tajribalari orqali milliy tarjimashunoslik rivojiga qo'shgan hissasi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Maqolada O.Nahanov tomonidan ilgari surilgan tarjima nazariyasiga oid besh mezon, G'.Salomovning kongenial tarjima haqidagi talqinlari, M.Qo'shmoqov va Z.Zumratbekova tomonidan ilgari surilgan adekvat ohang va uslubiy moslik muammolari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, turkiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qilishning o'ziga xosligi, ularning fonetik, semantik va stilistik tafovutlari, bu tafovutlarning tarjima jarayoniga ta'siri ham tahlil etiladi. Turkiy xalqlar orasidagi tarixiy-madaniy aloqalar va ularning badiiy tarjimalar orqali mustahkamlanishi maqolaning asosiy xulosalaridan biridir. Maqola o'zbek tarjimashunosligi taraqqiyotini amaliy-tajribaviy va nazariy mezonlar asosida kompleks yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** *o'zbek tarjimashunosligi, badiiy tarjima, tarjima nazariyasi, kongeniallik, adekvat ohang, tarjima kriteriylari, turkiy tillar, tarjima muammolari, tarjimon malakasi, jadid tarjimachiligi, stilistik tafovutlar, tarjima estetikasi, amaliy tarjima tajribasi.*

## Kirish

O'zbek tilidan boshqa xalqlar tiliga, turkiy xalqlar adabiyoti, rus va xorij adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjima jarayonlari, amaliy tajribalar, tarjima manbalari ko'lami milliy tarjimashunoslik yo'nalishining maydonga kelishida zamin bo'lib xizmat qildi. Albatta, tarjima amaliyotining o'zi kabi tarjimashunoslik masalalari

<sup>1</sup> Jo'raqulov Uzoq Haydarovich – filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-4835-0694

**Iqtibos uchun:** Jo'raqulov, U.H. 2025. "Milliy tarjimashunoslik haqida qaydlar". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 8-20.

ham o'zbek xalqi badiiy tafakkuri tarixining olis davrlariga borib bog'lanadi. Biryola arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan o'zbek mutafakkirlari, adib va olimlari o'sha davrlardayoq tarjimashunoslikka doir fikr-qarashlari, xulosalarini yozib qoldirganlar. Ayni paytda, professional tarjimashunoslik ilmiga XX asrning 10-30-yillarida jadid ziyolilari tomonidan tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, 40-80-yillarda bu soha mustaqil ilmiy yo'nalishga aylandi. Bu ishga G'afur G'ulom, Oybek, Komil Yashin, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor singari o'zbekning atoqli adiblari munosib hissa qo'shganlaridek, tarjima jarayonlari, manbalar bilan ishlash prinsiplarini shakllantirish zarurati o'nlab o'zbek tarjimashunoslari, tarjima nazariyotchilarining yetishib chiqishiga olib keldi.

V.Zohidov, G'.Karimov, S.Shermuhamedov, Sh.Shomuhamedov, G'.Salomov, J.Sharipov, M.Rasuliy, E.Aznaurova, D.G'ulomova, O.Nahanov, N.Komilov, T.Jo'rayev, M.Qo'shmoqov, S.Salomova, Z.Umarbekova, A.Abduazizov, R.Orzibekov, A.Umarov, N.Vladimirova, T.Qahhorov, G.G'afurova, N.Muhammadiyev, R.Fayzullayeva, E.Muhammedov, O.Ne'matov, R.Karimov, A.Iminov, Q.Musayev, M.Sulaymonov, S.Ochilov, N.Otajonov, V.Rahmonov, J.Kamol, M.Muhiddinov, M.Hazratqulov, B.Do'stqorayev, P.Mirzaahmedova, Ya.Egamova, S.Ochilov, S.Meliyev, M.Sharafiddinova, Z.Isomiddinov, Sh.Otaboyev, M.Xolbekov kabi qator o'zbek tarjimashunoslari borki, ularning alohida yoki jamoaviy to'plamlarda chop etilgan tadqiqotlarida o'zbek tarjimashunosligi jarayoni, ayni paytda, tarjima nazariyasi muammolari ham o'z aksini topgan.

Ta'kidlanganidek, tarjimashunoslik masalalari haqida so'z yuritgan o'zbek yozuvchilari K.Yashin, A.Qahhor, A.Muxtor va boshqalarning maqolalari, tadqiqotlariga xos xarakterli jihat shundaki, ular o'z davrlari uchun dolzarb, og'riqli muammolarga javob izlash bilan birga, o'z tarjimachilik malakalari bilan ham o'rtoqlashadilar. Nazariy umumlashmalarga da'vo qilmasalar-da, yosh tarjimonlarga yo'l ko'rsatadilar, tarjimada suyagi qotgan tarjimonlar ishiga munosabat bildiradilar. Masalan, yozuvchi A.Qahhor "tarjimachilik tashvishlari" degan maqolasida o'zbekchadan ruschaga, ruschadan o'zbekchaga qilinayotgan tarjimalar jarayonidagi "podstrochnik"dan foydalanish masalasida bahs yuritadi. "Podstrochnikchi" bo'lib ishlayotgan, qalam haqqi olayotgan mutaxassislarning saviyasiga asosiy e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, til biluvchi mutaxassislarning adabiyotdan, adabiyotdan xabari borlarning tildan zaifligi mavjud

ekan “podstrochnik”ka doimo ehtiyoj bo’ladi. Shunday ekan, podstrochnikdan voz kechib milliy o’quvchilarni jahon adabiyoti durdonalaridan mahrum qilishdan ko’ra, podstrochnik vositasida bo’lsa ham tarjima ishlarini to’xtatmaslik kerak. Faqat podstrochnik bilan shug’ullanuvchilarning qanday mutaxassis ekanini nazorat qilish, istalgan tilbilgichga bu vazifani ishonavermaslik lozim. “Podstrochnikni elektr simiga o’xshatish mumkin. Sim qanday metallardan qilinganiga qarab elektr tokini ham har xil o’tkazadi. Xuddi shunga o’xshash podstrochnik ham uni kim va qanday qilganiga qarab, asl nusxaning mazmunini yomon, o’rta, yaxshi, yoki a’lo darajada berishi mumkin”, deb yozadi bu haqda A.Qahhor (Tarjima san’ati. 1973: 9.). K.Yashin esa “Tarjima cho’qqisini egallaylik” degan maqolasida tarjima ishlarini tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, o’zbek tilidan ukrain tiliga qilingan tarjimalar, mutaxassislar bilan bog’liq muammolar to’g’risida gapiradi. Buning uchun turli millatlarga mansub tarjimon, tarjimashunos, adabiyotshunoslarning muntazam aloqada bo’lib turishlari lozimligini alohida ta’kidlaydi.

Tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy muammolari, tarjima kriteriylari haqidagi ishlar ham bu davr manbalarida o’z aksini topgan. O.Nahanov S.Siddiq tarjimalari, tarjimashunoslikka doir asarlarini o’rganib, uning amaliy-nazariy tajribalarini umumlashtiradi. Natijada, S.Siddiq ishlab chiqqan tarjima nazariyasiga doir beshta kriteriyni taqdim etadi:

1. Tarjimon tajriba va malaka hosil qilgan bo’lishi, har bir tilning o’ziga xos alohida qoidalariga, xususiyatlarga ega ekanligi, shuningdek, tarjimachilikning ham aniq qoida va qonunlari borligini bilishi lozim.

2. Tarjimon o’zi tarjima qilayotgan asar uslubini saqlashi shart. Asardagi obraz va personajlarning nutq uslubi bilan yozuvchining o’z badiiy uslubini farqlay bilishi va o’zi “hazm” eta olmagan mavzularni tarjima qilishga urinmasligi kerak.

3. Tarjimon o’zi tarjima qilayotgan asar muallifining ijodiy yordamchisi, ish sherigi bo’lib, u aytmoqchi bo’lgan g’oyaviy maqsadni o’z tilida to’la va puxta yaratishi, o’zini muallif bilan bir qatorda asar uchun mas’ul sanashi, tarjima – asarning boshqa tillardagi to’liq nusxasi ekanligini unutmasligi zarur.

4. Tarjimon so’zga boy bo’lishi, har qaysi so’zni o’z o’rnida to’g’ri va tushunib ishlata bilishi, so’z va ma’no farqiga jiddiy e’tibor bermog’i, so’zlardan ko’ra, ko’proq jumlar bilan ish tutmog’i kerak. Gapda so’z tartibi, ya’ni so’zlarning terilish tartibiga va so’z tartibining har tilda o’ziga xoslik kasb etishi lozimligini yaxshi bilish

lozim.

5. Tarjimon har bir tilchi, adabiyotchi, lug'atchi bilan bir qatorda, omma o'rtasida iste'molda bo'lgan, xalq orasida ishlatilib yurgan ayrim lug'atlar, jonli ta'birlar, tasviriy iboralar, obrazli so'z va tarkiblarni, maqol va hikmatlarni to'plamog'i hamda ularning ma'nolarini, ekvivalenti (muqobillari) ni topib qayd etib bormog'i kerak (Nahanov O. Tarjima san'ati. 1973: 121-122.). Ma'lum bo'ladiki, hali XX asr 20-yillaridayoq o'zbek tarjimashunosligi muayyan ilmiy konsepsiya, amaliy tajribalar umumlashmasi, nazariy kriteriyalarga ega bo'lgan. Muhimi bunday muhim nazariy xulosalar bevosita amaliy faoliyatning natijasi o'laroq taqdim etilgan. Bundagi manbalar ko'lami esa faqat bir til doirasidan qilingan tarjimalar bilan cheklanmagan, balki arab, turk, fors kabi umumsharq, rus va Yevropa singari xorij adabiyotlaridan qilingan tarjima asarlar asosida chiqarilgan.

Tarjimashunoslik va tarjima nazariyasiga doir amaliy-nazariy, badiiy-estetik muammolarani umumlashtirish, yangi ilmiy mezonlar, amaliyotga doir tarjima kanonlarini ishlab chiqish, ayniqsa, 60-70-yillar o'zbek ilmiy-adabiy muhitida o'zining yangi, samarali bosqichiga chiqqan. Xususan, o'zbek tarjimashunoslik ilmining yirik namoyandasi, o'nlab tarjimon va tarjimashunoslar ustози, nazariyotchi olim G'aybulla Salomov (G'aybulloh as-Salom)ning "Badiiy tarjima haqida o'y va mulohazalar" nomli tadqiqoti misolida o'zbek tarjimashunosligining yangi bosqichiga xos xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy tarjimaning dolzarbligi va ilmiy-ma'rifiy ahamiyati haqidagi G'.Salomov fikrlari ushbu xulosamizni to'la tasdiqlashi bilan birga, 70-yillar o'zbek tarjimashunosligi ko'lami, saviyasi va professionallik darajasini ko'rsatadi: "Badiiy tarjimaning hayotimizdagi tarbiyaviy, siyosiy, g'oyaviy va estetik ahamiyati, ma'rifatparvarlik roli yil sayin oshib boraveradi. Buning natijasida muqarrar badiiy tarjimaga katta va jiddiy ijodiy ish deb qarashga va bu sohada ba'zan yuz berayotgan o'zbo'larchilik tendensiyasiga uzil-kesil zarba berishga, *ijodiy mahsulotning badiiy sifati va ilmiy saviyasini ko'rsatish yo'lida ulkan amaliy tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi*" (kursiv bizniki – U.J.), (Salomov, 1973: 51.). Olimning to'xtamiga ko'ra, 70-yillarga kelib, tarjima asarining tushunarligi, soddaligi yaxshi tarjima mezonini bo'lish darajasidan quyiga tushgan. Bu bilan tarjima asari o'quvchisining estetik talabi qonmaydi. Aksincha, bunday "tushunarli" tarjimalar xorij adabiyoti mohiyatini to'g'ri anglashga to'siq bo'lishi, muayyan millat adabiyoti haqida xato taassurot uyg'otuvi, eng yomoni,

milliy o'quvchi didini o'tmaslashtirishga olib kelishi mumkin. Asl badiiy tarjima esa yozuvchining individual tili, badiiy uslubi, badiiy mushohada qilish usuli va badiiy konsepsiyalari, asar ritmi hamda ruhiyatini milliy tilda ifodalashi maqsadga muvofiqdir. Bunday komil tarjima uchun tarjimondan quyidagi malaka, fazilat va prinsiplar talab qilinadi: a) tarjimonlik iste'dodi va tarjima asarini erkin, kongenial darajada muvofiq tanlash; b) tarjima etilayotgan asar tilini mukammal bilish, shu tilda so'zlashuvchi xalq tabiati, ruhiyatini to'g'ri anglash; v) tarjima qilinayotgan til (ya'ni, o'z ona tili) tarixi, joriy va botiniy-ruhiy imkoniyatlarini ideal darajada o'zlashtirganlik; g) tarjima qilanayotgan asarda tasvirlangan voqelik, ayni voqelik ichida kelayotgan inson obrazi, uning kasb-kori, ruhi holati, u duch keladigan joy, vaqt, tarixiy vaziyat, har bir predmet va detalgacha teran bilish, tushunish, tahliliy idrok kontekstida qabul qilish. Ammo hali 60-70-yillarda ham o'zbek tarjimachiligi bunday fenomenal qoidalarni to'la o'zlashtirgan edi, deb bo'lmaydi. Buning sababi ikkita edi. Birinchidan, bu yillar adabiy-ilmiy jarayoni sobiq sovetlar adabiy siyosati belgilash bergan yo'ldan yurishga majbur edi. Nainki tarjimonlar, hatto tarjima qilinishi lozim bo'lgan mualliflar, ularning asarlari ham yuqoridan belgilab berilgan. Ikkinchidan, zamonaviy o'zbek tarjimachiligi ming yillar osha davom etib kelayotgan milliy tarjimonlik an'analaridan, bu an'analarni izchil va ilmiy davom ettirgan jadidlarni qatag'on qilish, jisman mahv etish yo'li bilan, uzib qo'yilgan, yangi tarjimonlar avlodini sovet mafkurasiga ko'ra shakllantirish rejalashtirilgan edi. Sovet hukumati o'z adabiy siyosatida qat'iy va shafqatsiz bo'lib, unga amal qilmagan mustamlaka millatlar adabiyoti jazoga mahkum bo'lgan. Shunga qaramasdan, 70-yillarga kelib, o'zbek tarjimashunoslari tarjima tamoyillarini aniq ilmiy kriteriylar bilan boyitish, "katta adabiyot" talablariga ko'ra yangi mezonlarni ishlab chiqishga uringanlarini kuzatish mumkin. 70-yillar tarjimashunosligida ayni xulosa isbotiga xizmat qiladigan o'nlab misollar bor. Ammo bu o'rinda, ilmiy tadqiqot hajmi e'tibori bilan, yagona xarakterli misol keltirish bilan chegaralanamiz: "Badiiy tarjima praktikasida jiddiy o'rganilmay kelayotgan muammolar juda ko'p. Shulardan ba'zilarini qayd etish zarurati bor:

a) kitobxonga tushunarli til bilan tarjima qilish tarjimada avtor va asarning til, uslub xususiyatlarini o'zgartirish huquqini beradimi;

b) aksincha, avtorning til va uslub xususiyatlarini aks ettirish asarni hijjalab tarjima qilish lozimligini ko'rsatadimi;

d) nima sababdan badiiy tarjima qilish prinsiplari qat'iy bo'lsa ham, bir asarni bir necha kishi ag'darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan bir necha xil tarjima hosil bo'ladi. Tarjima bu taxlit xilma-xillikka yo'l qo'yishi mumkinmi?" (Salomov, 1973: 53.). Olim o'zi qo'ygan bunday teran va muhim savollar javobini ham ochiq qoldirmaydi. Mavjud materiallar va jahon tarjimashunoslari xulosalaridan kelib chiqib, ularga shu tarzda asosli va original javob beradi. Uningcha, tarjimadagi jiddiy kamchiliklar va taforvutlar quyidagi sabalarga ko'ra paydo bo'ladi: 1) tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e'tiqodi bir-biridan farq qilishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar; 2) tarjimonlarning tarjima prinsiplarini har xil talqin qilishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar; 3) tarjimonlarning uslublari avtor uslubiga ta'sir qilishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar (Salomov, 1973: 54.). Tom ma'nodagi kongenial tarjimaning shartlari esa quyidagicha: "Avtor uslubining ichki energiyasi: badiiy ohang, harakat, so'z va so'z tizmasining zamirida yashirilib yotgan semantik hodisani, har bir avtorning o'ziga xos yumor yaratish xususiyatini, uning so'z tanlash va so'z biriktirish borasidagi yangiligini, badiiy asarning eng muhim xossasi bo'lgan obrazlilikni, har bir tovush, nuqta va vergulning badiiy funksiyasini bilib to'g'ri aks ettirishdan iborat" (Salomov, 1973, 57.).

Ayni paytda, muallif tili nozikligi, adekvatligini saqlash masalasi o'zbek tarjimashunosligining eng aktual nazariy muammosi o'laroq tadqiq etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa tarjimonlik estetikasi va etikasi kriteriyalarini belgilashdir. Tarjimashunos S.Salomova M.Sholoxovning "Tinchoqar Don" romani tarjimasining uchta variantini solishtirib, bular (M.Osim, O.Sharopov, V.Ro'zmatov tarjimalari) ichida V.Ro'zmatov tarjimasini har jihatdan muallif tiliga yaqinligini qator misollar bilan asoslaydi. Don kazaklari tiliga xos latiflik, kinoya, qochirim kabi unsurlarning V.Ro'zmatov tarjimasida milliy til zaminida qurilganiga urg'u beradi. Asardagi: "...До самой зари звенила балалайка, вздыхали басы и тонко выгововаривали нижние лады двухъярдки, парни и девки плясали и пели..." tarzida ifodalangan tasvirni V.Ro'zmatov shunday tarjima qiladi: "...Sahargacha balalayka ovozi yangrar, garmonning baland pardalari do'rillab, pastki pardalari chiyillar, yigit va qizlar o'yin tushib, qo'shiq aytishar...edi". Muallif ushbu o'g'irmadagi quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlab ko'rsatadi: "Bu parchadagi **yangrar, do'rillar, chiyillar** fe'llari **звенили, вздыхали басы и тонко выгововаривали** fe'llarining funksiyasini to'la bajarib kelgan" (kursiv muallifniki – U.J.). (Salomova, 1973: 88.). Muallif

tili nozikliklarini saqlash masalasi (89-b.)da olima, umuman, badiiy nasr tarjimasi amalga oshirilganda mukammal bo'ladi degan savolga shunday xulosaviy tarzda javob beradi: "Avtor tilining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglash, sifatlash, majoz, fe'llarning uslubiy xususiyatlarini yurakdan his qilish va shu asosda asl nusxadagi leksik komponentlarga mos va teng keladigan ekvivalentlar topish tarjimada yozuvchi uslubi va mahoratini aks ettirishning muhim tomonlaridan biridir" (Salomova, 1973: 88.). Negaki, sanalgan uchta badiiy vositaning ham asar poetikasini his etish jarayonida ulkan retseptiv ahamiyati bor. Agar o'zga tilda yozilgan asarda aks etgan mana shu vositalar noto'g'ri tarjima qilinadigan bo'lsa, mazmun noqisligi maydonga kelishi aniq. Agar poetik matnda sifatlash orqali tasvir etilayotgan voqea yoki obraz botiniy olami kashf etilsa, fe'llar uslub yoki poetik matn ruhiyati va maromini ta'min etadi. Majoz esa, poetik ifodaning kompleks shakli bo'lib, asardagi mazmun-shakl uyg'unligiga dalolat qiladi. O'zbekcha tarjima matndagi **yangrar, do'rillar, chiyillar** fe'llari ko'ngil ochish epizodidagi harakatni, balki ko'ngil ochayotgan yigit-qizlar o'rtasida kechayotgan psixologik holatni nozik aks ettirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, she'riyasartarjimasida haqidaham muayyan nazariy umumlashmalar kuzatiladi, ayni umumlashmalar lirik asarlar tarjimasi yo'lidagi izlanishlar, yutuq va kamchiliklarni namoyon etishi bilan birgan, poeziya tarjimasiga xos ayrim ilmiy kriteriyalarni bilib olishimizga asos bo'ladi. Tadqiqotchi M.Qo'shmoqov A.Blok "O'n ikki" poemasining A.Muxtor tomonidan qilingan o'girmasi ustida atroflicha to'xtaladi. Shunchaki to'xtalib qolmaydi, asarning ruscha variantiga xos "amrona" ohang, nozik metafora, jangovor marom haqida so'z yuritar ekan, A.Blok poeziyasini naqadar chuqur his etishini namoyish qiladi. Tarjimashunos olimga xos aynan shu sifat "O'n ikki" poemasi tarjimoninig yutuq va kamchiliklarini yaqqol anglash imkonini bergan. Masalan, Blokning "Успокой, Господи, душу рабы твоея... Скучно!.." misralari A.Muxtor tomonidan "Yo Parvardigor, yupat qulingni... G'ashman!" deb tarjima qilingan. Bir qarashda misra mazmuni tarjimaga ham to'la ko'chib o'tgandek. Ammo originaldagi ruhoni shiddat, tuyg'uning fojaviyligi, ohang kulrangligi tarjimada u qadar bilinmaydi. M.Qo'shmoqov bu jihatni nozik anglashi barobarida tarjimashunoslik etikasining yuksak maqomida turib baho beradi: "Tarjimada iltijo ohanglari yo'qolgan: "G'ashman!" nidosi "Скучно!" darajasiga ko'tarilolmagan. Sababi nimada? Biz tahlil etadigan o'ringacha misralar epik usulda yaratiladi. *Dafatan, davom etib kelayotgan usul o'zgaradi-da, navbatdagi*

*misralar murakkab ichki dunyo, murakkab ruhiy holatning o'ziga aylanadi-qoladi. Ta'bir joiz bo'lsa, lirik usulga ko'chiladi. Taajjubki, bunday "ko'chish"ni sezmay ham qolasiz"* (kursiv bizniki – U.J.) (M.Qo'shmoqov, 1973: 71-72.). She'riyatda voqea tasvir etilayotgan ohang bilan botin tasvir etilayotgan lahza ohangi o'ta sezilarsiz darajada aks etadi. Buni sezmay qolish oqibatida tarjimada ohang tovlanishlari ifodalanmay qoladi. Tarjimashunos A.Muxtor tarjimasidagi mana shu holatni aniq ilg'aydi. Ammo ilmiy etika, tanqid odobini mukammal sohibi sifatida sharqona lutf bilan cheklanadi. "Sezmay ham qolasiz" deyish bilan tarjimon aybini umumlashtiradi. To'g'rirog'i, umumlashtirish usuli bilan aytadiki, bu tarjima muallifi ko'nglini ranjitmaganidek, ta'sir kuchi ham sezilarli bo'ladi. Ayni paytda lirik tarjimaning muhim bir qonuniyati she'r maromini his etish mezonini urg'ulab ketishga erishadi. M.Qo'shmoqov bunday teran tahlil va nazariy xulosalarga yagona tarjimon ijodini tahlil qilish bilan kelmaydi. Balki dastlab A.Blokning J.Jabborov, Shukrullo, E.Vohidov kabi tarjimonlari orasidan A.Muxtorini, ayni paytda, A.Muxtorning ham eng yaxshi tarjimasini ajratib oladi. Shu bois, tarjima haqidagi tahlillar, kashfiyotlar, e'tiroflar, hatto tanqidlar ham mana shunday salmoqli tus oladi.

Tarjimashunos Z.Zumratbekovanning "adekvat ohang" haqidagi fikrlari ham M.Qo'shmoqov xulosalariga monand keladi. M.Lermontov she'riyati tarjimalari asosida fikr yuritgan olimi "adekvat ohang" muammosini shu tarzda o'rta tashlaydi:

"Avvalo, adekvat vazn, to'g'rirog'i, adekvat ohang deb nimani tushunish kerak?

Ohang mazmunni yorqin ko'rsatishga yordam beradi. Mexanik tarzda qayta yaratilgan yamb rus kitobxonida paydo qilgan hissiyotni o'zbek kitobxonida qo'zg'ay olmasligi tabiiy. Bu asar asl nusxasida qanday eshitilsa, tarjimada ham shunday ohangdor bo'lishi kerak, demakdir. Ayni vaqtda ohang mazmuniga mos kelishi va o'ziga xosligi to'g'risida tasavvur qoldirishi lozim. Shunday ohang adekvat hisoblanadi" (Zumratbekova, 1973: 91.).

O'zbek tarjimashunosligining muhim nazariy muammolari, tarjima ishiga xos kriteriylar, uning mexanik ish emas, sof ijodiy ish ekani haqidagi ilmiy xulosalar, nazariy kriteriylar, asosan, turkiy tillardan qilingan tarjima manbalari, badiiy matnlarni o'girish amaliyoti negizida ishlab chiqilgan. Voqelikda genetik qondosh tillardan tarjima qilishning ham qulay, ham noqulay tomonlari borki, o'zbek tarjimashunoslari 70-yillardan e'tiboran bu masalaning amaliy-nazariy jihatlarini tadqiq etib keladilar. Haqiqatan ham, bir

qarashda turk, tatar, turkman, qirg'iz, qozoq, ozarbayjon tillarida yozilgan badiiy asarlarni o'zbekchalashtirish o'ta jo'n ishdek tuyuladi. Chunki dunyodagi barcha turkiy tillarning ildizi bir. Hazrat Alisher Navoiyga tayanib aytadigan bo'lsak, barcha turkiy millatlar yagona o'zak – Abutturk (hazrati Yofas)dan tarqalgan. Abutturkdan boshlangan turkiy til harakati juda ko'p bosqichlarni bosib o'tgan. Boshqa tillarni o'zgartirgani kabi, ularning ta'siri ostida o'zi ham muayyan o'zgarishlarga uchragan. Abutturkka mansub qaysi bir millat Abulhind, Abularab tarkibiga kiruvchi millatlarning birortasi bilan geografik jihatdan yonma-yon yashagan bo'lsa, unda o'sha millat tiliga xos elementlar ko'paygan. Bundan tashqari, geologik, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoit, talab va ehtiyojlar ta'sirida ham turkiy tillar tarkibiga muayyan so'zlar, so'z birikmalari, iboralar kirib kelgan. Folklor va yozma badiiy adabiyot ham ayni jarayonlarda faol assimilyatsion funktsiya bajargan. Natijada o'zak jihatidan bir bo'lgan turkiy tillar o'rtasida muayyan tafovut maydonga kelgan. Bunday tafovutlar o'z-o'zidan tarjima amaliyotiga doir murakkabliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Yirik tarjimashunoslar G'.Salomov, T.Boboyevlarning "Turkiy tillardan tarjima qilish problemasiga doir" maqolasida qayd etilishcha, sobiq sovet ittifoqi hududida 23 ta turkiy tilda so'zlashuvchi 25000000 aholi millat istiqomat qilgan. Hatto shu, yagona hududiy birlik, yagona ijtimoiy turmush tarzi va siyosiy muhitda yashagan millatlar tilida ham qator leksik, grammatik va orfografik tafovutlar bo'lganki, ulardan tarjima qilishga doir nazariy tamoyillarni ishlab chiqish o'z vaqtida eng dolzarb vazifaga aylangan. Tadqiqot mualliflarining yozishlariga ko'ra, XX asr 70-yillarida sobiq ittifoq tarkibida "Besh ittifoqdosh respublika: O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Qozog'istonda, olti avtonom respublika: Boshqirdiston, Qoraqalpog'iston, Tatariston, Chuvashiston, Yoqutiston, tuvada; ikki avtonom oblast: Tog'li Oltoy va Xakasiyada aholining ona tili turkiy til hisoblanadi. Shuningdek, Dog'iston ASSRda qumiqlar bilan no'g'oylar, Stavropol o'lkasida no'g'oylar va truxmenlar, Moldaviya SSRda gagauzlar, Naxchevan ASSRda qaraimlar, Donesk oblastida urumlar, Qrim va boshqa joylarda qrim tatarlari ham turkiy tilda so'zlashadilar" (G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 132.). Bu hali sobiq ittifoq doirasidagi umumiy bir statistika. Jahon miqyosida olinadagan bo'lsa, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar soni to'rt yuz millionga boradi. Bu son Yer sayyorasida yashaydigan ongli mavjudotning salmoqli bir qismini ifoda etadi. Bu ham hamon aniq statistika emas. Hali turkiy urug',

qabila, elat, millat, xalqqa mansub aholining kashf etilmagan, tan olinmagan, e'tirof qilinmagan doira va qatlamlari ko'p. Qipchoq, qorluq, o'g'uzdan iborat uch buyuk shevaning yuzlab lahjalarida so'zlashuvchi odamlar Yer sharining istalgan nuqtasida mavjudki, ularning barchasi til, millat va tarix nuqtayi nazaridan Abutturk avlodlari hisoblanadilar. Tarjima va tarjimashunoslik esa mana shunday tarixiy jarayonlar, dissemlyatsion o'zgarishlar oqibatida o'zaro uzoqlashib ketgan madaniyatlar ildizini topish va ularni yagona ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy tizimga olib kelishdir. Ayniqsa, sobiq sovet mustamlakasidan ozod bo'lgan turkiy xalqlar uchun bu jihat o'ta muhim sanaladi.

Bunday nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirish uchun bir turkiy tildan ikkinchi turkiy tilga qilinadigan tarjimalar, tarjima jarayonidagi eng muhim prinsiplar belgilab olinmas ekan, milliy tarjimashunoslik, uning muvaffaqiyati va taraqqiyoti xususida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Albatta, "Qardosh turkiy tillardan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilish, shubhasiz, ancha qulay. Albatta, turkiy tillarning grammatik qurilishi, leksika va frazeologiyasidagi o'xshashliklar, mushtarak qonun-qoidalar va umumiyliklar ko'p" (G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 133). Ammo bu jihatlar turkiy tillardan tarjima qilish amaliyotini osonlashtirmaydi, aksincha, qiyinlashtiradi. Xuddi shunday, tarjima amaliyoti davomida qator muammolar yuzaga keladiki, bunday muammolarning aksariyati "begona" tillardan o'girilganda uchramasligi ham mumkin. Masalan: a) grafik jihatdan yagona shaklda yozilgan bir so'z ikki turkiy tilda mutloq zid ma'noni berishi mumkin; b) bir xil grafik shaklda yozilgan yagona so'z ikki turkiy tilda o'ziga xos tarzda talaffuz qilinadi. Aynan talaffuzdagi o'zgachalik ma'no o'zgachaligini keltirib chiqaradi; v) ba'zi turkiy tillarda gap semantik jihatdan nisbatan keng yoki qisqa shaklga ega bo'lishi mumkin. Tarjimada shu jihatni nazardan qochirish uslub g'alizligi va mazmun saktaligini keltirib chiqarishi aniq.

Barcha turkiy tillar tarixan bir o'zakdan kelib chiqqani, asosiy so'z turkumlari, leksik, grammatik, morfologik, fonetik qoidalar yagona asosga ega ekani shubhasiz. Ammo madaniy-tarixiy tarixiy jarayonlarda ma'no differensiatsiyasini maydonga keltirganki, buni hisobga olmaslik prinsipial ma'noda xatodir. "Masalan, qardosh so'zini olib ko'raylik. Bu so'z o'zbek tilida umuman qavm-qarindoshlikni bildirsa, qirg'iz tilida u, bundan tashqari va asosan, faqat muayyan yaqinlikni bildiradi: qarindosh – 1. Ota tarafdin, o'z amakisidan kichik bo'lgan ayol qarindosh – jiyan. 2. Akasiga

nisbatan kichik singil (ammo opaga nisbatan emas). Tatar tilida esa qarindosh so'zi yo'q, bu ma'noda qardesh qo'llanadi. Turkiy tillarda ota, ona, aka kabi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so'zlar va bu so'zlarning ma'no tomonidan birikish xususiyatlarida ham mushtaraklik bilan birga, katta tafovutlar bor... O'zbek tilida ota so'zi – dada, doda, ada; ona so'zi – oyi, aya, ena, opa, bibi, buvi, acha deb ishlatiladi...Ana (ona) so'zi turkiy tillardan birida xola o'rnida keladi. Acha so'zi Namangan shevasida ona, ba'zi joylarda esa buvi, katta buvi ma'nolarida ishlatilsa, teleut va oltoylarda aka, amaki, rafiqasining katta amakisi (qayn amaki) ma'nolarini bildiradi. Qirg'iz tilida xuddi shu so'z vayrona, qurt va boshqa bir yomon ma'noni anglatadi" (G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 134-135).

Ag'a (og'a) so'zi sog'ay lahjasida "buva", qirg'izlarda "katta aka", "do'st", "oshna", "amaki" ma'nolarida keladi. Ayrim turkiy tillarda, xususan, xonliklar davri o'zbek tilda ham, bu so'z bichilgan haram og'asi, qul ma'nolarida ishlatilgan. Ozarbayjonlarda esa ag'a so'zi turli o'rinlarda turlicha ma'no bildirishi bilan xarakterli. Masalan, agar bu so'z atoqli otdan keyin – Ja'farquli og'a, Mahmudxon og'a – tarzida ishlatilsa, xon lavozimidagi kishini bildiradi. Atoqli otdan oldin kelsa, og'a-Mahmud, og'a-Hasan tarzida ishlatilsa, boy savdogar, katta mansabdagi shaxsni bildiradi (qarang: G'.Salomov, T.Boboyev, 1973: 136-137).

XX asrning 60-70-yillaridan e'tiboran turkiy tillardan o'zbekchaga o'girish jarayoni jadallashgani, muayyan tizimga tusha boshlagani kuzatiladi. Yunus Emro, Abay Qo'nonboyev, Jambul Jabayev, Qaysin Quliyev, Musa Jalil, S.Muqonov, Muxtor Avezov, Xidir Deryayev, O'ljas Sulaymonov, Chingiz Aytmatov singari turkiylarning buyuk ijodkorlaridan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar "turkiy tillardan tarjima qilish muammolari"ni anchayin yengillashuviga sabab bo'lgan. Bu jarayon 80-90-yillarda shiddat bilan rivojlanish bosqichiga chiqqan bo'lsa, bugungi kunda aniq tizim, ilmiy-amaliy tajribalar asosida davom etmoqda.

### Adabiyotlar

- Азнаурова Э. (1973). Таржима санъати. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
- Айтматов Ч. (1989). Сайланма. Тошкент: Шарқ нашриёти.
- Муаллифлар жамоаси (1973). Таржима санъати. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
- Наҳанов О. (1973). Санжар Сиддиқ ҳақида, Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
- Олимжон Х. (1936). Таржима ҳақида.Тошкент: Аланга журнали.
- Орзибеков Р., Абдурахмонов А. (1973). Таржимашунослик

- муаммолари. Таржима санъати. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
- Саломов Ғ. (1973). Таржимашуносликнинг назарий масалалари. Таржима санъати. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти
- Сиддиқ С. (1936). Таржима сирлари, Тошкент: ЎзССР Давлат нашриёти.
- Сиддиқ С. (1935). Адабий таржима ҳақида. Тошкент: Қизил Ўзбекистон газетаси.
- Сиддиқ С. (1932). Адабий таржима асослари. Тошкент: Китоб ва инқилоб журнари.
- Қаҳҳор А. (1973). Таржима санъати. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
- Қўшмоқов М. (1978). Таржима санъати. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти.
- Köprülü M.F. Edebiyat Araştırmaları. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara-1986.

## National notes on translation studies

Uzok Zhurakulov<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes the development of Uzbek translation studies, its historical stages, and theoretical foundations. It highlights the integration of translation activities with Uzbek literary thought and the contributions of Jadid intellectuals and Soviet-era writers to the field. Particular emphasis is placed on the attitudes toward translation expressed by prominent figures such as Gafur Gulom, Oybek, Abdulla Qahhor, and Komil Yashin, and how their articles and practical experiences have contributed to the growth of national translation studies. The article outlines the five theoretical criteria proposed by O. Nahanov, discusses G. Salomov's interpretation of congenial translation, and examines the problems of adequate tone and stylistic compatibility raised by M. Qoshmoqov and Z. Zumaratbekova. It also explores the specific features of translating from Turkic languages into Uzbek, as well as the phonetic, semantic, and stylistic differences that affect the translation process. The article concludes that literary translations have served to strengthen historical and cultural ties among Turkic peoples. Overall, the study provides a comprehensive overview of the development of Uzbek translation studies, based on practical experience and theoretical frameworks.

---

<sup>1</sup> Uzok H. Zhurakulov – Doctor of Sciences (DSc), Professor. Alisher Nava'i Tashkent State university of Uzbek language and literature.

**E-mail:** juraqulovuzoq@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-4835-0694

**For citation:** Djurakulov, U.H. 2025. "National notes on translation studies". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 8-20.

**Keywords:** *Uzbek translation studies, literary translation, translation theory, congeniality, adequate tone, translation criteria, Turkic languages, translation challenges, translator's competence, Jadid translation practice, stylistic differences, translation aesthetics, practical translation experience.*

### **References**

- Aznaurova E. (1973). Tarzhima sanati. Tashkent: Gafur Gulom Nashriyoti.
- Aitmatov Ch. (1989). Sailanma. Tashkent: Sharq nashriyoti.
- Mualliflar jamoasi (1973). Tarzhima sanati. Tashkent: Gafur Gulom Nashriyoti.
- Nahanov O. (1973). Sanjar Siddiq xakida, Tashkent: Fafur Fulom nashriyoti.
- Olimjon H. (1936). Tarzhima khaqida. Toshkent: Alanga journal.Олимжон Х. (1936). Таржима ҳақида.Тошкент: Аланга журнали.
- Orzibekov R., Abdurakhmonov A. (1973). Tarzhimashunoslik muammolari. Tarzhima sanati. Tashkent: Gafur Gulom Nashriyoti.
- Salomov G. (1973). Tarzhimashunoslikning nazaprii masalalari. Tarzhima sanati. Tashkent: Gafur Gulom Nashriyoti
- Siddiq S. (1936). Tarzhima sirlari, Tashkent: UzSSR Davlat nashriyoti.
- Siddiq S. (1935). Adaby tarzhima khaqida. Tashkent: Kizil Uzbekiston newspaper.
- Siddiq S. (1932). Adabii tarjima asoslari. Tashkent: Kitob va inqilob journals.
- Kakhor A. (1973). Tarzhima sanati. Tashkent: Gafur Gulom Nashriyoti.
- Kushmokov M. (1978). Tarzhima Sanati. Toshkent: Gafur Gulom Nashriyoti.
- Köprülü M.F. Edebiyat Araştırmaları. Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara-1986.

## O'zbek tilida Google tarjimon tarjimasi va uning tahriri

Dilnoza Shonazarova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada bugungi kunda eng ommalashgan tarjima platformalaridan biri bo'lmish Google tarjimon haqida so'z yuritiladi. Maqolada uning boshqa tarjima platformalaridan farqi, ishlash mexanizmi, afzalliklari va kamchiliklari nazariy hamda statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi. Shuningdek, Google tarjimonga matn kiritish tartibi hamda tarjima qilingan matn tahriri bo'yicha asosiy usullar o'zbek-ingliz tillari misolida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Google tarjimon, sun'iy intellekt, tarjima tahriri, o'zbek-ingliz tillari, asl matn, tarjima matni, gap tuzilishi.*

### Kirish

Axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt davrida yashayogan ekanmiz, insoniyat har bir texnologiyadan unumli foydalanishni uddalab kelmoqda. Hatto, sun'iy intellekt rivojlanishi bilan ko'plab kasblar yo'qolib ketish arafasida turibdi. Mana shu kasblar qatorida tarjimonlik ham tilga olinmoqda. Chunki, bugungi kunda tarjimoni u yoki bu darajada amalga oshira oladigan bir qancha dasturlar mavjud. Lekin ularning hech biri tarjimada inson o'rnini to'laligicha egallagani yo'q va ba'zi til birliklarini tarjima qilishda qiyinchilikka uchramoqda. Shulardan biri, Google tarjimon hisoblanadi. Google tarjimon o'zining bir necha jihatlari bilan boshqa tarjima platformalaridan ajralib turadi. "Google tarjimon — bu statistikaga asoslangan tarjima vositasi, ya'ni tizim matnni so'zma-so'z tarjima qilmaydi, balki, so'z birikmalar va frazalarni tarjima qilib, ularni gap shakliga keltiradi." (tarjima muallifniki)[1] Darhaqiqat, Google tarjimon avvalambor, so'z birikmalarini tarjima qiladi, kiritilgan matnlar asosida o'z bazasini so'z birikmalari bilan boyitib boradi, chunki tarjimada ketma-ketlik emas, ma'no muhim sanaladi. Lekin shunda ham tarjima jarayonida gapdagi inversiya, gap bo'laklarining

<sup>1</sup> Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi –Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** dilnozafsi29@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0003-1482-5479

**Iqtibos uchun:** Shonazarova,D.D. 2025. "O'zbek tilida Google tarjimon tarjimasi va uning tahriri". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 21-31.

o'rnida bo'lmasligi, ko'p ma'noli so'z, ibora va shu kabi til birliklarining hisobiga xato va g'aliz tarjimalar qilishi mumkin. Shu jumladan, ingliz tilidan o'zbek tiliga va aksincha o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda ham Google tarjimonning anchagina xatoga yo'l qo'yishi ehtimoli mavjudligicha qolmoqda.

Google tarjimon 2006-yil aprel oyida Google kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2025-yil holatiga ko'ra 249 ta tilni tarjima qila oladi. [2] U tillar qamrovi kengligi bo'yicha eng yetakchi tarjima platformalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda ko'plab sifatli tarjimani amalga oshiradigan platformalar mavjud, lekin ularning ko'pchiligida o'zbek tilidan tarjima xizmati yo'q. Tadqiqotlarimizga ko'ra, bugungi kunda o'zbek tiliga yoki undan boshqa tilga tarjima qiladigan platformalarga, asosan, Google tarjimon, Yandeks tarjimon, Mikrosoft tarjimon, Tahrirchi (tilmoch) kabi dasturlar kiradi. Shuningdek, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan sun'iy intellekt asosida ishlovchi xabarlashuvchi bot (chat bot)lar ham bu turdagi tarjimani amalga oshirmoqdalar. Ko'pchilik foydalanuvchilar tarjimada ham sun'iy intellektni ishlatishga o'tgani sir emas, chunki u xabarlashish rejimida ishlagani uchun foydalanishga juda qulay hisoblanadi. Ammo sun'iy intellektning ommalashuviga qaramay, 116 nafar o'qituvchi, tadqiqotchi, tilshunos va talaba o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotimizga ko'ra, tarjimada platformalardan foydalanish natijalari quyidagicha bo'ldi:

| Nomi                  | Google tarjimon | Yandeks tarjimon | Mikrosoft tarjimon | Tahrirchi (Tilmoch) | Boshqa (ChatGPT va h.k) |
|-----------------------|-----------------|------------------|--------------------|---------------------|-------------------------|
| Foydalanuvchilar soni | 84              | 11               | 1                  | 6                   | 14                      |
| Foydalanish foizi     | 72%             | 10%              | 1%                 | 5%                  | 12%                     |

*1-jadval. Tarjima platformalaridan foydalanish bo'yicha so'rovnoma (116 nafar foydalanuvchi javoblariga ko'ra tayyorlangan).*


So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjimani yuqoridagi platformalarda amalga oshiruvchilarning aksariyat qismi (72%) tarjima uchun Google tarjimondan foydalanishmoqda. Yandeks tarjimondan foydalanuvchilar soni biroz kamroq, Mikrosoft tarjimondan foydalanadiganlar soni esa juda kam, u unchalik ommalashmagan. Bunga platformaning foydalanishga biroz noqulayroq interfeysga egaligi sabab bo'lishi mumkin. Tahrirchida ham foydalanuvchilar soni kam, chunki undagi tillar soni atiga 6 tani tashkil etadi, lekin ushbu platforma ko'pincha o'zbek tiliga gaplarni

yaxshi o'gira olishi bilan tilga olinadi. So'rovimiz natijasida ChatGPT, DeepSeek, Jasper AI, Google Gemini kabi 20 dan ortiq o'zbek tiliga tarjima qila oladigan sun'iy intellektlardan foydalanish darajasi 12 foiz ekanligini ko'rsatdi. Ular hozircha Google tarjimonning o'rnini bosa olganicha yo'q, chunki Google tarjimondagi ba'zi funksiyalar, ya'ni fayllarni, ovozli xabarlarni, rasmlarni tarjima qila olish funksiyalari hozircha sun'iy intellektlarda to'liq mavjud emas yoki qoniqarli darajada ishlamaydi.

Google tarjimon bir qator afzalliklarga ega bo'lib, shu sababli ham foydalanuvchilari soni ko'p. Chunki undan istalgan soha vakili foydalanishi, tarjimon yordamisiz o'z ishini istalgan joy va qulay formatda tarjima qilishi mumkn. Google tarjimonning yaxshi jihatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tmoq joiz:

- Til qamrovi katta;
- Tarjima hajmi va so'zlar sonidan qat'i nazar bepul;
- Tarjimani tez amalga oshiradi;
- Tarjima imkoniyatlari: ovozli xabar, fayllar, rasmlar va saytlarni tarjima qilishi mumkin;
- Foydalanish uchun qulay interfeysga ega;
- Avvalgi tarjimalarni avtomatik saqlab qolish xususiyati mavjud;
- Kerakli tarjimalarni alohida saqlab qo'yish mumkin;
- Tarjima qilingan matn uchun bir necha variantlar orasidan muqobilini tanlash mumkin;
- So'z yoki so'z birikmasi doirasida tarjima qilinganda, bazada mavjud so'zlarning sinonimlari bilan tanishish va ularning ishlatilish darajasi haqida ma'lumot olish mumkin.

Google tarjimonning afzalliklari haqida o'tkazilgan va yuqorida ta'kidlangan auditoriyadagi 94 nafar ishtirokchidan olingan so'rovnoma quyidagicha natija ko'rsatdi:



2-jadval. Google tarjimon afzalliklari to'g'risidagi so'rovnoma natijalari.


So'rovnomaga ko'ra, ishtirokchilarning katta qismi Google tarjimonning afzalligi sifatida uning tez ishlashi hamda til qamrovi kengligini ko'rsatdilar. Shuningdek, uning asosiy afzalliklari sifatida tarjima sifati emas, asosan, texnik jihatlarini tilga oldilar.

Tabiiyki, Google tarjimonning ham bir qator kamchiliklari mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va tarjimani yangi bosqichga olib chiqish hozirgi tarjimon, tilshunos, lingvist hamda dasturchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Afsuski, bugungi kungacha eng rivojlangan texnologiyalar bilan ham buning yo'li topilgani yo'q. Chunki til doimiy o'zgarishda. Uni butunlay qamrab olish va jonli tilni xatoliklarsiz tarjima qilish mushkul ish. Google tarjimonning eng asosiy kamchiliklari sifatida esa quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

• Ibora, maqol, matallar va tilning o'ziga xos so'zlari tarjimasida ko'p kamchiliklarga yo'l qo'yadi;

- Grammatik va sintaksis xatolarga yo'l qo'yadi;
- So'z boyligi cheklangan;
- Sinonimlarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay olmaydi;
- Murakkab gaplar bilan yaxshi ishlay olmaydi;
- Axborot xavfsizligini to'liq ta'minlay olmaydi.

Google tarjimonning kamchiliklari haqida o'tkazilgan so'rovnomada 97 nafar ishtirokchi qatnashdi va uning asosiy kamchiliklari sifatida quyidagilar ko'rsatildi:



*3-jadval. Google tarjimon kamchiliklari to'g'risidagi so'rovnoma natijalari.*

Ko'rinib turganidek, platformaning eng asosiy kamchiligi sifatida uning tildagi xos birliklar tarjimasidagi xatolari va murakkab gaplar bilan ishlay olmasligi ko'rsatilgan. To'g'ri, inson tarjimani amalga oshirganda, u tarjima usullaridan foydalanadi.

Shular qatorida, bir tildagi tushunishga qiyin bo'lgan murakkab gaplarni ikki yoki uchga bo'lib tarjima qilish usullari ham mavjud. Afsuski, Google tarjimon tarjima usullarini tabiiy ravishda matndan kelib chiqib qo'llay olmaydi, u doimo o'zi uchun belgilangan ma'lum strategiyalar asosida tarjima qiladi xolos.

Tayyor bir manbani Google tarjimondan tarjima qilishni xohlagan foydalanuvchining oldida ikki yo'l bor deyish mumkin. Birinchisi, bu kiritilayotgan matnga e'tiborliroq bo'lish, ya'ni manbani Google tarjimon uchun qulay va yaxshi tarjima qila oladigan holatda, aniqrog'i, "o'z tilida" tahrirlab kiritish. Ikkinchisi esa matnni shundayligicha kiritib, keyin uni yaxshilab tahrirlash. Ikkala usulda tarjima qilinganda ham ma'lum bir qiyinchiliklar yuzaga keladi yoki afzallik tomonlari bor. Eng ishonchlisi, matnni kiritishdan oldin ham keyin ham uni yaxshilab tahrirlash hisoblanadi. Quyida mana shu ikki jarayon haqida so'z yuritiladi.

### ***Google tarjimonga tarjima manbasini tahrirlab kiritish.***

Bu usul yordamida platformaga tarjima uchun kiritilayotgan matn, tarjimadan oldin tahrir qilinadi. Ushbu usulda tarjimani amalga oshirish, tarjima tahriri oson bo'lishiga yoki uni tahrirsiz ham yaxshi tarjima bo'lib chiqishiga yordam beradi. Buning uchun tarjima qilinadigan manbadagi quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

**1. Murakkab gaplarni soddalashtirish.** Platforma ba'zi murakkab gaplarni o'qishga qiynaladi, natijada, uni boricha o'z strategiyasi asosida butun boshli katta gap ko'rinishida shakllantirib beradi. Bunday murakkab va uzun gaplar o'zbek tilida ko'p uchraydi, shuning uchun o'zbek tilidan boshqa tilga tarjimada bu vaziyatga duch kelish mumkin. Bunday tarjima gaplari tarjimadan oldin ham keyin ham tahrir qilinmasa, g'alizlik yuzaga keladi. Quyidagi ilmiy-ommabop uslubdagi matndan olingan murakkab gap va uning Google tarjimon amalga oshirgan tarjimasiga e'tibor qarataylik:

| Asl matn                                                                                                                                                                                                                                                                       | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                                                                                                                                                              |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| "Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, bosh vazir Mark Karni boshchiligidagi liberallar 164 ta saylov okrugida yetakchilik qilmoqda yoki g'alaba qozongan, ularning har biri ovoz berish natijalariga ko'ra mamlakat parlamenti quyi palatasi – Jamoatlar palatasidan joy oladi." [3] | According to preliminary data, the Liberals, led by Prime Minister Mark Carney, are leading or have won 164 constituencies, each of which, based on the results of the vote, will receive a seat in the lower house of the country's parliament, the House of Commons. |

Har doim tildan foydalanish uslublarida ikki til orasida farqlar bo'lgan. To'g'ri, ingliz tilida ham murakkab gaplardan ko'p foydalaniladi, lekin ba'zida ularni o'rnida qo'llay olmaslik muammosi ham bor. Shunday vaziyatlarda, gaplarni sodda gaplarga ajratgan holda tarjimaga kiritish, uning tarjima jarayonini samarali va sifatliroq qiladi. Endi yuqoridagi matnni sodda gaplarga ajratgan holda google tarjimonga kiritamiz:

| Asl matn                                                                                                                                                                                                                                                                          | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                                                                                                                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, bosh vazir Mark Karni boshchiligidagi liberallar 164 ta saylov okrugida yetakchilik qilmoqda yoki g'alaba qozongan. Ularning har biri ovoz berish natijalariga ko'ra mamlakat parlamenti quyi palatasi bo'lmish Jamoatlar palatasidan joy oladi.” | According to preliminary data, the Liberals, led by Prime Minister Mark Carney, are leading or have won 164 constituencies. Each of them, based on the results of the vote, will receive a seat in the House of Commons, the lower house of the country's parliament. |

## 2. Matndagi noaniq qismlarni aniqlashtirib kiritish.

Bunga ko'plab holatlarni misol qilib keltirish mumkin. Bularga, masalan, gapning tire qo'yish orqali izoh berib ketilgan qismlari, ajratilgan bo'laklar, shuningdek, gapga kiritilgan qo'shimchalar kiradi. Quyidagi misollarga e'tibor qarataylik:

| Asl matn                                                                                                           | Google tarjimon tarjimasi                                                                                            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Erkak uzoq yillar — qariyb 20 yil Daniyada yashagan, oxirgi 10 yildan beri Turkiyada istiqomat qilib keladi.” [4] | The man has lived in Denmark for many years - almost 20 years - and has been living in Turkey for the last 10 years. |

Quyidagi gap yaxshi tarjima qilingan, lekin tire o'rniga, matnni kiritishdan oldin, vergul qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki ingliz tilida bu kabi ajratilgan bo'laklar vergul bilan ajratiladi. Shunda, tarjima quyidagi ko'rinishda bo'lgan bo'lar edi:

| Asl matn                                                                                                     | Google tarjimon tarjimasi                                                                                          |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Erkak uzoq yillar, qariyb 20 yil, Daniyada yashagan, oxirgi 10 yildan beri Turkiyada istiqomat qilib keladi. | The man has lived in Denmark for many years, almost 20 years, and has been living in Turkey for the last 10 years. |

Yoki, hatto shu gapni ham ikkiga bo'lib tarjima qilish va ajratilgan bo'lakni birinchi gap tarkibiy qismi sifatida qo'shib yuborish imkoni mavjud edi. Keyingi misolni, ingliz tilidan tarjima misolida ko'ramiz:

| Asl matn                                                                                                                 | Google tarjimon tarjimasi                                                                                               |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| ""My solemn promise is to stand up for Canadian workers, to stand up for Canadian businesses," Carney said in March."[5] | "Mening tantanali va'dam - kanadalik ishchilarni himoya qilish, Kanada biznesini himoya qilish", dedi Karni mart oyida. |

Matndagi ba'zi qismlarni quyidagicha o'zgartirib kiritish orqali, yanada sifatliroq tarjimaga erishish mumkin edi:

| Asl matn                                                                                                            | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Carney said in March- "My solemn promise is to stand up for Canadian workers, to stand up for Canadian businesses". | Karni mart oyida shunday degan edi: "Mening tantanali va'dam - kanadalik ishchilarni himoya qilish, Kanada biznesini himoya qilish". |

Nazariy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, tarjima uchun Google tarjimondan foydalanayotgan inson, odatda, tarjima tillaridan birini umuman yoki yaxshi bilmasligi mumkin. Bunday holatlarda, yuqorida ta'kidlangan usullarni inson o'zi yaxshi biladigan tilni tarjima uchun kiritib, boshqa tilga o'girish maqsadida foydalanganda, anchagina foydali bo'ladi.

**Google tarjimasidan so'ng tahrirlash.** Google tarjimasidan so'ng, albatta tahrirni amalga oshirish lozim. Aks holda, gapda ba'zi punktuatsion, uslubiy va hattoki imloviy xatolar ham kuzatilishi mumkin. Tarjima qilingan matnni tahrirlashda quyidagilarga ahamiyat berish lozim.

**1. Ajratilgan bo'laklar tarjimasi tahriri.** Ingliz tilida ajratilgan bo'laklarni bildirish uchun odatda verguldan, o'zbek tilida esa tire va verguldan foydalaniladi. Shuningdek, o'zbek tilida ko'pincha, ularni ajratib ko'rsatishdan ko'ra aniqllovchi yoki hol sifatida berib ketish afzal ko'riladi. Uslubiy xato qilmaslik uchun shu jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Masalan:

| Asl matn                                                              | Google tarjimon tarjimasi                            |
|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| "Prime, clearly, the boy does not want to discuss his girlfriend."[6] | Prime, aniq, bola o'z qiz do'sti muhokama istamaydi. |

Yuqorida Google tarjimon ajratilgan bo'lakni, o'z joyida, tarjima uchun kiritilganidek bermoqda. Vaholanki, uni tabiiy chiqishi uchun hol sifatida tahrir qilish maqsadga muvofiqroq bo'lar edi. To'g'ri tarjima:

| Asl matn                                                              | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                                                                        |
|-----------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Prime, clearly, the boy does not want to discuss his girlfriend.”[6] | Praym, yigit kishi yoqtirgan qizi haqida gaplashishni aniq xohlamaydi. (1-variant)<br><br>Praym, yigit kishi yoqtirgan qizi haqida gaplashishni xohlamaydi, bu aniq. (2-variant) |

**2. Olmoshlar tarjimasi tahriri.** Olmoshlar tarjimasidagi o'zbek-ingliz tillari juftligidagi eng ko'p uchraydigan muammolardan biri bu egalik olmoshlari hisoblanadi. Bu muammo ko'pincha ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda kuzatiladi. Ingliz tilida nutqda egalik olmoshlari tushirib qoldirilmaydi va to'liq qo'llaniladi. O'zbek tilida esa, odatda, biz ularni tushirib qoldiramiz va egalikni bildirish uchun egalik qo'shimchalarining o'zinigina qoldiramiz. Natijada, tarjima qilingan matnda ortiqcha so'zlar yuzaga keladi. Bu nafaqat olmoshlar bilan, balki boshqa so'z turkumlari bilan ham kuzatilishi mumkin. Shuning uchun tarjima tahririda e'tiborliroq bo'lish lozim. Masalan:

| Asl matn                                                                                                                            | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “My family is very important to me. We do lots of things together. My brothers and I like to go on long walks in the mountains.”[7] | Mening oilam men uchun juda muhim. Biz birga ko'p narsalarni qilamiz. Ukalarim bilan tog'larda uzoq sayr qilishni yaxshi ko'ramiz. |

Bu yerda qiziq holatning guvohi bo'lish mumkin. Platforma “mening oilam” (my family) so'zida mening so'zini ortiqcha ishlatgan, “ukalarim” (my brothers) so'zi tarjimasida esa ortiqcha so'zni tashlab ketib, tarjimani yaxshi amalga oshirgan.

**3. Tildagi iboralar, so'z birikmalari, maqollar, matallar, frazalar, xos so'zlar va shu kabi tarjimasi qiyin birliklar tahriri.** Bu kabi xatoliklar ko'pincha badiiy matnlar va uslubiy bo'yoqdorlikka ega kontentni tarjima qilganda kuzatiladi. Rasmiy va ilmiy-ommabop matnlar tarjimasida, Google tarjimonga ko'proq suyanish mumkin. Quyida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi:

| Asl matn                                                                                                                                                                                                                     | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                                                                                                                 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Voters will decide whether to grant Prime Minister <u>Mark Carney</u> a full four-year mandate or give the <u>Conservative Party</u> a turn <u>at the wheel</u> after more than nine years of Liberal Party government.”[8] | Saylovchilar Bosh vazir Mark Karniga to'liq to'rt yillik mandat berish yoki Liberal partiya hukumatining to'qqiz yildan ko'proq vaqtdan keyin Konservativ partiyaga <u>rudda</u> navbat berish haqida qaror qabul qiladi. |

Ushbu ilmiy-ommabop usuldagi matnda birgina xato ko'zga tashlanadi. Chunki bunday uslublarda bo'yoqdor so'zlar unchalik ham ko'p ishlatilmaydi. Rasmiy uslubda ham shunday holat ko'zga tashlanadi. Bu kabi matnlarni tahrirlash jiddiy qiyinchiliklarni tug'dirmaydi. Ammo uslubiy bo'yoqdorlikka ega matnlar tarjimasi tahriri anchagina kuch va vaqtni talab etadi:

| Asl matn                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Bahor devorining oftobro'ya etaklaridan boshlanmaydi. Bahor ariqlarning kungay sohilaridan boshlanmaydi. Bahor mana shu yerdan boshlanadi. Qabrlar ustida qo'ng'iroq chalgan chuchmomalar, lovillab yongan qizg'aldoqlar onalarning farzandini yupatish uchun taqdim etgan chechaklari bo'lsa ajab emas...”[9] | Spring does not begin at the sunny foot of the wall. Spring does not begin at the sunny banks of the ditches. Spring begins here. It is not surprising that the bells ringing on the graves, the tulips burning brightly, are the smallpox that mothers offer to comfort their children... |

Yuqoridagi misolda bir nechta joylarda, ayniqda quyidagi so'z birliklari tarjimasida xatolar kuzatiladi: “oftobro'ya etaklari”, “bahor devori”, “kungay sohillar”, “qo'ng'iroq chalgan chuchmomalar”, “lovillab yongan qizg'aldoqlar” kabi bir nechta so'z birikmalarining ma'nosi platforma bazasida mavjud emas, chunki bu kabi tasvirlar muallif tasavvuri hosilasi hisoblanib, har bir muallifda har xil bo'ladi. Tilning mana shu qismiga kelganda, Google tarjimonning imkoniyatlari cheklanganligi sezilib qoladi. Mana shu kabi matnlarda tarjima tahririga e'tiborliroq bo'lish talab etiladi. Ularning tahriri anchagina vaqtni oladi.

#### 4. Ismlar, joy nomlari va atoqli otlar tarjimasi tahriri.

Google tarjimon ba'zi o'zi tushunmagan yoki atoqli ot deb hisoblagan birliklarni tarjima qilmay ketadi, ayniqsa, bazasida mavjud bo'lmagan so'zlarni shundayligicha shaklini o'zgartirmay tashlab ketadi. Bu esa tarjimada jiddiy xatolardan biri hisoblanadi. Quyidagi matnda platformaning shu kabi xatolardan bir nechtasiga yo'l qo'rganini kuzatish mumkin:

| Asl matn                                                                                                                                                                 | Google tarjimon tarjimasi                                                                                                                                                                                    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| “Terran Nightshade discovered the Malto-bots and Organics cannot contract it but can be carriers. And they determined Bumblebee was the first Bot to show symptoms.” [6] | Terran Nightshade, Malto-botlar va Organics bilan shartnoma tuza olmaydi, lekin tashuvchi bo'lishi mumkinligini aniqladi. Va ular Bumblebee simptomlarini ko'rsatadigan birinchi Bot ekanligini aniqladilar. |

Yuqoridagi matnda Terran Nightshade, Malto-bots, Organics, Bumblebee kabi soʻzlar multfilmdagi obrazlar hisoblanadi. Platformaning bazasida mavjud boʻlmagani uchun ular oʻz koʻrinishida, oʻzgartirishsiz qoldirilgan. Aslida esa ular Terran Naytsheyd, Maltobotlar, Organiklar va Bamblbi shaklida transliteratsiya qilinishi lozim edi.

**Xulosa.** Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash lozimki, Google tarjimon bugungi kunda eng ommabop tarjima platformalaridan biri hisoblanadi. Qulay interfeysga egaligi, tillar qamrovi kengligi, bepulligi va boshqa koʻplab imkoniyatlari sababli undan barcha soha vakillari bimalol foydalanishlari mumkin. Shuningdek, uning bir necha kamchiliklari ham mavjud boʻlib, ularga asosan tilning murakkab birliklarini tarjima qila olmasligini aytishimiz mumkin. Maqoladan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir inson, yuqorida taʼkidlab oʻtilgan tarjimadan oldingi matn tahriri va tarjimadan keyingi matn tahririni amalga oshirsa, Google tarjimon tomonidan qilingan tarjima yanada sifatli koʻrinishga kelgan boʻlar edi.

### Adabiyotlar

- Groves, M., & Mundt, K. 2014. Friend or foe? Google Translate in language for academic purposes. *English for Specific Purposes*, 37, 112–121. <https://doi.org/10.1016/j.esp.2014.09.001>
- [https://en.wikipedia.org/wiki/Google\\_Translate](https://en.wikipedia.org/wiki/Google_Translate)
- <https://www.kun.uz/news/2025/04/29/kanadadagi-parlament-saylovlarida-liberallar-galaba-qozondi>
- <https://www.kun.uz/news/2025/04/27/turkiyalik-erkak-operatsiyadan-keyin-ona-tilini-unutib-boshqa-tilda-gapirishni-boshladi>
- <https://edition.cnn.com/2025/04/28/americas/canada-election-results-carney-poilievre-intl-hnk/index.html>
- “Transformers: EarthSpark” multfilmi
- <https://lingua.com/english/reading/wonderful-family/>
- [https://edition.cnn.com/2025/04/28/americas/canada-election-carney-poilievre-vote-latam-intl/index.html?iid=cnn\\_buildContentRecirc\\_end\\_recirc](https://edition.cnn.com/2025/04/28/americas/canada-election-carney-poilievre-vote-latam-intl/index.html?iid=cnn_buildContentRecirc_end_recirc)
- <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/otkir-hoshimov-dunyoning-ishlari-asardan-osti-chizilgan-parchalar.html>

# Google translation and its edition in Uzbek language

Dilnoza Shonazarova<sup>1</sup>

## Abstract

This article discusses Google Translate, one of the most popular translation tools available today. It analyzes differences of Google Translate from other translation platforms, as well as its functioning mechanism, advantages, and disadvantages, using theoretical and statistical data. The paper also discusses the procedure of modifying material in Google Translate and various methods for editing translated material, using the Uzbek-English languages as an example.

**Key words:** *Google Translate, artificial intelligence, translation edition, Uzbek-English languages, original text, translated text, sentence structure.*

## References

- Groves, M., & Mundt, K. 2014. Friend or foe? Google Translate in language for academic purposes. *English for Specific Purposes*, 37, 112–121. <https://doi.org/10.1016/j.esp.2014.09.001>
- [https://en.wikipedia.org/wiki/Google\\_Translate](https://en.wikipedia.org/wiki/Google_Translate)
- <https://www.kun.uz/news/2025/04/29/kanadadagi-parlament-saylovlarida-liberallar-galaba-qozondi>
- <https://www.kun.uz/news/2025/04/27/turkiyalik-erkak-operatsiyadan-keyin-ona-tilini-unutib-boshqa-tilda-gapirishni-boshladi>
- <https://edition.cnn.com/2025/04/28/americas/canada-election-results-carney-poilievre-intl-hnk/index.html>
- “Transformers: EarthSpark” multfilmi
- <https://lingua.com/english/reading/wonderful-family/>
- [https://edition.cnn.com/2025/04/28/americas/canada-election-carney-poilievre-vote-latam-intl/index.html?iid=cnn\\_buildContentRecirc\\_end\\_recirc](https://edition.cnn.com/2025/04/28/americas/canada-election-carney-poilievre-vote-latam-intl/index.html?iid=cnn_buildContentRecirc_end_recirc)
- <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/otkir-hoshimov-dunyoning-ishlari-asardan-osti-chizilgan-parchalar.html>

---

<sup>1</sup> *Shonazarova D.Dilnoza* – Scientific researcher, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**ORCID ID:** 0000-0003-1482-5479

**E-mail:** dilnozafsi29@gmail.com

**For citation:** Shonazarova, D.D.2025 “Google translation and its edition in Uzbek language”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3 (1): 21-31.

## “Bobur-Yo‘lbars” romani va uning o‘zbekcha tarjimasida ayrim badiiy san’atlarning pragmatik xususiyatlari

Shexrozbek Ibragimov<sup>1</sup>

### Abstrakt

So‘nggi yillarda pragmalolingvistik tadqiqotlarni filologik sohalarining barchasida tadqiq qilish ilmiy an’anaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, badiiy san’atlar vositasida anglashilgan pragmatik mazmun va ma’noni badiiy matn asliyatida aniqlash hamda ularni tarjima variantlardagi ifodasi bilan qilingan ishlar hali hanuz to‘la ochib berilmagan. Ushbu ilmiy maqola Harold Lambning “Bobur – Yo‘lbars” romani va uning o‘zbekcha tarjimasi asosida bajarilgan bo‘lib, unda qilingan asosiy maqsad romanda berilgan metafora, metonimiya va mubolag’a bilan bog‘liq jumlar ifodalagan pragmatik mazmun o‘zbekcha tarjimada qanday berilganini aniqlashdan iborat. Tahlillarga ko‘ra, o‘zbek tarjimoni metafora, metonimiya va mubolag’a vositasida ifodalangan pragmatik mazmunni har doim yetkazib bera olmagan.

**Kalit so‘zlar:** *badiiy san’at, metafora, metonimiya, mubolag’a, pragmatik mazmun, tag ma’no, roman, tarjima.*

### Kirish

Muallif badiiy asarni yaratishda lisonning leksik-semantik, morfologik, sintaktik va boshqa bir necha xususiyatlarini hisobga olishi aniq. So‘zni noto‘g‘ri qo‘llagan yozuvchi va shoirlar nafaqat tadqiqotchi olimlarning, balki oddiy o‘quvchining ham tanqidiga uchraydi. Bunday hodisa tarjima asarlarda ham kuzatiladi. Zero, tarjima jarayonida so‘zning tanlovida qilingan xato o‘quvchi uchun tushunarsiz va ba‘zan katta fojealarga sabab bo‘ladi

Pragmalolingvistika yuzasidan qilinayotgan tadqiqot ishlar so‘nggi yillarda ko‘paygan. Xususan, g‘arb tilshunoslari S.C.Levinson, P.R.Kroeger, B.J.Birner, H.J.Shmid, J.Serl, V.Bublits, N.R.Norrik, ruslardan A.Y.Maslova, B.Y.Norman, V.V.Volkov, I.P.Susov,

---

<sup>1</sup> Ibragimov Shexrozbek To‘lqinjon o‘g‘li – Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

**E-pochta:** ibragimovshexrozbek@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0001-1008-4186

**Iqtibos uchun:** Ibragimov, Sh.T. 2025. “Bobur-Yo‘lbars” romani va uning o‘zbekcha tarjimasida ayrim badiiy san’atlarning pragmatik xususiyatlari“. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 32-45.

O.K.Zurabovna va o'zbek tilshunoslari Sh.Safarov, N.Qozoqova, M.Hakimov, Z.B.Burxonov, A.B.Pardayev kabi olimlarning tadqiqotlarida pragmatikani turli tizimlarda atroflicha o'rganilgan.

Gollandiyalik psixolingvist S.Levinson o'zining "Pragmatics" (1983) nomli kitobini pragmatika terminining kelib chiqish tarixini keltirish bilan boshlaydi. Unga ko'ra, zamonaviy pragmatika termini faylasuf Ch.Morris belgini uch xil: sintaktika, semantika va pragmatika kabi umumiy shakllarga bo'lganida paydo bo'lgan [Levinson 1983, 1]. Boshqa olimlarning pragmatikani yaratilish tarixi xususida fikrlarida mushtaraklik kuzatiladi. S.Levinson ingliz tilida *"Oh! Come here."* misolini keltirib uni bir necha ma'nolarda (such as *"Good morning"*) tushunish mumkinligi alohida ta'kidlaydi. Bu jumla orqali asosan salomlashish pragmatikasi borligi va bu aniq chegara emasligini ham keltiradi [Levinson 1983, 2]. Bizningcha Ch.Morris pragmatik munosabatlarni avval bir tomonlama tushungan, chunki bu misolda belgining faqatgina pragmatik xususiyati keltirish bilan chegaralangan. Olim jumlani sintaktika va semantikaga bog'lab o'rganish zarurligini keyinchalik anglab yetgan.

Til va ma'no to'g'risida ko'plab tadqiqotlarni olib borgan amerikalik tilshunos B.J.Birner pragmatikani boshqa olimlar kabi belgining uch xil shakllaridan biri sifatida ko'rgan. U so'zlovchi tomonidan bildirilgan ma'no va ana shu gapni tushunish mumkin bo'lgan ma'nolari bilan o'rganib chiqadi. Shu tomondan pragmatik munosabatni oson tushuntirishga harakat qiladi.

So'zlovchi tomonidan aytilgan gap:

*"I'm cold."*

Tinglovchi tushunishi mumkin bo'lgan ma'nolar:

*"Close the window."*

*"Bring me blanket."*

*"Turn off the air conditioner."*

*"Snuggle up closer."*

*"The heater is broken down."*

*"Let's go home."* [Birner 2013, 24]

Demak, har qanday jumlaning tinglovchi tomonidan tushunilishi nutq so'zlanayotgan vaziyat, holat va kontekstga bog'liq ekan. Masalan, agar derazalar ochiq bo'lganda so'zlovchi *"I'm cold"* jumlasini keltirsa, aniq holatda so'zlovchi derazalarni yopish kerakligini pragmatik tushuntirishga uringan. Agar so'zlovchining nutqi tashqarida sodir bo'lganda esa, bu kontekstda, ya'ni derazalarni yopish ma'nosida tushunish tinglovchini ruhiy kasallikda ayblashga xizmat qilgan bo'lardi. B.J.Birner tomonidan keltirilgan *"I'm cold"*

jumlasi bilan anglashilishi mumkin bo'lgan pragmatik ma'nolarni yana davom ettirish mumkin. Xususan, *"Turn on the central heating system."*, *"Give me warm clothes."*, *"Hug me."*, *"I don't want to talk more."* (on a date), *"I have such a shameful condition"* (jumlar dissertant tomonidan tuzilgan) kabilar konteks vaziyatidan kelib chiqib anglashilishi kerak bo'lgan jumlar qatoriga kiradi. Bunday pragmatik ma'nolar turli xil kontekstdagi holatlarga misollar bilan davom ettirish mumkin.

Rus tilshunoslarining pragmatika xususida o'rganishlari g'arblik olimlardan kam emas. B.Y.Norman "Lingvistik pragmatika (rus va boshqa slovyan tillar misolida)" nomli alohida monografiya chop ettirgan. Unda "Lingvistik ensiklopediya lug'ati"dan aynan olingan pragmatika haqida shunday ta'rif keltiriladi: "pragmatika – semiotika va tilshunoslikning nutqdagi lisoniy belgilarning ishlashini o'rganadigan tadqiqot soha" [Норман 2009, 8]. Albatta, bu yerda so'zlovchi tomonidan aytilgan belgilar vositasida tinglovchi bilan yashirin muloqot nazarda tutilgan, chunki pragmatikada so'zlovchi va tinglovchining yashirin muloqot jarayoni kuzatiladi.

Pragmatika haqida bildirilgan fikrlarni ko'plab keltirish mumkin, ammo tadqiqot ishining obykti sifatida belgilangan maqsad H.Lambning "Babur the tiger" romanida mavjud metonimiya, metafora va mubolag'a san'ati uchragan jumalarda qanday pragmatik ma'nolar borligini tahlilga tortish va ularni tarjimadagi ifodalanishi o'rganishdan iborat ekanligini unutmash kerak. Ayrim metonimiya ishtirokidagi jumalarni pragmatik tahlil qilsak.

*Now the Uzbek, returning like a wolf to its lair, gathered **his forces** in Samarkand. [Harold Lamb 1961, 140]*

*Hozir, bo'ridek uyiga qaytayotgan o'zbek (Shayboniyxon) **o'z kuchlarini** Samarqandga to'playotgan edi. (Tarjima muallifnisi)*

Jumlada metonimiya "his forces" birikmasi bilan ifodalangan. Asliyat kontekstida metonimiya "askarlar"ni ifodalab kelgani aniq, chunki matn mikrokontekstida Shaybobiynonning temuriy shahzodalar tomonidan egalik qilinayotgan joylarga hujum sahnasi keltirilgan, Uni avval Xorazmni xoinlar sababli egallagani, keyinchalik barcha askarlarini Samarqandga yig'ib boshqa joylarga hujumni davom ettirish harakati muallif tomonidan berilgan.

Ingliz tilida "force" leksemasi ortida bir necha pragmatik ma'nolar mavjud. Quyidagi berilgan jadvalda "the force" so'zi vositasida anglashilishi mumkin bo'lgan bir nechta pragmatik ma'nolar keltirilgan.

|              |                              |
|--------------|------------------------------|
| <b>Force</b> | 1) the force of my knowledge |
|              | 2) the security force        |
|              | 3) law force                 |
|              | 4) labor force               |
|              | 5) political tour de force   |
|              | 6) military force            |

Jadvalda ifodalangan ma’nolar muloqot jarayoni vaziyatidan kelib chiqib belgilanadi. Bu tomonlama pragmatik munosabat so‘zlovchi va tinglovchi uchun oydinlashishi osonlashadi.

Pragmatikada nutqiy akt tushunchasi mavjud bo‘lib, u so‘zlovchining maqsadi tinglovchiga qanday usulda bayon qilinganini (“lisoniy murojaatni” Sh.Safarov) aniqlashga xizmat qiladi. Demak, H.Lambning *“Now the Uzbek, returning like a wolf to its lair, gathered his forces in Samarkand.”* jumlasidagi metonimiyani qo‘llashdan aniq maqsadi o‘quvchiga Shayboniyxon tomonidan to‘planayotgan askar nazarda tutilganligi xabar, bayon uslubida keltirish bo‘lgani aniq. Sh.Safarov barcha pragmalingvistlar nutqiy akt uch bosqichli faoliyat (lokutiv, illokutiv va perllokutiv akt) sifatida qarash tarafdorlari ekanligini alohida eslatib o‘tadi [Сафаров 2008, 81-82]. H.Lambdan olingan jumlaning ham nutqiy aktning ana shu uch bosqichi yuzasidan tahlilga tortish o‘rinli ko‘rinadi.

Muallif tomonidan yaratilgan *“Now the Uzbek, returning like a wolf to its lair, gathered his forces in Samarkand.”* jumlasini lokutiv akt hisoblanadi. Bu bosqich o‘quvchi tomonidan o‘qilguncha mavjud bo‘ladi. Agar o‘quvchi matnni mutolaa qilib muallif erishishni xohlagan maqsad voqealanganda illokutiv akt boshqichi boshlanadi, chunki bu jarayonda muallif va o‘quvchi o‘rtasida munosabat boshlanadi. Bu munosabat tinglovchi ongiga ta’siri perllokutiv akt bosqichida ko‘rib chiqiladi. Asiyatdagi misoldan bo‘ridek qaytmas Shayboniyxon Samarqandga o‘z qo‘l ostidagi askarlarni yig‘ishdan asosiy maqsadni ifodalashning boshlang‘ich intentsiyasini perllokutiv akt bosqichi deyish mumkin. Ya’ni, o‘quvchi metonimik munosabatni ifodalagan “the force” leksemasi bilan ularni nega yig‘ayotganini mantiqiy asos sifatida tushunadi.

*Endi ovdan uyasiga qaytayotgan og‘zi qon bo‘ridek,  
Shayboniyxon lashkarini Samarqandga to‘playotgandi.  
[Sotimov G‘ofurjon. 2015. 124].*

Tarjimada metonimiya ifodalagan asos, ya’ni “lashkar” so‘zi bilan berilgan. Bu tarjimada metonimiyani tushib qolishiga xizmat

qilgan. Nega ingliz tilidagi “the force” jumlasini “kuch” soʻzi bilan emas, balki “lashkar” bilan tarjima qilinganiga aniq dalil topish qiyin. Zero, tarjima tili oʻquvchisi uchun “kuch” soʻzi “lashkarlar, armiya va maʼlum bir olomon” degan maʼnolardagi ifodasi mavjud. Avvalgi boblarda taʼkidlanganidek, tarjimon metonimiya va metafora tarjimasida ular bilan ifodalangan tag maʼno berish usuli ustunlik qiladi. Bu xulosa yuqorida qayd qilingan jumladagi metonimiya tarjimasini uchun ham taalluqli.

Asliytdagi jumlaning pragmatik maʼnosida oz boʻlsa-da oʻzgarish mavjud. Avvalo, ingliz tilidagi variantda “uyga qaytayotgan boʻridek” soʻz birikmasi, oʻzbekchada “ovdan uyiga qaytayotgan ogʻzi qon boʻridek” tarzida ifodalanishi tarjimadagi jumlada oʻxshatish tasviri ancha boʻrttirib berilganini koʻrsatadi. Bu bilan tarjimon Xorazmni jangsiz egallagan Shayboniyxonni “ovdan qaytayotgan ogʻzi qon boʻri”ga qiyoslagan. Qolaversa, metonimiya tarjimasida ifoda “quruq” boʻlgan. Taniqli tarjimashunos olim E.Ochilov “badiiy tarjimadagi aniqlik matnni poetik jozibadan mahrum qiladi” [Очилов 2014, 247] deya fikr bildirganda haq edi. Zero, yuqoridagi tarjimada tarjimon oʻquvchi uchun matn aniq boʻlishiga intilganligi bois, badiiy tasvir vositalarisiz va pragmatik maʼnodagi juzʼiy oʻzgarishlar bilan bergan.

Tarjimondagi kamchiliklarni koʻrsatish bilan uning mahorati, bilimi va tajribasini yoʻq deya tanqid qilish fikridan yiroqmiz. Gʻ.Sotimov metonimiya tarjimada berilgan jumlar ham anchagina uchraydi. Ammo ularni tarjimasida asliytdagi pragmatik munosabat juda toʻgʻri emasdek. Quyida ana shunday misollarni tahlilga tortamiz.

*The wild Hazaras, a remnant of the conquering armies of Mongols, rode in to accompany him and despoil **the lowlands** ahead of him.*

*[Harold Lamb 1961, 140].*

*Moʻgʻul bosqinchi qoʻshinlarining qoldigʻi boʻlgan yovvoyi afgʻon hazoralar unga hamroh boʻlib, yoʻlida duch kelgan **quyi hududlarni** talon-taroj qilish uchun otlandilar (Tarjima muallifniki)*

H.Lamb “Bobur-Yoʻlbars” romani joy nomlarini keltiradi. Muallif bunday holatda aynan joy nomini emas, balki u yerda yashayotgan yoki mehnat qilayotgan insonlar oʻrnida ishlatgan. Yuqoridagi jumlada shu kabi vaziyat kuzatilmoqda. Misolda “the lowlands” soʻzi oʻzida metonimiyani mujassam qilgan.

K.Panther va L.Thornburg metonimiyani pragmatika doirasida chuqur oʻrgangan. Ular pragmatikada metonimik munosabatni uchta turga boʻlib oʻrganadi:

1) Referent metonimiya

2) Predikativ metonimiya

3) Illokutiv metonimiya [Panther, Thornburg 2017, 280-283]

K.Panther va L.Thornburgga ko‘ra, “Bobur-Yo‘lbars” dan olingan parcha referent metonimiya. Olimlar o‘z maqolalarida “referent metonimiya” ga shunday ta’rif keltiradi: “referent metonimiya nominal birikmalarda mujassamlashadi” [Panther, Thornburg 2017, 280]. Jumalada berilgan “the lowlands” birikmasi nominal birlik, ya’ni ot bilan ifodalangan to‘ldiruvchi. Bu yerda “lowlands” so‘zi matn kontekstida shunchaki quruq joy nomini anglatishi yoki o‘quvchini shunday anglashi mushkul hodisa. Ingliz o‘quvchisi uchun bu so‘z vositasida tushuniladigan “o‘sha yerda yashayotgan xalq” tushunilishi aniq.

*Mo‘g‘ul ulusidan qolgan navkarlar va mahalliy afg‘on hazoralari oldinda yurib duch kelgan **qishloqlarni** talab ketishardi [Sotimov 2015. 108]*

Bir qarashda, G‘.Sotimov metonimiyani tarjimada aniq ifodalay olgan desa bo‘ladi. Ya’ni, mutarjim metonimiya tarjimasida ekvivalent birlikdan foydalangan. Ingliz tilining izohli lug‘atlarida “lowland” so‘zi “dengiz sathi bilan bir xil darajada yoki pastda turadigan tekis maydon” [Macmillan 2006, 853] tarzida berilgan. Demak, bu so‘zni pragmatik ma’no xususiyati yuzasidan tahlil qilinganda, o‘zbek tilidagi tarjimada berilgan qishloq “lowland” so‘zi anglatadigan ma’noni berishi mushkul. Agar mutarjim “pasttekislik” yoki “tekislik” so‘zlarini qo‘llaganda, mantiqsizlik darajasi yanada oshardi, chunki bunday nom ostidagi hududlarda inson yashashi uchun mo‘ljallanmagan. Bizningcha tarjimada “quyi hudud” tarzida berilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zero, bu so‘z birikmasi asliyatda aniqlangan pragmatik ma’no bilan birgalikda metonimik munosabatni ham o‘zida saqlaydi.

L.S.Barxudorov tarjimada so‘z tanlashda “konkretlashtirish” usuli borligi haqida ayrim ma’lumotlarni keltiradi. Olimning fikriga ko‘ra, “so‘z tanlashda konkretlashtirish texnikasi keng ma’noli so‘zlarni ma’noviy yetkazish uchun ham qo‘llanadi” [Бархударов 1975, 211]. Demak, G‘.Sotimov “lowlands” metonimiyasi tarjimasida xuddi shu usuldan foydalangan, ammo bu yondoshuv pragmatik jihatdan o‘zini oqlamagan.

Taniqli tarjimashunos olim, akademik Sh.Sirojiddinov o‘zining “Badiiy tarjima asoslari” nomli hammualliflik monografiyasida badiiy tarjimaning pragmatik jihatlariga alohida to‘xtaladi. Unga ko‘ra, “o‘quvchining matnga pragmatik munosabati uning shaxs

sifatidagi ko'rsatkichlari, ma'naviy bilimlari, hayotiy tajribasi, ruhiy holati, badiiy adabiyotni tushunish va his etish darajasiga bog'liqdir" [Сирожиддинов, Одилова 2011, 29] H.Lamb aslyatda bergan "*The wild Hazaras, a remnant of the conquering armies of Mongols, rode in to accompany him and despoil **the lowlands** ahead of him.*" jumlasini hamma o'quvchi pragmatik jihatlarini tushunishga qiynalishi aniq. Sh.Sirojiddinov aytganidek, o'quvchi insonning aqliy jihatdan yuksakligini ko'rsatuvchi bir nechta faktorlarning yordami zarur.

Olima N.Qozoqova "badiiy matnning pragmatik tahlilida muallif, qahramon va kitobxon shaxs kategoriyasi ostida birlashadi" [Қозоқова 2022, 29] deya ta'kidlaydi. Bu asosli va to'g'ri fikr. Ze'ro badiiy asar yaratuvchi muallif o'z g'oyalarini asar qahramoni orqali ifodalaydi. Bunday o'zaro uyg'unlik pragmatik tahlilning asosiy qismlaridan biri. Agar pragmatik tahlil shu yo'sinda amalga oshirilganda, asarni o'quvchi-kitobxon uchun yaratildi deyish mutlaqo asossiz bo'lardi. Shuning uchun, Muallif va asar qahramoni tandemiga kitobxonning roli ham kiritiladi.

*When he accepted a gift – and they were rare in Kabul – he tried to give back something in kind. Hardly **a ravine escaped his inspection**. He held divans on any pretext, including the appearance of wild tribesmen with grass in their teeth as a sign of submission. [Harold Lamb 1961, 131]*

*U hadyani qabul qilganida – ular Qobulda kamyob bo'lar edi –, o'rniga biror narsa berishga harakat qilardi. Hech qanday dara uning nigohidan qochib qutilmagan. U har qanday, jumladan taslim bo'lganlik belgisi sifatida tishlarida ko'k o't bilan kelgan yovvoyitabiat qabila boshliqlari kelgan holatda ham devon yig'ilishlarini o'tkazar edi. (Tarjima muallifniki)*

Parchada Bobur shaxsiga qisqacha ta'rif uchraydi. Birinchi jumla uning mehmonnovozligi va saxovatpeshaligi tag mano sifatida olingani aniq. Zero, hadya olgan paytda, o'rnida uni ham biror narsa bilan kuzatish yuqorida eslatilgan xislatlarning belgisi. Metafora mavjud jumladan Bobur o'zi hukmronlik qilgan barcha makonni sinchiklab o'rganib chiqqanki, hattoki, uning nazaridan kichik bir dara ham qolib ketmagan. Keyingi jumlada Boburning siyosiy boshqaruv qobiliyati pragmatik munosabat sifatiqa qabul qilish mumkin. Taslim bo'lishni istagan qabila boshliqlarni kutib olganda, boshqa ishonchli insonlar bilan birga majlis o'tkazib, ular bilan siyosiy masalarni muhokama qilishi Boburning siyosiy bilimi, tajribasi va davlat boshqaruvidagi o'zgacha yondoshuvni ko'rsatadi.

Jumlada metafora badiiy tasviriyligni yuqori nuqtaga

ko'targan. Zero majoziylik “daraning qochib qutulmaganligi” yuklatilgan.

Unga **qo'l ostidagilar** hadya in'om qilganda, u ham o'z navbatida, ularga saxovat bilan muomala qilardi. U **ko'zdan kechirib chiqmagan** bironta dara qolmadi. Muhim masalalarni muhokama etish uchun, shu jumladan, taslim bo'lganini tan olib og'ziga ko'kat tishlab mulozamatga kelgan yovvoyitabiat tog'lik qabila boshliqlari kelganida ham maxsus devon majlis o'tkazar edi. [Sotimov 2015. 118]

O'zbek tarjimoni birinchi gapda yaratilgan “qo'l ostidagilar” so'z birikmasini biror bir lavozim egasi, uning tasarrufida bir necha insonlar xizmat qilishini nazarda tutgan. Bu metafora asliyatda uchramaydi. Demak, mutarjim tarjimaga o'zbekona tasviriylik baxsh etgan. Aslini olganda, tarjimada bunday, ya'ni “qo'l ostidagilar” so'z birikmasini berishga xojat yo'q edi. Ze'ro, shoh va shoir Bobur mirzoni doimo davlat boshqaruvida bo'lgani barchaga ayon. M.Hakimov o'zining “O'zbek tili pragmatik lingvistikasi” deya nomlangan monografiyasida insonlarning ijtimoiy vasifasi haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Unga ko'ra “ijtimoiy vazifa tushunchasi nutq subyekti egallab turgan vazifasi yoki bajarib turgan kasbi ma'nosini anglatadi” [Хакимов 2013, 64]. Demak, tarjimada yaratilgan metafora bosh qahramonning ijtimoiy vazifasiga yana bir urg'u berish vazifasini bajargan.

S.Baruzdin 1980-yillarda shunday deydi: “bugungi kunda biz tarjimada taglama muammosiga duch kelishimizning asl sababi tarjimon ham adabiy mahoratni ham tarjima tillarni to'la to'kis egallamaganligi” [Баруздин 1980, 11]. Bu o'sha davrda tarjimonlarga qo'yilgan talab edi. “Bobur-Yo'lbars” o'zbek tiliga tarjima qilgan mutarjim uchun bu salbiy fikrlar mos emas. Bu yerda bir narsani hisobga olish zarur. G.Sotimov tarjimada asliyatda ifodalangan pragmatik mazmunni tarjima tili o'quvchisi uchun aniq yetkazib bera oladi.

*The Tiger escorted his family back to Andijan. There his mother retired into the silence of mourning.* [Lamb 1961, 32]

*Bobur mirzo oila a'zolarini Andijonga qaytarib olib bordi. U yerda uning onasi motam sukunatidan azoblanayotgan edi. (Tarjima muallifniki)*

Romanda Umarshayx mirzoning o'limidan so'ng uning ayoli Qutlug' Nigorxonimning qayg'uli tasviri metafora vositasida berilgan. Bu yerda metafora ikkinchi jumladagi “retired into the silence of mourning” so'z birikmasi. Ingliz tilining izohli lug'atlarida “retire” so'zi romandagidek majoziy ma'noda kelgan ta'rif keltirilmaydi.

Shunday bo'lsa-da, bu so'zni "nafaqaga chiqmoq" deya berilgan ta'rifidan Qutlug' Nigorxonimning vaziyatidan kelib chiqilsa, o'zining saroy haramiga qarash kabi mas'uliyatli ishdan vaqtincha to'xtaganligi nazarda tutilgan.

Parchadagi pragmatik mazmun o'quvchiga matn mikrokontekstda g'amgin tasvirni gavdalandirishiga xizmat qilgan. Xalqimizning urf-odatiga ko'ra, aza bor joyda hattoki ovozi baland ko'tarib gapirish beodoblik hisoblanadi.

J.L.Mey o'zining "Pragmatika: Kirish" deya nomlangan ilmiy monografiyasida pragmatik ma'noni anglash uchun kontekst muhim vazifani bajarishi haqida alohida to'xtalib o'tadi. Uning fikrlarini to'raligicha olsak. U shunday deydi: "kontekst - bu narsalar nima uchun ekanligini tushunish; bu bizning gaplarimizga haqiqiy pragmatik ma'noni beradigan va ularni haqiqiy pragmatik harakatlar deb hisoblash imkonini beradigan narsadir" [Mey 2004, 41]. Demak, yuqorida "Bobur-Yo'lbars"dan olingan parchadagi jumladagi pragmatik xususiyat boshqa kontekstda o'zgacha ifodalanadi.

*Shahzoda oila a'zolarini olib Andijon sari yo'l oldi. U yerda onasi qattiq azada edi. [Sotimov 2015. 30]*

G'.Sotimov tarjimada metaforani qayta yaratgan. Bunga asos "The silence of mourning" so'z birikmasi tarjimada "qattiq aza" birligi bilan berilganidir. O'zbek tilida "qattiq" so'zi "umuman, shakl o'zgarishlariga, tashqi ta'sirga yaxshi qarshilik ko'rsatadigan; sindirish, ushatish, kesish qiyin bo'lgan" [Begmatov, Hojiyev, Madvaliyev 2023 (a), 91-92] ta'rifida jismlarga nisbatan o'z ma'nosida ishlatiladi. Tarjima matnida esa "qattiq" so'zi "og'ir, chuqur, qiyin" degan ma'nolarda ishlatilgani aniq. O'zbek kitobxonlari "qattiq aza" deganda "biror kishining vafotida chuqur, og'ir qayg'uda" ma'nosi anglashiladi. Tarjimada asliyatda ifodalangan pragmatik mazmun bir muncha o'zgarishlar bilan berilgan. Asliyatda kesim va to'ldiruvchi bilan hosil bo'lgan metafora tarjimada faqatgina to'ldiruvchi vositasida berilgan.

Qisqa xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarjimon muallif asliyatda metafora vositasida ifodalangan pragmatik mazmunni ko'p hollarda bera olgan. Ammo, ba'zi o'rinlarda tarjimada qayta yaratilgan metaforalar pragmatik ma'noni qisman o'zgartirib yuborgan. Keyingi faslida tarjimada asosiy vazifa bajaruvchi pragmatik mazmunni shakllantiruvchi lisoniy hodisalar haqida to'xtalamiz. Shunda asliyatdagi metafora bilan ifodalangan pragmatik xususiyat tarjimada berilgan yoki yo'qligiga batafsil to'xtalamiz.

Mubolag'a yuqorida biz pragmatik analiz qilgan ikki badiiy

san’atdan qolishmaydigan alohida mazmun va ma’noga ega. Mubolag’a vositasida berilgan tasvir tarjimada to‘g‘ri berilishi muhim, chunki retseptant aslyatdagi mazmunni anglashi kerak. Aks holda, tarjima muvaffaqiyasizlikka uchragan bo‘lar edi.

Taniqli tarjimashunos olim G‘.Salomov hamda boburshunos olim N.Otajonov o‘zlarining hammualliflikdagi “Jahongashta “Boburnoma” deya nomlangan ilmiy monografiyalarida H.Lamb roman yozish jarayonida “Boburnoma”dan yuqori darajada foydalangan. Ularga ko‘ra: “Asarning tuzulishi, boblarning bo‘linishi “Boburnoma”ni eslatadi. Muallif “Voqoe” to‘la suyangan, undan jud ko‘p, ayrim o‘rinlarda bir necha varaqlab parchalarni keltirib, keyin voqealarning davomini sharhlab ketgan.” [Саломов, Отажонов 1996 (b), 236-237]. Biz ham bu fikrga qo‘shilamiz. Umuman olganda, H.Lamb roman xuddi “Boburnoma” kabi badiiy ruh berishni niyat qilgani aniq. Memuardan olingan ana shunday qismlardan biri quyida Hindistondagi bir ko‘lning tasviri keltiriladi.

*The standing Water stretched before eyes – a wonderful sheet of water. This water seemed to join the sky, and the hills on the far side seemed to be inverted, as in a mirage. [Lamb 1961, 130-131]*

*Ko‘z oldimizda ajoyib suv havzasi gavdalandi. Bu suv ufqda osmonga tutashkanday, narigi qirg‘oqdagi qirlar ham sarobdek ko‘rinar edi. (Tarjima muallifniki)*

Muallif tomonidan ko‘lning tasviri mubolag’a vositasida berilgan. Aslida ko‘l ma’lum bir hududni egallagan bo‘lib, uni osmonga tutashishi va boshqa tomondagi tepaliklar deyarli ko‘rinmasligini real hayotda uchratish mushkul masala. Faqatgina, ma’lum bir suv havzalarining kengligi katta bo‘lsa, insonning ko‘ziga xuddi u osmonga tutashkanday tuyuladi. Yerni shakli ham bu mubolag‘aga asos bo‘la oladi. Bu mubolag’a vositasida ko‘lning juda kattaligi tag ma’no sifatida ko‘rsatilmoqda.

*Ko‘z oldimizda ulkan suv havzasi namoyon bo‘ldi. Bu suv cheksiz bo‘lib, narigi qirg‘og‘i ufqda osmon chegarasi bilan tutashib ketganday edi, narigi qirg‘oqdagi qirlar ham sarob singari ko‘rinardi. [Sotimov 2015. 117]*

Tarjima nafaqat aslyatdagi semantik xususiyatni, balki pragmatik mazmunni ham bera olgan. Tarjima variantda berilgan ikkinchi jumla to‘laligicha mubolag‘ani hosil qilgan. Shu tomondan G‘.Sotimovning tarjimonlik mahoratini yuqori baholash mumkin. G‘.Salomov badiiy asar tarjimasida tarjimon oldida turgan qiyinchiliklarni alohida keltiradi. Uning fikriga ko‘ra, “badiiy asani tarjima qilish uchun tilning lug‘at boyligi, chunonchi sinonim va

ononimlari, kasb-hunar terminlari, dialectal, eskirgan va vulgar soʻzlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq va qayroqi, noyob va jaydari soʻzlar, maqol va idiomalarni hamda soʻzlarning musiqiyligi-yu, ohangdorligini, koʻp maʼnoligini, tilning talaffuz normalarini, kinoya va piching, mubolagʻa va kichraytirish xususiyatlari, yumor, hazil-mutoyiba formalarini bilish zarur” [Саломов 2022 (с), 238]. Demak, mutarjim uchun olim aytgan barcha narsalar qatori mubolagʻani toʻgʻri ifodalay olish tarjimonga muvaffaqiyat olib keladi.

Gʻ.Sotimov tarjimasida mubolagʻa tarjimasi bilan jiddiy xatolar semantik va pragmatik nuqtayi nazardan aniqlash mushkul, ammo tarjimon ayrim oʻrinlarda mubolagʻa bilan berilgan idiomatik soʻz birikmalarni soʻzma-soʻz ifodalagan. Bu esa oʻquvchiga taʼsiri birmuncha oʻzgacha yetib borgan.

Tadqiqotchi D.Xudoyberganova “matn mazmunining shakllanishi uni yarativchi shaxsning kognitiv va kommunikativ qobilyati bilan bogʻliq boʻlgani kabi, uni qabul qilish idrok etish ham retsipientning aynan shunday qobilyatiga bogʻliqdir” [Худойберганова 2013, 72] deya bejiz keltirmagan. Yaʼni kitobxon mutolaa jarayonida asarni varaqlar ekan oʻzida yozuvchi tomonigan ifodalangan qobilyatlarni idrok etishi kerak. Aks holda, asar u uchun tushunarsiz boʻladi. Yuqoridagi tarjimada muallif tomonidan berilgan mubolagʻa tarjimasi soʻzma-soʻz boʻlgani uchun oʻzbek kitobxonni anglay olmaydigan, idrok qilolmaydigan pragmatik jumla bilan berilgan. Bu esa oʻquvchini noqulay vaziyatga solib, tarjimon haqidagi fikrlar salbiylashiga olib keladi.

**Xulosa.** Umuman olganda H.Lamb “Bobur-Yoʻlbars” asliyatida bergan pragmalingvistik mazmun oʻzbek oʻquvchisi uchun birmuncha tushunarli tarzda tarjima qilingan. Ayrim kamchilik va gʻalizliklarni hisobga olmaganida Gʻ.Sotimovni tarjimonlik mahorati yuqori ekanini koʻrsatadi. Ayniqsa, metonimiya ifodalagan pragmatik mazmun koʻp hollarda tarjima tilidagi ekvivalent bilan berilgan. Bu ijobiy xulosa mubolagʻa uchun ham qisman xos, ammo metafora yuzasidan bunday ijobiy xulosalarni qilish mushkul. Demak, tarjimada asliyatdagi badiiy sanʼatlarning avvalo leksik-semantik xususiyatini aniq va tushunarli ifodalansa, ularning pragmatik mazmuni ham tarjima matnida toʻgʻri ifodalanadi.

#### **Adabiyotlar**

- Бархударов Л. С. 1975. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). М., «Междунар. отношения».
- Баруздин С. 1980. Бадий таржимага бугунги талаб (Таржима

- санъати: Мақолалар тўплами 5-китоб) – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. 2023. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A. va boshqalar. 2023. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
- Birner B.J. 2013. Introduction to Pragmatics – Wiley-Blackwell Publishing Press.
- Бобур – Йўлбарс: Буюк бобурийларнинг биринчиси/Ҳ.Ламб: таржимон Ғ.Сотимов. 2015 – Тошкент "O'zbekiston".
- Lamb H. 1961. Babur the tiger: The first of Great Muguls. - USA, New York.
- Levinson S. 1983. Pragmatics – Cambridge University Press.
- Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. 2006. International Student Edition, - Macmillan Publishers Limited.
- Mey J.L. 2004. Pragmatics: An Introduction (second edition) – Blackwell Publishing.
- Норман Б.Ю. 2009. Лингвистическая прагматика (на материале русского и других славянских языков) : курс лекций– Минск.
- Очилов Э. 2014. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент.
- Panther K., Thornburg L.L. 2017. Metaphor and Metonymy in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Approach.
- Саломов Ғ., Комилов Н. 1985 (а). Дўстлик кўприклари (поэзия ва таржима). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Саломов Ғ., Отажонов Н. 1996 (b). Жаҳонгашта "Бобурнома". – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти.
- Саломов Ғ. 2022 (с). Тил ва Таржима (Қайта нашрга тайёрловчи Х.Ҳамидов). – Тошкент.
- Сафаров Ш. 2008. Прагмалингвистика. – Тошкент.
- Сирожиддинов Ш., Одилова Г. 2011. Бадий таржима асослари – Тошкент: "MUMTOZ SO'Z".
- Хошимова Д.М. 2018. "Бобурнома" матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол.фан.док. ...дисс. Тошкент.
- Худойберганава Д. 2013. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан".
- Қозоқова Н. 2022. Бадий матн прагматикаси (Ғофур Ғулом насрий асарлари мисолида). – Наманган.
- Ҳакимов М. 2013. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: "Akademnashr".

# Pragmatic analysis of some stylistic devices in the novel of “Babur the tiger” and its translation in Uzbek

Shekhrozbek Ibragimov<sup>1</sup>

## Abstract

In recent years, pragmalinguistic studies have become a scientific tradition in all philological fields. In particular, the work on identifying the pragmatic content and meaning conveyed through the means of stylistic devices in the original of the literary text and their expressions in translation variants has not yet been fully revealed. This scientific article is based on Harold Lamb's novel “Bobur the tiger” and its Uzbek translation, and the main goal of it is to determine how the pragmatic content expressed by the sentences related to metaphor, metonymy and hyperbole given in the novel given in the Uzbek translation. According to the analysis, the Uzbek translator has not always been able to convey the pragmatic content expressed through metaphor, metonymy and hyperbole.

**Keywords:** *stylistic devices, metaphor, metonymy, hyperbole, pragmatic content, semantic meaning, novel, translation.*

## References

- Barxudarov L. S. 1975. *Yazik i perevod (Voprosi obshey i chastnoy teorii perevoda)*. M., «Mejdunar. otnosheniya».
- Baruzdin S. 1980. *Badiiy tarzhimaga bugungi talab (Tarzhima san'ati: Maqolalar to'plami 5-kitob)* – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Begmatov E., Hozhiev A., Madvaliev A. va boshqalar. 2023. *Uzbek tilining izokhli lugati. 4-zhild.* – Toshkent: Gofur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Begmatov E., Hojiev A., Madvaliev A. va boshqalar. 2023. *Uzbek tilining izohli lugati. 5-zhild.* – Toshkent: Gofur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
- Birner B.J. 2013. *Introduction to Pragmatics* – Wiley-Blackwell Publishing Press.
- Bobur – Yolbars: Buyuk boburiylarning birinchisi/H.Lamb: tarjimon G'.Sotimov. 2015 – Toshkent “Uzbekiston”.
- Lamb H. 1961. *Babur the tiger: The first of Great Muguls.* - USA, New York.

---

<sup>1</sup> *Shekhrozbek T. Ibragimov* – PhD student, Namangan State Technical University.

**E-mail:** ibragimovshekhrozbek@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0001-1008-4186

**For citation:** Ibragimov Sh.T. 2025. “Pragmatic analysis of some stylistic devices in the novel of “Babur the tiger” and its translation in Uzbek”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 32-45.

- Levinson S.C. 1983. Pragmatics – Cambridge University Press.
- Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. 2006. International Student Edition, - Macmillan Publishers Limited.
- Mey J.L. 2004. Pragmatics: An Introduction (second edition) – Blackwell Publishing.
- Norman B.Y. 2009. Lingvisticheskaya pragmatika (na materiale russkogo i drugix slavyanskix yazikov): kurs lektsiy– Minsk.
- Ochilov E. 2014. Tarzhimashunoslik terminlarining izokhli lugati. – Toshkent.
- Panther K., Thornburg L.L. 2017. Metaphor and Metonymy in Language and Thought: A Cognitive Linguistic Approach.
- Salomov G., Komilov N. 1985 (a). Do’slik ko’priklari (poeziya va tarjima). – Toshkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
- Salomov G., Otajonov N. 1996 (b). Zhahongashta “Boburnoma”. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.
- Salomov G. 2022 (c). Til va Tarjima (Kayta nashrga tayyorlovchi X.Hamidov). – Toshkent.
- Safarov Sh. 2008. Pragmalingvistika. – Toshkent.
- Sirozhiddinov Sh., Odilova G. 2011. Badiiy tarzhima asoslari – Toshkent: “MUMTOZ SO‘Z”.
- Xoshimova D.M. 2018. “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarzhimalari tadqiqi. Filol.fan.dok. ...diss. Toshkent.
- Xudoyberganova D. 2013. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Uzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan”.
- Qozoqova N. 2022. Badiiy matn pragmatikasi (G’ofur G’ulom nasriy asarlari misolida). – Namangan.
- Hakimov M. 2013. Uzbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: “Akademnashr”.

## Zulfiya she'rlari tarjimasida badiiy tasvir vositalarining qayta berilishi

Nazokat G'offorova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya ijodining tarjima jarayonidagi badiiy xususiyatlari, xususan Begoyim Xolbekova tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarda badiiy tasvir vositalarining ifodalanishi chuqur tahlil qilinadi. Adabiy asarlarni tarjima qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan obrazlilik, estetik ifoda vositalari va ularning semantik qatlamini to'liq saqlab qolish tarjimon mahoratini namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan, takror va uning turlari, antiteza, apostrofa, jonlantirish (personifikatsiya), oksimoron, ritorik so'roq, gradatsiya kabi badiiy san'at vositalarining nafaqat asl she'rda qanday vazifani bajarayotgani, balki ularning tarjimada qanday tarzda aks etgani o'rganiladi.

Har bir badiiy tasvir vositasi alohida holda tahlil etilib, Zulfiya tomonidan mahorat bilan qo'llangan misralar va ularning Begoyim Xolbekova tarjimasidagi adekvatlik darajasi, ifodaviy o'xshashligi yoki tafovutlari qiyosiy-lisoniy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Bu orqali original matnning estetik va poetik xususiyatlarini tarjimada qay darajada saqlab qolish mumkinligi, shuningdek, tarjimonning individual uslubi, badiiy tafakkur doirasi va poetik didi ham namoyon bo'ladi.

Maqolada keltirilgan misollar orqali o'quvchida badiiy tasvir vositalarining tarjima san'atidagi ahamiyati haqida aniq tasavvur hosil qilish, shuningdek, original va tarjima matnlar o'rtasida badiiy muvofiqlikni baholash imkoniyati yaratiladi.

**Kalit so'zlar:** *badiiy tasvir vositalari, takror, anafora, alliteratsiya, antiteza, apostrofa, jonlantirish, oksimoron, ritorik so'roq, gradatsiya.*

### Kirish

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan, badiiy ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlarga yo'g'irish uchun so'z salohiyatiga tayanadi. Har bir so'z shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, o'z salmog'i va ohangiga ega. Tarjima esa shunday san'atki, bunda

<sup>1</sup> G'offorova Nazokat Shuxrat qizi - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

**E-pochta:** nazokatgofforova@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-9393-0690

**Iqtibos uchun:** G'offorova N.Sh. 2025. Zulfiya she'rlari tarjimasida badiiy tasvir vositalarining qayta berilishi. *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 46-56.

tarjimon ijodkor qalamiga mansub asarni bor shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, salmog'i va ohangi bilan boshqa tilda ifoda eta olishi kerak.

She'riy tarjimaning eng asosiy vazifasi - yaxshi she'r tarjimada yomon she'rga aylanib qolmasligiga harakat qilish, tarjima mazmunini iloji boricha to'liq saqlab qolish, she'riy matn shakllarining she'r mazmuniga mos ravishda ham vaznini, ham ohangini saqlab qolish hisoblanadi. Tarjimaning yaxshi-yomonligini nafaqat tarjimon, balki o'quvchi ham bir o'qishda sezishi lozim. Umuman olganda, she'rni tarjima qilish har ikki tilni chuqur anglashni, har bir she'rga xos bo'lgan ohang va uslubning nozik jihatlariga sezgirlikni talab etadi.

Shoir she'r yozar ekan, uning ihtiorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardir. She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, "ilmi bade" nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Darhaqiqat, bunda Zulfiya tarjima qilgan she'riy asarlar, Zulfiya ijodi borasida ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsada, Zulfiya muallifligidagi she'riyat na'munalarining ingliz tiliga tarjimalari yetarlicha o'rganilmagan. Shoiraning aksariyat she'rlari yorga, yurtga va tabiatga bo'lgan muhabbatni tarannum etuvchi lirik ijod namunalari ekanligini inobatga olsak, bunda badiiy tasvir vositalarining o'rni beqiyosdir.

Badiiy tasvir vositalari she'riyat va she'riyat tarjimasining ajralmas qismi bo'lib, uning jozibadorligi, tasirchanligi va buyuk ma'noni qisqa satrlarda ifodalash xususiyati tufayli muhimdir. Badiiy tasvir vositalarini tarjimada qayta tiklash mushkul vazifa bo'lsada, imkon qadar ularni tarjimada saqlab qolishga harakat qilish lozim.

Ushbu maqolada esa asar jozibasini, jarangdorligini va ta'sirchanligini oshiradigan bir necha badiiylik ilmining asoslari haqida nazariy ma'lumotlar beriladi va shu yo'sinda Zulfiya she'riyati namunalari hamda ularning "I was love" ("Men ishq edim") sarlavhasi Begoyim Xolbekova tomonidan qilingan tarjima to'plamida badiiy tasvir vositalarining tarjimalari qayta tahlilga tortiladi.

**Takror** - so'z yoki iboralarni takrorlash, buning natijasida o'quvchi (tinglovchi) diqqatini ularga qaratadi va shu bilan ularning matndagi roli kuchayadi. Takrorlash badiiy matnga uyg'unlik beradi, uning hissiy ta'sirini kuchaytiradi, eng muhim fikrlarni ta'kidlaydi.

**Anafora** - misralar boshida bir so'z yoki birikmani o'zgarishsiz aynan takrorlaydi. Anafora uslubiy vosita sifatida badiiy asarda qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini aniqroq ifoda etish uchun ishlatiladi. Buni Zulfiyaning quyidagi misralarida ham kuzatishimiz mumkin:

*Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?*

**Nechun** ko'zingda yosh, turib qolding lol.

**Nechun** qora libos, sochlaringda oq,

**Nechun** bu ko'klamda sen parishonhol? [Zulfiya 2016]

Tarjima:

*Where is the bard, a thoughtful young man?*

**Why** in your eyes drops of rain?

**Why** are you alone, where he had gone?

**Why** should I see you in such pain? [Zulfiya 2015]

Keltirilgan parchada uch misraning boshida "*nechun*" sabab holi takrorlangan. Sabab holining uch o'rinda, ayniqsa, gapning boshida takrorlanishi she'rning ta'sirchanigini oshirishga yordam bergan. Bandning inglizcha tarjimasida ayni ma'no "*why*" ravishi orqali ifodalangan va anafora badiiy tasvir vositasi to'liq saqlab qolinishiga erishilgan.

Quyida keltirilgan gap takrorida drammatizm yanada kuchliroq ekanini ko'ramiz:

**Qancha bo'ldi** ko'rmaganimga,

*Ey qalbimning dilbari shoir!*

**Qancha bo'ldi** birga o'ltirib,

*So'zlashmadik dillarga doir* [Zulfiya 2016: 34]

Tarjima:

**How long** I haven't seen you?

*Oh, my soul's glorious bard.*

**How long** has been for me and you,

*Talking together from the heart?* [Zulfiya 2015: 12]

Ma'lumki, shoira Zulfiya ijodida yo'qotilgan muhabbatga nisbatan sog'inch, hijron motivlari asosiy o'rinni egallaydi. Yuqorida keltirilgan parchada "*qancha bo'ldi*" kesimining takror holda kelishi shoira qalbidagi hislarni teranroq tushunishga yordam beradi. Undagi sog'inch, o'tgan aziz damlarni qo'msash holati gap bo'lagini takroran qo'llash orqali ta'sir kuchini oshirgan. Tarjimada ham takror o'z o'rnida saqlanib, "*how long*" ravishi bilan tarjima qilingan. Shu o'rinda she'riyatda takrorning yana bir turi, ya'ni alliteratsiyadan ham unumli foydalaniladi.

**Antiteza** (grekcha *antithesis* – *qarama-qarshi qo'yish* so'zidan) – bir-biriga zid tushuncha, fikr va hissiyotlarni ifodalashda hamda ularga qiyosiy xarakteristika berishda qo'llanadigan adabiy usul bo'lib, Zulfiya she'riyatida keng qo'llangan. Jumladan, shoiraning "O'riklar gullar" she'rida antitezaning quyidagi namunasini ko'rish mumkin:

*O'ramizda seni mo'ysafid  
Ko'rganlarning bilmam nomini.  
Kuylab ishqni, **tongni** muttasil  
Menga qoyding umr **shomini**. [Zulfiya 2016:67]*

Tarjima:

*Who counted you as grey bearded?  
I don't know their names.  
Singing about love and **dawn** steadily.  
You left me **dusk** time of life. [Zulfiya 2015:14]*

Ushbu parchada “shom” va “tong” payt hollari qarama-qarshi qo'yilishi orqali antiteza hosil bo'lgan. Ingliz tilidagi tarjimada ham “dawn” va “dusk” so'zlarini qo'llash orqali tarjima qilinib, antiteza saqlab qolishga erishilgan. Bunda shoira Hamid Olimjon bilan birga o'tkazgan yoshlik damlarini shoir hamisha sevib tilga olgan “tong”ga o'xshatsa, usiz yashagan ayriliq yillarini hayotining “shomi”ga qiyoslab bu ikkisini qarama-qarshi qo'yadi.

*Nechun **qora** libos, sochlaringda **oq**,  
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol? [Zulfiya 2016:37]*

Tarjima:

*Why are you alone, where he had gone?  
Why should I see you in such pain? [Zulfiya 2015:19]*

\*\*\*

***O'lmagan** ekansan, jonim, sen **hayot**,  
Men ham hali sensiz olmadim nafas.  
Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam,  
**Tunlar** tushimdasan, **kunduz** yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham! [Zulfiya 2016:45]*

Tarjima:

*A tender song with sweet tune,  
Design my empty heart.  
Longing in my soul, your pen in my hand,  
I sing the life without fear.  
While I breathe on this sacred land,  
You're also alive, alive dear! [Zulfiya 2015:23]*

Ushbu “Bahor keldi seni so'roqlab” she'ridan keltirilgan misralarda ham “qora” va “oq” sifatlari “o'lim” va “hayot”, “tun” va “kunduz” antitezalarini hosil qilgan. Ammo yuqorida keltirilgan bandlardagi biror bir antiteza tarjimada qayta tiklanishiga erishilmagan va, o'z o'rnida, shoira ifodalamoqchi bo'lgan ma'noning qisman yo'qolishiga, asar tarjimasida badiiy bo'yoqdorlikning

susayishiga olib kelgan.

**Apostrofa** (grekcha *apokryphos* – *yashirin, qalbaki* soʻzidan) – jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa va hodisadek yohud hozir boʻlmagan kishiga shu yerda hozir turgandek murojaat etishdan iborat poetik nutq usullaridan biri. Zulfiya sheʼriyatida apostrofa keng qoʻllanadi. Hususan, u sheʼrlarida koʻpincha vafot etgan turmush oʻrtogʻi Hamid Olimjonga murojaat etadi, yori bilan xuddi u tirikdek suhbatlashadi. Quyida keltirilgan parchada ham shoira vafot etgan yoriga murojaat qiladi, bu murojaat tarjimada ham mahorat bilan qayta tiklanganini koʻrishimiz mumkin:

**Qancha boʻldi** koʻrmaganimga,

*Ey qalbmning dilbari shoir!*

**Qancha boʻldi** birga oʻltirib,

*Soʻzlashmadik dillarga doir. (Sogʻinganimda) [Zulfiya 2016:*

37]

Tarjima

**How long** *I haven't seen you?*

*Oh my soul's glorious bard.*

**How long** *has been for me and you,*

*Talking together from the heart? [Zulfiya 2015:11]*

**Jonlantirish** – badiiy tasvir usullaridan biri boʻlib, insonga xos qobiliyat va xususiyatlarni: soʻzlash, his qilish, fikrlash va hokazolarni hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga koʻchirib tasvirlashdan iborat. Mumtoz adiblarimiz jonlantirishni *tashxis* va *intoq* deb ataganlar. Jonsiz narsani shaxs (inson) holiga keltirish tashxis, uni nutq egasi qilib koʻrsatish intoq deb atalgan.

Zulfiya sheʼriyatida jonlantirish muhim oʻrin tutadi. Shoira sheʼriyatida tabiatga muhabbat alohida oʻrin tutgani bois ham jonlantirishning ahamiyati beqiyos. Uning sheʼriyatida tabiat hodisalari, yil fasllari insonga xos xususiyatlariga ega boʻladi, lirik qahramon bilan suhbatlashadi, uning dardu anduhlariga sherik boʻladi. Shoiraning “Bahor keldi seni soʻroqlab” sheʼrida bahor faslidan tortib barcha tabiat unsurlari jonlanadi va lirik qahramonning faryodiga sherik boʻladi. Quyida keltirilgan parchada esa bahor fasli kirib kelib shoirni izlashga tushgani mahorat bilan tasvirlangan va bu tasvir ingliz tilidagi tarjimada ham mahorat bilan ifodalangan:

*Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,*

*Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.*

*Qishning yoqasidan tutib soʻradi seni,*

*Ul ham yosh toʻkdi-yu, chekindi nari.*

*Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,  
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.  
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,  
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi. [Zulfiya 2016:42]*

Tarjima

*Oh, you my beloved, this time also  
The spring's come and searched for you lot.  
She asked you from gloomy night,  
And the night's answer was: "I don't know, not..."  
And, to find you she became a breeze,  
And she wandered through gardens there.*

*Then she looked for you among the trees  
She asked your name from leaves, dear. [Zulfiya 2015:16]*

Zulfiya she'riyatida bunday misollarni ko'plab uchratish mumkin:

*Bulbul sayrar, **irmoq kuylar**, o'ynar yel,  
Hamma yoqqa nur to'lganga o'xshaydi. (Tingla bulbul) [Zulfiya 2016:39]*

Tarjima

*Nightingale's warbling, **stream's singing**,  
It seems everywhere radiant rays. [Zulfiya 2015:13]*

Yuqorida keltirilgan parchada "irmoq kuylar" jumlasini qo'llanib, irmoqqa insonning kuylash xususiyati yuklanadi, yoxud irmoq oqqandagi sharqiragan tovushi xuddi insonning kuylashiga qiyoslanadi. Bu misraning tarjimasida ham jonlantirish unsuri bo'lgan "irmoq kuylar" jumlasini "stream's singing" shaklida tarjima qilingan va bu asliyatdagi jonlantirishni tarjimada to'liq tiklanishiga asos yaratgan.

**Oksimoron** ( grekcha *oxymoron* – o'tkir ma'noli bema'nilik so'zidan ) – o'z ma'nosidan ko'chirilib, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalab kelgan so'zlar, komponentlari mohiyat e'tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'nodagi birikmalarga aytiladi. Bunga *shirin azob, zulmat ziyosi* kabilar misol bo'la oladi. Zulfiya she'riyatida ham oksimoronga ko'plab misollar topiladi:

*Shu kunlarda bahorga zorman,  
O'z bahorim kabi bemisol,  
Bahor qaytmas, **yonuvchi qorman**  
Yo no'noq qo'l butagan nihol. (Sog'inib) [Zulfiya 2016:125]*

Tarjima

*In these days, I'm sobbing for spring,*

*It's peerless spring of my land.*

*I'm flaming snow, flaming,*

*Or sprout's pruned by clumsy hand. [Zulfiya 2015:24]*

Ushbu parchada oksimoron “yonuvchi qor” tariqasida namoyon bo'ladi. Bilamizki, qorning yonishi tamomila mantiqqa zid hamda olov va qor umuman qarama-qarshi narsalardir. Ammo tarjimada oksimoron tarjimasi muvaffaqiyatsiz, “yonuvchi qor” o'rniga “flaming snow”, ya'ni “yaraqlovchi qor” deb tarjima qilingan. Bu esa nafaqat oksimoronning buzilishiga, balki shoira ayni shi oksimoron orqali misraga yuklamoqchi bo'lgan ma'noning ham buzilishiga olib kelgan.

**Ritorik so'roq** – stilistik usullardan biri bo'lib, poetik nutqda ifodalangan fikrni so'roq shaklida tasdiqlashdan iborat. Ritorik so'roq intonatsiyani kuchaytirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi:

*Qani men kelganda kulib qarshilab,*

*Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?*

*“Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab”*

*Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?*

*O'rik gullariga to'nmaydi nega,*

*Yelda hilpiratib jingala sochin?*

*Nega men keltirgan sho'x nashidaga*

*Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin? (Bahor keldi seni*

*so'roqlab) [Zulfiya 2016:153]*

Tarjima

*Where is the bard who had won fame?*

*With his songs like river waves*

*Where is the happy man who could feel me?*

*In brilliant dawns, in the warm rays*

*When a shower of apricot blossoms*

*Where floating in the air,*

*In the breezes I used to see*

*his fluttering curly hair. [Zulfiya 2015:31]*

Ushbu parcha Zulfiya she'riyatida ritorik so'roqning durdona namunasidir. Bu parchada Zulfiya chekkan ayriqliq azobi ritorik so'roqlar orqali namoyon bo'ladi.

**Ritorik murojaat** – nido va xitob tarzidagi murojaat, stilistik usullardan biri. Ritorik murojaat ham ritorik so'roq singari, she'riy ritmik nutqda intonatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Zulfiya she'riyatida quyidagicha namoyon bo'ladi:

*To'xta, bulbul, men kuylayin, jon bulbul,*

*Sen tinglagin qalbidagi torimni. [Zulfiya 2016:167]*

Tarjima

*Stop, nightingale, let's I will sing,*

*And you listen to my heart's song. [Zulfiya 2015:39]*

**Tadrij** yohud **gradatsiya** - poeziyadagi badiiy usullardan biri bo'lib, darajama-daraja rivojlantirib borish manosi ifodalaydi. Tadrij voqeaband (q) she'rlarga xos bo'lib, she'rdagi bir obraz yoki (tushuncha) o'xshatishlar vositasi bilah rivojlantirilib boriladi. Kitobxonning ko'z o'ngida bir obraz (yoki tushuncha)ning o'xshatishlar sirasi bilan ifodalangan mukammal badiiy lavhasi gavdalanadi. Masalan:

*Seni izlar ekan, bo'lib **shabboda**,*

*Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.*

*Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,*

*Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.*

*Topmay, sabri tugab **bo'ron** bo'ldi-yu,*

*Jarliklarga olib ketdi boshini.*

*Farhod toglaridan daraging izlab,*

*Soylarga qulatdi togning toshini. (Bahor keldi seni so'roqlab)*

*[Zulfiya 2016:205]*

Tarjima

*And, to find you she became a **breeze**,*

*And she wandered through gardens there.*

*Then she looked for you among the trees*

*She asked your name from leaves, dear.*

*But could not find you anywhere,*

*Then she became a strong **storm**.*

*Then she rushed into the air*

*And she searched message about you warm. [Zulfiya 2015:26]*

Ushbu parchaning boshidada bahor avval "shabboda"ga aylanib sevimli shoirini izlaydi, uni topa olmagach jig'ibiyron bo'ladi va "bo'ronga" aylanib matiqiy davom etadi. Shu parcha tarjimasida ham adekvat so'zlar tanlanishi orqali gradatsiya saqlab qolingan. Quyida esa Zulfiya poeziyasidan gradatsiyaga yana bir misol va uning adekvat tarjimasini: *Suydim, Erkalandim, Ayridim, Kuydim, Izzat nima bildim, Shu-da bir yashash!* ("Men o'tgan umrga")

Tarjima: *I loved, I fondled, I separated, I suffered, I knew what esteem is, that's how to live!*

**Inversiya** (lotincha *inversio* – o'rnini almashtirish so'zidan) she'riy nutqda so'zlarning grammatik qoidaga muvofiq bo'lgan odatdagi o'rnining almashtirib berilishi: eganing kesimdan so'ng kelishi, aniqllovchining aniqlanmishdan so'ng ishlatilishi kabi.

Inversiya she'rda tasodifiy hodisa emas, balki shoirning she'r g'oyasini birinchi o'ringa qo'yish bilan bog'langan hodisadir. Shoir ma'lum so'zlarni ta'kidlash va ularning ta'sirchanligini oshirish niyatida nutqda so'zlarning grammatik qoidaga muvofiq bo'lgan o'rnini ataylab almashtirib qo'llaydi va poetik sintaksisni yuzaga keltiradi. Inversiya hodisasi o'zbek she'riyatida muhim ahamiyatga ega va uni Zulfiya she'riyatining deyarli barcha namunalaridan topish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyoti namunalarini jahon tillariga tarjima qilgan holda dunyo kitobxonlari e'tiboriga havola etish tarjimonlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda nazm namunolari tarjimasi alohida o'rinni egallab, tarjimondan istedod va mahurat talab etadi. Badiiy tasvir vositalari esa she'riyat va she'riyat tarjimasining ajralmas qismi bo'lib, uning jozibadorligi, tasirchanligi va buyuk ma'noni qisqa satrlarda ifodalash xususiyati tufayli muhim. Badiiy tasvir vositalarini tarjimada qayta tiklash mushkul vazifa bo'lsa-da, imkon qadar ularni tarjimada saqlab qolishga harakat qilish lozim.

### **Adabiyotlar**

- Boboyev, T. 2002. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston
- Fitrat, A. 2006. Adabiyot qoidalari // Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
- G'afurov, I., Mo'minov O, Qambarov N. 2012. Tarjima nazariyasi. Toshkent: Tafakkur bo'stoni.
- Jo'rayev, K. 1982. Tarjima san'ati. Toshkent: Fan.
- Musayev, Q. 2005. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. Toshkent: Fan.
- Quronov, D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
- Salomov, G'. 1978. Tarjima nazariyasiga kirish. - Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- Usmanova, E. 2019. Lingvokultralogiya: Darslik. Toshkent.
- Yusupova, D. 2019. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent: TA'LIM MEDIA.
- Zulfiya., 2015. . I was love. Toshkent: Akademnashr.
- Zulfiya., 2016. Saylanma. Toshkent: Sharq.
- <https://forum.ziyouz.com>
- <http://kh-davron.uz>

## **Retranslation of figurative speech in Begoyim Kholbekova's translations of Zulfiya's poems**

Nazokat Gofforova<sup>1</sup>

### **Abstract**

This article deeply analyzes the figurative speech of the work of the people's poet of Uzbekistan Zulfiya in the translation process, in particular, the expression of figurative speech in the translations carried out by Begoyim Kholbekova. The full preservation of imagery, aesthetic means of expression and their semantic layer, which are important in the process of translating literary works, demonstrates the translator's skill. From this perspective, the function of such artistic means of expression as repetition and its types, antithesis, apostrophe, personification, oxymoron, rhetorical questioning, gradation is studied not only in the original poem, but also in how they are reflected in the translation.

Each figurative speech is analyzed separately, and the lines skillfully used by Zulfiya and their adequacy in Begoyim Kholbekova's translation, expressive similarities or differences are studied from a comparative-linguistic perspective. This shows the extent to which the aesthetic and poetic features of the original text can be preserved in translation, as well as the translator's individual style, artistic thinking, and poetic taste.

The examples presented in the article provide the reader with a clear idea of the importance of figurative speech in the art of translation, as well as the opportunity to assess the artistic correspondence between the original and translated texts.

**Keywords:** *artistic means of expression, repetition, anaphora, alliteration, antithesis, apostrophe, animation, oxymoron, rhetorical question, gradation.*

### **References**

- Boboev, T. 2002. *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston  
Fitrat, A. 2006. *Adabiyot qoidalari // Fitrat. Tanlangan asarlar*. Toshkent:  
Ma'naviyat.  
Gafurov, I., Mo'minov O., Qambarov N. 2012. *Tarjima nazariyasi*. Toshkent:  
Tafakkur bo'stoni.  
Jo'raev, K. 1982. *Tarjima san'ati*. Toshkent: Fan.

---

<sup>1</sup>*Nazokat Sh. Gofforova* – Teacher, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** nazokatgofforova@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-9393-0690

**For citation:** Gofforova N.Sh. 2025. "Retranslation of figurative speech in translations of Zulfiya's poems". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 46-56.

- Musaev, Q. 2005. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. Toshkent: Fan.
- Quronov, D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
- Salomov, G'. 1978. Tarjima nazariyasiga kirish. - Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- Usmanova, E. 2019. Lingvokulturologiya: Darslik. Toshkent.
- Yusupova, D. 2019. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Toshkent:TA'LIM MEDIA.
- Zulfiya. 2015. . I was love. Toshkent: Akademnashr.
- Zulfiya. 2016. Saylanma. Toshkent: Sharq.
- <https://forum.ziyouz.com>
- <http://kh-davron.uz>

## Tarjimonlik faoliyatini freymlar asosida kognitiv shakllantirish

Nigina Temirova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada tarjimonlik faoliyati kognitiv yondashuv asosida freym nazariyasi doirasida tahlil etiladi. Muallif tarjima jarayonini inson ongidagi bilimlar tuzilmasi – freymlar orqali modellashirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Tarjimonlik faoliyati doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga moslasha oladigan dinamik jarayon sifatida baholanadi. Freymlar vositasida tarjima jarayonining statik (superfreym) va dinamik (mikrofreym) tarkibiy qismlari, shuningdek tarjimonning xotirasi, til va madaniyat bilimlari, shaxsiy tajribasi asosida shakllanadigan bilim modullari tahlil qilinadi. Muallif tarjimon faoliyatini asliyat matnni qabul qilish, tushunish va tarjima qilish jarayonlarini bosqichma-bosqich modellashiruvchi kompleks kognitiv struktura sifatida tasvirlaydi. Ushbu yondashuv tarjimon tayyorlashda, tarjima jarayonini chuqur anglashda va uni optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** *freymlar nazariyasi, kognitiv modellashirish, static freymlar, dinamik freymlar, aqliy faoliyat, mikrofreym, til va madaniyat bilimi.*

### Kirish

Bugungi kunda tarjimonlik faoliyati nafaqat lingvistik bilimlarga, balki keng qamrovli kognitiv jarayonlarga asoslangan murakkab ijodiy faoliyat sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy insonning kontseptual dunyo tasavvuri uning kasbiy faoliyatida, xususan tarjimada, ma'lumotni qayta ishlash va anglash jarayonlarini samarali amalga oshirishga imkon yaratadi.

Zamonaviy insonning allaqachon shakllangan kontseptual dunyo tasavvuri unga bilim olish jarayonlarini, shu jumladan tarjima kabi professional faoliyatni amalga oshirishda yordam beradi. Shu bilan birga, kognitiv nuqtai nazardan ko'rib chiqilganda, tarjimonlik

---

<sup>1</sup> Temirova Nigina Alisher qizi – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

**E-pochta:** temirovanigina@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-2485-1363

**Iqtibos uchun:** Temirova, N.A. 2025. Tarjimonlik faoliyatini freymlar asosida kognitiv shakllantirish. *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 57-65.

faoliyati uning bir qismi sifatida ijtimoiy o'zgarishlarga va turli bilim sohalaridagi ilmiy-texnik taraqqiyotga moslashishi, eng muhimi, doimiy ravishda qayta ishlab chiqarilishi va zamonaviy insonning ehtiyojlari va talablariga moslashishi kerak. Bu esa yangi bilim tuzilmalarini obyektivlashtirishga yordam beradi.

N.L. Galeevaning fikricha, ushbu faoliyat turining doimiy ravishda qayta ishlab chiqarilishi zarurati uning usullari va jarayonlarini ishlab chiqish va optimallashtirish, faoliyat tuzilishini o'rganishni talab qiladi. Tarjima jarayonida qayta ishlab chiqarish masalasi ko'p qirrali bo'lib, bu ham tarjimonlarni tayyorlash (pedagogik jihat), ham faoliyatning o'zini qayta ishlab chiqarish (filologik jihat) bilan bog'liq. Bu faoliyat nafaqat takrorlanadi va qayta ishlab chiqariladi, balki inson tomonidan qo'llaniladigan kognitiv tuzilmalar (modellar) tomonidan belgilangan eng maqbul mexanizmlar va jarayonlarni talab qiladi [Galeeva 1997: 28].

O.N. Chiruxinaning fikriga ko'ra, freym formati yoki bilimlarni tasvirlash modeli inson xotirasi va ongining yagona nazariya sifatida tizimlashtirilgan psixologik modelini ifodalaydi [Chiruxina 1996: 8]. Uning o'ziga xosligi shundaki, u insonning ko'pincha norasmiy shaklda amalga oshiriladigan va muayyan predmet sohasining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan faoliyatini modellashtiradi. Shunga qaramay, ta'kidlash kerakki, optimal tashkil etilgan faoliyat uchun eng muhimi faoliyatning optimal mexanizmlarini qurish (modellashtirish)dir. Freymlar muayyan kontsept atrofida tashkil etilgan birliklar bo'lib, ya'ni u yoki bu kontsept bilan bog'liq tipik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [Deyk van 1989: 16]. Shu sababli, bu qurilish tarjima freymlar va senariylar (statik va dinamik tarjima freymлари) kabi murakkab kontseptual tuzilmalarni qurish va faollashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda modellashtirish obyekti sifatida matnni tushunish, uni qayta ishlash va uning adekvat uzatilishi uchun til vositalarini tanlashni belgilovchi aqliy jarayonlar olinadi. tarjima freymlar tarjimonning ish jarayonini tahlil qilishni rasmiy darajaga yetkazish, uning xotirasi, tushunishi va tasavvur mexanizmini batafsil ko'rsatish imkonini beradi. tarjima freymlar doirasida ko'rib chiqiladigan subyektlar (tarjimonlar) faol tarjimonlik faoliyatida "o'zini namoyon qiladi", ya'ni o'z mehnat obyekti bevosita yaratadi. Bunday yondashuv tarjima jarayonining tarjima freymlarda maksimal ravishda aniq ifodalanishiga imkon beradi.

## **Freymlar nazariyasi asosida tarjimonlik faoliyatining kognitiv modellashirilishi**

Bizning fikrimizcha, tarjima jarayonini kognitiv nuqtai nazardan modellashirish ba'zi lingvistlarning bu jarayonni modellar yordamida tasvirlash mutlaqo imkonsiz, chunki tarjima ijodiy (evristik) xarakterga ega, degan qarashlarini [Svilling 1977: 175] rad etishga yordam beradi. Bizga ko'ra, dinamik translyatsion freymalarning dinamik tabiati ma'lum darajada ma'lumu bir tarjimonning ijodiy imkoniyatlarini qayd etishga, ijod jarayonini ochishga va optimallashtirishga yordam beradi. Tarjima freymalari shunday tuziladiki, undagi ayrim detallarni o'zgartirish orqali uni tarjimonning muayyan vazifani hal qilishdagi faoliyatini simulyatsiya qilish uchun moslashtirish mumkin. Tarjima freymalarida hali tushunish bosqichida tarjimon keyinchalik tarjima qilishda foydalanadigan ma'lum mazmunli dasturni ongli ravishda qurishga urinish amalga oshiriladi, bu dastur asosida u harakat vositalari va yo'llarini tanlaydi. Shunday qilib, aslyat matn ma'lum bir maqsad bilan ma'lum bir qabul qiluvchi uchun ishlab chiqariladi, ya'ni u o'zaro ta'sir va muloqotni ta'minlovchi "faoliyat" sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyo haqidagi har qanday bilim, shu jumladan tarjima, o'ziga xos freymalar tizimlariga mos keladigan umumiy universal bo'laklar sifatida tasavvur qilinishi mumkin, ulardan yangi tasavvurlarga mos keladigan yangi freymalar tizimlari shakllantirilishi mumkin. Ideal kognitiv model, shu tariqa, yozma tarjimonlik faoliyatining statik tarjima freymalar (superfreym) umumiy tuzilishi sifatida berilishi mumkin [Lakoff 1987].

Kognitiv tahlil (kontseptlar mazmunini aniqlash) yordamida statik tarjima freymalar umumiy mazmunida quyidagi kontseptual bog'langan tarkibiy qismlarni ajratish mumkin: fizik – subyekt, maqsad (obyekt), natija; va aqliy – jarayon. Statik tarjima freymalar tarjimonlik faoliyatining bevosita kuzatilmaydigan jarayonlarini o'rganish uchun o'ziga xos boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi va protsedural bilimlarni – tarjima jarayonini ta'minlovchi chuqur aqliy jarayonlar majmuasini tasvirlash uchun asos yaratishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bir (birlamchi) kontseptni tushunish boshqa (murakkab) kontseptga murojaat qilishni va shu tariqa dinamik tarjima freymalarning murakkab kontseptual tuzilmasini faollashtirishni talab qilishi aniq.

## **Dinamik tarjima freymlari va ularning tarjima jarayonidagi o'rni**

Dinamik tarjima freymlar tarjima jarayonida uchraydigan vaziyatlarni tasvirllovchi harakatlar ketma-ketligini ifodalaydi. Unda sabab-oqibat aloqasi prinsipi qo'llaniladi, ya'ni har bir harakatning natijasi keyingi harakatning yuzaga kelishi uchun shart-sharoit yaratadi. Dinamik tarjima freymlar bir-biriga bog'langan sababiy harakatlar zanjiridan iborat bo'lib, ko'plab mumkin bo'lgan yo'nalishlarga bo'linishi va o'ziga xos muhim nuqtalarda – elementar harakatlarda birlashishi mumkin.

Dinamik tarjima freymlar to'liq vaziyat freymi sifatida o'zaro bog'langan va bir-biriga kirib boruvchi mikrofreymlardan iborat. Mikrofreymlar belgilangan obyektning barcha belgilarini o'z ichiga oladi: asosiy (vaziyatni identifikatsiya qilish uchun zarur), potentsial (belgilangan obyekt haqidagi umumiy bilimdan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalar) va assotsiativ (ushbu obyektning boshqa obyektlar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi) belgilar.

Tarjima freymlarini yozma tarjimonlik faoliyatini aniqlash va tasvirlash usuli sifatida batafsil ta'riflash va uning imkoniyatlarini aniqlash tarjima umumiy nazariyasi doirasida uning freym (senariy) shakllantirilishiga kirishish imkonini beradi. Bunda kognitiv jarayonlarni modellashtirishda qo'llaniladigan interaktiv-konnektiv (interaktiv-konnektionistische) va modulyar-seriyali (modular-serielle) yondashuvlar [Belke, Duwe, Schade 1998: 16] hisobga olinadi. Bu tarjimonning asliyat matn bilan o'zaro ta'sirida modullashtiriladigan kognitiv jarayonlar, subjarayonlar va mikrojarayonlar seriyasi sifatida qaralishiga imkon beradi. Bunday jarayonlar ierarxiyasini biz tarjima freymlar, subfreymlar va mikrofreymlar gradatsiyasi sifatida tasavvur qilamiz, ularning terminallari ierarxiya tepasidan pastga tushgan sari tobora aniqroq ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

### **Tarjima freymlari va ularning tarjima jarayonidagi tuzilishi**

Bizning fikrimizcha, empirik materiallar asosida qurilgan barcha mavjud modellar to'plami, ya'ni tarjimon tomonidan asliyat matn yoki uning bir qismini tarjima qilish uchun bajaradigan aqliy operatsiyalar ketma-ketligining shartli tasviri sifatida qabul qilinadigan ishchi ta'rif, tarjima freymlarga qisqartirilishi mumkin.

Tarjima freymlarining cho'qqisi faoliyat nomi – tarjima deb ataladi, bu asliyat matnda berilgan muallif dasturi bo'yicha aqliy faoliyat sifatida qaraladi. Statik tarjima freymning yuqori darajadagi

tugunlari allaqachon aniq ma'lumotlar bilan to'ldirilgan: subyekt – tarjimon, maqsad – asliyat matn, jarayon – aliyat matn mazmunini tushunish va bayon qilish, natija – tarjima. Fokalizatsiya prinsipidan foydalanib [Goncharenko, Shingaryova 1984: 15], biz ularni tarjima jarayoni tashkil etiladigan fokal nuqtalar sifatida ajratamiz. Bu har biri uchun subfreymlar va mikrofreymlar tuzishni osonlashtiradi.

Tarjima jarayoni o'z-o'zidan yuz bermaydi, uning amalga oshirilishi doimo harakat ishlab chiqaruvchisi bilan bog'liq, shuning uchun dinamik tarjima freymlar tuzish va uning terminallarini to'ldirish "tarjimon" tugunidan boshlanishi kerak. Faoliyat yondashuviga ko'ra, biz uni "aqliy faoliyat mexanizmi" subfreymi sifatida tasavvur qilamiz. Uning ishi, ya'ni asliyat matnni qabul qilish va tarjimani ishlab chiqarish, markaziy asab tizimining o'ziga xos tuzilishi va ishlashi bilan ta'minlanadi, uni soddalashtirib, "aqliy faoliyat mexanizmi"ning uchta terminali sifatida tasavvur qilish mumkin: 1) asliyat matnni qabul qiluvchi retseptor terminal; 2) asliyat matnni qayta ishlaydigan va saqlaydigan xotira terminali; 3) tarjimani chiqaruvchi effektor terminali.

Xotira mikrofreymning ajralmas tarkibiy qismi individual tezaurusdir, ya'ni voqelik haqidagi bilimlar tizimi, shaxsning madaniy xazinasi bo'lib, turli xil ideal paradigmlar, bog'lanishlar va sxemalar shaklida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, "individual bilim" atamasi ma'lum bir shaxsga xos bo'lgan bilim mazmuniga ishora qilmaydi (shaxsiy bilim), balki shaxs sifatida tur vakili sifatida shaxsning bilimining prinsipial xususiyatlariga ishora qiladi, ya'ni psixik faoliyat qonuniyatlari bo'yicha shakllanadigan, jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan normalar va baholar ta'siri va nazorati ostida bo'lgan va insonning voqelikni aks ettirishini ifodalovchi bilim [Zalevskaya 1999: 9–10].

Shunday qilib, xotira mikrofreym terminallari "til bilimi, madaniyat bilimi, sotsiomadaniy shakllangan ensiklopedik bilim, ya'ni ikki til yoki madaniyat jamoalarining mamlakatshunoslik-madaniyat bilimi" [Fleischmann 1999] hamda, albatta, professional (tarjimonlik) bilim va tajriba bilan to'ldiriladi. Faerga xos paradigmadagi tajriba shaxsning barcha hayotiy faoliyat sohalarida samarali to'plangan tajribasi sifatida xarakterlanadi, bunda madaniyatning moddiy dunyosi va undan foydalanish usullari ajralmasdir. Tajriba reflektiv faoliyat sifatida reflektiv aloqalar va munosabatlarni o'rnatishga tayyorlik sifatida shakllanadi.

N.L. Galeeva tasnifiga asoslanib, biz asliyat matnni "mazmun" dasturi bo'yicha qurilgan matnlar va "mazmun + ma'nolar

mozaikasi” dasturi bo’yicha qurilgan “g’oyaviy matnlar” sifatida tasniflaymiz [Galeeva 1997: 41]. Shu asosda biz “o’z mualliflik dasturi xususiyatlari” terminaliga ega bo’lgan o’z mualliflik dasturi subfreymini ajratamiz, bu terminalning vazifasi boshqa freymning fokusiga ishora qiluvchi ko’rsatkichni aniqlash bo’lishi mumkin. Bu freym SFdan farqli o’laroq, chuqurroq vaziyatni — “mazmun” va “mazmun + ma’nolar mozaikasi” terminallariga ega bo’lgan kompozitsion mikrofreymni ifodalaydi. Tarjimon va asliyat matn o’rtasidagi reflektiv bog’lanish subfreymning mikrofreymlarini, asosan retseptor mikrofreymni faollashtiradi, uning natijasi o’z mualliflik dasturining rubrikatsiyasidir [Belyaeva, Piotrovskiy 1996: 62]. O’z mualliflik dasturi rubrikatsiyasi asliyat matnni aniqlashning birinchi bosqichi sifatida keyingi harakat — asliyat matnni tushunish (ikkinchi aniqlash bosqichi) yuzaga kelishi uchun shart bo’lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, asliyat matnni tushunish matn shaklini va uning tarkibiy elementlarini (birinchi navbatda so’zlar va jummalarni) aniqlashdan boshlanadigan murakkab jarayondir. Keyin tarjimon shaklni o’zida mavjud so’zlar ma’nosi, tushunchalar, madaniy kontseptlar va boshqalar haqidagi bilimlari asosida mazmun bilan bog’laydi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, “tushunish” subfreymni ajratish mumkin, uning terminallari “o’z mualliflik dasturini aniqlash” va “o’z mualliflik dasturini tahlil qilish”dir. Xotira mikrofreym va o’z mualliflik dasturi o’rtasidagi reflektiv bog’lanishda “tushunish” subfreymning shakl hosil qiluvchi, kommunikativ va mazmunli mikrofreymni faollashtiradi.

Shakl hosil qiluvchi mikrofreym matn va jumlar elementlarining o’ziga xos xususiyatlarini dekodlashni (masalan, so’z o’yinlari, obrazli vositalar, allyuziyalar va h.k.) imkonli qiladi. Uning “farqlash” va “obraz shakllantirish” terminallari to’ldirilishi natijasida keyingi harakat — “tanib olish” yuzaga keladi, bu esa o’z navbatida kommunikativ va mazmunli mikrofreymni faollashtirish uchun shart bo’ladi.

Ushbu mikrofreymlar vaziyat tahliliga, matn funksionalligiga, tarjimonning so’zlar, barqaror iboralar ma’nosi haqidagi bilimlarini tashkil qilishga yordam beradi va shuning uchun “muallif”, “intensiya”, “diskurs”, “intertekstualik”, “til material” terminallariga ega. Ushbu terminallar aniq ma’lumotlar bilan to’ldirilganda, o’z mualliflik dasturini ma’nosining sintezi va qisqartirilishi yuz beradi, bu esa subfreym “fikrlash faoliyati mexanizmi”ning effektor mikrofreymni va shu orqali “kengaytirish” subfreymni faollashtirish

uchun shart bo'ladi.

“Kengaytirish” subfreym tarjimonning o'z mualliflik dasturini elementlarini uzatish uchun harakatlarini sxematizatsiya qiladi. Uning tuzilishiga kirishdan oldin, bu jarayonning mohiyatli xususiyatlarini tasvirlash kerak. Asliyat matn “qisqartirilganda” va nafaqat moddiy so'z shaklida, balki aqliy shaklda ham mavjud bo'lganda, tarjimon miyasida o'z mualliflik dasturini boshqa so'z shaklida uzatish bilan bog'liq murakkab tahlil va sintez jarayonlari yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, tayyor aqliy shaklning ma'nosini ichki (aqliy-til) faoliyat yordamida tarjimaning moddiy vositalari bilan chiziqli tuzilishga “kengaytirish” sodir bo'ladi. Aniqki, muvaffaqiyatli kengaytirish oldingi bosqich natijalariga bevosita bog'liq: tarjimon tarjima vositalari bilan faqat tushungan narsasini adekvat uzata oladi va o'z mualliflik dasturiga qanchalik chuqur kirsa, tarjima sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlik faoliyatini freymlar asosida kognitiv yondashuv orqali modellashtirish tarjima jarayonini chuqurroq tushunish va uni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Freymlar — tarjimon ongida shakllanadigan bilim tuzilmalarini ifodalovchi vosita bo'lib, ular yordamida tarjimaning har bir bosqichi — matnni tushunish, qayta ishlash va adekvat tarzda uzatish — aniq tahlil qilinadi. Maqolada keltirilgan statik va dinamik tarjima freymdari modeli tarjimonning kognitiv faoliyatini izchil ravishda tasvirlaydi hamda tarjima jarayonidagi ichki mexanizmlarni ochib beradi. Bunday yondashuv tarjimon tayyorlash jarayonida, tarjimoni baholashda hamda tarjima sifati va samaradorligini oshirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, freym asosidagi modellashtirish tarjimonning madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga ham keng yo'l ochadi.

### **Adabiyotlar**

- Belke E., Duve T., Shade U.1998. *Фреймовая когнитивная модель*. Берлин: Шпрингер.
- Belyaeva Ye.I., Petrovskiy R.G.1996. *Когнитивные аспекты перевода*. Санкт-Петербург: СПбГУ.
- Galeeva N.L.1997. *Когнитивный аспект в переводе: Тезисы докладов конференции*. Казань: Издательство Казанского университета.
- Chiruxina O.N. 1996. *Психология знания: модель фрейма*. Москва: Издательство МГУ.
- Van Deyk T.A.1989. *Язык. Познание. Коммуникация*. Москва: Прогресс.
- Svillin M.1977. *Проблемы эвристических методов в переводе*.

Ленинград: Наука.

Lakoff Dj.1987. *Женщины, огонь и опасные вещи: Что категории раскрывают о мышлении*. Чикаго: Университет Чикаго.

Гончаренко И.К., Шингарёва О.Л. 1984. *Структура дискурса и его лингвистический анализ*. Киев: Наукова думка.

Залевская А.А. 1999. *Введение в психолингвистику*. Тверь: Тверской государственный университет.

Фляйшман Э. 1999. *Культурные измерения в переводе*. Тюбинген: Нарт Ферлаг.

## Translation activity cognitive structuring based on frames

Nigina Temirova<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes translation activity within the framework of cognitive approaches and frame theory. The author explores the possibilities of modeling the translation process through knowledge structures in human cognition — frames. Translation is regarded as a dynamic activity that is continuously reproduced and adaptable to social and cultural changes. Using frames, the author examines the static (superframe) and dynamic (microframe) components of the translation process, as well as the knowledge modules shaped by the translator's memory, linguistic and cultural knowledge, and personal experience. The translator's activity is described as a complex cognitive structure that models the step-by-step processes of perceiving the source text, understanding it, and conveying it in translation. This approach plays a significant role in translator training, deeper understanding of translation processes, and optimizing translation quality.

**Key words:** *frame theory, cognitive modeling, static frames, dynamic frames, mental activity, microframe, linguistic and cultural knowledge.*

### References

Galeeva N.L. 1997. *Kognitiv aspekt v perevode: Tezisy dokladov konferentsii*. Qozon: Qozon universiteti nashriyoti.

Chiruxina O.N. 1996. *Psixologiya znaniya: model freyma*. Moskva: Izdatel'stvo MGU.

<sup>1</sup> Nigina A. Temirova – Post graduate student of the University of Tashkent State Uzbek language and literature named after Alisher Navo'i

**E-mail:** temirovanigina@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-2485-1363

**For citation:** Temirova N.A. 2025. "Translation activity cognitive structuring based on frames". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (1): 57-65.

- Deyk van T.A. 1989. *Yazyk. Poznanie. Kommunikatsiya*. Moskva: Progress.
- Svilling M. 1977. *Problemy evristicheskix metodov v perevode*. Leningrad: Nauka.
- Lakoff G. 1987. *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. Chicago: University of Chicago Press.
- Belke E., Duwe T., Schade U. 1998. *Frame-based cognitive modeling*. Berlin: Springer.
- Goncharenko I.K., Shingaryova O.L. 1984. *Struktura diskursa i ego lingvisticheskij analiz*. Kiev: Naukova Dumka.
- Zalevskaya A.A. 1999. *Vvedenie v psixolingvistiku*. Tver': Tverskoj Gosudarstvennyj Universitet.
- Fleischmann E. 1999. *Kulturelle Dimensionen in der Translationswissenschaft*. Tübingen: Narr Verlag.
- Belyaeva E.I., Piotrovskiy R.G. 1996. *Kognitivnye aspekty perevoda*. Sankt-Peterburg: SPbGU.

## Somerset Moem hikoyalaridagi ayrim frazeologik birikmalar tarjimasini

Elgiza Sobirova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada ingliz adibi Somerset Moemning hikoyalarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning tarjima jarayoni lingvistik, stilistik va madaniy jihatlarini nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Muallif Moemning asarlaridagi frazeologizmlar nafaqat syujet rivoji va qahramon xarakterini ochishda, balki ijtimoiy-tanqidiy va kinoyaviy ohangni ifodalashda ham muhim stilistik vosita sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Maqolada A.V. Kunin, Ch. Taber, P. Nyumark, V.N. Komissarov kabi tarjima nazariyotchilari qarashlari asosida frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari (to'liq moslik, qisman moslik, nomuvofiqlik) o'rganiladi. Shuningdek, "Makintosh", "Yomg'ir" va "Nonushta" kabi hikoyalardan misollar orqali frazeologik birliklarning o'zbek tilidagi tarjimasini tahlil qilinadi. Muallif frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvistik vositalar bilan bir qatorda madaniy kontekst, obrazlilik, psixologik effekt va funksional ekvivalentlikni saqlash zarurligini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** *Somerset Moem, frazeologik birlik, tarjima nazariyasi, stilistik ekvivalent, madaniy kontekst, funksional moslik, frazeologik tarjima, obrazlilik, idiom, maqol, matal, tilshunoslik, badiiy matn.*

### Kirish

Somerset Moemning nasriy ijodi tildagi ixchamlik, obrazli ifoda va hayotiylik prinsiplariga tayangan holda shakllanadi. Aynan shu jihatlar uning asarlarini tarjima qilish jarayonida, ayniqsa frazeologik birliklarga to'g'ri yondashishni zarur qiladi. Moem qalamiga mansub hikoyalarda frazeologizmlar syujetning rivojlanishida, qahramon xarakterini yoritishda va ijtimoiy-hazil effektini yaratishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ularning badiiy yuklamasi va semantik chuqurligini to'g'ri tushunish, tarjima jarayonida ularga ekvivalent topa bilish tarjimonning ijodiy

---

<sup>1</sup> Sobirova Elgiza Alibek qizi – tarjima nazariyasi va amaliyoti o'zbek – ingliz tarjima ta'lim yo'nalishi 3 – bosqich talabasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** sobirovaelgiza97@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0002-7488-4470

**Iqtibos uchun:** Sobirova E.A. 2025. Somerset Moem hikoyalaridagi ayrim frazeologik birikmalar tarjimasini. *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1). 66-77.

va ilmiy yondashuvini talab etadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish masalasida bir qator tilshunos olimlarning nazariy qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, A.V. Kunin, E. Nayda va Ch. Taber, P. Nyumark hamda V.N.Komissarov kabi tadqiqotchilar frazeologizmlarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki madaniy, stilistik va kommunikativ omillarni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Masalan, Komissarov frazeologik ifodalarni tarjima qilishda ularning semantik mazmunini "ko'chirish", ya'ni o'xshash obraz va emotsional ta'sirga ega muqobilni tanlash tarafdori bo'lsa, Newmark esa iboraning funksional mazmunini asrab qolishga urg'u bergan holda "kommunikativ tarjima" tamoyilini ilgari suradi.

Tilshunos olim A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da frazeologik birliklarga "tuzilish jihatdan so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik, turg'un birikmalarining obrazli, ko'chma ma'noga ega turi" deb ta'rif berilib, frazeologizmning "obrazlilik va ko'chma ma'nolilik" integral belgilari turg'un birikmalardan farqlovchi differensial belgilari sifatida e'tirof etiladi." [ Болтаева Б. И 2019/56-37]

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni boshqa turdagi so'z birikmalaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlar aniqlangan. Bunday birliklar aniq grammatik shaklga ega bo'lib, tuzilish jihatidan barqaror va yaxlit holda qo'llaniladi. Ular til tizimida allaqachon mavjud bo'lib, nutqqa tayyor holatda kiradi. Frazeologik birliklarning muhim belgilaridan biri — obrazlilik bo'lib, ularning tarkibidagi so'zlar o'zining asl lug'aviy ma'nosidan chetlanib, yangi, ko'chma ma'no kasb etadi. Shu tufayli bunday birliklar oddiy yoki erkin turg'un so'z birikmalaridan mutlaqo farq qiladi.

"Frazeologiya" atamasi ko'pincha barqaror ifodalar, iboralar va nutq qoliplari orqali ma'no berishni anglatadi. Garchi frazeologiya ilmiy tahlil obyekti sifatida yaqindagina alohida yo'nalish sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimiy davrlargacha borib yetadi. Olimlarning fikricha, frazeologik birliklar tilning o'zi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan va uning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib borgan. Ular har bir jamiyat va davrda turlicha talqin qilingan va baholangan.

Tilshunoslikda "frazeologiya" tushunchasi fransuz tilshunosi Sharl Balli tomonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qo'shib o'rganilgan. Lekin taniqli tilshunos olim prof. E.F.Polivanov

frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bildirgan. bo'lgan. Shu fikrni qo'llab-quvvatlagan olimlardan yana biri akademik V.V.Vinogradovdir. U o'zining qator ilmiy tadqiqotlarida rus tilidagi frazeologik birikmalarni o'rgandi va ularni semantic jihatdan guruhlariga bo'lib chiqdi. [Рахимов Г 2016. – Б. 176.]

E.F. Polivanov va V.V. Vinogradov olib borgan ilmiy izlanishlar frazeologiya sohasida tadqiqotlarning kengayishiga zamin yaratdi. Hozirgi kungacha frazeologiyani mustaqil fan sifatida tan olish borasida turli fikrlar mavjud. Ayrim olimlar frazeologik birliklarni faqat tayyor ma'noga ega iboralar bilan cheklaydi, boshqalari esa maqol va aforizmlarni bu guruhga kiritmaydi. Yana bir guruh mutaxassislar bu birliklarni sinonim yoki boshqa leksik vositalar sifatida ko'rib, ularni leksikologiya doirasida tahlil qilish tarafdori bo'lishmoqda.

Professor Sh. Raxmatullayevning fikricha, lug'at birliklarida qatnashuvchi so'zlardan tashkil topgan iboralar frazeologik birlik sifatida qaralishi lozim. Bu birliklar nafaqat ma'nosi bilan, balki shaklan barqarorligi orqali ham lug'aviy birliklar sifatida tan olinadi. Bu yondashuv ko'plab boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, M. Sodiqova frazeologiyani keng doirada talqin qilgan va o'zining "Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at"ida maqollar va matallarni ham frazeologik birlik sifatida kiritgan. Yana boshqa olimlar ham – xususan Y.D. Pinxasov va Q. Musayev – obrazli iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar va idiomatik ifodalarni frazeologiyaning tarkibiy qismi deb bilishadi. Biz ham aynan ana shu keng qamrovli yondashuvni ma'qul ko'rib, tarjima jarayonida erkin iboraviy tuzilmalarni ham frazeologik birlik sifatida baholaymiz.

Frazeologik birliklarni boshqa tilga tarjima qilish esa ancha murakkab jarayon bo'lib, bunda bir qator lingvistik va madaniy omillar hisobga olinishi kerak. Xususan, so'zlar o'rtasidagi grammatik bog'lanish, omonimiya, sinonimiya, hamda frazeologizmlarning ko'p ma'nolilik (polisemiya) xususiyati tarjimada muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim jihat – ayrim frazeologik birliklarning muayyan xalqning madaniy an'anasi va uslubiy xususiyatlarini ifodalashidir. Bu esa ularning boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri muqobilini topishni qiyinlashtiradi. Shu bois, tarjima jarayonida bunday birliklarni to'g'ri anglash va talqin qilish uchun yuqoridagi barcha omillarni inobatga olish zarur.

Frazeologik birliklarning quyidagi turlari mavjud: frazema va idiomalar. Frazemalar kontekst tobe va aniq indikatoridan tashkil topgan birliklar hisoblanadi. Idiomalar esa kontekstdagi umumiy

ma'noni belgilab beruvchi, tobe va aniqlovchi unsurlarning to'laligi va tengligini belgilovchi leksik birliklardir. [Рахимов F 2016. – Б. 176]

Frazeologik birliklar turli shakl va turlarda namoyon bo'lib, ularni til tizimida alohida mikrostruktura sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ularni boshqa tilga tarjima qilishda ikki tilning lingvistik tizimi asosida funksional jihatdan teng yoki yaqin bo'lgan birliklarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda frazeologik birliklar o'zaro o'xshashlik va farqlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ba'zi hollarda bir tilga xos frazeologik ifoda boshqa tilga to'liq yoki qisman shaklan mos keladi, ammo ayrim hollarda umuman mos ekvivalent topilmasligi ham mumkin. Shu sababli, tarjimada har bir frazeologik birlikka individual yondashuv talab etiladi.

“Tarjima qilinishi mushkul birliklari” shkalasida salkam birinchi o'rinda turuvchi til birliklari bu – frazeologizmlar hisoblanadi. Tarjimashunos olimlar asliyat tili (keyingi o'rinlarda – AT)dagi frazeologik birliklarni uch guruhga ajratib o'rganishni va tarjima tili (keyingi o'rinlarda – TT)ga o'girishni tavsiya qiladilar. [Сирожицкин III 2011. – Б. 166]

Tarjima jarayonida frazeologik moslikning quyidagi uch asosiy shakli ajratiladi:

1. **To'liq moslik** – frazeologik birliklarning shakl va ma'no jihatidan boshqa tildagi ifoda bilan to'liq muvofiqligi;

2. **Qisman moslik** – shakl yoki ma'no jihatdan faqat ayrim jihatlari o'xshash bo'lgan holatlar;

3. **Nomuvofiqlik** (mos kelmaslik) – tarjima tilida bu frazeologik birlikka to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topilmasligi, ya'ni shakl ham, ma'no jihatdan farqlanishi.

To'liq muvofiqlik holatida frazeologik birliklar ikki tilda ham shakli va mazmuni jihatidan to'la-to'kis mos tushadi. Biroq bunday holatlar tarjimada kamdan-kam uchraydi. Masalan, Somerset Moemning “Makintosh” hikoyasidagi frazeologik birliklarni tahlil qilganda, turli xil tarjima yondashuvlariga duch kelamiz. Ushbu asar dastlab ingliz tilidan I. Gurov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, keyinchalik esa Muhiddin Omon tomonidan rus tilidagi variant asosida o'zbek tiliga o'girilgan. Tarjimon M. Omon ruscha matnning uslubi va tiliga sodiq qolgan holda o'zbek tilidagi tarjimasini amalga oshirgan va undagi frazeologik birliklarni imkon qadar asl holicha saqlab qolishga intilgan. Natijada, tarjimada aks etgan frazeologik birliklarning aksariyati shakl va mazmun jihatdan to'liq muvofiqlikka ega ekvivalentlar bilan berilgan. Masalan,

*Never in his wildest dreams. – Даже во сне бы не приснилось.*  
– *Yetti uxlab tushiga ham kirmagandi.*

Bu frazeologik birikma kutilmagan, tasavvurga sig'maydigan hodisaga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora asliyatga ma'no va uslub jihatdan to'liq mos keladigan frazeologik birlikni topish orqali, ya'ni ekvivalent tarjima (phraseologic equivalent) berish orqali tarjima qilingan.

*He was getting more and more irritable. – Становился всё раздражительнее. – Ta'bi tirriq bo'lib borardi.*

Ushbu birikma ham frazeologik moslikning to'liq mos kelish turiga mansub va bu ibora insonning kayfiyati yomonlashib borayotganda ishlatiladi. Bu birikma asliyatdan so'zma-so'z tarjima qilish usuli orqali tarjima qilingan. Bu yerda asliyatda oddiy "He became irritable." degan ibora bo'lishi mumkin. Shaklan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan.

*Sent him straight to hell. – Прямо в ад отправил. – Naq asfalasofilinga jo'nataran.*

Bu ibora to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni so'zma-so'z tarjima qilish usuli bilan tarjima qilingan. Ingliz tilidagi *hell* so'zi o'zbek tilidagi *do'zax*, *jahannam* so'zlari bilan bir xil. Rus tilidagi *ad* so'zi ham xuddi shunday ma'noni anglatadi. *Asfalasofilin* so'zi esa arab tilidan kirgan bo'lib, asliyatda tubanlarning tubani, eng yaramas, eng tuban ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida alohida holda *do'zaxning* eng tagi, *jahannam* ma'nosida qo'llanadi. Ham ingliz, ham o'zbek tilida so'zlarning o'z muqobililar bo'lgani uchun tarjimon frazeologik birikmalarni tarjima qilish jarayonida qiyinchilikka duch kelmagan.

Qisman muvofiqlik esa frazeologik birliklar shaklan o'xshash bo'lsa-da, leksik yoki grammatik jihatdan farq qiladigan hollarini anglatadi. Bunda ifoda vositalari boshqa bo'lishi mumkin, ammo umumiy mazmun va uslub o'xshash bo'ladi.

• *Bragged without restraint. – Нагло хвастался. – Og'zini to'ldirib maqtanar.*

Bu frazeologik birlik kompensatsiya usulida tarjima qilingan bo'lib, asl matndagi yoki emotsional ohang boshqa joyda yoki boshqa uslub bilan qoplanadi.

• *Can you take a joke? – Вы умеете воспринимать шутки?*  
– *Hazilni ko'tara olasizmi?*

Yuqoridagi frazeologik birikma erkin tarjima usuli bilan o'girilgan bo'lib, bunda birlikka boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri mos tushuvchi ekvivalent mavjud emas. Shu sababli uning mazmuni tarjimada erkin shaklda, kontekstga mos ravishda ifodalanadi.

Umuman mos kelmaslik holati esa bir tilda mavjud bo'lgan frazeologik ifodaning boshqa til(lar)da hech qanday to'g'ridan-to'g'ri yoki yaqin muqobiliga ega bo'lmasligi bilan izohlanadi. Bu ayniqsa milliy urf-odat, madaniyat va mentalitetga xos bo'lgan iboralarga tegishlidir. Bunday vaziyatlarda tarjimon iboraning mazmunini sharhlovchi yoki unga muqobil ifoda topishga urinuvchi uslubiy vositalardan foydalanishga majbur bo'ladi. Bunday frazeologik birikmalarni quyidagi usullar yordamida tarjima qilish mumkin:

1. So'zma-so'z tarjima – iboraning har bir so'zini asl shaklida tarjima qilish orqali ma'no beriladi.

2. Monand (ya'ni analog) tarjima – bu usulda ifodaning mazmuni boshqa tildagi ekvivalent ibora orqali beriladi.

3. Ma'noviy tarjima – frazeologik birikmaning shakli emas, balki kontekstdagi ma'nosi asosida tarjima qilinadi.

Frazeologizmlar – bu maqol, matal va idiomalardir. Turmushda sinalgan, ma'lum ezgu, tugal umumiy ma'no anglatuvchi, ixcham, jaragdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatiga maqol deyiladi. Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan nutqiy tarkibdir. Idioma ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora. [Ochilov E 2012. – B. 124]

Maqol, matal va idiomalarni tarjima qilishda odatda uchta asosiy yondashuv qo'llaniladi: birinchisi – asl tilidagi frazeologik birlikka tarjima tilidan to'g'ri va mos tushuvchi ekvivalent topish. Bu – frazeologik ekvivalentlik prinsipi deb yuritiladi. Tarjimon asl til (masalan, ingliz tilidagi) iboraga tarjima tilida (masalan, o'zbek tilida) mazmun va uslub jihatdan aynan mos tushuvchi iborani topishga harakat qiladi. Moemning "Taypan" nomli hikoyasida *"besh qo'lday bilishardi"* idiomasi keltirilgan. Bu ibora asliyatda *"they knew like the back of their hand"* tarzida keltirilgan. Bunda tarjimon idiomani tarjima qilish jarayonida mos keluvchi ekvivalentni topgan.

Ikkinchisi – tarjima tilida mavjud bo'lgan, mazmun va uslub jihatdan o'xshash ifodani tanlash. Agar asl tildagi frazeologik birlikka to'g'ri-teskari ekvivalent topib bo'lmasa, tarjimon o'xshash ma'no beruvchi, lekin madaniy jihatdan tarjima tiliga mos bo'lgan boshqa bir iborani qo'llaydi. Bu usul – interpretativ ekvivalentlik yoki erkin muqobillik deb yuritiladi. Masalan, Moemning "Omadi chopgan musavvir" hikoyasida "... yuksak did va joziba bilan kiyingan xonimlarning o'z davrasiga xuddi uzukka ko'z qo'ygandek munosib ..." gapida *"uzukka ko'z qo'ygandek munosib"* idiomasi asliyatda *"fit the scene like a glove"* tarzida keltirilgan. Bu idiomada "uzuk" va "glove"

(“qo‘lqop”) obyektlari milliy mentalitet jihatidan mos kelmaydi va ingliz tilidagi “qo‘lqop” obyekti bizning mentalitetimizga to‘g‘ri kelmagani uchun bu iboraga o‘zbek tiliga analog sifatida “uzukka ko‘z qo‘ygandek munosib” iborasini tanlash mumkin.

Uchinchisi esa frazeologik birlikmani so‘zma-so‘z tarjima qilish. Agar ushbu usullarning birortasi ham qo‘llab bo‘lmasa, tarjimon faqat umumiy mazmunni yetkazish bilan cheklanishga majbur bo‘ladi. Bu usulda frazeologik birlik leksik shakli buzilmagan holda bevosita tarjima qilinadi. Biroq bu yondashuv har doim ham foyda bermaydi, chunki u mazmuniy yoki uslubiy xatolik keltirib chiqarishi mumkin. Moemning yana bir hikoyalardan biri “Makintosh”da *“stick his nose into something”* iborasi *“biror ishga burnini tiqadi”* tariqasida so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali amalga oshirgan.

Somerset Moem ijodi ingliz badiiy nasrining yorqin namunalardan biri hisoblanadi. Uning hikoyalari soddaligi bilan ajralib tursa-da, mazmunan chuqur va boy bo‘lib, ayniqsa xalq tilidan olingan iboralar, so‘z o‘yinlari, kinoya va ko‘chma ma‘nodagi ifodalar bilan bezatilgan. Muallif frazeologik birliklar orqali obrazlarni yanada jonlantiradi, personajlarning xarakteri, ijtimoiy muhit va madaniy kontekstni aniq va ta‘sirchan ifodalaydi. Shu bois, Moem asarlarini boshqa tillarga tarjima qilishda aynan frazeologizmlarni to‘g‘ri va adekvat yetkazish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Frazeologik birliklar — bu barqaror tuzilmaga ega, lekin ko‘pincha ko‘chma ma‘noni anglatuvchi ifodalardir. Ularning kelib chiqishi ko‘pincha xalq og‘zaki ijodi, madaniy an‘analar yoki tarixiy voqealar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bu birliklarni tarjima qilishda faqat lingvistik bilim emas, balki madaniyatlararo anglash va tafakkur ham zarur bo‘ladi. Moemning hikoyalarda uchraydigan frazeologizmlar tarjimon oldiga ikki asosiy vazifani qo‘yadi: birinchisi – asliyatdagi ma‘noni buzmasdan yetkazish, ikkinchisi – matnning badiiy-estetik ta‘sirchanligini saqlab qolish.

Muallifning hikoyalarda frazeologik ifodalar obrazlilikni kuchaytirish, kinoya va istehzo orqali chuqur g‘oya berish vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, “to know something like the back of one’s hand” iborasi o‘zbek tilida “besh qo‘lday bilmoq” shaklida tarjima qilinadi va bu holda asliyatdagi mazmun va obraz to‘liq saqlanadi. Tarjimonlar uchun eng katta murakkablik shundaki, bunday iboralarni har doim ham so‘zma-so‘z o‘girish mumkin emas. Ba‘zan ular ma‘no jihatidan aniq bo‘lsa-da, tarjimada sun‘iy yoki noto‘g‘ri eshitilishi mumkin. Shu sababli, frazeologik birliklarni

tarjima qilishda turli strategiyalarni qo'llash zarur bo'ladi.

Somerset Moemning "Yomg'ir" ("Rain") hikoyasida diniy qarashlarga ega bo'lgan janob Devidson hamda erkin tutumli Tompson xonim o'rtasidagi qarama-qarshilik obrazlar orqali yoritiladi. Asarda "to lead someone astray" kabi iboralar orqali diniy-axloqiy kontekstyanada kuchaytiriladi. Bu ibora o'zbek tilida "yo'ldan ozdirmoq" yoki "yomon yo'lga boshlamoq" tarzida ifodalanishi mumkin. Tarjimon ushbu frazeologizmlarni o'girayotganda ularning diniy va axloqiy ma'nolarini inobatga olib, maqsadli tilga mos tarzda yetkazishi zarur. Shuningdek, "to get on someone's nerves" (ya'ni, "asabiga tegmoq") kabi ifodalar personajlarning psixologik holatini aniq aks ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Moemning hikoyalarida uchraydigan frazeologik birliklar ko'pincha og'zaki nutq uslubida bo'lib, ular personaj tilini tabiiyroq va ishonarliroq ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, "to throw in the towel" iborasi "taslim bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi va uni o'zbek tilida "qo'l siltamoq" yoki "nima bo'lsa bo'ldi demoq" kabi mos keluvchi iboralar orqali ifodalash mumkin. Bu yerda iboraning semantik ma'nosi bilan bir qatorda, personajning ruhiy holati ham tarjimada inobatga olinishi muhimdir.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjimon bir qator muhim jihatlarni hisobga olishi kerak:

*Shakl va ma'no mosligi* – bu iboraning grammatik tuzilishi va asosiy semantik mazmunining muvofiqligidir. Ba'zan ikki til frazeologizmlari shaklan farqli bo'lsa-da, bir xil ma'noni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi "to break the ice" iborasi "suhbatni boshlash" ma'nosini bildiradi, o'zbek tilida bu "tilda bog' echmoq" tarzida ifodalanadi.

*Madaniy konnotatsiya* – ba'zi iboralar muayyan xalqning tarixiy-madaniy an'analariga asoslangan bo'lishi mumkin. Masalan, "Achilles' heel" yunon mifologiyasiga borib taqaladi va uni "eng zaif nuqta" deb tarjima qilish mumkin. Biroq bu obraz o'zbek o'quvchisi uchun har doim ham tushunarli bo'lmasligi mumkin.

*Konnotativ va emotsional ohang* – iboraning hazil, kinoya, istehzo yoki dramatik mazmunini saqlab qolish tarjimaning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Moemning asarlarida bunday iboralar ko'p uchraydi. Masalan, "he is not the sharpest tool in the shed" iborasi aslida "u unchalik aqlli emas" degan kinoyaviy ma'noni beradi va uni o'zbek tilida "suvga tushib qolsa, pichoqni yelimdan izlaydi" kabi obrazli ibora orqali ifodalash mumkin.

Muallifning mashhur hikoyalaridan biri “Yomg‘ir”ni olaylik. Unda quyidagi ibora mavjud:

*“The girl had made a fool of him.”*

Tarjimasida bu ibora “Qiz uni masxara qildi” tarzida so‘zma-so‘z berilgan. Biroq konnotativ ohangni yaxshiroq saqlab qolish uchun “qiz uni sirk maymuniga aylantirdi” yoki “og‘ziga nima kelsa, shuni qildirdi” kabi milliy obraz bilan to‘ldirilgan iboralar ham mumkin edi.

Yana bir misol, “Nonushta” (“The Luncheon”) hikoyasida:

*“I had the distinct impression I was being taken for a ride.”*

Mazkur ibora “meni aldashayotgandek tuyuldi” degan mazmunda ishlatilgan. “Til bilan go‘sht yedirishdi” kabi obrazli ifoda bilan almashtirish tarjimada jonlilik yaratishi mumkin.

Tarjimonlar ko‘pincha frazeologik birlikni quyidagi shakllarda tarjima qiladilar:

a) Formal ekvivalent bilan: shakl va ma‘no mos bo‘lsa. Masalan, “to cry over spilt milk” – “oqib ketgan sutga yig‘lamoq” – “o‘tgan ishga ho‘ngrab yig‘lama”.

b) Funktsional almashtirish bilan: maqsadli tilga xos ibora tanlab. Masalan, “to beat around the bush” – “atrofini aylanish” – “gapni aylantirib aytmoq”.

c) Izohli tarjima: ba‘zan ibora madaniy begonaligi sababli, tushuntirish bilan beriladi. Bu adabiy asarda kam qo‘llaniladi, lekin ilmiy tarjimalarda mumkin.

Somerset Moem hikoyalarida frazeologik birliklar syujetning keskin burilishlari, personajlarning psixologik holatini ochish va satirik holatlarni yoritishda muhim stilistik vosita sifatida ishlatiladi. Shu sababli, tarjimon ularni shunchaki iboraviy birlik deb emas, balki matndagi stilistik ko‘rsatkich sifatida baholashi lozim. Bu kabi ifodalar dramatik vaziyatni yanada kuchaytirishi, personajning ichki dunyosini yoritishi yoki ijtimoiy tanqidni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “he kicked the bucket” iborasi so‘zma-so‘z tarjimada “u paqirni tepdi” shaklida ifodalansa, bu mazmunni buzadi va jiddiylilik o‘rniga kulgili tus beradi. Aslida esa, ushbu ibora “u vafot etdi”, “jon berdi”, “hayotdan ko‘z yumdi” kabi uslubiy jihatdan mos variantlar orqali adekvat tarzda tarjima qilinishi zarur.

Moemning “Yomg‘ir” hikoyasida uchraydigan “to lead someone astray” iborasi bu fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Mister Davidson – missioner sifatida – Tompson xonimni axloqan “pokiza hayot” sari boshlashni maqsad qiladi. Uning nazarida Tompson

xonimning o'tmishdagi hayoti buzuqlik va ma'naviy buhronni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, ibora diniy-axloqiy ziddiyatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi va personajlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni chuqurroq ochib beradi.

*"She had led countless men astray." "U ko'plab erkaklarni yo'ldan ozdirgan edi."*

Bu ibora diniy kontekstda ishlatilgan bo'lib, "yo'ldan ozdirish" – axloqiy jihatdan yomon yo'lga boshlash degan ma'noni anglatadi. Tarjimada "yo'ldan ozdirgan" iborasi semantik jihatdan mos, diniy ohangni saqlagan, emotsional ta'sir kuchi saqlangan. Bu yerda funktsional moslik qo'llangan, tarjimon frazeologizmdan voz kechmagan, balki o'zbek tilidagi o'xshash ifodani tanlagan.

"Nonushta" hikoyasidan "to be taken for a ride" iborasi:

Muallif yosh bo'lganida bir ayol bilan tushlik qiladi. Ayol uni xushomadlar bilan chiroyli ovqatlarga buyurtma berishga undaydi. Muallif esa bunday qimmat taomlar narxini ko'tara olmasligiga qaramay, ayolning talablariga ko'nadi.

*"I had the distinct impression I was being taken for a ride."*

*"Menga o'xshab, meni aldashayotgandek tuyuldi."*

"To be taken for a ride" – ingliz tilida ko'pincha hazilomuz yoki istehzoli mazmunda "kimsaning aldanishi", "qop-qora qilib ketilishi"ni anglatadi. Bu ibora o'zbek tilida "og'ziga nima kelsa, shuni qildirdi" yoki "til bilan go'sht yedirishdi" kabi obrazli ifodalar bilan yanada jonli berilishi mumkin. Tarjimon esa bu yerda frazeologiklikni saqlamagan, balki erkin tarjima yo'lini tanlagan.

**Xulosa.** Somerset Moem hikoyalarida frazeologik birliklar adabiy matnning ajralmas, stilistik va semantik barqarorligini ta'minlovchi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Ularni tarjima qilishda oddiy so'zma-so'z ekvivalent izlash yetarli emas. Aksincha, tarjimon frazeologik ifodaning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki uning badiiy-funktsional yuklamasini – stilistik rang-barangligini, semantik chuqurligini, madaniy asosini va psixologik ta'sirini ham inobatga olishi zarur.

Bunday jarayon faqat tarjimashunoslik nazariyalari doirasida hal etilmaydi, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi kerak. Tarjimonning vazifasi – asl matnning estetik ohangini, ma'naviy konnotatsiyasini va muallif stilini o'quvchiga imkon qadar tabiiy va obrazli tarzda yetkazishdir. Agar bu talab bajarilmasa, natijada hosil bo'lgan tarjima faqat tashqi mazmunni aks ettiruvchi, ammo ruhiy-estetik jihatdan sust va badiiy ta'sirdan yiroq matnga aylanishi

mumkin. Shuning uchun Moem kabi yozuvchilarning asarlarini tarjima qilishda frazeologik birliklar bilan ishlash – bu nafaqat til bilan, balki muallif dunyoqarashi va uslubini tushunish bilan chambarchas bog‘liq ijodiy jarayondir.

### Adabiyotlar

- Болтаева Б. И., Ўзбек тили фразеологик birliklalarining трансформацияси (Семантик-прагматик таҳлил), Дис-2019/56-37
- Рахимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик-мажмуа - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти, 2016. – Б. 176.
- Сирожиiddинов Ш., Одилова Г., Бадиий таржима асослари, Монография – Тошкент: Мумтоз суз, 2011. – Б. 166.
- Очилова Э. Таржима назарияси ва амалиёти (ўқув қўлланма) – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2012. – В. 124.

## Translation of Certain Phraseological Units in Somerset Maugham's Short Stories

Elgiza Sobirova<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes the process of translating phraseological units used in the short stories of English writer Somerset Maugham from linguistic, stylistic, and cultural perspectives. The author emphasizes that Maugham's use of idiomatic expressions serves not only to advance the plot and reveal character traits but also functions as an important stylistic tool to convey social criticism and irony. The article explores methods of translating phraseological units—such as full equivalence, partial equivalence, and non-equivalence—based on the theories of translation scholars including A.V. Kunin, Ch. Taber, P. Newmark, and V.N. Komissarov. Furthermore, the paper provides an analysis of Uzbek translations of phraseological expressions through examples from Maugham's stories such as "The Verger", "Rain", and "The Luncheon." The author argues

<sup>1</sup> Sobirova Elgiza Alibek qizi – 3rd-year student of the Translation Theory and Practice (Uzbek–English Translation) program at Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**Email:** sobirovaelgiza97@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0002-7488-4470

**For citation:** Sobirova E.A. 2025. "Translation of Certain Phraseological Units in Somerset Maugham's Short Stories". *Uzbekistan: language and culture*, 3 (1): 66-77.

that in translating phraseological units, it is essential not only to consider linguistic tools but also to preserve cultural context, imagery, psychological effect, and functional equivalence.

**Keywords:** *Somerset Maugham, phraseological unit, translation theory, stylistic equivalence, cultural context, functional equivalence, idiomatic translation, imagery, idiom, proverb, saying, linguistics, literary text.*

### **References**

- Boltaeva, B. I. (2019). Transformation of Phraseological Units in the Uzbek Language (Semantic-Pragmatic Analysis). Dissertation No. 2019/56-37.
- Rakhimov, G. (2016). Theory and Practice of Translation: Textbook-Manual. Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia, State Scientific Publishing House. – p. 176.
- Sirojiddinov, Sh., & Odilova, G. (2011). Fundamentals of Literary Translation. Monograph. Tashkent: Mumtoz So'z. – p. 166.
- Ochilova, E. (2012). Theory and Practice of Translation (Study Guide). Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies. – p. 124.

## JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

# Hozirgi o'zbek tarixiy nasrining janr xususiyatlari

Olmos Xurramov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada hozirgi o'zbek nasrining janr xususiyatlari va unda tarixiy shaxslarning janrlar kesimida qay yo'sinda badiiy ifodalanishi haqida munosabat bildirilgan. Tarixiy shaxslarning hayoti keng ko'lamda badiiy tasvirlanishida tarixiy manbalardan qay darajada foydalanishi xususida ham mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** *tarixiy janr, badiiy obraz, badiiy tasvir vositalar, ijodkor mahorati, tarixiy fakt, tarixiy roman, obrazlar tizimi.*

### Kirish

Tarixiy janrlarda badiiy aks ettirilgan barcha voqealar, shaxslar, kichik-kichik epizodlar, mushohada va munosabatlar, sifatlash va o'xshatishlar, hatto detallargacha tarix ilmi yutuqlariga tayanmog'i maqsadga muvofiq. Aks holda bu asar tarixiy realistik janr namunasi bo'la olmaydi. XX asr o'zbek tarixiy adabiyotining aynan mana shu yo'ldan borgani kuzatiladi.

Tarixiy roman (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya) o'zining keng epik ko'lami bois tarixiy voqelikning badiiy analogiga o'xshaydi. Shu nuqtayi nazardan uning estetik, etik qamrovi ham milliy, ba'zan umumbashariy miqyos kasb etadi. O'zining ko'ptarmoqli syujet liniyalari, obrazlar tizimi, konseptual g'oyalari bilan universal vazifa bajaradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida an'anaga kirgan bunday poetik kriteriyalar xuddi Amir Temur, Mirzo Ulug'bek shaxslari kabi taqiqlangan, badiiy adabiyot obyektiga aylanishiga yo'l qo'yilmagan, ammo keyinchalik o'zbek tarixiy adabiyotining fenomenal obraziga aylangan tarixiy shaxs – Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi

<sup>1</sup> Xurramov Olmos Uralovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** khuramov.@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0009-0001-4388-4526

**Iqtibos uchun:** Xurramov, O.U. 2025. "Hozirgi o'zbek tarixiy nasrining janr xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 78-86.

talqinida ham to'la namoyon bo'ladi. U haqdagi lirik, dramatik va prozaik asarlarini o'rganish shundan guvohlik beradiki, Bobur va boburiylar obrazi talqinlari orqali o'zbek tarixiy adabiyoti bir nechta yangi milliy badiiy kriteriyalar bilan boyidi. Holbuki, "O'zining qisqa umrining 30 yildan ko'pini sarson-sargardonlikda o'tkazgan, davr ziddiyatlarining barcha dahshatini tatib ko'rgan chinakam omadsiz shoh va ayni paytda, ilg'or sharq mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari ruhida tarbiyalangan, "Boburnoma" kabi buyuk ensiklopedik asar va yuzlab go'zal g'azallar muallifi bo'lgan, bu ikki xislati o'rtasidagi shiddatli kurash o'tida bir umr qovrilib o'tgan Bobur taqdiri bir necha avlod shoir va yozuvchilarini qiziqtirib kelar, lekin kichik poemalar va hikoyalarni hisobga olmaganda, yirik prozada bu ishga hali jur'at qilib qo'l urilmagan edi" [ Картопов М., Каттабекков А. 1984, Б. 103.].Haqiqatan Bobur davridagi chuqur dramatism, uning shaxsiyatiga xos fojaviylik, ichki kolliziya boshqa janrlardan ham ko'ra aynan roman tafakkurini taqozo qilar edi. Bu vazifa esa birinchi bo'lib yozuvchi Pirimqul Qodirov tomonidan bajarildi. Shu tariqa Bobur va boburiylar obrazining keyingi talqinlari uchun ham o'ziga xos poetik start berildi. Shu tariqa o'zbek adabiyotida Bobur va boburiylar obrazi talqin etilgan lirik, epik va dramatik asarlar muayyan bir badiiy tizimni, ulkan tadqiqot obyekti tashkil etdi.

O'zbek adabiyotida Bobur va boburiylar obrazini talqin etish uchun tarixiy, adabiy-ilmiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Shuni e'tiborga olib, dastlab, shu manbalarning muxtasar tasnifi va tahlilini berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu doiraga kiradigan manbalarni ikki guruhga bo'lib, *birlamchi* va *yordamchi* tarixiy manbalar sifatida tasnif etish mumkin.

Bobur va boburiylar obrazini yaratishda muhim bo'lgan *birlamchi manbalar*, albatta, "Boburnoma" va bevosita uning qalamiga mansub boshqa asarlar hisoblanadi. Asarning Elfinston, Britaniya, Qozon, Haydarobod nusxalari asosida mukammal nashri amalga oshirilishida Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Saidbek Hasanov kabi o'zbek olimlarining, Anetta Bevrij, yapon olimi Eyji Manolarning mashaqqatli xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Bobur shaxsiyatini badiiy talqin etishda ushbu nashrlarning ahamiyati cheksiz. Ayniqsa, so'nggi yillarda matnshunos olim Saidbek Hasanov tomonidan Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Eyji Mano nashrlari qiyosi asosida nashrga tayyorlangan "Boburnoma" asari har jihatdan mukammalligi nuqtayi nazaridan e'tirofga loyiq. Shuning uchun ishning "Boburnoma"ga havola qilingan o'rinlarida ushbu – 2002-yilgi nashrga tayandik.

Mutaxassislar tomonidan “Boburnoma” tarixiy, memuar, geografik, etnografik, biografik asar sifatida baholanadi. Buni to’la e’tirof etgan holda aytish mumkin, “Boburnoma” qator badiiy-tarixiy, etik-estetik va ruhiy-psixologik jihatlarni ham o’zida aks ettiradi. “Boburnoma” Bobur shaxsiyati haqida ma’lumot beruvchi avtobiografik asar bo’lishi bilan birga, birinchi o’zbek ilmiy-tarixiy, adabiy-ilmiy biografiyasi namunasi hamdir. O’quvchi unda muallif avtobiografiyasi va obrazidan tashqari, ko’plab boshqa tarixiy shaxslar biografiyasi, obrazi va xarakter xususiyatlarini kuzatishi mumkin. Shuningdek, bu asar o’zigacha yozilgan tarixiy asarlar an’anasini davom ettiribgina qolmay, badiiy-tarixiy nasrni yangi bosqichga olib chiqdi. “Boburnoma”ning badiiyatga yo’g’rilgan uslubi, undagi turli-tuman badiiy san’at namunalari, voqeot, holat, tushlar tasviri, butun va parcha shaklida keladigan lirik asarlar bunday xulosa yasashimizga to’la asos beradi. Bobur va boburiylar tarixiy obrazini shakllantirishda asardagi bu kabi xususiyatlarning ulkan ahamiyati bor.

Bobur Mirzoning dolg’ali hayoti, darbadar kechmishi u yozgan barcha asarlarning bizgacha yetib kelish imkoniyatini cheklagan. Hozirga qadar bevosita Bobur qalamiga nisbat berib kelinadigan bir devon, islom aqidalari bayon etilgan “Mubayyin” nomli she’riy risolasi, tasavvufga doir she’riy yo’lda tarjima qilgan “Volidiya” asari, “Xatti Boburiy” ataladigan alifbo jadvali va 80-yillarda professor Begali Qosimov tomonidan topilgan “Boburning o’g’li Komron Mirzoga yozgan maktubi” bizga ma’lum. Ushbu asarlarning barchasi Bobur va boburiylar davri ijtimoiy hayoti, falsafasi, ishonch-e’tiqodi, shaxsiy fazilatlari va insonga xos bo’lgan kamchiliklari, ruhiy, ma’naviy holatlari haqida xabar beradigan qimmatli manbalar hisoblanadi. Tarixiy asar mualliflari mana shu asarlarni aniq tizim asosida o’rganmasdan turib, Bobur va boburiylar obrazi hamda xarakterini poetik talqin etishlari, ular haqida mukammal asar yozishlari tarixiylik mantig’iga to’g’ri kelmaydi.

Bobur va boburiylar obrazini talqin etishda asos bo’ladigan *yordamchi manbalar*ning ham tarixiy adabiyot takomili va mukammalligi uchun o’rni cheksiz. Bunday manbalarining o’zi ham makon va zamonga xos xususiyatlari, talqin prinsiplari jihatidan ikkiga bo’linadi. Yordamchi manbalarining birinchi toifasiga bevosita Bobur va boburiylar davrida ijod etilgan tarixiy asarlarni kiritish mumkin. Ikkinchi toifa asarlar sirasiga xorij va o’zbek adabiyotshunoslari, tarixchilari, etnograflari tomonidan yozilgan ilmiy, monografik tadqiqotlar, tarixiy-badiiy risolalar, esselar kiradi.

Har ikki toifadagi asarlar yozuvchiga Bobur va boburiylar shaxsiyatini tamomila o'zga rakurslardan kuzatish, baholash va talqinlash imkonini berishi jihatidan muhimdir. Bizningcha, bu o'rinda dastlab Xondamirning "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" asarini esga olish o'rinli bo'ladi.

Xondamirning ushbu asari arab va ajam xalqlari tarixiga oid katta davrni qamrab oladi. Asar uch bobdan iborat. Har bir bob mustaqil, ayni paytda o'zaro bog'liq to'rttadan juzvdan tarkib topgan bo'lib, jami o'n ikki juzvni tashkil etadi. Bizningcha, bunday kompozitsion qurilishda yilning o'n ikki oyiga ramziy ishora bor. Muallif bu bilan abadiy aylanib turuvchi zamon haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalashi barobarida, o'z asarida bashariyat tarixini bayon etganini ta'kidlamochi bo'ladi. Boburga doir ma'lumotlar asarning Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan uchinchi bobining uchinchi, to'rtinchi juzvlaridan joy olgan. Bunda muallif o'zi guvoh bo'lgan, o'z davri ijtimoiy-siyosiy hayotini mushohada va qiyos qilish orqali kelgan fikr-qarashlarini bayon etgan. Bu jihat asarning ishonchli dalillarga boyligini, o'sha davr ruhiyatiga yaqinligini ta'minlagan. "Tarixnavis Xondamirning bu ma'lumotlari shunchaki axborot bo'lmay, o'sha paytlar elchi sifatida va boshqa turli sabablar bilan tez-tez Bobur Mirzo bilan uchrashib turgan muallif bu temuriyzoda xislatlaridagi "yurt oluvchilik va jahonbonlik" qirralarining ham jonli tasvirini gavdalantirib, bu chizgilarga faktik materiallarni ilova qilish orqali reallik bag'ishlaydi", – deb yozadi bu haqda filologiya fanlari nomzodi Ismoil Bekjon [Бекжон И. 2011. – Б. 7.].

Bu toifadagi tarixiy asarlardan ikkinchisi Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asaridir. Asarda turkiy davlatchilikka doir ulkan tarix qamrab olingan. Bundan tashqari, muallif tirik guvohlardan eshitgan, o'zigacha yozilgan tarix kitoblaridan o'qib-o'rgangan, shuningdek, bevosita o'zi guvoh bo'lgan tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar hayotining ko'lami nihoyatda keng. Muallif yirik siyosiy arboblarning, mulk va saltanat egalari tarixini berish bilan cheklanmaydi. Unda ilm, san'at va adabiyot ahllari haqidagi noyob dalillar bayon etilgan o'rinlar talaygina. Jumladan, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy kabi pirlar, Behzod singari katta musavvirlar haqida "Tarixi Rashidiy"da kelgan ma'lumotlar boshqa tarixiy asarlarda uchramaydi. "Tarixi Rashidiy"ning Bobur va boburiylar obrazini talqin etishdagi ahamiyati shundaki, asarda birgina Boburning o'zi emas, uning avlodlaridan Humoyun va Komron Mirzolar hayotining muhim sahifalari ham yoritilgan.

Muhammad Haydar Mirzoning o'zi nasab jihatidan Bobur Mirzoga xolavachcha bo'lgani bois asarning bevosita muallif biografiyasiga bag'ishlangan sahifalari ham boburiylar tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Asar izchil tarixiylik tamoyili asosida yozilgan. Haqqoniyligi, faktlarni xolis talqin etishi jihatidan bu asar bemalol "Boburnoma" bilan bahslasha oladi. "Voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og'zaki ishonarsiz ma'lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblarning shaxsiyatiga haqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtayi nazardan o'zi la'natlab turgan shaxs va uning so'zlari, maktublari haqqoniyatiga erishish, talqinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jumalardan qochish, samimiylilik tarixchi va adib Muhammad Haydar Mirzoning uslubini belgilaydi", degan jiddiy fikrni ilgari surishadi bu haqda mutaxassislar [Раҳмонов Б., Эрамова Я. 2010. – Б. 11.]. Asardagi bunday jihatlar, bizningcha, ijodkorlarimizga Bobur va boburiylar obrazini XV – XVI asrlarga oid tarixiy fonni to'la tasavvur qilish, tarixiy shaxslar, xarakterlar, voqea va detallarni qiyoslash, pirovard natijada tarixiy obrazlarni to'laqonli ishlab chiqish imkonini vujudga keltiradi.

Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asari esa Bobur shaxsiyati va boburiylar hayotini yoritishda maishiy-biografik ahamiyatga molikligi bilan qimmatlidir. Agar yuqorida so'z yuritilgan tarixiy asarlarda Bobur va boburiylar saltanati, unda muhim rol o'ynagan tarixiy shaxsiyatlar ko'proq ulkan siyosiy voqea-hodisalar fonida talqin etilsa, Gulbadanbegim asarida shu shaxslar hayoti hamda faoliyati oilaviy, maishiy fonda tasvir etiladi. Bu asar orqali biz birinchidan, Bobur va boburiylar hayotining boshqa tarixchilar bilishi, kuzatishi mumkin bo'lmagan sirli tomonlaridan voqif bo'lsak, ikkinchidan, boburiylar tarixining ayol tarixchi, Boburning qizi nuqtayi nazaridan yoritilishiga guvoh bo'lamiz [Гулбаданбегим. 1998. – Б. 104.]. Asardagi bunday o'ziga xos talqin, ayolga xos nozik kuzatuvlar, farzandning ota va og'a-inilari haqidagi hissiy hamda aqliy mushohadalari Bobur, qolaversa, boburiylar obrazining maishiy, intim, psixologik tasvirida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bobur va boburiylar tarixi xorijlik mutaxassislar tomonidan ko'p o'rganilgan. Ayniqsa, Eyji Mano singari hassos olimlarning tadqiqotlari boburshunoslik taraqqiyoti uchungina emas, Bobur va boburiylar haqida badiiy-tarixiy asarlar ijod etish uchun ham qimmatli manba sifatida xizmat qilmoqda. Bu o'rinda biz Bobur va boburiylar haqida xorijlik mutaxassislardan Shotlandiyalik tarixchi Uilyam Erskinning Hindiston tarixiga bag'ishlangan asari uch

qismdan iborat. Dastlabki qismlarida Hindistonning eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi ham yoritilgan mazkur asarda asosiy e'tibor Bobur va boburiylar davriga qaratilganki, bu xorij mutaxassislarining boburiylar saltanati tarixiga alohida e'tibor berganidan dalolat. Muallifning o'zi asarning muqaddima qismida bu haqda alohida ta'kidlab o'tadi: "Hindiston tarixining 1- va 2-davrlari juda ko'p tarixiy manbalarda yoritilgani uchun biz asosan, 3-davr (Bobur va boburiylar davri – O.X.)ni yoritishga urinib ko'ramiz. Bu davr tarixi Yevropa tillarida deyarli yoritilmagan. Shuning uchun ushbu asar Hindistonning hayoti bilan qiziquvchilar uchun yaxshigina manba bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz" [Эрскин У. 1995, – Б. 5 ].

U.Erskin ushbu asarini yozishda asosan "Boburnoma" va "Tarixi Rashidiy" asarlaridan foydalangani ko'rinib turibdi. Olim asarni yozish jarayonida Bobur keltirgan ko'plab tarixiy ma'lumotlarni Muhammad Haydar Mirzo asaridagi dalillar bilan solishtirib boradi. Kerak o'rinlarda muqoyasa natijalaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi. Dalillarni umumlashtirish va baholashda erkin fikrlash, imkon qadar xolis bo'lishga urinadi.

U.Erskinning Bobur shaxsiyati va tabiatiga doir xulosalari u haqda yozilajak har qanday badiiy asar uchun qo'l keladi. Bu xorij olimi Boburdagi jangovarlik, mardlik, shijoat, qat'iylik kabi er kishi va hukmdorga xos sifatlarning markazida saxiylik va rahmdillik turishiga qayta-qayta o'quvchi e'tiborini tortadi. Uning el orasida "qalandar" nomini olganiga urg'u beradi. Aynan shunday fazilati bois uning yaqinlari, lashkari va oddiy xalq orasida katta hurmat qozonganini ta'kidlaydi. Do'stlari boshiga tushgan kulfatlardan qattiq iztirob chekkanini samimiyat bilan tasvirlaydi: "Bobur Ohangaron tomon yo'l oldi va u yerda yaqin qarindoshi (tutingan og'asi) No'yon Ko'kaldoshning o'lganini eshitdi. "Haqiqatan hech kim bilmasdi, – deydi Bobur ("Boburnoma"dan parcha beryapti – O.X.), –uning o'limi menga juda qattiq ta'sir qildi. Bir hafta – o'n kungacha yig'lab yurdim". Shahzodadagi bunchalik ko'ngilchanlik kishini hayratga soladi. Uning kishilarga bo'lgan munosabati hamisha samimiy va manmanlikdan uzoqda edi"[Эрскин У. 1995, – Б. 30].

Boburning hozirgi Toshkent viloyati Parkent tumaniga qarashli Dehkat qishlog'ida bo'lgani, u yerda 111 yoshli kampirdan sohibqiron Amir Temurning Hindistonga yurishlari haqidagi hikoyalarni tinglagani, bu hikoyalar shijoatga to'la o'spirin qalbida Hindiston muhabbatini uyg'otgani, keyinchalik Hindistonda ulkan boburiylar imperiyasiga asos solishiga sabab bo'lgani haqidagi U.Erskin kitobida ta'kidlanganidek, L.P.Sharma va Qamar Rayis

asarlarida ham qayd etilgan. Bizning-cha, bu fikrlarda asos bor. “Boburnoma”dagi tasvirlarda ham o‘z yurtida sarson-sargardon kezgan, keyinchalik Afg‘on o‘lkasida hukmdorlik tojini kiygan, katta hududlarga egalik qila boshlagan Bobur ko‘rgilini Hindiston orzusi bir umr mahliyo qilib kelgani aniq bilinadi.

Tarixiy voqealar bayonida Bobur ochishni istamagan ba’zi faktlar talqinida U.Erskin ko‘proq “Tarixi Rashidiy”ga suyanadi. “Buburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlaridagi faktlarni solishtirib, masala mohiyatini xolis ochishga harakat qiladi. Masalan, muallif Samarqand qamali paytida Xonzodabegimning Shayboniyxon qo‘liga o‘tishi masalasida “Bobur istamaygina gapiradi”, deb yozadi. Tafsilotlarni ochiq bayon qilishdan tiyilganiga e’tibor qaratadi. Yoki shia hukmdori Ismoil Safaviyning moliya vaziri Amir Najim tomonidan Qarshi qal’asining qirg‘in qilinishi voqeasining “Boburnoma”da bayon etilishi ham U.Erskinni uncha qoniqtirmaydi. Aynan shu o‘rinda Boburning hukmdor va siyosatchi sifatidagi xatolari Mirzo Haydar asaridagi dalillar ko‘magida oydinlashtiriladi [Эрскин У. 1995, – Б. 27-66].

Bu asar, asosan, tarixiy voqelikni Bobur shaxsiyati atrofida yoritib berishga qaratilgan bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda boburiyzodalar haqidagi fikrlar ham uchraydi. Asardagi Humoyun Mirzo, Hindol Mirzo, Gulbadanbegimga oid o‘rinlar ham o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Hatto asarda Boburning go‘daklik paytida nobud bo‘lgan Anvar ismli o‘g‘li haqida ham dalillar keltiriladi. Shuningdek, asardan Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Ibrohim Lo‘diy singari tarixiy shaxslar haqidagi talqin va tafsilotlar joy olganki, bu uning tarixiy qimmatini yanada oshiradi.

U.Erskin asarining yana bir muhim jihati undan Bobur va “Boburnoma” asarlari haqidagi samimiy umumlashma xulosalar, tavsif va ta’riflar o‘rin olganida ko‘rinadi: “Bu asarning (“Boburnoma” ko‘zda tutilmoqda – O.X.) jozibadorligi, –deb yozadi muallif, – asar muallifining fe’l-atvoridadir. Uzoq umrning barcha azob-uqubatlarni ko‘rgandan keyin ham, yana saxiy qalb egasi va saxovatli inson qiyofasini saqlab qolish, yumshoq ko‘ngil va sabr-qanoat bilan yana o‘z faoliyatini davom ettirish hammaga ham xos bo‘lavermaydi. Hukmdorlik va ulug‘vorlik odatda kishining nozik didini va sezgirligini o‘tmaslashtiradi...”. “Bobur baquvvat gavdali, o‘rta bo‘ydan yuqoriroq kishi bo‘lib, jismoniy harakat talab qiladigan o‘yinlarni yaxshi ko‘rar, o‘tkir mergan va mohir qilichboz edi. Juda ko‘p hollarda u shijoatini namoyish qilar va yakkama-yakka jangda raqibidan ustun chiqardi. Uning gavdasi shu darajada baquvvat

ediki, aytishlaricha, ba'zan har ikki qo'ltig'iga ikki kishini qisib olib, qal'a devori ustida aylanib yurar va shu tarzda yo'ldagi to'siqlardan o'tar edi...". "Agar Bobur ichkilikdan ertaroq voz kechganda ulug' ish bo'lardi. Chunki uning hayotini qisqartirgan narsa ana shu ichkilik bo'lishi mumkin..." [Эрскин У. 1995, – Б. 106-107]. Bularning barchasi U.Erskinning Bobur shaxsiyati va asarlarini xolis o'rgangani, bu bilan ham qoniqmay, shu davrga oid boshqa tarixiy manbalardan ham foydalanganidan dalolat beradi. Eng muhimi, bu asardagi talqin va xulosalar Bobur va boburiylar obrazining to'laqonli yaratilishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Umuman, hozirgi o'zbek adabiyotida tarixiy mavzularda asarlar yaratish, bu yo'nalishda janrlar xilma-xilligiga erishish, badiiy obrazlarning tarixiy nuqtayi nazardan to'laqonli namunalari ishlab chiqish imkoniyatlari ko'p. Tarixiy asarlarda kelgan hayotiy dalillar, real axborotlar, shaxs dunyoqarashi, falsafasi, psixologiyasiga oid talqinlar o'zbek adabiyotida tarixiylik tamoyillarining yanada yuksakroq darajaga ko'tarilishi uchun zamin hozirlaydi.

### **Adabiyotlar**

- Сатторов М., Каттабеков А. Олис юлдузлар жилоси: Тарихий бадий адабиёт ва ватанпарварлик тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984, Б. 116.
- Бекжон И. Кириш /Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати. “Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар”. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2011. – Б. 7.
- Раҳмонов В., Эгамова Я. Тарихлар гулистони /Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамова таржимаси. – Тошкент: “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2010. – Б. 11.
- Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент, 1998. – Б. 104.
- Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда. Бобур ҳукмронлиги давридаги Ҳиндистон тархи. Инглиз тилидан Ғофуржон Сотимов таржимаси. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1995, – Б. 5.
- Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Тошкент: “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2010. – Б. 184.
- Шарма П. Бобурийлар салтанати / Инглиз тилидан Ғ.Сотимов таржимаси. – Тошкент: 1998. – Б. 168.
- Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 112.
- Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005. – 168 б.
- Низомиддинов Н. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – Б. 516.

# Genre Features of Contemporary Uzbek Historical Prose

Olmos Khurramov<sup>1</sup>

## Abstract

The article discusses the genre features of contemporary Uzbek prose and the artistic representation of historical figures in it across genres. It also discusses the extent to which historical sources are used in the artistic depiction of the lives of historical figures on a large scale.

**Keywords:** *historical genre, artistic image, means of artistic depiction, creative skill, historical fact, historical novel, system of images.*

## References

- Sattorov M., Kattabekov A. The brilliance of distant stars: Historical fiction and patriotic education. – Tashkent: Teacher, 1984, P. 116.
- Bekjon I. Introduction / Ghiyosiddin bin Humomiddin Khondamir. The character of greatness. “Habib us-siyar fi akhbari afrodi bashar”. – Tashkent: Editorial Board of the “Sharq” Publishing and Printing Joint-Stock Company, 2011. – P. 7.
- Rakhmonov V., Egamova Y. The Garden of Histories / Muhammad Haydar Mirzo. History of Rashidi. Translated by Vahab Rakhmonov and Yanglish Egamova. – Tashkent: Editorial Office of the “SHARK” Publishing and Printing Joint-Stock Company, 2010. – P. 11.
- Gulbadanbegim. Humayunnoma. – Tashkent, 1998. – P. 104.
- Erskine W. Babur in India. A Dictionary of India during the Reign of Babur. Translated from English by Gafurjon Sotimov. – Tashkent: Chulpon Publishing House, 1995, – P. 5.
- Kudratullaev H. Babur's Dream. – Tashkent: Editorial Board of the “SHARK” Publishing and Printing Joint-Stock Company, 2010. – P. 184.
- Sharma P. The Empire of the Baburs / Translated from English by G. Sotimov. – Tashkent: 1998. – P. 168.
- Normatov U. Promising Principles. – Tashkent: Manaviyat, 2000. – P. 112.
- Murodov G. Historical Novel: Genesis, Further Development. – Tashkent: Fan, 2005. – 168 p.
- Nizomiddinov N. History of the Great Baburs (XVI-XIX centuries). – Tashkent: Fan and Technology, 2014. – P. 516.

---

<sup>1</sup> Khurramov Olmos Uralovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Senior Lecturer, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**Email:** khuramov.@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0009-0001-4388-4526

**For citation:** Khurramov, O.U. 2025. “Genre Features of Contemporary Uzbek Historical Prose”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3(1): 78-86.

## Ijodkor shaxs tabiati yoxud poetik tafakkur modeli

Mahmadiyor Asadov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda “homo poetikus” – ya’ni ijodkor inson obrazining shakllanishi, nazariy asoslari va uning Sharq hamda G’arb adabiyotlaridagi talqinlari tahlil qilinadi. Pol Rikur, Yan Parandovskiy, Mixail Baxtin singari nazariyotchilar nuqtayi nazaridan homo poetikus tushunchasining mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodida homo poetikus konsepsiyasining badiiy ifodasi chuqur tahlil etiladi. Sharq mumtoz adabiyotidagi bu tushuncha insonning estetik, ruhiy va ma’naviy yuksalishini aks ettiruvchi falsafiy model sifatida talqin qilinadi. Maqolada homo poetikus insonni so’z, obraz va metafora orqali borliqni anglaydigan, ijodiy tafakkurga ega bo’lgan mavjudot sifatida yoritiladi. Homo poetikusning badiiy, ruhiy va ijtimoiy funksiyalari alohida belgilar bilan ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** *Homo poetikus, ijodkor shaxs, poetik tafakkur, metafora, estetik ong, Sharq adabiyoti, Navoiy, Rumiy, badiiy obraz, ma’naviy yuksalish, ruhiy tajriba, badiiy talqin.*

### Kirish

Adabiyotshunoslik ilmida inson obrazining talqini ko’plab nazariy yo’nalishlar doirasida markaziy ilmiy masala sifatida qaraladi. Xususan, XX asr oxirlariga kelib shakllangan “homo poeticus” kontsepsiyasi insonni poetik-estetik jihatdan tahlil qilishga imkon beruvchi muhim nazariy model sifatida e’tirof etiladi. Mazkur kontsepsiya doirasida ijodkor shaxs – yozuvchi yoki shoir – faqatgina badiiy matn muallifi emas, balki chuqur ma’naviy tajriba egasi, ijtimoiy-madaniy kontekstda muloqotga kirishuvchi, tarixiy ongni ifodalovchi va estetik qadriyatlarni shakllantiruvchi faol subyekt sifatida qaraladi.

“Homo poeticus” atamasi lotin tilidan “poetik inson” yoki

---

<sup>1</sup> Asadov Mahmadiyor Turayevich – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** asadov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-1550-1281

**Iqtibos uchun:** Asadov, M.T. 2025. “Ijodkor shaxs tabiati yoxud poetik tafakkur modeli”. *O’zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 87-95.

“ijodkor shaxs” degan ma’noni anglatadi va adabiyotshunoslikda insonningestetik,yaratuvchanvaintellektual-ma’naviytabiatinitahlil qilishda alohida o’rin egallaydi. Ushbu tushuncha insonni metafora, ramz, timsollar orqali tafakkur qiluvchi, go’zallikni yaratishga va uni idrok etishga intiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. U ijodkorlik, estetik idrok va badiiy fikrlash orqali o’zining ichki mohiyatini va tashqi borliqni anglaydigan inson modelini ifodalaydi.

Boshqacha aytganda, “homo poeticus” – bu insonni so’z, obraz va badiiy tasavvur orqali voqelikni anglashga va uni estetik shaklda ifoda etishga qodir mavjudot sifatida talqin qiluvchi nazariy modeldir. Bunday inson hayotga poetik nigoh bilan qaraydi, borliqni badiiylik orqali idrok etadi va so’z vositasida ma’naviy haqiqatga intiladi. Shu jihatdan u – go’zallikni yaratish, estetik haqiqatni izlash va badiiy tafakkur orqali o’z mavjudligini anglashga intiluvchi inson qiyofasining nazariy ifodasidir.

“Homo poetikus” tushunchasi qadimgi yunon estetikasi, islom falsafasi va hozirvi badiiy tafakkurda shakllangan kontseptual modelga ega. Bu tushuncha ilk bor yunonlarda “homo logos” — ya’ni “so’z bilan mavjud bo’lgan inson” g’oyasida namoyon bo’lgan bo’lsa, keyinchalik Sharq mumtoz adabiyotida bu g’oya “kalom”ga, ya’ni ilohiy so’zga asoslangan umumbashariy tafakkurga aylangan.

G’arbda *homo poetikus*ni chuqur nazariy asoslab bergan olimlardan biri, fransuz fenomenologi va faylasufi Pol Rikur (Paul Ricoeur) bo’lib, u o’zining “Talqin nazariyasi: nutq va ortiqcha ma’no” kitobida badiiy so’z va uning ma’nolari haqida chuqur mulohazalar keladi. Unga ko’ra, “*homo poetikus* – bu so’zning ichki qatlamlarini, yashirin konnotatsiyalarini ochib beruvchi, metaforani bir vaqtning o’zida estetik, semantik va ontologik maydonga olib chiqadigan mavjudotdir” [Ricoeur 1976, 81]. Qisqa qilib aytganda, “*inson tafakkurining ontologik maydoni*”dir. Rikurning fikricha, metafora – bu faqat stilistik bezak emas, balki haqiqatga yo’l ochuvchi kognitiv harakatdir.

*Homo poetikus*, Rikur talqinida, mavjudlikni oddiy tilda emas, balki badiiy obraz va poetik tilda anglaydi. Shoirning metafora yaratish salohiyati – bu mavjudlik bilan tafakkur o’rtasidagi “egri ko’prik”dir. Rikur metaforani “yangi haqiqat yaratish vositasi” deb ataydi va ijodkorni aynan shu jarayonni amalga oshiruvchi subyekt sifatida ko’radi. Pol Rikurning nazariyasiga ko’ra, *homo poetikus* quyidagi vazifalarni bajaradi:

- borliqni badiiy idrok etadi;
- metaforalar orqali reallikni keng tasvirlaydi;

- poetik til orqali insoniyatni yangi tafakkur ufqlariga olib chiqadi;
- semantik ortiqcha ma'nolarni madaniy tajriba bilan uyg'unlashtiradi.

Demak, Rikur nazariyasida homo poetikus – bu shunchaki shoir emas, balki yangi ma'no yaratuvchi, metafizik tafakkur egasi bo'lgan inson timsolidir.

Polyak adabiyotshunosi Yan Parandovskiy esa *homo poetikus*ni "o'z hayotini ham estetik shakl sifatida quruvchi inson" deb ta'riflaydi. Parandovskiyning "So'z kimyosi" asarida u shoirni "ruhiy tajribaning eng nozik manzaralarini so'z orqali shakllantira oluvchi mavjudot" sifatida tasvirlaydi. Bu fikr *homo poetikus* konsepsiyasining mohiyatiga to'la mos tushadi: **ijodkor nafaqat tafakkur qiladi, balki hayotni badiiy shaklda qayta yaratadi.** Yan Parandovskiy homo poetikusni shunday tasvirlaydi: "Adabiyotda inson qalbini shu qadar yuqori qo'ygan holda, uning a'zoyi-badaniga bir qadar pepisandlik bilan qaraydi. Mana, necha asrdirki, unda insonning homo poetikus – poetik odam deb atash mumkin bo'lgan o'ziga xos bir turi yashab, rivojlanib keladi. Uning tashqi ko'rinishi, qiyofasi eng mayda tafsilotlarigacha, ya'ni Petroniyga xos bo'lgan ideal darajadagi mutanosiblikda ishlab chiqilgani holda, Kvazimoda kabi shakl jihatdan badbashara qilib o'zgartirilgan. Biroq tananing barcha a'zolari bir xilda, birday ahamiyatga ega emas. Qo'l-oyoqlar – ularsiz ish bitmaydi: "homo poetikus" yuradi, yuguradi, quchadi, mahkam qisadi... uning qo'llari qurolning har qanaqasi bilan tanish. Ko'pincha qo'llar, ayniqsa, ayollarning qo'llari go'zal she'rlarga mavzu bo'ladi, lirika qo'llarni madh etishda bitmas-tugunmasdir...

"Homo poetikus" kuladi, yig'laydi, lablari doim harakatda: qichqiradi, oh-voh qiladi va juda ko'p gapiradi, biror marta ham tutilmay soatlab gapira oladi, jummalarni bekami-ko'st tuzgan va grammatika qoidalariga mutlaq amal qilgan holda nazm va nasrda ham so'zlay oladi." [Парандовский 2022, 248-249]

Rus nazariyotchisi Mixail Baxtin esa ushbu kontsepsiyani romanning dialogik tabiati orqali tushuntirib, ijodkor shaxsni polifonik (ko'p ovozli) xarakter va tarixiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lgan subyekt sifatida tasvirlaydi. Olimning fikricha, shoirning nutqi – bu tarixiy, madaniy va falsafiy jarayonlarning bir nuqtada jamlanishi bo'lib, ijodkor shaxs aynan shu kontekstda mustaqil pozitsiyaga ega dialogik tafakkur egasi sifatida shakllanadi.

Badiiy ijodda nemis ma'rifatparvar mutafakkiri Iohann Volfgang Gyote fenomenidagi homo poetikus konsepsiyasi ham

eng murakkab va ko'p qirrali shakllardan biridir. Uning "Faust" tragediyasi ijodkor inson – ya'ni *homo poetikus*ning doimiy izlanish, iztirob, bilimga tashnalik, hayotdan ma'no izlashdagi dramatik holatini ifodalaydi. Gyotening o'zi bu asarni yozishda umrining katta qismini sarflagan – bu esa uning ijodiy konsepsiyasining qanchalik chuqur va falsafiy ekanligini ko'rsatadi. "Faust"ning bosh qahramoni tafakkurga chanqoq, ruhiy qoniqmaslik holatida yashovchi, bilim va haqiqatni topmoqchi bo'lgan ijodkor shaxsdir. U ilm-fan, sehr, din, tabiat, san'at, hatto jin va farishtalar bilan muloqot qiladi, ammo qalb tinchligini, ichki halovatni topa olmaydi. *Homo poetikus* Gyote talqinida – nainki ruhiy sezgi, balki tafakkur orqali muttasil o'zgarib boruvchi ongdir. Gyote ijodkor shaxsga bir yoqlama baho bermaydi, u ijodkorni ham sharaflaydi, ham tanqid qiladi, ham unga rahm qiladi. Faust – bu kamolotga yo'l olgan insondir: u xatoga yo'l qo'yadi, lekin baribir o'sadi, o'sib boraveradi. Gyote uchun *homo poetikus* – bu hayotni tushunish, uni shakllantirish, unga ta'sir etish istagida yondashadigan ongli, faol, tafakkurli insondir. Uning har bir harakati, so'zi, iztirobi – bu ma'naviy o'sish pillapoyasidir.

Shunday qilib, Gyote ijodida *homo poetikus* – bu borliqni shubha, tafakkur, tanlov, kurash va ruhiy o'zgarishlar orqali anglaydigan, oxir-oqibatda o'zini topadigan inson timsolidir. "Faust" asarida *homo poetikus*ni bilimga tashna, g'am va iztirobda yashovchi, ammo o'z qadrini topishga harakat qiluvchi inson sifatida aks ettiradi. Faust – bu metafizik izlanishda doimiy harakatdagi shaxsdir. Gyote ijodida *homo poetikus* – bu o'zini tanimoqchi, borliqni anglamoqchi va o'z ruhini yaratuvchanlik, teran tafakkur orqali ozod etmoqchi bo'lgan inson obrazidir.

Umuman olganda, "*Homo poeticus*" — insonning estetik, yaratuvchan va poetik tabiatini ifodalovchi tushuncha sifatida zamonaviy adabiy-nazariy tafakkurda tobora chuqurroq o'rganilmoqda. Bu atama insonni nafaqat estetik obyekt, balki o'z hayotini badiiy-estetik tarzda shakllantiruvchi subyekt sifatida tushunishga imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, biroz keyingi davr adabiyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Fyodor Dostoyevskiy, Herman Hesse, Rabindranat Tagor, Oskar Uayld va Tomas Eliot kabilarning ham poetik tafakkur modellari, ijodkorning estetik-falsafiy qiyofasi ochib beriladi.

Jumladan, Fyodor Dostoyevskiy asarlarida poetik tafakkur modeli ma'naviy iztirob va axloqiy o'zgarishlar kontekstida namoyon bo'ladi. Uning "Aka-uka Karamazovlar", "Telba" va "Jinoyat va jazo" romanlarida inson — bu o'z vijdoni, e'tiqodi va hayotiy qarashlari

bilan kurashuvchi, doimiy savol ostidagi mavjudotdir. Dostoyevskiy qahramonlari o'z ichki poetiklarini inkor va tan olish, gunoh va tavba, sevgi va nafrat orqali ifoda etadi. Shu jihatdan olganda, Dostoyevskiy "homo poeticus"ning axloqiy metafizik qiyofasini yaratgan ijodkor hisoblanadi.

Germaniyalik yozuvchi Herman Hesse "Demian", "Siddhartha" va "Shisha gumbazli o'yin" kabi romanlarida insonni o'z ichki sayohati orqali shakllanuvchi poetik mavjudot sifatida talqin qiladi. Uning qahramonlari ruhiy izlanish, o'zlikni anglash, falsafa va san'at orqali o'zlarini yangidan yaratishga urinadilar. Hesse ijodidagi "ijodkor shaxs" — bu o'z jarayonida har doim o'zgarishga oshiq bo'lgan, ekzistensial savollar bilan yashovchi inson obrazidir.

Hind yozuvchisi va faylasufi Rabindranat Tagor "Gitanjali" to'plamida insonning ruhiy olami va ilohiylik bilan birlashuvi g'oyasini ilgari suradi. Tagor uchun inson – bu tabiat, ilohiylik va san'at bilan uyg'unlikda yashovchi mavjudot. Uning poetikasi sharqona sadoqat, falsafa va ilohiy ilhom bilan sug'orilgan. Tagor "homo poeticus"ni tabiiy va ruhiy uyg'unlikka intiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi.

"Poetik inson" kontsepsiyasi zamonaviy adabiy tafakkurda universal fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Oskar Uayldda estetik o'yin orqali, Fyodor Dostoyevskiyda axloqiy-metafizik iztirobda, Herman Hessedda ruhiy sayohatda, Rabindranat Tagorda tabiat va ilohiy uyg'unlikda, Tomas Eliotda esa zamonaviy inqirozda poetik ong shakllanadi. Bularning barchasi "homo poeticus" kontsepsiyasining ko'p qirrali va dinamik tabiatini tasdiqlaydi. Shuningdek, bu konsepsiya zamonaviy insonni tahlil qilishda poetik-estetik yondashuvning naqadar chuqur va boy imkoniyatlarga ega ekanini isbotlaydi.

O'tgan asrda shakllangan "homo poetikus", ya'ni ijodkor inson, poetik odam, so'z orqali borliqni idrok etuvchi va uni o'zgartiruvchi shaxs kontsepsiyasi, aslida Sharq mumtoz adabiyoti uchun olamshumul yangilik emas. Zotan, ayni konsepsiya bilan klassik adabiyotni talqin qilish ijod estetikasining ayrim qirralarini ochishda qo'l keladi. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotining ikki ulug' siymosi — Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy ijodida homo poetikus obrazi o'zining nazariy va badiiy talqini bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz adabiyotining bu ikki buyuk namoyandalari ijodida ayni tushuncha chuqur ma'rifiy, falsafiy va estetik ma'nolar bilan boyitilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida ijodkorlikni ilohiy ilhom,

axloqiy poklik, insoniy mas’uliyat va ruhiy yuksalish bilan uyg’un holda talqin etadi. Hazrat Navoiyning ijodida poetik odam (*homo poetikus*) konsepsiyasi insonning komillikka yetishidagi asosiy shart sifatida ko’riladi. Uning fikricha, ijodiy jarayon insonni faqat estetik zavqqa yetaklamaydi, balki uni ma’naviy va axloqiy kamolot sari ham olib boradi. Navoiy “Xamsa” va boshqa yirik asarlarida insonning yaratuvchanligini uning ma’naviy kamolotga yetishidagi muhim omil sifatida ko’rsatadi. Navoiy ijodiy jarayon orqali inson o’zligini anglab yetishi, ilohiy mohiyat bilan uyg’unlashib, “komil inson” darajasiga ko’tarilishi mumkinligini ta’kidlaydi, ayni holatni bosh konsepsiya o’laroq ijod markaziga qo’yadi.

Navoiy ijodida *homo poetikus* kontsepsiyasi so’z, she’r, ilhom, shoirlik masalalari bilan uzviy bog’liqdir. U shoirlik mas’uliyatini his qiluvchi, so’zda ilohiy haqiqatni aks ettirishga intiluvchi inson sifatida gavdalanadi. Navoiyning “Xamsa”, “Lison ut-Tayr” va boshqa asarlaridagi badiiy obrazlar, “Xazoyin ul-maoniy” devondagi g’azallari aynan shu konsepsiyani yoritadi. Navoiy shoirni estetik ijodkor emas, balki jamiyatning ma’naviy qomusi sifatida tasvirlaydi. Uning “Lison ut-Tayr” asarida esa badiiy obrazlar orqali ruhiy sayohat va ilohiy haqiqatni izlovchi *homo poetikus* timsoli yaratiladi.

Masalan,

*Borg’ali ul husn ganji g’am buzug’ ko’nglumdadur,  
Ajdaho evi bizing vayrona bo’ldi oqibat.*

[“G’aroyib us sig’ar” 72-g’azal]

Bu baytda Navoiy “husn ganji” — go’zallik xazinasining g’ami endi uning qalbini buzgani, vayrona qilgani haqida yozadi. Bu vayrona qalb esa — ijodkor qalbi. Bunday yondashuvda *homo poetikus* – bu g’am bilan yashovchi, g’am orqali ilhomlanadigan, so’z orqali ruhiy iztirobini badiiy xazina (ganj)ga aylantiruvchi shaxsdir.

*Chekma un, ohim ko’r, ey Majnunki, bulbul ko’p fig’on  
Chekti, o’rtangan vale parvona bo’ldi oqibat.*

[“G’aroyib us sig’ar” 72-g’azal]

Mazkur baytda esa shoir ichki azobini ochiq tasvirlaydi. U o’zining fig’oni, iztiroblarini Majnunga qiyos qiladi – bu orqali shoir o’zini *homo poetikus*, ya’ni g’am va ohdan she’r yaratuvchi ruhiy mavjudot sifatida ko’rsatadi.

“Parvona” – fano va ilohiy ilhomga sho’ng’igan shoirning metaforasidir. Shoir ishq yong’inida yonadi va o’zini yo’qotadi, ammo bu yo’qotish o’zini topish yo’lidir. Bu talqin “Lison ut-Tayr”dagi Shayx San’on obrazini eslatadi. Shayx San’on ham Navoiy talqinidagi *homo poetikus* konsepsiyasidir.

Bu Sharq badiiy tafakkuridagi *homo poetikus*: u soʻz bilan nafaqat goʻzallik yaratadi, balki Haqqa eltuvchi yoʻlni bosadi. Ilhom manbayi – bu gʻam, lekin natija esa – badiiy goʻzallik.

Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodida poetik odam insonning mohiyatan ilohiy ishqqa yoʻgʻrilgan mavjudot ekanini taʼkidlaydi. Rumiy uchun insonning mavjudligi ijod va muhabbat orqali haqiqiy mohiyatini topadi. U insonni nafaqat oddiy mavjudot, balki poetik shakllanish, izlanish va yaratish jarayonining markazidagi subyekt sifatida tasavvur qiladi. “Masnaviyi maʼnaviy” va “Devoni Kabir” kabi asarlarida Rumiy insonning mohiyatini ijod orqali anglash imkonini beradi, ijod insonning asl mohiyatini ochib beruvchi vosita sifatida koʻrinadi. Rumiy insonning ijodiy faoliyatini uning ruhiy kamolot sari yoʻlidagi asosiy vosita sifatida koʻrib, insonni Allohga eltuvchi ilhom manbayini sheʼriyat orqali izohlaydi.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy Maʼnaviy” asarida shoir – ilhomni Haqdan oluvchi va uni kalom orqali insoniyatga yetkazuvchi ilohiy vositachi sifatida gavdalanadi. Rumiyda *homo poetikus* – bu ruhiy uygʻonish holatida yashovchi, soʻz orqali ilohiy haqiqatni inson qalbiga yetkazuvchi mavjudotdir. Uning gʻazallarida ilhom, sheʼr, qalb, ishq va Haq oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud.

Rumiy va Navoiy ijodida umumiy jihatlar shundaki, ikkala shoir ham insonni tabiatidagi ijodiy imkoniyatlarini ochish orqali haqiqiy mohiyatini topishga chaqiradi. Ijod inson ruhiyatining yuksalishiga yordam beradigan, uni estetik va maʼnaviy jihatdan boyitadigan asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Insoniyatning mavjudligi sheʼriyat orqali anglanadigan, estetik shakllarda namoyon boʻladigan ijodiy jarayon sifatida koʻriladi.

Demak, ushbu kichik tadqiqotda qoʻyilgan nazariy muammo va amaliy tahlillardan kelib, quyidagi ilmiy xulosalarni ulgari surish mumkin:

1. *Homo poetikus*ning nazariy asoslari va ijoddagi talqinlaridan kelib chiqib, oʻziga xos belgilari sifatida quyidagilarni qayd qilib qoʻyish lozim:

- a. soʻzga ilohiy yoki estetik kuch sifatida munosabatda boʻladi;
- b. tashqi viqealarni emas, ichki kechinmalarni ifoda etadi;
- c. simvol, obraz, metaforalar orqali fikr yuritadi;
- d. soʻz orqali borliqni badiiy qayta yaratadi;
- e. ijodkorlik – hayotiy vaziyat va ruhiy holat badiiy tasvirlaydi.

2. Navoiy va Rumiy ijodida aks etgan “*homo poetikus*” konsepsiyasi insoniyatning ichki va tashqi dunyosini ijod orqali uygʻunlashtirishga qaratilgan chuqur falsafiy-adabiy qarashlarni oʻzida mujassam etadi. Bu ijodiy falsafa Sharq adabiyotida insonning

haqiqiy mohiyatini kashf etish va o'zlikni anglashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

3. Homo poeticus – bu so'z orqali Haqni izlovchi, qalbni uyg'otuvchi, jamiyatga ma'naviyat baxsh etuvchi insondir. Navoiy va Rumiy bu obrazni ruhiy poklanish, Haqqa yaqinlik va ma'naviy yetuklik orqali ifoda etadi va ayni konsepsiya har ikki mutafakkir ijodida badiiy-falsafiy darajada mustahkamlanadi.

### Adabiyotlar

- Alisher Navoiy. 1987. *Xazoyin ul-maoniy*. G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: Fan.
- Алишер Навоий. 2019. *Лисон ут-тайр*. – Тошкент: Фафур Фулом.
- Бахтин, М. М. 1979. Проблемы поэтики Достоевского / М. М. Бахтин. - 4-е изд. – Москва: Советская Россия.
- Gyote, I.V. 2022. *Faust*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Ricoeur, Paul. 1976. *Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning*. Fort Worth: Texas Christian University Press.
- Жўрақулов У. 2016. Алишер Навоий “Хамса” сида хронотоп поэтикаси. / Монография. – Тошкент: Зиё-нашр.
- Жўрақулов У. 2020. «Хайрат ул-аброр»да наът / «Алишер Навоий ва XXI аср» мавзусидаги халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Машхурпресс.
- Парандовский, Я. 2022. Сўз кимёси: бадиа-эссе. – Тошкент: Янги аср авлоди.
- Асадов М. Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қахрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2-сон. Тошкент. 2020 йил. – Б.117-126.

## The Nature of the creative personality and the model of poetic thought

Mahmadiyor Asadov<sup>1</sup>

### Abstract

This article explores the concept of homo poeticus – the creative individual – as a literary figure, its theoretical foundations, and its interpretations in both Eastern and Western literary traditions. The essence of the homo poeticus concept is examined through the perspectives

<sup>1</sup> Mahmadiyor T. Asadov – Doctor of Philosophy (PhD), docent, Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** asadov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-1550-1281

**For citation:** Asadov, M.T. 2025. “The Nature of the creative personality and the model of poetic thought”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 87-95.

of theorists such as Paul Ricoeur, Jan Parandowski, and Mikhail Bakhtin. The paper also presents an in-depth analysis of the poetic representation of homo poeticus in the works of Alisher Navo'i and Jalaluddin Rumi. In classical Eastern literature, this concept is viewed as a philosophical model that reflects human aesthetic, spiritual, and moral elevation. The article describes homo poeticus as a being who comprehends existence through words, symbols, and metaphors, possessing a unique creative consciousness. The aesthetic, spiritual, and social functions of homo poeticus are highlighted with distinct characteristics.

**Keywords:** *Homo poeticus, creative individual, poetic consciousness, metaphor, aesthetic perception, Eastern literature, Navoi, Rumi, artistic image, spiritual elevation, inner experience, literary interpretation.*

### References

- Alisher Navoiy. 1987. *Xazoyin ul-maoniy*. G'aroyib us-sig'ar. – Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2019. *Lison ut-tayr*. – Toshkent: G'afur G'ulom.
- Baxtin, M. M. 1979. Проблемы поэтики Достоевского / M. M. Baxtin. - 4-ye izd. – Moskva: Sovetskaya Rossiya.
- Gyote, I.V. 2022. *Faust*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Ricoeur, Paul. 1976. *Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning*. Fort Worth: Texas Christian University Press.
- Zhoraqulov U. 2016. Alisher Navoiy "Xamsa" sida xronotop poetikasi. / Monografiya. – Toshkent: Ziyo-nashr.
- Zhoraqulov U. 2020. «Hayrat ul-abror»da na't / «Alisher Navoiy va XXI asr» mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: Mashhurpress.
- Parandovskiy, Ya. 2022. So'z kimyosi: badia-esse. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Asadov M. Alber Kamyu va Xurshid Do'stmuhammad prozasida absurd qahramon muammosi/ "So'z san'ati so'zligi", 3 jild, 2-son. Toshkent. 2020 yil. – B.117-126.

## Zamaxshariy asarlarida insoniy fazilatlar talqini

Nigora Sulaymonova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada xorazmlik buyuk alloma Mahmud Zamaxshariyning didaktik merosini tashkil etuvchi ikki yirik asar - “Navobig‘u-l-kalim” (“Nozik iboralar”) va “Atvoqu-z-zahab” (“Oltin shodalar”) asarlari haqida so‘z boradi. Bu ikki asar nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham axloqshunoslikning nozik maktabi sifatida e’tirof etiladi. Qolaversa, bu asarlar undan keying shu yo‘nalishda yaratilgan qator asarlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Maqolada Zamaxshariyning mazkur ikki asarda bayon etilgan axloqiy qarashlari, jumladan, ularda o‘z aksini topgan insoniy fazilatlar talqini tahlil etilgan. Didaktikaning mazkur yo‘nalishi tadqiq etilgan bu ikki asarni yaratishda Zamaxshariy Qur‘oni karim va hadisi sharif kabi muqaddas manbalardan oqilona foydalangan holda o‘z qarashlarini bayon etgan.

**Kalit so‘zlar:** Mahmud Zamaxshariy, “Navobig‘u-l-kalim”, “Nozik iboralar”, “Atvoqu-z-zahab”, “Oltin shodalar”, axloqiy qarash, pand-nasihad, hikmatli so‘z, insoniy fazilat, komillik, rostgo‘ylik, ziyraklik, jasorat, vafo, muruvvat, kechirimlilik.

### Kirish

Barcha zamonlarda insondagi go‘zal fazilatlar qadrlanib, e‘zozlanib kelingan. Shuning uchun ham ko‘plab allomalar insonlarda tarbiyalanadigan ijobiy fazilatlar haqida klassik maqomdagi asarlar yaratganlar. Kaykovus, Forobiy, Sa’diy, Avloniylar tomonidan yaratilgan asarlar shular jumlasidandir. Ayniqsa, tarixiy ajdodimiz, xorazmlik buyuk alloma Mahmud Zamaxshariyning “Navobig‘u-l-kalim” (“Nozik iboralar”) va “Atvoqu-z-zahab” (“Oltin shodalar”) kabi didaktik mazmundagi asarlarida aks etgan insoniy fazilatlar haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘zining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Insoniy fazilatlar deganda, birinchi navbatda, kechirimlilik

---

<sup>1</sup> Sulaymonova Nigora Askaraliyevna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** sulaymonova@navoiy-uni.uz, nigora\_sulaymonova@mail.ru

**ORCID:** 0000-0001-6575-8742

**Iqtibos uchun:** Sulaymonova, N.A. 2025. “Zamaxshariy asarlarida insoniy fazilatlar talqini”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 96-103.

qayd etiladi. Chunki ayrim kimsalar arziyas narsalarni yillar davomida xotirasida saqlab, o'zini ham, atrofdagilarni ham tashvishga solib yuradi. Bu omil, ayniqsa, ta'lim muassasalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ta'lim jarayonidagi munosabatlardagi ko'ngilsizliklar, ularni unutmagan holda kek saqlab yurish to'g'ri tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish uchun jiddiy to'sqinlik qiladi. Aslida bu muammo kechagina yuzaga kelgan emas. Shuning uchun ham allomalarimiz bu borada bir qator foydali tavsiyalarni berib o'tganlar. Ular orasida, shubhasiz, Mahmud Zamaxshariyning fikrlari alohida e'tiborga molik. Zamaxshariy aytadiki, *"Odamlarning eng xotiri kuchlisi ularning ichidagi eng unutuluvchisidir, ko'ngillarning eng yumshog'i salobatligi-yu shafqatlisidir"* [az-Zamaxshariy 1992:49]. Zero, kechirimli bo'lish aqlli kishilarga xos fazilatdir. Shuning uchun ham Zamaxshariy *"Aql chaqirig'iga harakat ijrosi bilan javob bergan kishi zakiylarning zakiyidir"* [Fozil Zohid 2011:105], -deydi.

Mahmud Zamaxshariy tomonidan tilga olingan hamda insoniy fazilat sifatida e'tirof etilgan xislatlardan biri – ehtiyotkorlik. Chunki, xalqona tilda aytilganidek, *"Yetti o'lchab bir kesishda"*, avvalo, mulohazalilik, rejalilik, biror ishni avvaldan o'ylab qilish anglanadi. Bu sifat esa insonlargagina xosdir. Shuning uchun ham Zamaxshariy *"Ehtiyot bo'lib ish tut, g'olib bo'lasan"*, – degan shiorga amal qilgan holda *"Ehtiyot bilan ish tutuvchi har bir odam to'g'ri yo'ldan burilmas"*ligini ta'kidlaydi [Fozil Zohid 2011:99].

Zamaxshariy insoniy fazilatlar ichida insofli bo'lishlikni alohida ajratib ko'rsatadi. Alloma aytadiki, *"Insofli odam birodarining haqini yeyishni yomon ko'rgani uchun uni egasiga beradi"* [Fozil Zohid 2011:95]. Shuningdek, xulq insoniy fazilatlar ichida ziynat ekanligiga ishora qilib, *"Xulqi to'g'ri kishi hodisalarning ichiga yuradi, ahmoq esa undan sug'urilib chiqadi"* [Fozil Zohid 2011:76], – deydi.

Insonlarga xos fazilatlar ichida birinchi va ikkinchi darajali, muhim va uncha muhim bo'lmagan vazifalarni tasniflab, ularni bajarilishiga muayyan mantiqiy yondashuv asosida aql, ziyraklik va mulohazalilik bilan kirishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muhimlik barchaga – maktab o'quvchisiga ham, oliy ta'lim muassasasi talabasiga ham, mutaxassis xodimlarga ham taalluqlidir. Zero, ishning pirovard natijada rejadagidek yakunlanishi aynan shu omilga bog'liq. Shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodda shu kabi fazilatlarini shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmud Zamaxshariy bu borada ham ibratli fikrlarni bayon etgan. Chunonchi, alloma aytadiki, *"Aql-idrok va shariatga amal qilib ish tutgan banda asl va ikkinchi darajali maqsad-u matlablarini jam*

*qilishi muqarrardir*” [az-Zamaxshariy 1992:65]. “*Ziyrak, mulohazali, sabrli kishi dunyo va oxiratda foydasi bor ishda hech to‘xtamas*” [Fozil Zohid 2011:91].

Insoniyat hayoti shunday yaratilganki, unda g‘alaba bilan mag‘lubiyat doimo yonma-yon yuradi. Xalqimiz buni obrazli qilib, “Nur borki soya bor” –deb aytadi. Qiyinchiliklarga nisbatan bardoshli, matonatli bo‘lish esa insonlarga xos, ya’ni vaqtinchalik ko‘ngilsizlik, mag‘lubiyatlardan tushkunlikka tushmasdan ularni mardonovor yengib o‘tish yaxshi insoniy fazilatlarining yana bir xislatlaridan biridir. Zamaxshariy ta’biri bilan aytganda, “*Mardonavor kishi mag‘lub bo‘lgani bilan uning martabasi past bo‘lmas, mashaqqat-u tashvishga giriftor bo‘lsa-da, xor bo‘lmas*” [az-Zamaxshariy 1992:55].

Insonlarga xos yaxshi fazilatlar sirasiga, shubhasiz, rostgo‘ylikni kiritish o‘rinli bo‘ladi. Chunki juda ko‘p ko‘ngilsizliklarning asosida rost gapni aytish jasoratining yetishmasligi, yolg‘onchilik yotadi. Bu holatni Zamaxshariy tabiat hodisasiga qiyoslagan holda shunday ta’riflaydi: “*Momaqalldiroqli yomg‘irning yog‘ishi rostgo‘y (haqgo‘y) kishining va’dasiga vafo qilishi misoli yoqimlidir*” [az-Zamaxshariy 1992:55]. Shuning uchun rost gapirish, berilgan so‘zning ustidan chiqish insonlarga bolalik chog‘idan singdirib borilishi lozim. Shundagina barkamol avlod tarbiyasining imoratiga yana bitta mustahkam g‘isht qo‘ygan bo‘lamiz. Shuning uchun ham Zamaxshariy tomonidan insonlarga xos yaxshi fazilatlar ichida va’daga vafo, bu borada halol bo‘lishga chorlovchi qator da’vatlarni ko‘rishimiz mumkin. Uning “*Halol-pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikdadir, birovga xiyonat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir*” [az-Zamaxshariy 1992:52].

Ayni paytda ta’kidlash joizki, o‘z tabiatiga ko‘ra barcha kishilar birdekkomillikalomatlariga ega bo‘lavermaydi. Odatda, jamoa ichida, jamiyatda boshqalardan ko‘ra o‘ktamroq, oqilrok kishilar bo‘ladi. Ularning vazifasi o‘zlaridagi donolikdan atrofdagilarni imkon qadar ko‘proq bahramand qilish bo‘lsa, atrofdagilarning vazifasi esa undan (oqil kimsadan) ko‘proq saboq olib, unga xos yaxshi fazilatlarini o‘zlashtirish, faoliyatlariga tatbiq etishdan iborat. Zamaxshariyning bu boradagi fikrlari ham ibratlidir. Allomaning aytishicha, “*Oliijanob va sharif kishi shunday kishiki, u hozir bo‘lmay g‘oyib bo‘lganida uning suhbatini xohlab, muloqotini orzu qiladilar, basharti u (suhbatga) kelib qolsa, uning haybatidan sergaklanib hushyor tortadilar*” [az-Zamaxshariy 1992:60]. Zamaxshariyning “*Mard va oliyjanob kishining eng go‘zal fazilatlaridan biri o‘z birodarining ayblarini berkitib, uning*

*barcha ishlarini bamisoli o'zining ishlari o'rnida ko'rib ish tutishidir*" [az-Zamaxshariy 1992:73], – degan so'zlari yuqoridagi fikrning yana bir isbotidir. Komillikka eltuvchi yo'lda amal qilinadigan qoidalar majmuida "Yaxshiga yondashsang – yetarsan murodga" deyiladi. Zamaxshariy bu qoidani shunday ta'riflaydi: *"Kimki baxt-iqbolli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayr-u baraka topar"* [az-Zamaxshariy 1992:73].

Inson shunday yaralganki, ziyrak kishilar uning xulqidagi, dunyoqarashidagi, qisqa qilib aytganda, fe'l atvoridagi jihatlarini payqashi mumkin. Ayniqsa, zamonaviy psixologiya fanida bu omil maxsus o'rganilib, bir qancha ilmiy xulosalar chiqarilgan. Zamaxshariyning insonlarga xos yaxshi fazilatlar haqidagi fikrlari shunisi bilan ahamiyatliki, u insonlar ruhiyatini chuqur o'rgangan holda muayyan fikrni bayon etgan. Shu jihati bilan uning qarashlari bugungi kunda ham o'zining ilmiy-amaliy nufuzini yo'qotmagan va barkamol avlod tarbiyasida allomaning ilmiy merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamaxshariy insonning fe'li asliga dalolatligiga ishora qilib shunday deydi: *"Karamli inson zulmga ro'baro' qilinsa, tiyiladi. Sharif insonga xorlik istalsa, yuz buradi. Hilm ishlaridan o'ziga suyanch yasagan viqor egasi zulmdan xavfsiraydi, hurkib qochadi, toki u panja urib tashlanmasin, o'tkir tirnoqlarini botirib jarohat yetkazmasin. Zulmdan bunday tiyilish va yuz o'girish ota-bobolari sharif bo'lganlardan o'zgalarda kam uchraydi. Asli toza bo'lmagan kishida xayr yo'q. Itning dumi na et bo'lishga, na yog' bo'lishga yaraydi"* [Fozil Zohid 2011:34].

Xalqimizda ajdodlarimiz tomonidan topib aytilgan hamda bugungi kunda ham ziyoli yurtdoshlarimiz tomonidan eslatib turiladigan bir ibora qo'llaniladi, ya'ni "Yo asling kabi ko'rin yo ko'ringaningdek bo'l". Bu qoida Zamaxshariy tilidan shunday ta'riflangan: *"Odamning sirti-yu botini (ichi) to'g'ri, salomat va tuzuk bo'lsa, uning zohiri (tashqarisi) ham saxiy va salim bo'lur"* [az-Zamaxshariy 1992:52]. Allomaning *"Muruvvat bir sifatki, Ollohning roziligiga loyiq. Saxovat bir tabiatki, u haqida qancha gapirilsa, shuncha munosib"* [Fozil Zohid 2011:39] degan qarashlari yuqoridagi fikrlarni yana bir bor mustahkamlaydi.

Darhaqiqat, sirti-yu botini bir xil odamlarda ulug'vorlik, o'ziga xos viqor sezilib turadi. Chunki ular odamlar qarshisida qanday bo'lsalar, shundayliklaricha namoyon bo'ladilar. Ular ma'naviy go'zal inson namunasi sifatida tarannum etiladi. Zamaxshariyda ham komillikning bu sifatiga o'ziga xos ta'rif mavjud: *"Siymong go'zalligi va yuzing chiroyi oyning tulu' (chiqishi) kechasidan bir belgi kabi dil-u*

*ko'ngillarga shodlik baxsh etar*" [az-Zamaxshariy 1992:53].

Zamaxshariyning komil kishiga bergan ta'rifida saxiylikka ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, alloma "... *saxiy, karim kishi har joyda izzat-u ikromda bo'l*" ishini alohida ta'kidlaydi [az-Zamaxshariy 1992:68].

Tarixdan ma'lumki, qadimgi alloma ajdodlarimiz bilim istab turli o'lkalarga sayohat qilganlar. Buning uchun imom Buxoriy va Mahmud Zamaxshariylarning hayotini misol qilib keltirishning o'zi kifoya. Bu sayohatlar davomida ular nafaqat ilm o'rganganlar, balki o'zga yurtlardagi odamlarning hayot tarzini, ruhiyatini, dunyoqarashidagi xususiyatlarni, ular amal qiladigan hayotiy qonuniyatlarni maqsadli tarzda o'rganganlar. Shuning uchun ham ular sayohatni ilm o'rganish, olamni anglash vositasi sifatida qabul qilganlar. Mahmud Zamaxshariy bu xususda shunday deydi: "*Baland tog'larga ko'tarilib va pastliklarga tushib safar qilish uyda, devorlar ichida, mashaqqatlar orasida och o'tirishdan avlodir (xayrlidir)*" [az-Zamaxshariy 1992:61]. Bu fikrning davomi, ya'ni sayohat insonlarning komillikka erishish omili sifatida Zamaxshariy shunday fikr bildiradi: "*Kimki dengiz to'lqinlarini boshidan kechirib safar qilmasa, turli-tuman tashvish-u mashaqqatlarning suvidan ichmasa, inson (haqiqiy) rohat-u farog'atga muyassar bo'la olmas*" [az-Zamaxshariy 1992:72].

Komil insonga xos fazilatlardan biri, shubhasiz, odamlarning dardiga sherik bo'la olish bilan belgilanadi. Chunki odamning boshida yaxshi va yomon kunlar yonma-yon yuradi. Yaxshi kunlarida madadkor, shodligini baham ko'ruvchiga ehtiyoj unchalik sezilmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham yaxshi odam aynan qayg'uli, iztirobli kunlarda yaqinlarining dardiga sherik bo'lib, ularning og'irini yengil qilishi, tashvishdan forig' bo'lishlarida hamdard bo'lishi lozim. Zamaxshariy insonlardagi bu sifatni "*Odamlarning eng aziz va hurmatlilari qayg'u-hasratu tashvishli damlarda bilinur...*" [az-Zamaxshariy 1992:53] tarzida ta'riflaydi.

Tabiatan shunday odamlar borki, ular xato, ba'zan gunoh ish qilgan bo'lsalar ham, ayblariga iqrar bo'lmasdan, tavba qilmasdan, takabburlik bilan umr kechiradilar. Aslida ularni ichki bir tuyg'u kemirib boradi. Shuning uchun Zamaxshariy aytganidek, "*Tavba qilgan kishi umrining nihoyasi (xotimasi) umrining boshi deganidek (ya'ni, onadan tug'ilgan kuni kabi gunohsizdir), uning ishlari Alloh taolo nazdida aybli bo'lmaydi*" [az-Zamaxshariy 1992:62].

Bu dunyo ibrat makoni, deydi donishmandlar. Faqat uni ko'rmoq, anglamoq darkor. Buning uchun u mudroq emas, balki

uyg'oq, ziyrak bo'lishi talab etiladi. Shu ma'noda komillikka intiluvchi har bir shaxs atrofdagi ibratli holatlar, vaziyatlar, harakatlarni tahlil qilish, anglash, xulosa chiqarish va uni o'z faoliyatiga tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu borada Mahmud Zamaxshariyning *"Ziyrak, fikr uvadalaridan uzoq, g'arib va nazari tiyrak qalbni uyqu elitmaydi. Magar u doim uyg'oq, zikrda. Bitta gizli, maxfiy nigohdan nasihat izlaydi, topadi. So'ngsiz va uzoq tikilgan nigohdan ibrat oladi. Osmonga tikilib, g'uj-g'uj yulduzlarni ko'rar ekan, ibratlanadi"*, [Fozil Zohid 2011:28] – degan fikrlari g'oyat ta'sirlidir. Shundagina inson komil shaxs sifatida tan olinishi va bu murakkab dunyoda o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin. Buni Zamaxshariy shunday ta'riflaydi: *"Ishlarda jiddiylik, yengni shimarish, fikrning pishib, maromiga yetishi, ortiqcha iltifot va tilyog'lamalikni tark qilish, aniq va mustahkam bilish, muhim narsani ilg'ashdagi tezlik va alam yetkazuvchi narsalardan himoyalashda keng qadam bosish – shunday maydonki, u maydonda yuqoridagi sifatlarning bittasiga farzand bo'lgan kishi (ya'ni mazkur sifatlarning har birini "ona" desak, shu onalardan bittasiga farzand bo'lgan kishi) bu maydonda chopa oladi"* [Fozil Zohid 2011:76].

Butun dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida kuzatilayotganidek. zamonaviy O'zbekistonda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikka katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Aslida ham bu soha zamonning zayli, bugungi kunning iqtisodiy-ijtimoiy talabi sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy odamlarning komilligi uning tadbirkorligi bilan ham belgilanadi. Bu borada Zamaxshariy aytadi: *"Tadbirkorlikda sa'y-harakat ko'rsatish taqdir-u qismatlarda g'oliblikka olib kelish demakdir"* [az-Zamaxshariy 1992:75]. Muhimi, Zamaxshariy uqtirganidek, niyatning yaxshiligi, uning har bir odimining puxta o'ylanganligi va rejalashtirilganligidadir. Qolaversa, bu harakatlar qanchalik erta boshlansa, bu jarayonda inson o'zining ma'naviy yetukligini namoyon etsa, shunchalik yaxshidir. Zero, Zamaxshariy ta'kidlaganidek, *"Uzoq umri davomida sa'y-harakat va odob-axloq bilan hayot kechirgan odam keyin odobga tomon dastlabki qadam tashlagan kimsa bilan barobar emas"* [az-Zamaxshariy 1992:74]. Shu bois allomaning *"Niyat qilingan ishlar pishmagan go'sht misoli, binobarin har qanday ishni komil niyat-u, qattiq ixlos bilan qilish lozim"*ligi [az-Zamaxshariy 1992:51] haqidagi da'vati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ma'lumki, xalqimizda Ona yer tushunchasi muqaddas hisoblanadi. Zero, inson yerning farzandi. Yer unga rizq beradi,

hayotini farovon bo'lishi uchun o'z bag'rini ochadi. Zamaxshariyning e'tiboridan bu jihat ham chetda qolmagan. Bu borada allomaning *“Dehqonchilik qilib ziroat ekish foyda-yu xayr-baraka birla mushtarakdir, o'z xalqini behad ko'p xayr-barakaga burkaydir”* [az-Zamaxshariy 1992:64], – degan fikrlari g'oyat ibratlidir.

Zamaxshariy ta'riflagan insoniy fazilatlar ichida to'g'rilik, haq yo'lida sobitqadamlik bilan harakat qilishga ham muhim sifat tariqasida qaralgan. Allomaning *“To'g'ri va haq yo'ldan yurgan kishining yurishi arslon yurishidan ko'ra ham(haybatliroq)dir”* [az-Zamaxshariy 1992:52], – degan fikri inson tomonidan tanlanadigan to'g'ri yo'lni naqadar muhimligiga bir ishora hisoblanadi. Bu fikrga qo'shimchatarzdau *“Ko'pchilik odamlar haqiqatdanyiroqdir, ularning talab va da'volari yolg'on-u bo'htondir, so'zlari-yu ishlari o'zlariga muvofiq”* liligini alohida ta'kidlaydi [az-Zamaxshariy 1992:53]. Shuningdek, Zamaxshariyning adolat va haqiqat to'g'risidagi *“Quyosh nurlarini berkitib bo'lmaganidek, haqiqatning chirog'ini ham so'ndirib bo'lmas”* [az-Zamaxshariy 1992:60], *“Adolat suviga to'lib-toshgan buloq sayqallangan ko'zgudan sofroq, so'zni mo'ljalga uradigan balig' (mukammal, yetuk) tildan o'tkiroqdir”* [Fozil Zohid 2011:95] kabi fikrlari uning bu boradagi qarashlari naqadar asosli ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Zamaxshariy insonlarni komillik yo'lida *“Adolat bilan birga bo'lib, zulmdan chekin”* ishga da'vat etadi [Fozil Zohid 2011:83].

Zamaxshariyning insoniy fazilatlar haqidagi qarashlari quyidagi aforizm bilan mushtaraklik kasb etadi: *“Adolat haqiqatni aytish va tinglashdan boshlanadi”*. Bu sifat inson ma'naviyatining muhim ko'rsatgichi, ya'ni komillik belgisidir.

### **Adabiyotlar**

Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. Sharhlar muallifi va tarjimon U.Uvatov. – T.: Kamalak, 1992. – 80 b.  
Fozil Zohid. Zamaxshar tasbehi. – T.: Muharrir, 2011. – 144 b.

## Interpretation of human qualities in Zamakhshari's works

Nigora Sulaymanova<sup>1</sup>

### Abstract

This article discusses two major works that constitute the didactic heritage of the great Khorezm scholar Mahmud Zamakhshari - "Navobig'u-l-kalim" ("Delicate Expressions") and "Atvoqu-z-zahab" ("Golden Joys"). These two works are recognized not only in their time, but also today as a delicate school of ethics. In addition, these works served as the basis for a number of subsequent works in this direction. The article analyzes Zamakhshari's moral views expressed in these two works, including the interpretation of human qualities reflected in them. In creating these two works, which are studied in this direction of didactics, Zamakhshari expressed his views, rationally using sacred sources such as the Holy Quran and Hadith.

**Keywords:** Mahmud Zamakhshari, "Navobig'u-l-kalim", "Nozik iboralar", "Atvoqu-z-zahab", "Oltin shodalar", moral view, advice, wise word, human virtue, perfection, honesty, intelligence, courage, loyalty, kindness, forgiveness.

### References

- Abu-l-Qasim Mahmud az-Zamakhshari. Nozik iboralar. Author of comments and translator U.Uvatov. – T.: Kamalak, 1992. – 80 p.  
Fazil Zohid. Zamakhshar tasbehi. – T.: Muharrir, 2011. – 144 p.

---

<sup>1</sup> Sulaymonova Nigora Askaraliyevna – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor. Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

**E-mail:** sulaymonova@navoiy-uni.uz, nigora\_sulaymonova@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-6575-8742

**For citation:** Sulaymonova N.A. 2025. "Interpretation of human qualities in Zamakhshari's works". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 96-103.

## “Gulshani Dilafor” to‘plamidagi she‘rlar badiiyati

Sobir Mansurov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada “Gulshani Dilafor” to‘plamidagi ba‘zi she‘rlar tasnif qilindi. Shoir she‘rlarining aksariyati Furqat, Muqimiy, Hamza, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning millatparvarlik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan lirik asarlari bilan hamohang. Shoirning “Gulshani Dilafor” to‘plamidagi lirik she‘rlar tasnifi shundan dalolat beradiki, Dilafor o‘zbek mumtoz she‘riyatida shoirlarga yo‘ldosh bo‘lib kelgan mavzularni chetlab o‘ta olmagan. U ham o‘zidan oldin qalam tebratgan salaflar an‘analarini davom ettirishda o‘z davrining ilg‘or g‘oyalariga tayangan.

**Kalit so‘zlar:** *Gulshani Dilafor, na‘t, she‘r, adabiyotshunoslik, lirik asarlar.*

### Kirish

Dilafor ijodida Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Fuzuliy, Huvaydo, Haziniy kabi ijodkorlar asarlarining ta‘siri seziladi. Shuningdek, shoir she‘rlarining aksariyati Furqat, Muqimiy, Hamza, Xislat, Kamiy kabi shoirlarning millatparvarlik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan lirik asarlari bilan hamohang.

Shoirning “Gulshani Dilafor” to‘plamidagi lirik asarlar tadqiqi shundan dalolat beradiki, Dilafor o‘zbek mumtoz she‘riyatida shoirlarga yo‘ldosh bo‘lib kelgan mavzularni chetlab o‘ta olmagan. U ham o‘zidan oldin qalam tebratgan salaflarning an‘analarini davom ettirishda o‘z davrining ilg‘or g‘oyalariga tayangan.

Shoir she‘riyatining mavzu ko‘lami keng va rang-barangdir. Dilafor lirik asarlarining kattagina qismini g‘azallar tashkil qiladi, ular ifoda shakli hamda mavzusiga ko‘ra ham turlichadir. Dilafor adabiy merosining ham aksariyatini ishqiy g‘azallar tashkil etsa-da, kezi kelganda shoir boshqa turlarga ham murojaat qila boshlagani kuzatiladi. “Gulshani Dilafor”ni tuzar ekan, shoir Dilafor ham an‘anaga muvofiq o‘z salaflari singari to‘plamni Ollohga hamd

<sup>1</sup> Mansurov Sobir Hamroyevich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi

**E-pochta:** mansurovsobir@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0001-5222-8566

**Iqtibos uchun:** Mansurov, S. 2025. “Gulshani dilafor” to‘plamidagi she‘rlar badiiyati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 104-113.

va payg‘ambarga na’t bilan boshlaydi. Muhammad(s.a.v.)ga bag‘ishlangan na’tning birinchi misrasi: “Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno...,”- kabi badiiy jihatdan baquvvat satrlar bilan boshlanadi.

E’tibor berilsa, sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) o‘z diyorida islom dinini yoyishda avvaliga ko‘p qiyinchiliklarga uchragan bo‘lsalar-da, keyinchalik arab dunyosini islom nuri bilan munavvar qilgan. Undan so‘ng esa o‘sha pok nur ajam mamlakatlarini yoritdi. Yuqoridagi misrada ham payg‘ambarimizning arab dunyosida shoh kabi islom hukmini yuritganligi, boshqa yurtlarga o‘zlari emas, ul zotning munavvar ziyosi yetib borganligi hamda bunday shohgayu, bunday mohga ofarinlar bo‘lsin, deb tahsinlar o‘qilmoqda. Shugina bir satr ham shoirning qanchalik salohiyatga ega ekanini ko‘rsatib turibdi.

Ma’lumki, na’tlarda Rasulullohning vasfu ta’rifi ustunlik qilsa, bu hodisa bilan bog‘liq san’at turi ilmi badida “iqtibos” deyiladi. Chunki bunday o‘rinlar “mohiyatan muayyan oyat yoki hadisning mazmuni bilan aloqador bo‘ladi” [Исҳоқов 2006: 28]:

Zihi shohi arab, mohi ajam, ul sayyidi barno,  
Xudo Qur’onda aydi vasfinga “Yosin” ila “Toho”.  
Jamoli nuri “Vash-shams”ki, mozog’ ul-basar hazrat,  
Muborak gesui hazratki, “Val-layl iza yag’sho”.  
Risalat tojdori, shahdu shakar ul guftori,  
Base shanida “Kavsar” surasi, haq aydi “Atino”.  
Muborak maqdamidin bo‘ldi olam g‘arqai rahmat,  
Ketib zulmat jahondin ro‘shnolik ayladi paydo.  
Tamoman anbiyolar shahsuvori – sayyidi olam,  
Gadoyi ostoni bo‘lsa yuz Iskandaru Doro.  
Sifoti rahmatan lil-olamin ul sayyidi kavnayn,  
Bizingdek osiy ummatga shafotxohi omanno.

Deyub Tangrim qilay dargohimga mehmon jismimni,  
Yubordi Jabrailni amr etib ul Xoliqi yakto.  
O’shal dam Jabrail keldi rasulni xobgohig’a,  
Tavoze birla turdilar surib yuz poyi Ahmadga.  
Muborak erdi ul meroj hazrati osiy ummatga,  
Chiqib ul dam haramdin yo‘lda Jabrail bo‘ldilar hamro(h).  
Muhammad hodii olam etushti masjidi Aqsog’a,  
Imom o‘ldi tamomi anbiyolarga rasulullo(h).  
Minib rafrafga hazrat o’ttilar bir necha manzildin,  
Yumub to ko‘zni ochquncha etushti qobi qavsayno.

Harimi kibriyoda Haq taolo birla so'zlashib,  
Tamoman muddaosini so'rab ul shohi av adno.  
Boshini sajdaga qo'ydi, to'kub ko'zdan sirishkini,  
Tilab ummatni jurmini janobi Haqni oldida.  
Kirib junbushga ul dam bahri rahmat turfa mavj urdi,  
Xudo aydi: gunahkor ummat uchun g'am ema aslo.  
Xudo aydi: ey Ahmad, vujuding mahzi rahmatdur,  
Mani inomi ehsonim tamomi osiy ummatga.  
Kimiki senga ummat bo'lsa, do'zaxdin qilib ozod,  
Makonu manzilini aylagayman jannat ul-mavo.  
Risalat tojdori mujdai rahmatni oldilar,  
Shabi meroj erdi vasfi subhon al-lazi isro.  
Yonib merojdin kelganida hazrat zanjiri larzon,  
Muborak xobgohi garm erur, ahhobi saddaqno,  
Zaboningni Dilafgor, na'ti hazrat birla shakar qil,  
Ki, shoyad bir nazar holingga qilsa shohi karramno.

“Yosin” ila “Toho”, “Val-layl iza yag'sho”, Haq aydi “Atino”, “shafloatxohi omanno”, “qobi qavsayno”, “ul shohi av adn”, “subhon al-lazi isro”, “ahbobi saddaqno”, “shohi karramno” kabi qofiya sifatida ishlangan so'zlar “qofiya bilan bog'liq poetik usullarning eng qadimiylaridan biri radd ul-matla yoki iyto” [Исҳоқов 2006: 107] ekanligi nazarda tutiladi. Iytoning ikki navi ajratiladi: iytoyi jaliy (ochiq, ravshan takror) hamda iytoyi xafiy (yopiq, yashirin takror). Yuqoridagi na'tda qofiyaning poetik usullaridan iytoyi xafiy navi qo'llanganini kuzatish mumkin.

Musulmon Sharqida lirik asarlar hikmatlarga boy bo'lishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. “Gulshani Dilafgor” kabi she'riyat guldastalarida ham “o'git, hikmat va zamonu birodarlardan shikoyat kabi bir nima bila zeb berilgan bo'lishi (“Badoyi us-sanoyi”) tabiiy jarayon hisoblanadi. Bu singari o'git, hikmat va zamonu birodarlardan shikoyat motivi ustunlik qiluvchi she'rlar “kalomi jomi” badiiy san'atini yuzaga keltiradi.

Dilafgorning:

Ahhoblar, millat uchun biz jahd etolmaymiz hanuz,  
G'aflat to'shagida yotib, ko'zni ocholmaymiz hanuz.

Yoki:

Umrung o'tti, ey dilo, yotma sahar, bedor bo'l,  
Shoh bo'lsang, xohi gado, yotma sahar, bedor bo'l.

Yoki:

Bandasan, ey dil, rizoyi Rabbanoni izlagil,  
Ummat o'lsang, sarvari haq Mustafoni izlagil.

Yoki:

Bandalik shuldur sango, qodir Xudoga takya qil,  
O’n sakkiz ming olama qudratnamog’a takya qil.

Yoki:

Bu olam ayshi, ey tan, xasta yotganingg’a arzirmu?  
Hayoti jovidoning bir kun o’lganingg’a arzirmu?

Yoki:

Jon agar hamjihati tandur, jondin g’am ema,  
Bu aziz mehmon borida g’ussai olam ema,-  
matlallari bilan boshlanuvchi g’azallari boshdan oyoq “kalomi  
jomi” san’ati bilan muzayyan etilgan.

“Mazhabi kalomiy” ma’naviy san’atlardan bo’lib, nasr va nazmda o’z matlubining isboti uchun latofat bilan dalil keltirishdan iborat. Dalil aniq bo’lmog’i, shuningdek, faraziy bo’lishi ham mumkin. Navoiy she’riyatidan, xususan, uning g’azaliyotida fikrni dalillash maxsus san’at sifatida xilma-xil ko’rinishlarda ishlatilgan.

G’azalda mazhabi kalomiy ko’pincha bir bayt doirasida qo’llanadi. Dalil keltirish turli ko’makchi so’z va bog’lovchilar (nedinki, ne uchunkim, chunkim, ne tong, g’arib emas, ne ajab, ajab ermas, kimki va h.k.) vositasida amalga oshiriladi [ Исҳоқов 2006: 107].

Dilafor g’azallarida ham “mazhabi kalomiy” san’ati uchraydi:  
Jonu dil isoring o’lsa, xasta qulg’a ne ajab,  
Orzu qo’ysang boshimg’a senga men bo’lsam turob.

Yoki:

Varna kesmas, deb Dilafor rishtai ummedini,  
Kelsa bir kun ne ajab, ul oshnodin ayrilib.

Yoki:

Boshimg’a mehnati hijron, alam hamsuhbatim holo,  
Ajabkim toleimni badligi, baxtim siyoh, yo Rab.

Yoki:

Xayoli fikrim hamisha size parivashda,  
Ajabki marhamat etmay dag’i sitam qilasiz.

Yoki:

Vah, nechun o’lmay tiriklay, shomdin to subhidam,  
Bo’lsalar doim raqib eli chamanzor oldida.

Yoki:

Go’zal mahvashlar ichra sen kabi hurliqo bo’lmaz,  
Qiyomingla nechun tashbih qilam tubo raso bo’lmaz.

Yoki:

Ey xudoyim, qismatingg'a kimki sobir bo'lmasa,  
Men oni mo'min demayman, loyiqan imon emas.

Badishunoslik ilmida "shoir o'z fikr va kechinmalarini bayon etish maqsadida turli obraz yoki iboralardan foydalanar ekan, tasvir jarayonida o'zining oldingi fikrlari (iboralar, obrazlar) dan voz kechib, ularni rad etadi va ularning o'rniga yangi obraz va iboralarni keltiradi. Go'yo o'z maqsadini to'liq ifodalash uchun o'zlik qilgan ibora va obrazlar o'rniga yangi, mukammalroqlarini qo'yib, fikr va kechinmalarni yanada kuchliroq shaklda bayon qilinishi "rujo" [Исҳоқов 2006:107] san'atini keltirib chiqaradi. E'tiborlisi shundaki, shoir Dilaforning faqat g'azallarida emas, balki muxammaslarida ham "rujo" san'atini uchratish mumkin. Shoir ijodida *Yo, yoxud, yoki* so'zlarining qo'llanishi imkoniyatni kengaytirib, badiiy mahobatni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan:

Misli Majnundek fig'on etsang yuraging qon etib,  
Yig'lasang shomu sabolar ko'z yoshing to'fon etib,  
Yoki bulbuldek saharlar nolai afg'on etib,  
Iltijo etsang parilarga fidoyi jon etib,  
Bemuruvvat bo'lsa, ta'siri duo kam-kam bo'lur.

Yoki:

Yig'latib bizlarni noshod aylamak maqsud esa,  
Yoki lutf ila muruvvat aylamak maqsud esa,  
Yo raqib so'zi bilan qayd aylamak maqsud esa...,

Yoki:

Nozanin, vaslingg'a etmak nechani haddi emas,  
Yoki sandin kimsani dam urmaki haddi emas,  
Yo Dilaforgi senga so'z aytmaki haddi emas,  
Kecha yo kunduz demak, jono, Kamiy haddi emas,  
Xo'bliqni fursati yodin davom aylab keling.

Ma'lumotlarga ko'ra, ittifoq san'atining mohiyati shunday: shoir she'rda o'z nomi yoki taxallusini nihoyatda chiroyli ko'rinishda shunday o'rinli ishlatadiki, o'quvchi xayoliga bir paytning o'zida ana shu so'zning ham lug'aviy, ham istilohiy ma'nosi keladi [Исҳоқов 2006: 107]. "Dilafor" so'zining ma'nosi dili xasta, dili vayron, ortiq xafagarchilik chekkan [Шамсиев, Иброҳимов 1972:190] kabi ma'nolarni bildirishini hisobga olsak, shoir taxallus qo'llash jarayonida o'sha vayrona ko'ngil dardlarini ham aytishga chog'lanadi:

Dilafor osiymen, yo rabbano, holimg'a rahm ayla,  
Umid birla qilibman dargahingga iltijo, yo Rab.

Yoki:

Yozdi Dilafgor hasratini, bo‘lsa xato afv aylangiz,  
Yoshu qari bir-birimiz hurmat etolmaymiz hanuz.

Yoki:

Xurram emas Dilafgor, harchand bazm ko‘rsa,  
Ta‘sir aylamaydur, ey mahuzor, sensiz.

Yoki:

Bu xasta Dilafgor dardi firoqingizga kuyub,  
Ramaqqa joni etushti, nazarni kam qilasisiz.

Yoki:

Lutfu ehsoningni muzdig‘a Dilafgor ne deyur,  
Aylaram xolis duo, aylab tamosho surating.

Yoki:

Bebizoatman debon osiyi Dilafgor, g‘am yema,  
“Yafalullohu ma yasha” hukmi Xudog‘a takya qil.

Yoki:

Netayki ilojim yo‘q, ey sho‘xi jafo pesha,  
Dil xasta Dilafgora bir yo‘la salom etgil.

Yoki:

Necha muddat Dilafgora nazar solmay, bas, ey dildor,  
Mabodo etdimu sanga zarar ushbu g‘ulomingdin.

Yoki:

Naylayki qarorim yo‘q, rashk o‘tig‘a o‘rtandi,  
Man xasta Dilafgora, giryona tong otquncha.

Yoki:

Muhammad hurmatidin qil nasib Dilafgora,  
Axiri umr dam ichinda tavofi baytulloh.

Yoki:

Muhabbat ahlig‘a lazzat verar olib o‘qug‘onda,  
Dilafgori benavoni har na aytgan she‘ru ash‘ori.

Yoki:

Xashm etib boqq‘ay eding xasta Dilafgora qadim,  
Ey sumanbar, aytgil emdi, fe‘lu atvoring qani?

Yoki:

Dargohingga ojiz munglug‘ Dilafgor,  
Iltijosin maqbul ayla, yo Jabbor.  
Bahaqqi hurmati Sayyidi muxtor,  
Osiylarga nasib etgil shafolat.

Yoki:

Ey shahsuvor, dilbari xurshidi guluzor,  
Taxti malohat avjida Yusuf kabi qaror,

Bo'lsun jahonda davlating izzatda ustuvor,  
Vasling havosida mane dilxasta Dilafgor,  
To tanda jon boricha qilg'um senga duo.

Yoki:

Ey pari, tanho erursan iqlimi Farg'onada,  
Soqiyo, qilg'il karam, labtashna man g'amxonada,  
Oh urib yig'lar Dilafgor kulbai vayronada,  
So'rma maxmuru mukaddarlikni bu mayxonada,  
Kecha-kunduz oh urub, derman Muqimiy, yo sharob.

Yoki:

Tilab haqdin mane osiy gunohin,  
Ki oson aylabon vaqti hisobin,  
Qabul aylan Dilafgor iltijosin,  
Qatori osiylar ro'zi qiyomat,  
Madad, yo Ahmado, vaqti shafolat.

Yoki:

Do'stlar, hech kimsaga boqmang haqorat ko'z bila,  
Shishai ko'ngul sinar zarra qabohat so'z bila,  
Har taomiki verar lazzat hamisha tuz bila,  
Munisi g'amdur Dilafgor kecha ham kunduz bila,  
Har nechuk begonalardin oshno kam-kam bo'lur,

Yoki:

Har zamon ko'rsam tag'oful peshani gul orazin,  
Jon berib misli simobu iztirobim inchunin,  
Volai shami ruhi albattadur ro'yi zamin,  
Nola aylarman, Dilafgor, nogahon ko'rsam yuzin,  
Qayrilib boqib tag'oful pesha yorim indamas.

Yoki:

Bazm ichinda o'ynasang may tobidin nargis etib,  
Vola aylar ahli majlisni ko'zing imo etib,  
Bu Dilafgor qullaringni g'amza birla o'lturib,  
O't solib olam aro qoshi ko'zing shahlanib,  
Kuydurur bir lahzada jodui ahmar ko'zlaring.

Yoki:

Nozanin, vaslingg'a etmak nechani haddi emash  
Yoki sandin kimsani dam urmaki haddi emas,  
Yo Dilafgorni senga so'z aytmaki haddi emas,  
Kecha yo kunduz demak, jono, Kamiy haddi emas,  
Xo'bliqni fursati yodin davom aylab keling.

Yoki:

Tavba qildim, tavbai maqbuli hidoyat aylagil,  
Fazli ehsoning man osiyg‘a inoyat aylagil,  
Bul munojoti Dilafgorni ijobat aylagil,  
Rabbano, fag‘firlano, ey Xoliqi har du jahon,  
Aylasam rihlat bu olamdin, yiborg‘il boiymon.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da keltirilishicha, “tavshih” (arabcha توشيح – ziynatlash) mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, misra yoki bayt boshidagi (ba‘zan esa taqtelar chegarasidagi) harflar yig‘indisidan biror so‘z (ism) keltirib chiqarish. Mazkur san‘at asosida yozilgan she‘r muvashshah deb nomlanadi” [Куронов Д. ва бошқ. 2010: 298] deb izohlangan.

“Gulshani Dilafgor”da bir qator muvashshah qayd etilgan. Masalan, “Dorobxon”, “Dorojon”, “Nazirjon”, “Qorixon” muvashshahlari shular jumlasidandir. Lekin “tavshih san‘ati g‘oyat nozik, u shoirdan juda katta mahoratni talab etadi, chunki keltirib chiqarish ko‘zda tutilgan so‘z misra(yoki bayt)ni ma‘lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa misra(yoki bayt)ni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so‘z bilan emas, chiqarilgan ismga mos so‘z bilan boshlashni taqozo qiladi, natijada shakl mazmundan ustuvorroq bo‘lib qoladi. Ya‘ni tavshih san‘ati yuksak mahorat va did bilan qo‘llansagina, she‘rga zeb bo‘ladi, aks holda u she‘rning badiiy saviyasini tushirib yuborishi ham mumkin”ligini esda tutsak, Dilafgor muvashshahida badiiyat yorqin bo‘yoqlari bilan bo‘y ko‘rsatadi.

“Gulshani Dilafgor” to‘plamidagi she‘rlar ifoda va mazmun jihatidan turfa janrga mansub bo‘lib, shoir mumtoz she‘riyatimizda keng qo‘llanilgan g‘azal, muxammas, muvashshah, musaddas, tarjeband, chiston va fard kabi janrlarda samarali ijod qilgan. Dilafgor yashab, ijod qilgan davr adabiyotimizda milliy uyg‘onish davri deb atalishida ham katta ma‘no bor. Shoir ijodida davrning ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Ma‘lumki, har bir ijodkor davr bilan hamnafas tarzda ijod qiladi, shu sababli uning asarlarida mavjud tuzum belgilari qaysidir ma‘noda bo‘y ko‘rsatadi. Dilafgor ijodida ham bu holni ko‘rish mumkin. Hayoti davomida ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan va og‘ir ijtimoiy–siyosiy davrda yashagan, adib lirikasida ijtimoiy-siyosiy ruhdagi she‘rlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlash kerakki, shoir asarlarining asosini g‘azal janri tashkil etadi.

“Gulshani Dilafgor” to‘plamida shoirning 51 ta she‘ri jamlangan bo‘lib, shundan 23 tasi g‘azaldir. Ko‘rinib turibdiki, adib ijodida g‘azal janrining o‘rni katta.

Mazkur g'azallarda yuqorida ko'rib o'tgan badiiy san'atlardan tashqari, talmeh san'atidan ham unumli foydalanilgan. G'azallarda qo'llanilgan badiiy san'atlar o'z navbatida ijodkorning ichki ruhiy olamini ochib beradi. Ayniqsa, diniy-falsafiy mavzudagi lirik asarlarida bu hol yaqqol seziladi.

Dilafgor ijodida Navoiy dostonlari qahramonlari bo'lmish, Farhod va Majnun obrazlari ham ko'p qo'llanadi. Dilafgor ham Navoiy ijodiga havas bilan qaragan, uning ijodidan bahramand bo'lib, unga o'xshash g'azallar bitgan.

Xulosa qilib aytganda, shoir badiiy mahoratini nechog'lik yuqori bo'lganini yuqoridagi kuzatuvlardan ham ayon bo'ladi. Dilafgor an'anaviy she'riyatimizda qo'llangan badiiy san'atlarning lafziy, manaviy, mushtarak turlarini ishlatgan holda o'ziga xos lirik namunalar yarata olgan. Shoir lirikasida mumtoz adabiyotimizga xos ko'plab badiiy san'atlardan keng va o'rinli foydalangan.

Dilafgor ijodida badiiy san'atning bir qator turlari uchraydi. Jumladan, badishunoslikdagi "iqtibos" san'atining "darj" turi shoir asarlariga ziynat bergan. Shoir ijodida qofiya bilan bog'liq poetik usullarning eng qadimiylaridan biri bo'lgan "radd ul-matla" yoki "iyto" turlaridan, chunonchi, iytoning ikki navidan biri iytoyi xafiy (yopiq, yashirin takror) qo'llanilgan.

### **Adabiyotlar**

- Hamza. 1914. Vatandoshlarima xitob // Sadoi Turkiston, №27 (Bu she'r "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1994-yil 11-mart sonida adabiyotshunos I. G'afurov tomonidan e'lon qilingan).
- Abu Ali ibn Sino. 1980. She'r san'ati. Salomon va Ibsol. – Toshkent: Fan.
- Quronov D. va boshq. 2010. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr.
- Amonov Sh.N. 2010. Hamza she'riyatining manbalari, matniy tadqiqi: filologiya fan. nomz... diss. Toshkent.
- Исҳоқов Ё. 2006. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Zarqalam.
- Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов) 1972. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

## **The art of poems in the collection "Gulshani Dilafor"**

Sobir Mansurov<sup>1</sup>

### **Abstract**

Some of the poems in the Gulshani Dilafor collection have been discussed. Most of the poet's poems are in harmony with the lyrical works of poets such as Furqat, Muqimi, Hamza, Khislat, Kami, combined with the ideas of nationalism and enlightenment. The classification of lyrical poems in the poet's collection, namely "Gulshani Dilafor" shows that Dilafor could not avoid the themes that accompanied the poets in Uzbek classical poetry. He also relied on the progressive ideas of his time to continue the traditions of the predecessors who had written before him.

**Keywords:** *Gulshani Dilafor, naat, poetry, literature, lyrical work.*

### **References**

- Khamza. 1914. Vatandoshlarima xitob. // Sadoi Turkiston, №27 (Bu she'r "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1994 yil 11 mart sonida adabiyotshunos I. Gafurov tomonidan e'lon qilingan).
- Abu Ali ibn Sino. 1980. She'r san'ati. Salomon va Ibsol. – Toshkent: Fan.
- Kuronov D. va boshq. 2010. Adabiyotshunoslik lugati. Toshkent: Akademnashr.
- Amonov Sh.N. 2010. Khamza she'riyatining manbalari, matniy tadqiqi: filologiya fan. nomz... diss. Toshkent.
- Iskhakov Y. 2006. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam.
- Navoiy asarlari lugati (Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S. Ibrokhimov) 1972. Toshkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

---

<sup>1</sup> *Mansurov Kh. Sobir* – Senior Teacher, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** mansurovsobir@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0001-5222-8566

**For citation:** Mansurov, S. 2025. "The art of poems in the collection "Gulshani Dilafor". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 104-113.

## Asad Dilmurod nasrining biografik va qiyosiy-tarixiy talqini

Nilufar Dilmurodova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli adib Asad Dilmurodning "Og'ir kun" hikoyasi hamda jahon adabiyotining atoqli vakillari P.Merimening "Mateo Falkone" novellasi, N.V.Gogolning "Taras Bulba" qissasi tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etilgan.

Shuningdek, adibning ijodkor do'sti, ayrim asarlari ilk kitobxoni va "tanqidchi"si – jurnalist, shoira Mavluda Mirsaidovanning "Shabnamdek beg'ubor do'stlarim" nomli salmoqli maqolasiga ham murojaat qilingan. Shu orqali A.Dilmurod ijodining hikoyani qayta ishlash, tendensioz qarashlarga ergashishdan qutulib, badiiy konsepsiyani mukammallashtirish, qahramonlar qismatini tabiiy o'zanida davom qildirish sirlarini egallashdagi ichki tadriji ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** *obraz, xarakter, personaj, kompozitsiya, pamflet, kontrast plan, usul, fabula, syujet, hikoya ritmi, psixologik tahlil.*

### Kirish

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor shaxsi va uning o'zi mansub davrda kechayotgan ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy o'zgarish va yangilanishlarga munosabati, badiiy ijodining yetakchi tamoyillari hamda manbalari, adabiy-estetik qarashlarining badiiy ijodiga ko'chish mexanizmi, poetik mahorat sirlari kabi ko'plab adabiy-estetik masalalar dolzarb sanalib kelinmoqda. Tabiiyki, bu hol shiddat bilan (intensiv) va global tarzda rivojlanayotgan zamonaga hamqadam bo'lish, dunyo adabiy-estetik tafakkurida mavjud ilg'or ilmiy maktablar, rang-barang uslubiy oqim va yo'sinlarga asoslanuvchi shoir, adib hamda dramaturglarning ijodiy laboratoriyasini alohida-alohida, ijodiy evolyusiyasi negizida, shuningdek, davr adabiy jarayoni hamda yaxlit badiiy adabiyot

---

<sup>1</sup> Nilufar Dilmurodova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitet mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti.

**E-pochta:** nilu.01@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-6991-1839

**Iqtibos uchun:** Dilmurodova, N. 2025. "Asad Dilmurod nasrining biografik va qiyosiy-tarixiy talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3(1): 114-123.

kontekstlarida o'rganishni taqozo etadi.

Jurnalist va shoira Mavluda Mirsaidova "Urgut sadosi" gazetasining bir necha sonida chop etilgan "Shabnamdek beg'ubor do'stlarim" [Мирсайдова, 2019: 3] nomli salmoqli maqolasida ushbu gazetaning madaniyat bo'limi boshlig'i Asad Dilmurod 1969-yilning may oyida "Zarafshon" (o'sha paytdagi "Lenin yo'li") gazetasiga ishga o'tgani va uning o'rniga Fayzi Haydarov tayinlangani voqeasini eslaydi. Demak, maqola muallifi adibni 1969-yildan ilgariroq ham yaxshi tanigan. Hamkor, hamnafas ishlagan. Mavluda Mirsaidova 1971-yilning iyul oyida Asad Dilmurod unga "So'nggi o'q" sarlavhali yangi hikoyasini o'qib berganini shunday eslaydi:

*"Hikoyani dahshat ichida eshitdim. Otasining eng so'nggi o'qi o'z qizining umriga zomin bo'lgani meni larzaga soldi.*

*- Hech zamonda qiz ham o'z otasini sotadimi? Otasi "qayt", degandayam qaytmaydi-ya. Qaytganda otasi otmas edi, dedim afsus ohangida.*

*- Otangiz jinoyatchi bo'lsa ham sotmaysizmi? - dedilar sinovchan boqib.*

*- Yo'q, hech qachon sotmayman. Axir, ota qancha azoblar tortib, umid bilan katta qiladi-ku farzandini. Otaning bir so'zini ikki qilish - o'zi gunoh.*

*- To'g'ri, siz hech qachon otangizni sotmaysiz. Ammo mening qahramonim otasining jirkanch ishlaridan, qallobliklaridan nafratlanadi. Shuning uchun ham otasining jinoyati haqida organga xabar bermoqchi bo'ladi.*

*- Hikoyangiz ta'sirli chiqqan, faqat oxirini o'zgartiring, iltimos. Qiz o'z otasini sotmasin, ota o'z qizini otmasin. Qo'shnisimi, hamkorimi, boshqa biror odam xabar bersin organga, - dedim iltijo qilib [Мирсайдова, 2019: 3].*

Bu fikrdan keyin, o'z otasi Trofim Morozovni hukumatga sotib, uning o'n yilga surgun qilinishiga erishgan, ammo o'zi ham fojiali o'lim topgan maktab o'quvchisi Pavlik Morozov ko'z o'ngimizga keladi. Binobarin, 1971-yilda hali boshlovchi adib bo'lgan Asad Dilmurod ham "So'nggi o'q" hikoyasida shu tipidagi adabiy qahramon timsolini tasvirlashga intilgan.

Demak, yozuvchi ilk ijodida yot unsurlarga qarshi qaqshatqich hujum boshlab, ota-bolani bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'ygan, sinfiy kurashni ulug'lagan umumsho'ro adabiyotining tendensioz qarashlari ta'sirida bo'lgan.

Albatta, bunday hol o'zbek nasri uchun yagona adabiy hodisa emas edi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning

avtobiografik xarakterdagi Muzqaymoq” [https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/nasr/364-muzqaymoq.html?start=1] hikoyasida NKVD kapitani boshini silab:

“ – *Malades! Kelgusida zo’r odam chiqadi sendan!*” - deya alqaganida o’zida yo’q sevingan o’n o’n bir yashar pioner bola obrazini eslasak, ota-bolani bir-biriga qayragan mafkuraviy siyosat badiiy talqinlari milliy nasrimizda ham bir qadar keng yoyilganiga ishonch hosil qilamiz.

Bizningcha, “So’nggi o’q” hikoyasining nomi o’zgartirilibgina qolmay, personajlari taqdiri badiiy talqinlari ham qayta ishlangan. Jumladan, “Og’ir kun” hikoyasi ikkinchi jahon urushi jangohlarida bir oyog’idan ajrab kelib, jamoa xo’jaligida sidqidildan mehnat qilayotgan fidoyi inson – Shokir cho’loqning yakka-yu yolg’iz qizini otib tashlashi voqeasi asosiga qurilgan. E’tibor berilsa, syujetning asosiy nuqtalari: *ota + yolg’iz qiz + sodir etilgan mudhish fojia* to’la saqlab qolingan. Biroq, endilikda ota xoin bo’lmaganidek, qiz ham sotqin emas. Lekin, A.P.Chexov 1889-yil 1-noyabrda yozuvchi Aleksandr Lazarevga yozgan maktubida sahna asarlarida so’zni ortiqcha isrof qilmaslik haqida aytgan: “*Miltiq devorda osiqlik turgan bo’lsa, oxirgi ko’rinishgacha u otilishi kerak*” [Bitsilli, 1942:3], - *degan mashhur iboraga amal qilingan. Hikoya qahramoni* Shokir cho’loq yolg’iz qizi Mohiraga qarata o’q uzib, uning hayotiga zomin bo’ladi. Hikoya markaziga sinfiy dushman izlash bilan bog’liq siyosiy aspektidagi emas, balki ma’naviy-axloqiy yo’sindagi muammo qo’yiladi. Fabula va syujet liniyasi ham shunga monand tarzda qayta quriladi. Epik bayon hikoya personajlaridan biri – o’n uch yashar o’spirin tilidan olib boriladi. Uning otasi urushda “bedarak” ketgan. Bayonchi sag’ir bola ikki nafar ukasi va onasi bilan yashaydi. Onasi tong sahardan shom qorong’usigacha o’roqchi xotin-qizlar safida kolxoz dalasida bug’doy o’rib, tinkasi qurib zo’rg’a uyga qaytadi. Bolakay ham issiqni issiq, sovuqni sovuq demay, tashlandiq holga kelgan yerlarga ishlov bergan, ho’kiz bilan yer haydab bug’doy ekkan va endilikda jaziramada hosil yig’ishga bel bog’lagan chol bilan o’rish hamda yanchish ishlarida xuddi shunday og’ir mehnat qiladi.

Yozuvchi Shokir cho’loq xarakterini frontdan qochgan va endilikda xirmon qorovuli bo’lib olgan – tayyorga ayyor Yusuf mo’ylov obrazi bilan keskin qarama-qarshi qo’yib – kontrast holda tasvirlaydi. Bunday badiiy usul syujet voqealari tasviri, xarakter va sharoit, shuningdek, kompozitsiyada ham bo’y ko’rsatadi. Ayniqsa, personajlarni qabariq tarzda ko’rsatish imkonini beradi.

Demak, Asad Dilmurod yurtimizdan juda olisda – Rossiyada

bo'layotgan mash'um urushning front ortidagi yurtdoshlarimiz hayotiga ta'siri, ularning og'ir, mashaqqatli mehnati, och-yupun maishiy turmushi tasvirlarini g'oyat ta'sirchan chizadi. Shokir cho'loq fojiasini ham aynan shu planda ochadi.

Shokir cho'loq papalab o'stirgan yolg'iz qizi Mohiraning ota rizosini olmay, sinfdoshi Shukur pakana bilan ketib qolishini ulkan yuzsizlik, kechirilmas isnod sifatida qabul qiladi. Shuning uchun adib hikoya ritmini g'am-alam va mung ohanglari qorishiqligida chizadi. Ichki dardlar bir qadar qo'rs va jahldor qilib qo'ygan ota ba'zan dardlarini qo'shiqqa qorishtirib, entikib-entikib kuylaydi:

*Ko'k bedaning ichidan maydayo, maydayo,  
Bedanani uchiray, maydayo, maydayo.  
Uchar bo'lsang sen ham uch, maydayo, maydayo,  
Eldan oting o'chiray, maydayo, maydayo.*

Bir qarashda qadimiy mehnat-marosim qo'shig'iday [Alaviya,1974:221] tuyuluvchi yuqoridagi to'rtlik hikoyada Shokir cho'loq obrazi ruhiyatiga mosligi, psixologik tahlilni kuchaytirishga xizmat qildirilgani jihatidan ahamiyatlidir. Zotan, qo'shiq matnida kelayotgan ko'kka uchgan bedananing eldan oti o'chishi haqidagi fikr bir jihatdan, qizidan ayrilgan otaning kechinmalariga hamohang bo'lsa, ikkinchi tomondan hikoyaning finali bilan bog'liq yechimga ishora qiladi. Ayni paytda, to'rt misrada sakkiz marta takrorlanib, dilni o'rtayotgan "maydayo" so'zi qahramonning tilim-tilim bo'lgan qalbini ifodalaydi.

G'ayrat-shijoatli, mard, irodali, mehnatkash va ba'zan ko'ngli erib ham turadigan odam qanday qilib qotillikka qo'l urishi mumkin? Bizningcha, buning sababini Yusuf mo'ylovning: "Bitta-yu bitta qizingni eplolmading", - degan kinoyaomuz ta'nasi jon-jonidan o'tib ketgani va o'rta nomus masalasi qo'yilganidan izlash kerak:

– *Qizim bilan nima ishing bor, la'nati! – Bovaning tovushi boyagiday keskin emas, hazin chiqdi.*

– *Botdimi, Cho'loq? – Yusuf mo'ylovning ko'zlari sovuq porlardi. – Qizingda tirnoqcha nomus bo'lsa...*

– *Bas! – Bova baqirib yubordi. – Bas! Sen iflosni qoningni ichmasam...* [Dilmurod A, 1978:16].

Ko'rinadiki, cholning butun g'azab va nafrati Yusuf mo'ylov otlig' bir iflos kimsaga qaratilgan. U g'azab va nafrat bilan aytgan qasoskorona gap hali do'q-po'pisa edi, xolos. Ammo, darvozadan vajohat bilan kirishi hamon xotini Zulfin ayaning:

“– *Boshimga bitgan balo bo'ldi bu*”, - deya qarg'anishi cholning hovurini tushirish o'rniga, battar alanga oldiradi. Ko'ngli qattiq

o'ksigan cholning jismoniy va ruhiy holatiga, vajohatiga e'tibor beraylik:

– *“Bovaning qaltirog'i hamon bosilmadi. Butun vujudi – yelkalari, oyoqlari, qo'llari titrardi. Tishlari g'ijirlab, lablari pirpirayotganini eshitdim: – Obbo iflos-e!”* [Dilmurod A, 1978:17].

Demak, uning butun g'azab va nafrat toshlari qizi Mohiraga emas, balki Yusuf mo'ylovga atalgandi. Lekin kutilmaganda paydo bo'lgan Shukur pakana va uning qabatidagi Mohira Yusuf mo'ylovga atalgan g'azab va nafratga nishon bo'lishdi. Urush asoratlari va kontuziya o'z kuchini ko'rsatdi. Bova o'zini yig'ib ololmadi va hatto qizini ham tanimadi. Miltiq tovushidan sukunat larzaga keldi.

Kuyovini yetaklab, kechirim so'rash uchun o'z kindik qoni to'kilgan ostonaga bosh urib kelgan Mohiraning qismati fojiali yakun topdi. Qiz uzrxohlik so'rashga ulgurdi. Ota qilmishiga mingdan-ming nadomat chekdi. Ho'ngrab yig'ladi. Ammo, g'isht qolipdan ko'chgan edi.

Kezi kelganda, o'z farzandlariga qarata o'q uzgan va aksariyat hollarda ularning qotiliga aylangan otalar obrazi tasvirlangan o'zbek va jahon adabiyotining atoqli vakillari P. Merimening “Mateo Falkone” novellasi, N.V. Gogolning “Taras Bulba” qissasi kabi asarlarni tarixiy-qiyyosiy, qiyyosiy-tipologik tahlilga jalb qilish ehtiyoji mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir.

Jumladan, fransuz adibi Prosper Merime (1803-1870) o'zining “Mateo Falkone” nomli novellasida tasvirlashicha, O'rta yer dengizidagi Korsika (Korse) orolida chorvador, boy-badavlat qora tanli Matteo Falkone umr yo'ldoshi Juzeppe bilan tinch-totuv yashashadi. Ularning turmushga uzatilib, baxtli umrguzaronlik qilayotgan ikki nafar qizlari va o'n yashar Fortunato ismli o'g'li bor. Matteo bir paytlar mohir ovchi bo'lgan. Ammo, so'nggi o'n yillikda qo'lga sovuq qurol olib, biror jonivorga ozor bermagan.

Kunlardan bir kun er-xotin podadan xabar olgani yaylovga chiqib ketishadi. Natijada, o'g'illari Fortunato uyda yolg'iz qoladi. Fransuz mustamlakachilari ta'qibiga uchrab, sonidan yaralanib qochib kelayotgan “qaroqchi” – Janetto bolakaydan o'zini yashirishni so'raydi. Dastlab quroli bilan tahdid qilib uni qo'rqitmoqchi bo'ladi. Fortunato tahdiddan mutlaqo cho'chimaydi. Bolakay beg'araz yordam berishni istamay, ko'maklashgani uchun undan pul talab qiladi, Kumush tangani olgach, Janettoni pichan g'arami ostiga yashirib qo'yadi.

Fortunato o'ziga yarasha ayyor va pishiqqina bola edi. Ta'qibchilarda go'yo bu g'aram anchadan beri joyidan qo'zg'alman,

- degan tasavvur tug'dirish va jandarmni chalg'itish uchun g'aram ustiga mushuk va uning bolalarini olib kelib qo'yadi. So'ngra o'zi bamaylixtir oftobda toblanib yotaveradi. Shu bilan hamma ish xamirdan qil sug'urganday oson hal bo'ladi. Bolakay bir pasdan keyin olti nafar askari bilan yetib kelgan uzoq qarindoshi – serjant Teodor Gambaga sir boy bermaydi. Hatto, uni uquvsiz va landovur sifatida masxara qiladi. Alamiga chidolmagan serjant hamma yoqni ostin-ustun qilib tashlaydi. Ammo, izlaganini topolmaydi. Shunday so'ng, u ayyorlikka qarshi makkorlik ishlatib, agar jinoyatchini topshirsa, bolakayga kumush soat sovg'a qilishga va'da beradi:

*– “Fortunatoning ko'zlari chaqnab ketdi, lekin baribir soatga qo'l cho'zmadi. Serjant zanjirli kumush soatni sekin-asta Fortunato tumshug'iga yaqinlashtirdi. Fortunatoning qalbida ichki kurash avj oldi. Zotan, soat shundoqqina ko'z o'ngida chayqalib turar va hatto burnining uchiga ham tegib o'tgan edi. Nihoyat, bolakay ikkilanibgina qo'l cho'zdi va soat uning kaftiga sirg'alib tushdi. Biroq, serjant hali ham zanjirning bir uchidan mahkam ushlab turardi. Fortunato chap qo'lini ko'tarib, bosh barmog'ini bigiz qilib, pichan g'aramiga qaratdi. Serjant zanjirning uchini qo'yib yubordi va Fortunato soat endi butkul o'ziniki bo'lganiga to'la ishonch hosil qildi” [Merime, 2024:224].*

Tabiiyki, askarlar shu zahoti pichanlar orasidan Janettoni topib, qo'l-oyog'ini bog'lashadi. Bolakay uning kumush tangasini qaytib beradi. Shahardan qaytgan ota-ona serjantning o'g'li dushmanni tutib bergani haqidagi maqtovini eshitib, hayratlanishadi. G'azablangan maxbus xonadon sohibi uyining ostonasiga tupuradi. U bolakay olib chiqqan bir piyola sutdan yuz o'girib, askardan suv so'rab ichadi. Ya'ni xoin bolaning sutidan dushmanning suvini afzal ko'radi. Chuqur qayg'uga botgan Matteo o'z shajarasidan chiqqan ilk xoin va ta'magir o'g'ilni la'natlaydi. Fortunatoning ko'z yoshlari va kechirim so'rab yalinib-yolvorishlari uning qalbini yumshatmaydi. U g'azab va nafratini sirtiga chiqarmay, vazmin ovozda o'g'liga ortidan yurishni buyurib, miltig'ini yelkasiga tashlab, olg'a intiladi. Onaizorning tiz cho'kib qilgan iltijolari ham ish bermaydi. Ota kichik bir o'ngirda to'xtab, o'g'li tavba qilishi vojib deb bilgani uchun unga ibodat qilishni buyuradi.

Tiz cho'kkan bolakay, qo'rquvdan dag'-dag' titrab, duduqlanganicha o'zi bilgan barcha duolarni tilovat qiladi. Otasidan rahm-shafqat so'raydi. Matteo Allohdan uzoqlashib, nafs yo'lida gunohga botgan nobakor o'g'il chin dildan nadomat chekkaniga ishonmaydi va uni kechirmaydi. Miltig'ini qo'lga olib: *“Xudo sizni kechirsin!”*, - deydi va o'q uzib, uning umriga so'nggi nuqta qo'yadi.

Ota murdaga qayrilib ham qaramay, mayitni dafn qilishga belkurak olib kelish uchun uylari tomonga jo'naydi. O'q ovozi eshitib, yuragi taka-puka bo'lgan ayolining: *"O'g'limizni nima qildingiz?"*- degan savoliga: *"Men adolat qildim. U nasroniy sifatida omonatini topshirdi. Men uni xotirlash marosimiga tayyorlanishga buyruq beraman. Kuyovimiz Teodor Byankiga endilikda biz bilan yashashini aytishimiz kerak"*, - deya xotirjam javob beradi. [Merime, 2024:230].

Prosper Merime novellasida tasvirlangan Matteo obrazi o'zlarini "zamonaviy" deb hisoblovchi o'sha davr fransuz kitobxonlari uchun mutlaqo kutilmagan, yangi tipdagi adabiy qahramon edi. Ta'kidlash o'rinliki, mustamlakachilik kayfiyatidagi muallif ham iymon-e'tiqodga sadoqat, shajaraning genetik kodini musaffo saqlashdek Korsika qadimiy madaniyati, azaliy an'analariga past nazar bilan qaraydi. Bu an'analarni isloh qilish va "madaniy" lashtirish tarafdori sifatida qalam tebratadi. Demak, begona madaniyat vakili bo'lgan Prosper Merime bosh qahramon xatti-harakatlarining milliy-mental motivlari mohiyatini tushunib yetmaydi.

Anglashiladiki, ijobiy qahramon hamisha *"Muallif axloqiy qadriyatlari aks etgan adabiy personaj"* [Kojevnikova, Nikolaeva, 1987:286] bo'lavermas ekan. N.V.Gogol qalamiga mansub *"Taras Bulba"* [Gogol, 1963:272] (1835) qissasining bosh qahramonini aksiomaga aylangan an'anaviy talqinlardan mutlaqo boshqacha bir versiya asosida tadqiq etgan adabiyotshunos Zuhridin Isomiddinov ham yuqoridagi fikrni tasdiqlab: *"Ulug' Gogolning ma'naviy-axloqiy qarashlari Taras Bulba qiyofasida aks etmaydigina emas, unga tamoman qarama-qarshidir"*, -[Isomiddinov, <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1256>.] deb yozadi. Qissani o'tkir siyosiy pamflet deb baholagan Yerjan O'rmonboev ham yuqoridagi fikrga ancha yaqin keladi [O'rmonboev, <https://kh-davron.uz/>].

Biz ham Andriyning jang paytida qo'lga olinib, chakalakzorda otasi tomonidan otib o'ldirilishi sahnasiga e'tibor qaratmoqdamiz. Andriy birinchi navbatda, ko'z o'ngimizda oshiq sifatida namoyon bo'ladi. Agar biz Sayfi Saroyining *"Suhayl va Guldursun"* dostonida *"dushman"* yigitini sevib qolgan malika va uning ishqida o'z jonidan kechgan Suhaylni eslasak, oshiq va ma'shuqa uchun dunyoviy mazmundagi ishqda ham sevgi, vafo, sadoqat va fidokorlik muhim fazilat sifatida ulug'langani guvohi bo'lamiz. Shunday ekan, polyak malikasini sevib qolgan kazak jangarisi Andriyning qalb tug'yonlari va tutumlarini ham tushunish mumkin.

Ikkinchi jihatdan qaralsa, Andriy o'zlari qamal qilgan shaharda

ochlikdan sillasi qurigan sevgilisi va uning begunoh fuqarolarini himoya qiladi. Ya'ni mislsiz shafqatsizlikdan nafratlangani uchun hatto o'z otasi, akasi va sobiq quroldosh do'stlariga qarshi qurol ko'taradi.

Yuqoridagi har ikki holat ham Taras Bulba tomonidan qoralanadi. O'z ayolining sevimli o'g'illari diydoriga to'yishiga imkon bermay, ularni juvonmarg qilgan keksa Tarasda ayolga muhabbat haqida muayyan tasavvur borligiga ishonish qiyin. Uning nazdida ayol zotiga muhabbat qo'yish yengiltaklikdir. "G'anim"lar tomoniga o'tish esa, ochiq-oshkora tarzda xoinlik yo'lini tanlashdir. Prosper Merime adabiy qahramoni Matteo ham onaizor bilan bir og'iz maslahatlashishni xayoliga keltirmaydi. Har ikkala qahramon ham, zuriyotlaridan o'z qilmishlari uchun izoh talab qilishmaydi. Chunki ularni qat'iy ishonch bilan jisman yo'q qilishadi. Bu ish jinoyat ekanini xayollariga ham keltirishmaydi. O'z qilmishlaridan zarracha afsus chekmay, olg'a intilishadi. Chunki, jigarbandlari qotiliga aylangan har ikkala ota ham o'zlari ishongan "adolat"ni barqaror qilishganidan xotirjam edi.

Biroq, Matteoning o'g'li bor-yo'g'i o'n yashar, Andriy esa navqiron yigit edi. Fortunato mushtday boshi bilan ta'magirlik ko'chasiga kirdi va nafsi yo'lida inson bolasini sotdi. Matteoning nazdida bu ishi bilan nainki, ota-onasiga, balki avlod-ajdodlariga ham isnod keltirdi. Ota o'sha isnoddan qutulish uchun qo'lini qonga beladi. Matteo ham, Taras ham o'z farzandi ko'ngliga quloq tutish, jilla qursa unga imkon berish haqida o'ylab ko'rmaydi. Ota Andriyning qilmishini xoinlik va kazaklar uchun isnod deb biladi. O'zi qonxo'r va voxshiy ekani bois, kenjatoyi undan butkul yuz o'g'irganini tuzukroq muhokama qilishga qurbi yetmaydi. Qaroqchi Taras Bulba mash'um qilmishlarining jazosi sifatida, nainki, ikkita begunoh o'g'lining aziz boshi, balki butun boshli kazak qo'shini va o'z joni bilan ham jazoga mustahiq bo'ladi. Ammo, shunda ham, tili va dili tavgaga kelmaydi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tarixiy qiyoslardan shu narsa ayon bo'ladiki, Asad Dilmurod "So'nggi o'q" hikoyasini "Og'ir kun" nomi bilan qayta ishlash asnosida katta badiiy-estetik effektga erishgan. Bu hol urush odami ruhiy psixologik kredosini ko'rsatish, o'zbek xalqining front ortidagi og'ir va mashaqqatli turmushini realistik tasvirlash, milliy-mental tabiatga ega qahramonlar xarakterini turli rakurslardan ochishda yaqqol namoyon bo'ladi.

### Adabiyotlar

- Алавия М. 1974. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: “Фан”. – 221б.
- Бицилли П.М. 1942. Творчество Чехова (Опыт стилистического анализа). // Годишник на Софийския университет. Историко-филологически факультет: журнал. – София, – Т. 38. –С. 3.
- Гоголь Н.В. 1976. Тарас Бульба, – Т.: “Ёш гвардия”, – 124 б.
- Гоголь Н.В. 1963. Тарас Бульба. – М.: Издательство АН. – 272 с.
- Дилмурод А. 1978. Оғир кун. / Асад Дилмурод. Осмоннинг бир парчаси. Ҳикоялар. “Ёш гвардия” – Т.: – 47 б.
- Исомиддинов З. Тарас Бульба ошкор ва пинҳон қиёфа. <https://www.adaabiyot.uz/maqola/1256>.
- Литературно-энциклопедический словарь. 1987. / под ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Советская энциклопедия, – 286 с.
- Мериме Проспер. 2024. Матео Фальконе. Новеллы. Издательство АСТ, – М.: – 224 с.
- Мирсаидова М. 2019. Шабнамдек беғубор дўстларим. // “Ургут садоси”, 23 май.
- Ўрмонбоев Е. Тарас Бульба – рус адабиётидаги америкалик илк жосус ёхуд эл бошига қай қисмат тушиши мумкинлиги ҳақида қисса.<https://kh-davron.uz>/<https://adabiyot.islamonline>.

## Biographical and comparative-historical interpretation of Asad Dilmurod's prose

Nilufar Dilmurodova<sup>1</sup>

### Abstract

The article analyzes and examines the story “Ogir kun” (“Hard Day”) by the famous cultural figure of Uzbekistan, written by Asada Dilmurod, “Mateo Falcone”, the story of P. Merimee, famous in world literature, and the story of N. V. Gogol “Taras Bulba” on the historical-comparative and comparative-typological aspects.

Reference is also made to the significant article “My Friends as Immaculate as Shabnam” by the writer’s creative friend, the first reader and “critic” of some of his works, journalist and poet Mavluda Mirsaidova.

<sup>1</sup> Nilufar Dilmurodova – independent researcher of TSUULL named after Alisher Navoi, associate professor of Tashkent State University of Economics.

E-pochta: nilu.01@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-6991-1839

For citation: Dilmurodova, N. 2025. “Biographical and comparative-historical interpretation of Asad Dilmurod's prose”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 114-123.

Through this, the internal evolution of A. Dilmurod's work in mastering the secrets of reworking the story, getting rid of tendentious views, perfecting the artistic concept, and continuing the fate of the characters in their natural course is shown.

**Key words:** *image, character, personage, composition, pamphlet, contrast plan, method, plot, storyline, rhythm of the story, psychological analysis.*

### References

- Алавия М. 1974. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: “Фан”. – 221б.
- Бицилли П.М. 1942. Творчество Чехова (Опыт стилистического анализа). // Годишник на Софийския университет. Историко-филологически факультет: журнал. – София, – Т. 38. –С. 3.
- Гоголь Н.В. 1976. Тарас Бульба, – Т.: “Ёш гвардия”, – 124 б.
- Гоголь Н.В. 1963. Тарас Бульба. – М.: Издательство АН. – 272 с.
- Дилмурод А. 1978. Оғир кун. / Асад Дилмурод. Осмоннинг бир парчаси. Ҳикоялар. “Ёш гвардия” – Т.: – 47 б.
- Исомиддинов З. Тарас Булба ошкор ва пинҳон қиёфа. <https://www.adabiyot.uz/maqola/1256>.
- Литературно-энциклопедический словарь. 1987. / под ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Советская энциклопедия, – 286 с.
- Мериме Проспер. 2024. Матео Фальконе. Новеллы. Издательство АСТ, – М.: – 224 с.
- Мирсаидова М. 2019. Шабнамдек беғубор дўстларим. // “Ургут садоси”, 23 май.
- Ўрмонбоев Е. Тарас Булба – рус адабиётидаги америкалик илк жосус ёхуд эл бошига қай қисмат тушиши мумкинлиги ҳақида қисса.<https://kh-davron.uz/https://adabiyot.islamonline>.

## Antologiya – adabiyot tarixining ko'zgusi: G'arb adabiy an'alarida poetika va tanlov

Dilnavoz Najimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada G'arb adabiyotida antologiya fenomenining shakllanishi, rivojlanishi va adabiyotdagi tutgan o'rni tarixiy poetika nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Antologiyalar ilk yunon davridan boshlab XX asrgacha bo'lgan jarayonda qanday shakl va mazmun o'zgarishlariga uchragani o'rganiladi. Muallif antologiyani nafaqat adabiy matnlar to'plami, balki o'z davrining estetik mezonlari, adabiy did va tanlov mezonlarini aks ettiruvchi madaniy hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada turli davr va adabiy oqimlarga mansub antologiyalar misolida ularning adabiyot tarixini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, antologiyaning tanlov, ixtiyor, poetik qarashlar va adabiy kanonlar bilan bog'liq jihatlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *antologiya, kanon, Yunon antologiyasi, misselaniya, kashkul, guldasta.*

### Kirish

Adabiy antologiyalar – muayyan davr, adabiy maktab yoki estetik mezon asosida saralangan matnlar to'plami sifatida – G'arb adabiy an'alarining muhim tarkibiy qismidir. Ular nafaqat adabiy merosni saqlab qolish, balki uni tanlash, baholash va avlodlarga uzatish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Antologiya tuzish an'analari o'z ildizlarini qadimgi yunon madaniy merosidan oladi. Bu borada eng qadimgi va mashhur namunalar qatorida miloddan avvalgi I asrda yashagan Gadaralik Meleagros tomonidan tuzilgan "Guldasta" (Stephanos, Garland) nomli she'riy to'plam alohida o'rin tutadi. Meleagros bu to'plamda epigrammalarni "gul" yoki "o't" sifatida tasvirlab, ularni ramziy tarzda shoirlarning nomlari bilan bog'lab taqdim etadi. Butun to'plam esa bir butun guldastaga qiyoslanadi. Shu sababli, keyinchalik bu kabi she'riy to'plamlar "antologiya"

---

<sup>1</sup> *Najimova Dilnavoz Doniyor qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktranti.

**E-mail:** najimovadilnavoz@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0003-1181-1856

**Iqtibos uchun:** Najimova D. 2025. "Antologiya – adabiyot tarixining ko'zgusi: g'arb adabiy an'alarida poetika va tanlov". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 1 (3): 124-138.

– ya'ni “gullar to'plami” degan atama bilan yuritila boshlagan. Bu yondashuv antologiyani nafaqat adabiy matnlar majmuasi, balki estetik va ideologik qarashlar yig'indisi sifatida ham talqin qilishga imkon beradi.

Ushbu maqolada antologiyaning G'arb adabiyotidagi o'rni tarixiy poetika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ilk yunon antologiyalaridan tortib XX asrga qadar bo'lgan davr mobaynida antologiyalar qanday o'zgarishlarga uchragani, ular qanday adabiy, madaniy va estetik funksiyalarni bajargani o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – antologiyalar orqali adabiy tanlov, poetik qarashlar va adabiy kanonlarning shakllanish jarayonini yoritishdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, Meleagrosdan oldin ham Iliumlik Polemon kabi mualliflar ayrim mavzularga oid epigrammalar yoki yodgorlik yozuvlarini to'plagan. Biroq aynan Meleagros ilk bor bu ishni sistematik va keng qamrovli shaklda amalga oshirgan. U antologiyasiga turli davrlarda ijod qilgan 46 nafar yunon shoirining epigrammalarini jamlagan va asarlarni alifbo tartibida joylashtirgan [Garnett Richard, 1911, 94-96-bet]. Ulardan ba'zilar – Arxilox, Alkey, Anakreon va Simonid kabi mashhur antik shoirlarning ham ijod namunalari ushbu to'plam orqali bizgacha yetib kelgan.

Keyinchalik milodiy I asrda yashagan Fessalonikalik Filipp ushbu antologiyaga yana o'n uch nafar shoirning asarlarini qo'shgan va Meleager singari *alifbo* tartibida joylashtirilgan, shuningdek, unga kirish she'ri ham ilova qilingan. Biroq, u to'plam Meleagarning “Guldasta”siga qaraganda ancha past saviyada baholangan.

Yustinian davrida epigrammatik ijod, ayniqsa muhabbat mavzusidagi she'rlar yozilishi qayta jonlanadi va VI asrda yashagan Agatiy bu to'plamni yangi epigrammalar<sup>1</sup> qo'shib kengaytirdi. Bu to'plam birinchi marta kitoblarga bo'lib tartiblangan bo'lib, unda asarlar *mavzulariga* qarab guruhlangan edi.

X asrga kelib, Konstantin Kefala (Constantin Cephalas) tomonidan antologiyaning yakuniy ko'rinishi tayyorlangan. U tuzgan to'plam mavzularga ko'ra tasniflangan bo'lib, bu jihatdan u Agatiy tomonidan qo'llanilgan tartibga yaqin turadi. Unda milodiy II asrda Sardislik Straton tomonidan tuzilgan epigrammalar; xristian epigrammalari to'plami; Diogenian tomonidan jamlangan hazilona, komedik epigrammalar; Vizantiya davriga oid, Zevksipp gimnaziyasidagi haykallarni tasvirlovchi Xristodor asarlari; Kizik shahridagi ibodatxonalardan olingan yozuvlar asosida tuzilgan

---

<sup>1</sup> Epigramma (yunoncha ἐπίγραμμα – “yozuvi”, “bitik”) – qisqa, qiziqarli, esda qolarli, ba'zida istehzo (kinoya) bilan aytilgan ibora.

epigrafik to'plam kabi bir nechta qo'shimcha to'plamlar ham o'rin olgan [Spingou Foteini, 2019, 381-403]. Konstantin Kefala tomonidan tartib berilgan nashr 1606-yilda Germaniyaning Geydelberg shahridagi Palatin kutubxonasidan topilgani uchun "Palatin antologiyasi" deb nom olgan. Topilgan yilning o'zidayoq fransiyalik olim Klod Salmasiy (Claudius Salmasius) tomonidan qayta ko'chirilgan bo'lsa-da, qo'lyozma 1776-yilgacha nashr qilinmagan. Bu antologiya sevgi, hayot, o'lim, ilohlar va hazil mavzularidagi qisqa she'rlardan iborat bo'lib, g'arb adabiyoti an'alarining asosiy manbalaridan biriga aylangan.

Keyingi muharrir esa Maksimus Planud (1320 y.) bo'lgan [Κατσιαμπούρα Γιάννα, 2003]. Garchi Planud Antologiyasi Kefala antologiyasiga asoslangan bo'lsa-da, Palatin antologiyasi bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, Planud o'z to'plamiga ko'plab she'rlarni kiritmagan. Palatinda 3700 epigramma mavjud bo'lsa, Planudda o'z tuzgan antologiyaga faqat 2400 epigrammani loyiq deb ko'rgan va barcha she'rlarni yetti kitobga bo'lgan. Bir qancha epigrammalarni qayta ishlab, "tuzatishlar" ham kiritgan. Dastlab, Kefala antologiyasidan nusxalash va ko'chirish aniq va qunt bilan amalga oshirilgan bo'lsa-da, ma'lum bir bobdan keyin imloviy xatolar ko'payib, yozuvchi o'z ishiga qiziqish yo'qotgan yoki kitoblarni tezroq yakunlashga majbur bo'lgan kabi ko'rinadi. Natijada, ancha aniqroq bo'lgan Palatin Antologiyasi topilganidan so'ng, tadqiqotchilarning e'tibori Planud antologiyasidan Palatin antologiyasiga qaratildi. Planud antologiyasining yagona muhim jihati bu Palatinda topilmagan 388 epigrammadir. Planud antologiyasidagi san'at asarlari haqida yozilgan epigrammalar Kefalaning saqlanib qolgan yagona nusxasida yo'q [Mackail John, 1890]. Tadqiqotchilar keyinchalik Planud antologiyasi va palatin antologiyasidagi she'rlarni birlashtirib, unga Yunon antologiyasi nomini berishgan.

Xulosa qilib aytganda, Meleagrosning to'plami bugungi kungacha to'liq holatda saqlanmagan bo'lsa-da, u keyinchalik shakllantirilgan va yunon epigramma an'alarini o'z ichiga olgan "Yunon Antologiyasi" ning asosi sifatida bizgacha yetib kelgan [Smit Filipp, 1867].

**Yunon Antologiyasi** (*Anthologia Graeca*) – bu yunon adabiyotining klassik va Vizantiya davrlariga oid, asosan epigramma janrida yozilgan she'rlar to'plamidir. Uning asosiy qismlari ikkita asosiy manbadan – X asrga oid *Palatin Antologiyasi* va XIV asrga oid *Planud Antologiyasidan* iborat.

Hozirgi matnning asosi bo'lgan **Palatin qo'lyozmasi** turli vaqtlarda turli kishilar tomonidan ko'chirilgan bo'lib, to'plamning amaldagi tartibi indeksda ko'rsatilgan tartibga to'liq mos kelmaydi. Ushbu qo'lyozma quyidagi kitoblarga (bo'limlarga) ajratilgan:

- Xristian epigrammalari;
- Haykallarni tasvirlovchi Xristodor asarlari
- Kizik ibodatxonasidagi yozuvlar;
- Meleagros, Fessalonikalik Filipp va Agatiyning o'z to'plamlariga yozgan muqaddimalari;
- Muhabbat (amatory) epigrammalari;
- Nazr (votive) yozuvlar;
- Qabr toshlari uchun yozilgan epitafiyalar<sup>1</sup>;
- Nazianzenlik Gregoriy epigrammalari<sup>2</sup>;
- Ritorik va tasviriy epigrammalar;
- Axloqiy mazmundagi asarlar;
- Hazil-mutoyiba va ziyofat mavzusidagi she'rlar;
- Stratonning "Musa Puerilis" asari (o'smirlar mavzusidagi epigrammalar)<sup>3</sup>;
- She'riy o'ziga xosliklar (metrik noodatiyliklar);
- Topishmoqlar, muammolar va bashoratlari;
- Aralash mavzulardagi epigrammalar.

Yunon adabiy merosining muhim manbalaridan biri bo'lgan antologiyada alifbo asosida tartiblangan 300 dan ortiq ijodkorning she'riy asarlari jamlangan.

Yunon Antologiyasi Yevropaga yetib kelgach, o'quvchilariga katta ta'sir ko'rsatdi. 1971-yilda *Times Literary Supplement* jurnalida Robin Skelton tomonidan antologiyadan tanlab tarjima qilingan she'rlar haqida maqola chop etilgan bo'lib, unda sharhlovchi shunday yozadi: "*The time of life does not exist when it is impossible to*

<sup>1</sup> Epitafiyalar — bu qabr toshlariga yozilgan she'riy yoki nasriy matnlar bo'lib, marhumning hayoti, fazilatlar yoki unga bo'lgan hurmat-ehtiromni ifodalaydi. Epigrammaning bir turi.

<sup>2</sup> Nazianzenlik Gregoriy epigrammalari — bu milodiy IV asrda yashagan mashhur xristian ilohiyotchisi va shoiri Gregoriy Nazianzenlik (Gregorius Nazianzenus) tomonidan yozilgan qisqa, she'riy shakldagi diniy mazmundagi matnlardir. Ularning ko'pchiligi diniy, axloqiy va falsafiy g'oyalarga bag'ishlangan bo'lib, Yunon epigrammatik an'anasi doirasida yozilgan, ammo xristian ruhiyati bilan sug'orilgan.

<sup>3</sup> "Musa Puerilis" — "O'smirlar Musasi", qadimgi yunon shoiri Sardislik Straton tomonidan tuzilgan asar. Unda yigitlar (asosan o'smirlar) go'zalligi, muhabbati va shaxsiy fazilatlar haqida kuylanadi. Yunon madaniyatida yosh yigitlarning go'zalligi ideal go'zallik timsoli bo'lgan, va bu epigrammalarda shu go'zallik madh etiladi. Bugungi kunda bunday mavzular axloqiy va madaniy jihatdan bahsli, lekin tarixiy va madaniy kontekstda qadim yunon adabiyotining o'ziga xos bir yo'nalishi sifatida o'rganiladi.

discover in it a masterly poem one had never seen before” – “Hayotda shunday bir davr yo‘qki, unda ilgari hech ko‘rmagan bir mohirona she‘rni kashf etishning imkoni bo‘lmasa”. Hayotning har qanday pallasi – qanday bo‘lmasin – doim yangi, ilgari ko‘rilmagan, ajoyib bir she‘rni topish mumkin bo‘lgan davrdir. Ya‘ni, she‘riyat, go‘zallik doim bor, har qanday davrda odam uni topa oladi. Bu fikr orqali muallif she‘riyatning abadiyligini va inson qalbi uni doim qayta kashf etishini nazarda tutadi. Yunon antologiyasidagi tanlangan she‘rlar antik rim adabiyotida muhabbat elegiyalari bilan mashhur bo‘lgan Propertiusdan tortib, XX asrda modernizm va imagizm oqimining yetakchi figuralaridan biri sifatida tanilgan amerikalik shoir Ezra Poundgacha va inson shaxsiyatining murakkabligi, inson ruhining kechinmalarini yoritishda o‘ziga xos maktab yaratgan Edgar Li Masters ijodiga qadar ta‘sir etdi [Anthony Graftonva boshqalar, 2010, 410-bet]. XX asr oxirida antologiyaning ingliz tilidagi to‘liq va senzurasiz tarjimalari ommaga taqdim etilgach, antologiyaning ta‘siri yanada kengaydi.

**O‘rta asrlarda** Yevropada “antologiya” termin o‘laroq qo‘llanilmagan. Bu davrda tartib berilgan har qanday to‘plam uchun “florilegiya” istilohini qo‘llash keng ommalashgan edi. Florilegiyalar xristian va pagan (butparast) falsafiy matnlaridan olingan parchalarni bir joyga to‘plagan. Keyinchalik bu to‘plamlar Yon daftarlar (commonplace books) va turli-tuman mavzudagi asarlar to‘plami kashkullar (miscellanies) shaklida rivojlandi. Ular orasida maqollar, iqtiboslar, maktublar, she‘rlar va duolar aralash holatda bo‘lgan.

*Yon daftar – commonplace book* – bu “odatiy daftarcha” yoki “fikrlar daftar”i degan ma‘noni anglatadi. Tarixda bu daftarlarga odamlar muhim fikrlar, iqtiboslar, maqollar, she‘rlar, donishmandlarning gaplari, diniy matnlar yoki ilmiy kuzatishlarni yozib borishgan. Ya‘ni, bu–shaxsiy bilimlar, kuzatuvlar va ilhom manbalarini saqlash uchun mo‘ljallangan daftarcha bo‘lgan. Ko‘pincha yozuvchilar, olimlar va o‘rganuvchilar undan o‘zlariga eslatmalar qilish yoki keyinchalik foydalanish uchun fikrlarini yozib borishgan. Yozuvlar odatda tizimli mavzu sarlavhalari ostida joylashtiriladi va kundaliklar yoki shaxsiy daftarlardan farqli o‘laroq, ular xronologik yoki introspektiv (ichki kechinmalar) tarzida yuritilmaydi. Bu kabi yon daftarlar qadim zamonlardan beri yuritilgan bo‘lib, ayniqsa Uyg‘onish davrida va XIX asrda keng tarqalgan [Burke Victoria, 2013].

*Missellaniya* (inglizcha *miscellanies*, *aralashma*) – mazmunan

turli-tuman bo'lgan asarlar jamlanmasini anglatuvchi atama bo'lib, u adabiyot, madaniyat va diniy matnlarda turli mavzu va mualliflarga mansub she'rlar, maqolalar, iqtiboslar, risolalar, latifalar va boshqa janrlardagi matnlar jamlangan to'plamni bildiradi. O'zbek adabiyotidagi **“kashkul”** to'plamlari bilan mazmun jihatidan muayyan o'xshashliklarga ega. Missellaniyaning asosiy belgisi – uning muayyan estetik mezon asosida tanlanmagani, balki davr o'quvchisining didi va qiziqishlarini inobatga olgan turli matnlardan aralash holda tuzilganidir.

Adabiy to'plamlarning shakllanishida antologiya va missellaniya (aralashtirish) turlari o'rtasidagi farq alohida e'tiborga loyiq. Antologiyalar, odatda, tanlab olingan, estetik mezonlarga javob beruvchi, badiiy jihatdan yuksak deb baholangan asarlar majmuasini tashkil etadi. Ular “mumtoz” yoki “kanonlashtirilgan” deb topilgan asarlarni o'z ichiga oladi. Masalan, ingliz she'riyatiga bag'ishlangan ayrim antologiyalarda faqat tan olingan va keng e'tirof etilgan asarlar jamlanadi.

Missellaniyalar esa antologiyalardan tubdan farq qiladi. Ularning asosiy maqsadi badiiy jarayonni tanlab olinib yoki kanonlashtirilgan tarzda emas, balki keng auditoriyani qiziqtiradigan, ko'ngilochar shaklda turli janr va mazmundagi matnlarni taqdim etishdan iborat. Shu bois, bu turdagi to'plamlar ommaboplik, mavzuviy xilmaxillik va o'quvchi ehtiyojiga asoslanadi. Bunda asarlarning estetik mukammalligi birlamchi emas; aksincha, ular qiziqarli, o'qishga arzigulik yoki davr talabiga mos bo'lgan zamonaviy mazmun tufayli tanlanadi. Bunday to'plamlarda she'rlar yoki badiiy parchalar g'amgin, ta'sirli, kulgili, noodatiy yoki shunchaki e'tiborni tortadigan shakllarda bo'lishi mumkin. Shu boisdan, bu turdagi to'plamlar ko'pincha rasmiy kanon doirasidan chetda qoladi, biroq ayni vaqtda keng o'quvchilar auditoriyasi orasida mashhurlikka erishishi mumkin.

Ingliz tadqiqotchilari Laura Mandell va Rita Raley ushbu ikki toifa o'rtasidagi farqni quyidagicha izohlaydilar: “Antologiyalarda biz “mumtoz”, ya'ni mukammal badiiy asarlarni o'qiyamiz, boshqa turdagi to'plamlarda esa – qiziqarli she'rlarni [Laura Mandell and Rita Raley, 2002] “. Bu nuqtai nazar *tanlash prinsipi* (antologiyalar) bilan *to'plash prinsipi* (missellaniyalar va boshqa turdagi kolleksiyalar) o'rtasida estetik tafovut mavjudligini ta'kidlaydi. Aynan ushbu tafovut adabiyotshunoslikdagi dolzarb nazariy savollardan birini keltirib chiqardi: adabiyot tarixiga faqat estetik mezonlarga javob beruvchi asarlarga kiritilishi kerakmi yoki keng auditoriyani

qiziqtirgan, odamlar orasida mashhur bo'lgan, qo'ldan qo'ymay o'qilgan ammo rasmiy kanonga kirmagan matnlar ham tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lishi mumkinmi?

Yuqoridagi bahs-munozaralar va turli fikrlarga qaramay, missellaniyalar o'rta asrlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Antologiyalar ommalashgunga qadar, o'rta asr xalq she'riyatining ko'plab namunalarining manbai aynan shu turdagi to'plamlarda saqlanib qolgan. Antologiyalar adabiyot tarixining kanonik manzarasini yaratishga intilgan bo'lsa, missellaniyalar odatda yaratilgan davrning dinamik adabiy madaniyatini aks ettirgan. Adabiyotshunos Maykl Suares bu farqni quyidagicha tushuntiradi: "Missellaniyalar odatda zamonaviy didga moslab tuzilgan nisbatan yaqinda yozilgan matnlarning jamlanmasidir; antologiyalar esa, aksincha, ko'proq tarixiy ahamiyatga ega, kanonik deb tan olingan asarlardan tuziladi. Demak, missellaniya odatda urf bo'lgan didni, yangilikni va zamonaviylikni ulug'laydi hamda aynan shu tamoyillar asosida bir davrga oid asarlarni bir to'plamda birlashtiradi. Uni antologiyadan farqlash lozim, chunki antologiya tarixiylikka va san'atda tan olingan an'anaviy mezonlarning davomiyligiga urg'u beradi [Suarez Michael, 2001, 217-251]."

O'rta asr missellaniyalarining o'ziga xos jihati shundaki, ular da faqat badiiy asarlar emas, balki huquqiy hujjatlar, retseptlar, latifalar, tibbiy va diniy matnlar kabi turli xil matnlarni aralash holda jamlangan. Masalan, 1608-yilgi Trevelyon majmuasi –594 betdan iborat, kattaroq hajmli, rasmlı qo'lyozma bo'lib, unda turli mavzular qamrab olingan: dorivor o'simliklar bilan davolash usullari, Injildan hikoyalar, London meri lavozimini egallagan kishilar ro'yxati, maqollar, taqvimlar va kashta tikish naqshlari va hokazolar. Aynan ana shu janrlar aralashuvi missellaniyalarni boshqa turdagi to'plamlardan ajratib turgan.

Missellaniyalar 18-asrda o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi – bu davrda 1000 dan ortiq missellaniyalar chop etilgan [Digital Miscellanies Index]. Garchi bu majmualarda tanqidiy maqolalar, nasr yoki dramatik asarlardan parchalar bo'lsa-da, ularning asosiy e'tibori ommalashgan she'riy asarlarga, ayniqsa, qo'shiqlarga qaratilgan bo'lgan. O'sha davrda she'riyat ham past, ham yuqori darajadagi adabiyotda yetakchi shakl bo'lib, uning turfa xilliligi va oson tushunilishi bu turdagi majmualar uchun ayni muddao bo'lgan [Hunter Paul, 2005, 160-208]. Ushbu missellaniyalardagi she'riyat janr, shakl va mavzu jihatidan nihoyatda xilma-xil bo'lgan

va ko'pincha muhabbat lirikasi, pastoral she'rlar<sup>1</sup>, odalar (tantanali madhiyaviy she'r), balladalar<sup>2</sup>, qo'shiqlar, sonetlar, satiralar, madhiyalar, masallar, panegiriklar<sup>3</sup>, parodiyalar, maktub shaklidagi she'rlar (epistolyalar), elegiyalar (g'amgin, qayg'uli ruhda yozilgan lirik she'r), qabrtosh yozuvlari (epitafiyalar) va qisqa hazil-mutoyiba she'rlari (epigrammalar), shuningdek ingliz tiliga qilingan tarjimalar hamda sahna asarlarining prolog va epiloglarni o'z ichiga olgan.

Boshqa tomondan esa misselaniyalar o'z zamonasidagi keng ommaning didi, o'quvchilarning nimalarni o'qiganini aks ettiradi. Bunday to'plamlar, adabiy mahsulotlarning yaratilishi va iste'mol qilinishi ortida turgan estetik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Misselaniyalar zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuzilgan, nashr etilgan va targ'ib qilingan bo'lib, ular orqali to'plamni tuzgan muharrirlar va nashriyotchilarning estetik va tijoriy qarashlari namoyon bo'ladi. Ushbu to'plamlarning turli narx oralig'i va formatlarda chop etilishi esa she'riyatning qanday auditoriyalarga mo'ljallab taqdim etilganini ko'rsatadi. Tadqiqotchi Jennifer Batt ushbu jihatni quyidagicha ta'riflaydi: "18-asrda yaratilgan har bir she'riy to'plamning tarkibi, muqovalanishi, marketing strategiyasi, o'qirmanlar tomonidan uning qabul qilish jarayoni – bularning barchasi adabiy madaniyat yaratuvchilari tomonidan ushbu madaniyat qanday tushunilganini va ular bu madaniy muhitga qanday ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lganini aks ettiradi [Jennifer Batt, 2012, 394]". Misselaniya tuzuvchilar o'quvchiga nima yoqishini sinchiklab o'rgangan, yangilik va modaga moslik tamoyillariga asoslanib, turli mualliflarning asarlarini birlashtirgan va o'quvchilarni adabiy

<sup>1</sup> Pastoral she'rlar –bu tabiat qo'ynida, ayniqsa qishloq hayoti manzaralarida, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi odamlar hayotini romantik, ideallashtirilgan tarzda tasvirlovchi she'rlardir. Ular odatda tinchlik, soddalik, va tabiiy go'zallikni madh etadi. Bunday she'rlarda qahramonlar ko'pincha cho'ponlar yoki qishloq kishilari bo'ladi; shahar hayotining shovqinidan farqli ravishda, tabiat qo'ynidagi osoyishta hayot ulug'lanadi; ko'pincha muhabbat, do'stlik, yolg'izlik, va erkinlik mavzulari yoritiladi; tabiat manzaralari (yaylovlar, gullar, daryolar, qushlar) poetik tasvirlarda keng o'rin oladi. Masalan, ingliz adabiyotida bu janrda Edmund Spenser va Kristofer Marlo kabi shoirlar ko'plab pastoral she'rlar yozgan, o'zbek adabiyotida garchi bu atama unchalik keng qo'llanmasa-da ayrim g'azallarda yoki zamonaviy lirikada pastoral ruh sezilishi mumkin.

<sup>2</sup> Ballada – bu voqea yoki mazmunga ega bo'lgan she'riy asar bo'lib, u ko'pincha afsonalar, tarixiy voqealar, xalq og'zaki ijodi yoki tragediyalar asosida yoziladi. Odatda ko'pchilikka aytiladigan yoki kuylanadigan shaklda bo'ladi (yani, lirik va dramatik elementlar aralashadi). Ballada janri Yevropada, ayniqsa Fransiya, Angliya va Shotlandiyada rivoj topgan. Ingliz adabiyotida Robin Gud haqidagi balladalar mashhur. XIX asrda romantik shoirlar (masalan, Vilyam Vordsvord, Semyuel Teylor Kolrij) balladalarini adabiy shaklga keltirgan.

<sup>3</sup> maqto'v she'rlar, o'zbek adabiyotidagi qasida janriga yaqin.

jarayonlardagi so'nggi o'zgarishlardan xabardor qilishga xizmat qilgan. Misselaniya tuzishdagi bu harakatlar adabiyot tarixida dastlabki marketing va reklama usullarining yaqqol namunasi sifatida baholanishi mumkin.

O'n to'qqizinchi asr boshlariga kelib esa, antologiyalar rivoj topishi va nasriy asarlarning ommalashishi bilan, misselaniyalarning ahamiyati pasaya boshladi. Nashr etilgan misselaniyalar asta-sekinlik bilan muntazam chiqadigan jurnallar shakliga kirib bordi va ko'plab dastlabki jurnallar o'z sarlavhalarida aynan "misselaniya" atamasidan foydalangan.

Antologiya va misselaniya o'rtasidagi farq faqat tuzilma va janr darajasida emas, balki estetik, tarixiy va madaniy yondashuvlarning o'zaro qarama-qarshiligidir. Bu ikki shakl o'rtasidagi munosabatni o'rganish, ayniqsa qadimgi adabiy merosni tahlil qilishda, kanonlashtirish jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Yevropa adabiyoti tarixida she'riy antologiyalar janri o'ziga xos ahamiyat kasb etgan bo'lib, ular nafaqat adabiy-estetik qarashlarning shakllanishida, balki milliy adabiy merosni tartibga solish va saqlashda muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Bu borada birinchi *bosma* ingliz she'riy antologiyasi sanalgan "**Qo'shiqlar va sonetlar**" (**Songes and Sonettes**), to'plami **Richard Tottel** tomonidan 1557-yilda Londonda chop etilgan bo'lib, 16-asr davomida bir necha marotaba qayta nashr etilgan [The Dictionary of National Biography].

**O'n yetti-o'n sakkizinchi asrlar davomida** turli yo'nalishlarda tuzilgan antologiyalar nafaqat badiiy-estetik qarashlar, balki muhim siyosiy jarayonlarning ham ifodachisi bo'ldi. Jumladan, siyosiy mazmundagi she'rlarni jamlagan "**Davlat ishlariga oid she'rlar**" (**Poems on Affairs of State**) nomli to'plam 1689-yilda chop etila boshlangan va 1707-yilda yakunlangan bo'lib, o'z davridagi siyosiy fikr va qarashlarni aks ettirgan muhim manbalardan biri hisoblanadi [Clare Bucknell, 2023].

Britaniyada tuzilgan ilk milliy xarakterga ega antologiyalardan biri **Vilyam Oldis** tomonidan 1738-yilda nashr etilgan "**Britaniya ilhomi**" (**The British Muse**) bo'lib, u ingliz she'riyatining eng sara namunalari asosida tuzilgan.

Ingliz ballada an'anasining qayta tiklanishida esa **Tomas Persining** 1765-yilda e'lon qilingan "**Qadimgi ingliz she'riyatidan yodgorliklar**" (**Reliques of Ancient English Poetry**) antologiyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu to'plam nafaqat qadimiy xalq og'zaki

ijodini qayta kashf etdi, balki romantizm harakatining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, **Vilyam Enfield** tomonidan 1774-yilda chop etilgan *“Notiq yoxud tanlangan asarlar” (The Speaker; Or, Miscellaneous Pieces)* to'plami 18-asr maktablarida keng qo'llanilgan bo'lib, o'quvchilarda notqlik, badiiy ifoda va estetik didni shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qilgan.

**O'nto'qqizinchi asrda esa Fransiz Palgreyvning “Oltinxazina” (Golden Treasury, 1861), Edvard Arberning “Shekspir antologiyasi” (Shakespeare Anthology, 1899), Artur Kuiller-Kochning “Ingliz she'riyati Oksford to'plami” (Oxford Book of English Verse, 1900) ning birinchi nashri kabi ingliz she'riy antologiyalarining yirik namunalari vujudga keldi [Clare Bucknell, 2023]. Mazkur antologiyalar orqali ingliz she'riyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari, estetik mezonlari va kanonlashtirish jarayonlari aniq aks ettirilgan bo'lib, ular bugungi kungacha adabiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.**

**Yigirmanchi asrda** she'riy antologiyalar adabiy jarayonning ajralmas qismiga aylandi. Bunga she'riyatda yangi yo'nalishlarni ilgari surish va ma'lum bir shoirlar guruhini ommaga tanitish ehtiyoji kabi turli omillar sabab bo'ldi. Jumladan, ingliz adabiyotida *“Georgian she'riyati”* (Georgian Poetry) nomi bilan mashhur bo'lgan she'riy turkum muhim rol o'ynadi [Georgian Poetry. The Literary Encyclopedia, 2002]. Ushbu turkum yosh shoirlardan iborat bir avlodni aniqlab, ularni yagona estetik yo'nalish doirasida taqdim etish orqali katta muvaffaqiyatga erishdi. Bu model boshqa adabiy loyihalar uchun namunaga aylandi – turli muharrirlar tomonidan shakllantirilgan ijodiy guruhlar, ma'lum nashrlardan tuzilgan to'plamlar yoki “yilning eng yaxshi she'rlari” kabi mavzuli antologiyalar keng tarqala boshladi.

Akademik nashriyotchilar ham XX asr boshlarida shakllangan antologik faoliyat tendensiyasini davom ettirdilar. Xususan, Kuiller-Koch tomonidan tuzilgan *“Ingliz she'riyati Oksford to'plami”* antologiyasi nafaqat zamonaviy she'riyat namunalari, balki ingliz adabiyotining tarixiy bosqichlarini ham o'z ichiga olgan bo'lib, keyinchalik shu kabi ko'plab antologiyalarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi [Quiller-Couch, 1919].

**Antologiyalar va ularning tanqidiy qabul qilinishi.** Biroq, antologiyalar faoliyati doimo ijobiy baholanmagan. Masalan, Robert Graves va Laura Riding 1928-yilda chop etilgan *“Antologiyalarga qarshi e'tiroz”* (Pamphlet Against Anthologies) nomli tanqidiy

risolasida antologiyalarni estetik yondashuvdan ko'ra, tijorat manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholaydilar [Riding Jekson, Graves Robert, 1928]. Mualliflar fikriga ko'ra, aksariyat antologiyalar chuqur badiiy mazmunga emas, balki ommaviy talab va bozordagi ehtiyojlarga mos keladigan, oson sotiluvchi she'rlarni tanlashga asoslanadi.

Graves va Riding shuningdek, muharrirlar tomonidan amalga oshirilgan tanlovning subyektivligini ham tanqid qiladilar. Ularning ta'kidlashicha, muharrirning shaxsiy didi ko'pincha butun adabiy jarayon uchun universal mezonga aylantiriladi. Riding qo'shimcha ravishda, antologiyalarda ishtirok etish ko'plab shoirlar uchun nufuz va obro' masalasiga aylanib, bu holat san'atkorni ichki ehtiyojdan emas, balki tanlovga kiritilish istagidan kelib chiqqan holda yozishga majbur etadi.

Graves va Riding uchun she'riyat, avvalo, shaxsiy, samimiy va chuqur ruhiy ifoda bo'lishi lozim. Ularning fikricha, antologik yondashuv bu xususiyatlarni cheklab, she'rni yuzaki va standartlashtirilgan shaklga aylantirib yuboradi. Mazkur risola antologiyalar ortidagi avtoritetlar va muharrirlik hokimiyatiga qarshi yozilgan manifest sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, "Antologiyalarga qarshi e'tiroz" modernist shoirlarning san'atga bo'lgan yangi estetik va nazariy yondashuvini ifodalagan hamda modernizm adabiy oqimining shakllanishida muayyan rol o'ynagan. Ayniqsa, XX asrning 30-yillarida "modern she'r" (modern verse) tushunchasining shakllanishi va adabiy muhitda ommalashuvi boshlandi. Bu atama keng jamoatchilikka birinchi bor 1936-yilda chop etilgan ikki muhim antologiya – Maykl Roberts tomonidan tuzilgan "*Faber nashriyotining zamonaviy she'riyat antologiyasi*" (The Faber Book of Modern Verse) hamda Vilyam Butler Yeats tomonidan tayyorlangan "*Zamonaviy she'riyatning Oksford kitobi*" (Oxford Book of Modern Verse) orqali tanishtirilgan. Har ikki antologiya mazmunan bir-biridan sezilarli darajada farq qilgan bo'lsa-da, ular "modern she'r" tushunchasining shakllanishida va ommalashishida muhim omil bo'lgan.

1960-yillarda esa Liverpool shoirlari she'riyatidan tuzilgan "*Mersey ohangi*" (The Mersey Sound) antologiyasi yoshlar orasida juda mashhur bo'lib ketdi. Ushbu antologiya o'sha davrdagi kontrmadaniyat (counterculture) – ya'ni yoshlarning an'anaviy qadriyatlarga qarshi ruhiyati va norozilik kayfiyatini badiiy shaklda ifodalagan namunalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, nashriyotlar uchun antologiya shaklidagi

nashrlar yakka shoir ijodiga bag'ishlangan to'plamlarga nisbatan iqtisodiy va marketing jihatdan ancha qulay va foydali vosita bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, taniqli mualliflar bilan bir antologiyada ishtirok etish shoir uchun adabiy e'tirof, prestij va tan olinganlik belgisiga aylangan. Natijada, antologiyada chop etilish shoir ijodining rasmiy tan olinishi sifatida qarala boshlandi.

Yana bir muhim jihat shundaki, XX asr boshidan boshlab yuzaga kelgan yangi adabiy oqimlar o'z estetik va nazariy qarashlarini ommaga yetkazishda aynan antologiyalarni samarali platforma sifatida ishlatgan. Masalan, imagizm (tasavvuriylik) harakati doirasida Ezra Pound tomonidan tuzilgan antologiyalar bunday yo'nalishlarning ommalashishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, antologiyalar nafaqat she'riyatda, balki nasr, publitsistika va esseistikadagi eksperimental yo'nalishlarning ham keng ommaga tanitilishida samarali kommunikativ vosita sifatida xizmat qilgan.

### **Xulosa**

Ushbu maqolada G'arb adabiyotida antologiya fenomeni tarixiy poetika va tanlov mezonlari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida antologiya qadimgi yunon davridan tortib to XX asrgacha bo'lgan adabiy jarayonda qanday o'zgarishlarga uchragani ko'rsatib berildi. Meleagrosning "Guldasta"si ilk antologik to'plam sifatida poetik-ramziy yondashuvni asos solgan bo'lsa, keyingi davrlarda diniy, estetik va ideologik kontekstlar antologiya shakllari va maqsadlarini belgilab bordi.

O'rta asrlarda antologiyalar ko'proq diniy-ma'rifiy vazifani bajargan bo'lsa, Uyg'onish davrida ular individual did va klassik madaniyatga qaytishning ifodasi bo'lib xizmat qildi. Yangi davrda esa bosma nashrlar va milliy adabiyotlarning shakllanishi antologiyani madaniy siyosat va adabiy ta'lim vositasiga aylantirdi. XX asrda esa antologik tanlovlar gender, irq, sinf, til kabi yangi mezonlar bilan boyidi, bu esa antologiyani jamiyatdagi adabiy ovozlarning xilma-xilligini namoyon etuvchi demokratik platformaga aylantirdi.

Antologiyalar nafaqat adabiy matnlarni jamlovchi shakl, balki o'z zamonasining estetik, ideologik va madaniy tendensiyalarini aks ettiruvchi ko'zgudek namoyon bo'ladi. Antologiyani poetik manifest sifatida talqin qilish imkoniyati esa uni adabiyot tarixini shakllantirish va yo'naltirishdagi faol sub'yektga aylantiradi.

Kelajakda raqamli texnologiyalar yordamida yaratilayotgan interaktiv antologiyalar, multimedaviy to'plamlar va ochiq

platformalar bu janrning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shu bois, antologiyalarni o'rganish adabiy tanlov, poetika va madaniy dominantalar tarixini tadqiq etishda muhim metodologik asos bo'lib qoladi.

### **Adabiyotlar**

- "Quiller-Couch, Arthur, ed. 1919. The Oxford Book of English Verse: 1250 – 1900". Bartleby.com.
- "Tottel, Richard", in The Dictionary of National Biography. 1885–1900. London: Smith Elder.
- Anthony Grafton; Glenn Most; Salvatore Settis. 2010 . The Classical Tradition. Harvard University Press. ISBN9780674035720.
- Burke Victoria. 2013 . "Recent Studies in Commonplace Books". English Literary Renaissance, 154. doi:10.1111/1475-6757.12005
- Clare Bucknell. 2023. The Treasuries: Poetry Anthologies and the Making of British Culture.
- Clare Bucknell. 2023. The Treasuries: Poetry Anthologies and the Making of British Culture.
- Digital Miscellanies Index. <http://digitalmiscellaniesindex.org/about/>
- Doran & Company, Inc. – 190. Onlayn manba: [https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding\\_and\\_Graves\\_Pamphlet\\_against\\_Anthologies.pdf](https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding_and_Graves_Pamphlet_against_Anthologies.pdf)
- Garnett Richard. 1911. "Anthology". In Chisholm, Hugh (ed.). Encyclopædia Britannica. Vol. 2 (11th ed.). Cambridge University Press.
- James Bridges. 31 July 2002. "Bridges, James. Georgian Poetry. The Literary Encyclopedia.". Litencyc.com.
- Jennifer Batt. 2012. "Eighteenth-Century Verse Miscellanies – 18-asr she'riy misselaniyalari", Literary Compass.
- Laura Mandell and Rita Raley. 1997(last revised 2002). Anthologies and Miscellanies <http://oldsite.english.ucsb.edu/faculty/rraley/research/anthologies/#miscellanies>
- Mackail John.1890. Select Epigrams from the Greek Anthology. London: Longmans, Green and Co. Kirish so'zi, III. Project Gutenberg, <https://www.gutenberg.org/cache/epub/2378/pg2378.html>
- Riding Jekson, Graves Robert. 1928. Pamphlet Against Anthologies. Garden City, New York: Doubleday,
- Riding Jekson, Graves Robert. 1928. Pamphlet Against Anthologies. Garden City, New York: Doubleday, Doran & Company, Inc. – 190. Onlayn manba: [https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding\\_and\\_Graves\\_Pamphlet\\_against\\_Anthologies.pdf](https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding_and_Graves_Pamphlet_against_Anthologies.pdf)
- Smit Filipp. 1867. "Meleager"; "Planudes" // Vilyam Smit (tahr.) Dictionary of Greek and Roman Biography and Mythology (Yunon va Rim biografiyasi hamda mifologiyasi lug'ati), 3-jild.
- Spingou Foteini. 2019. "Byzantine Collections and Anthologies of Poetry" (Vizantiya she'riy to'plamlari va antologiyalari). In Hörandner, Wolfram; Rhoby, Andreas; Zagklas, Nikos (eds.). A Companion

to Byzantine

Suarez Michael, *The Production and Consumption of the Eighteenth-Century Poetic Miscellany*. 20010'n sakkizinchi asr she'riy majmualarining yaratilishi va iste'moli. In I. Rivers (Ed.), *Books and Their Readers in Eighteenth-Century England: New Essays*. London: Leicester University Press

Κατσιαμπούρα Γιάννα. 2003. «Μανουήλ / Μάξιμος Πλανούδης, "Ανθολογία"», , *Εγκυκλοπαίδεια Μείζονος Ελληνισμού*, Μ. Ασία <http://www.ehw.gr/L.aspx?id=5201>

## **Anthology as a Mirror of Literary History: Poetics and Canon Formation in Western Literary Traditions**

Dilnavoz Najimova<sup>1</sup>

### **Abstract**

This article explores the formation, development, and significance of the anthology phenomenon in Western literature from the perspective of historical poetics. It examines how anthologies have transformed in form and content from ancient Greek times up to the 20th century. The author considers the anthology not merely as a collection of literary texts, but as a cultural phenomenon reflecting the aesthetic standards, literary taste, and selection criteria of its time. Through examples of anthologies from various periods and literary movements, the article highlights their role in shaping literary history. It also discusses the aspects of selection, editorial choice, poetic vision, and literary canon formation inherent to the anthology tradition.

**Keywords:** *anthology, canon, Greek anthology, miscellany, kashkul, garland.*

### **References**

"Quiller-Couch, Arthur, ed. 1919. *The Oxford Book of English Verse: 1250 – 1900*". Bartleby.com.

"Tottel, Richard", in *The Dictionary of National Biography*. 1885–1900. London: Smith Elder.

Anthony Grafton; Glenn Most; Salvatore Settis. 2010 . *The Classical*

---

<sup>1</sup> *Dilnavoz D. Najimova* – Doctoral Student at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

**E-mail:** najimovadilnavoz@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-1181-1856

**For citation:** Najimova, D. 2025. "Anthology as a Mirror of Literary History: Poetics and Canon Formation in Western Literary Traditions." *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 124-138.

- Tradition. Harvard University Press. ISBN9780674035720.
- Burke Victoria. 2013 . "Recent Studies in Commonplace Books". English Literary Renaissance, 154. doi:10.1111/1475-6757.12005
- Clare Bucknell. 2023. The Treasuries: Poetry Anthologies and the Making of British Culture.
- Clare Bucknell. 2023. The Treasuries: Poetry Anthologies and the Making of British Culture.
- Digital Miscellanies Index. <http://digitalmiscellaniesindex.org/about/>
- Doran & Company, Inc. – 190. Onlayn manba: [https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding\\_and\\_Graves\\_Pamphlet\\_against\\_Anthologies.pdf](https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding_and_Graves_Pamphlet_against_Anthologies.pdf)
- Garnett Richard. 1911. "Anthology". In Chisholm, Hugh (ed.). Encyclopædia Britannica. Vol. 2 (11th ed.). Cambridge University Press.
- James Bridges. 31 July 2002. "Bridges, James. Georgian Poetry. The Literary Encyclopedia.". Litencyc.com.
- Jennifer Batt. 2012. "Eighteenth-Century Verse Miscellanies – 18-asr she'riy misselaniyalari", Literary Compass.
- Laura Mandell and Rita Raley. 1997(last revised 2002). Anthologies and Miscellanies <http://oldsite.english.ucsb.edu/faculty/rraley/research/anthologies/#miscellanies>
- Mackail John.1890. Select Epigrams from the Greek Anthology. London: Longmans, Green and Co. Kirish so'zi, III. Project Gutenberg, <https://www.gutenberg.org/cache/epub/2378/pg2378.html>
- Riding Jekson, Graves Robert. 1928. Pamphlet Against Anthologies. Garden City, New York: Doubleday,
- Riding Jekson, Graves Robert. 1928. Pamphlet Against Anthologies. Garden City, New York: Doubleday, Doran & Company, Inc. – 190. Onlayn manba: [https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding\\_and\\_Graves\\_Pamphlet\\_against\\_Anthologies.pdf](https://www.sas.upenn.edu/~cavitch/pdf-library/Riding_and_Graves_Pamphlet_against_Anthologies.pdf)
- Smit Filipp. 1867. "Meleager"; "Planudes" // Vilyam Smit (tahr.) Dictionary of Greek and Roman Biography and Mythology (Yunon va Rim biografiyasi hamda mifologiyasi lug'ati), 3-jild.
- Spingou Foteini. 2019. "Byzantine Collections and Anthologies of Poetry" (Vizantiya she'riy to'plamlari va antologiyalari). In Hörandner, Wolfram; Rhoby, Andreas; Zagklas, Nikos (eds.). A Companion to Byzantine
- Suarez Michael, The Production and Consumption of the Eighteenth-Century Poetic Miscellany . 20010'n sakkizinci asr she'riy majmualarining yaratilishi va iste'moli. In I. Rivers (Ed.), Books and Their Readers in Eighteenth-Century England: New Essays . London: Leicester University Press
- Κατσιαμπούρα Γιάννα. 2003. «Μανουήλ / Μάξιμος Πλανούδης, "Ανθολογία"», , Εγκυκλοπαίδεια Μείζονος Ελληνισμού, Μ. Ασία <http://www.ehw.gr/l.aspx?id=5201>

## Ijtimoiy tarixiy romanning epik bayon markazi

Shuxrat Nuritdinov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada taniqli rus yozuvchisi Aleksey Tolstoyning “Ulug’ Pyotr” (“Petr I”) tarixiy romanining yozilish tarixi, asarga jalb qilingan hayotiy haqiqat va badiiy voqelik nisbati, romanning syujeti, kompozitsiyasi, epik bayon usuli, personajlar tizimi, muallif poetik mahorati kabi muammolalar tadqiq etilib, muayyan nazariy umumlashmalar chiqarilgan.

**Kalit soʻzlar:** *roman trilogiya, bosh qahramon, hayotiy haqiqat va badiiy toʻqima, syujet, kompozitsiya, epik bayon usuli, obrazlar sistemasi, poetik mahorat.*

### Kirish

Mashhur rus yozuvchisi, dramaturgi, shoiri, jamoat arbobi va akademigi Aleksey Nikolayevich Tolstoy [Крестянский 1973:46] (1883-1945) ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq ittifoq FAning A.M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti jamoasi va boshqa koʻplab rus ziyolilari safida 1941-1943- yillarda Toshkentda yashab ijod qildi. [Петелин 2001:73] U oʻsha yillarda “Koʻpmillatli sovet adabiyoti tarixi” darsligini tayyorlashning tashabbuskori boʻldi. Shuningdek, “Ivan Grozniy” pyesasining “Ikki burgut” nomli birinchi va

“Mashaqqatli yillar” nomli ikkinchi qismlarini yozib tugatdi.

A.Tolstoy Toshkentda ekanida katta tanaffuslar bilan yozib tugallangan “Sarsonlik sargardonlikda” nomli trilogiyasini yanada sayqalladi. Asarning ayrim oʻrinlaridan voz kechdi va kompozitsion yaxlitlikka birlashtirdi. [Прохоров 1955: 205] “Makruh kuch” nomli toʻrt pardali satirik komediyasi hamda dushman qurshoviga tushib qolgan askarlarning jasorati haqidagi “N-diviziyasining reydi” kinossenariysini, “Don” (“Saritsin mudofaasi”) romanini yozdi. Fashizm vabosiga qarshi bitilgan “Shayton koʻprik” nomli bir pardali pyesasini pamflet-satira sifatida “Fyurer” nomi bilan qayta ishladi. “Tunda, pichan oʻrimida”, “Bu qanday boshlangan edi”,

<sup>1</sup> Shuxrat Baxirovich Nuritdinov – Guliston davlat universiteti katta oʻqituvchisi.

**E-pochta:** shuhratnur772877@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0006-2163-2658.

**Iqtibos uchun:** Nuritdinov Sh. B. 2025. Ijtimoiy tarixiy romanning epik bayon markazi. *Oʻzbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 139-148.

“Yetti chuvrindi”, “Nina”, “G‘ayritabiiy hodisa” singari hikoyalaridan tarkib topgan “Ivan Sudarev hikoyalari” turkumini yozib tugalladi. [Петелин 2007:18]

### Asosiy qism

A.Tolstoy 30-yillarning o‘rtalariga kelib o‘n olti yillik umrini sarflagan “Pyotr I” tarixiy romanining ikkinchi kitobini ham tugallagan edi. [Толстой 2023:672] U hujjatli manbalarni sinchiklab o‘rgangach, ushbu “tarixiyromannixronikashaklidayozib bo‘lmaydi”, degan xulosaga kelgan. Adib roman badiiy voqeligiga jalb qilingan tarixiy davrning Kamonchilar qo‘zg‘oloni, Azov yurishlari, xorij tajribalarining ijodiy o‘zlashtirilishi, Narva jangi singari eng muhim voqealarini asarga kiritdi. Pyotr va uni qurshagan aksariyat tarixiy shaxslarning jonli badiiy obrazlarini yaratdi. Ayniqsa, och, yupun va qashshoq, ammo ertadan umidvor oddiy odamlarning kundalik hayoti, imperator amalga oshirayotgan islohotlarga munosabati va sadoqatini xolis tasvirlashga harakat qildi. Albatta, badiiy to‘qimaga ham munosib o‘rin ajratdi. Shuning uchun ham ushbu romanni jo‘n tarixiy xronika deb bo‘lmaydi

Afsuski, A.Tolstoy o‘z ijodiy niyatidagi trilogiyani to‘la tugata olmadi. Chunki ikkinchi jahon urushi boshlanib ketgani uchun uchinchi kitobni tugallashni vaqtincha to‘xtatdi. Adib 1942-yilning may oyi oxirlarida A.Ignatevga yozgan maktubida: **“Katta ishni hech boshlayolmayotirman – faqat maqola, faqat maqola... lekin birinchi navbatda Pyotrning uchinchi qismini boshlagim bor”**, deya ko‘nglini ochadi. [Хамидова 1977:121]

Anglashiladiki, trilogiyaning davomini yozib bo‘lish fikri uni hech qachon tark etmagan. Ijtimoiy-madaniy ishlar bilan qattiq band bo‘lgan adib bu ishga astoydil kirishib keta olmagan. Umri bevafoqlik qilgani bois, ijodiy niyatlarini amalga oshirish, ya‘ni Pyotr I mavzusiga qayta murojaat qilish maqsadi ijodiy niyatligicha qolgan. [Варламов 2009: 736]

A.Tolstoy ushbu romanga Rus shohi va birinchi imperatori Pyotr Alekseevich (1672 -1775), ya‘ni Ulug‘ Pyotr davrida Rossiya o‘z taraqqiyotida olg‘a siljigani, o‘zgarish va islohotlar tomon yuz burgani bilan bog‘liq real voqelikni asos qilib oldi. [Резников 2016: 560]

Yozuvchi tarixiy haqiqatga sodiq qolgan holda, bosh qahramon kurashlari bilan bir qatorda, o‘z maqsadini amalga oshirish yo‘lida shafqatsiz chora-tadbirlar qo‘llaganidan ham ko‘z yumadi. Jumladan, 1698-yil 10-oktabrda Moskvada boshlangan

qatag'onlarda 1000 dan ortiq kamonchilar qatl qilingani, ularning 600 ga yaqini qattiq kaltaklangani, anchagina qismi tamg'alanib surgun qilingani, hatto Pyotr I ning o'zi beshta kamonchining boshini tanasidan judo qilgani kabi real tarixiy faktlarni chetlab o'tmaydi.

"Ulug' Pyotr" ("Petr I") tarixiy romani badiiy voqeligi XVII asr oxiri, ya'ni Rus podshosi Fyodor Alekseevich Romanov vafotidan keyin mamlakatda boshlangan hokimiyat uchun kurash, saroy intrigalari tasviridan boshlanadi. Malika Sofiya va uning ma'shuqasi shuhratparast shahzoda Vasiliy Golitsin merosxo'r yosh shahzodalar – Ivan Alekseevich va Pyotr Alekseevichni doimiy nazorat ostida ushlab turishar, Moskva va uning atroflarida qashshoqlik, norozilik va isyon avj olgan edi.

Yosh Pyotr Preobrajensk qal'asida onasi Natalya Kirillovna bilan tinch va zerikarli hayot kechirardi. U nemislar posyolkasida yashaydigan xorijlik kapitan Frans Lefort bilan tanishadi. Vino savdosi bilan shug'ullanuvchi boy Monsning go'zal qizi Anxenni yoqtirib qoladi. Ammo onasi uni ehtiyot yuzasidan Yevdokiya Lopuxinaga uylantiradi. Shunga qaramasdan, shahzodaning kundalik hayoti har xil ko'ngilochar harbiy o'yinlar bilan o'tardi. Moskva notinch. Mag'lub bo'lgan qo'zg'olonchilarni shafqatsiz jazolash va ayovsiz xunrezliklar davom etmoqda. Bu orada shahzoda Pyotrning merosxo'ri – Aleksey tug'iladi. Rashkdan o'rtangan xotini Yevdokiya bilan munosabatlari o'nglanmaydi. Onasi Natalya Kirillovna esa vafot etadi.

Xullas, XVIII asrgacha bo'lgan davrda mamlakatda osoyishtalik o'rnatilmaydi. Qrim va turk qal'asi Azovga qilingan yurishlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Qashshoqlik, norozilik va talonchilik avjiga chiqadi. Pyotrning ishlari ham tezda o'nglanmaydi. Ammo xorijliklarning bu najotkor islohotchi shahzodaga bo'lgan ishonchi ortib boradi.

Voronejda kemasozlik sanoati ishga tushiriladi. Pyotr o'ziga ittifoqchilar qidirib serjant Pyotr Mixaylov nomi ostida Germaniya, Gollandiya va Angliyaga tashrif buyuradi. Xorijda oddiy hunarmand qiyofasida yashab ko'plab hunarlarning sirlarini o'rganadi. U chet ellarda ekanida malika Sofiya kamonchilar isyonini qayta boshlaydi. Pyotr Moskvaga qaytib kelib isyonni bostiradi va uning ishtirokchilarini ayovsiz jazolaydi. Butun mamlakatni dahshat qamrab oladi. Nihoyat, Vizantiya Rusi va uning eski an'analariga barham beriladi. Vasiliy Golitsin va uning oilasi Kargopolga abadiy surgun qilinadi. Sofiyani Novodevichiy monastiriga qamashaadi. Pyotr faxsh va zinoga berilib ketib, oilasidan fayz va baraka ko'tariladi.

Xotini Yevdokiya bilan munosabatlariga oralagan sovuqchilik iliqlashmaydi. Merosxo'r Aleksey Petrovichning tug'ilishi ham vaziyatni o'zgartirmaydi. XVIII asr og'ir va mashaqqatli iqtisodiy-siyosiy vaziyatlar bilan boshlanadi. Nochor va qashshoq odamlar hatto o'g'irlik qilishdan ham andisha qilmaydigan darajaga borib yetadi.

Voronejda barpo etilgan yangi flotiliyaning kemalari Krim va Bosfor tomonlargacha suzib boradi. Bu yangi va qudratli kuch oldida Turkiya imkonsiz holga tushib qoladi. Ammo rus qo'shinlari Narva yaqinida shved qiroli Karl XII ga yengiladi. Pyotr mag'lubiyatdan tushkunlikka tushmaydi. U Moskva, Novgorod va Voronej qo'shinlarini birlashtirib, qattiq intizomga rioya qiluvchi armiyani vujudga keltiradi. Hatto, cherkov qo'ng'iroqlarini ham ayamay ishlatib yangi to'plar yasatadi. Son-sanoqsiz harbiy kemalar qurdiradi. Marienburg qal'asi qo'lga kiritiladi. Narva qayta ishg'ol qilinadi.

Albatta, tarixiy-biografik romanda do'stlik, sadoqat, sevgi-muhabbat, xiyonat kabi ko'plab masalalar ham keng yoritilgan. Biroq, Pyotr I va safdoshlarining Rus tuprog'ida markazlashgan saltanat qurib, mamlakatni parokandalik, qoloqlik va qashshoqlikdan olib chiqish yo'lidagi mardona jasoratlari hamda ulkan islohotchilik harakatlari tasvirlari dominantlik qiladi.

Demak, Aleksey Tolstoyning qahramonlik xarakteridagi "Ulug' Pyotr" romanida bosh qahramon Pyotr I muhim tarixiy voqealarda faol ishtirok etish jarayonida shakllanadi, kamol topadi. Birinchi kitobda jahon romanchiligiga xos an'anaviy xususiyatlar kuzatiladi. Adib bo'lajak imperator Pyotr shaxsining o'ziga xos ko'lami, ulug'vorlik sari yuksalish yo'li – bolalik va o'smirlik davrini qalamga oladi. Kitobxon romanga bosh qahramon obrazi kirib kelishidan oldinroq o'zgarishlar arafasidagi mamlakatning asl qiyofasi turli ijtimoiy qatlam vakillari: podshohning qarindoshlari, boyarlar, savdogarlar, dehqonlar, kamonchilar, xorijliklar hayot tarzi aks etgan syujet chiziqlari, muhim tafsilotlar bilan yaqindan tanishadi. Ilk kitob Pyotrning mamlakat ulkan islohotlarga muhtoj ekanini anglashi bilan yakunlanadi. Asarning ilk kitobidayoq mumtoz romanlar uchun eng muhim bo'lgan sevgi-muhabbat liniyasi birqadar sust rivojlanadi. Chunki: *Birinchi*dan, A.Tolstoy bosh qahramon xarakterini ishq-muhabbat chorrahalarida emas, balki yangi saltanat bunyod etish maydonlarida namoyon etishni ko'zlaydi. Insoniy munosabatlar maqsad va manfaatlar birligiga asoslanadi. Asta-sekin epik bayonning zamon qamrovini ancha

toraytirib, syujet chiziqlarini qisqartiradi. Masalan, birinchi kitob 16 yillik, ikkinchi kitob 5 yillik, uchinchi esa 6 oylik badiiy voqelikni qamrab oladi.

*Ikkinchidan*, yozuvchi Pyotrning ichki dunyosi va muhitiga tobora chuqurroq kirib borishga intiladi. Darhaqiqat, yozuvchi keyingi kitoblarda islohot zaruratini anglagan va uni amalga oshirgan tarixiy shaxsning g'oyat murakkab fenomeni, qanday fidokorlik va yo'qotishlar evaziga ulug' saltanat bunyod etganini anglatishga intilgan. Bemalol aytish mumkinki, islohotchi Pyotr dahosi bilan hamnafas tarzda Rus saltanati ham yangi davriga qadam qo'yadi. Romandagi muallif badiiy konsepsiyasini tashuvchi, kompozitsion jihatdan bir xil mavqeda turuvchi tarixiy shaxslar siymosi, jumladan, Pyotr I obrazi ham jonli odam sifatida gavdalantiriladi. Yozuvchi kundalik maishiy hayot tafsillariga berilib ketmadi. U ijtimoiy jarayonlar tahlili bilan ham cheklanmadi. Aksincha, ularni amalga oshirgan insonlar qismati bilan bog'liq xarakterli belgi-xususiyatlarni ishonchli detallar vositasida poetik ifodalashga alohida e'tibor qaratdi.

Demak, roman epik rivoya markazida turgan tarixiy shaxs, g'ayrioddiy inson – shavkatli hukmdor amalga oshirayotgan islohotlarga turfa ijtimoiy tabaqalarning munosabatlari, sadoqat va xiyonatlarini tushunish, o'sha davr tarixiy koloriti, etnografiyasi bilan bog'liq qiziqarli tafsilotlarni anglashga imkon beradi. Romanga yozgan So'zboshisi va sharhlarida Viktor Petelin to'g'ri ta'kidlaganidek, ushbu kitob asosida "Buyuk Pyotr" filmini suratga olgan Nikolay Simonov ham asarning ana shu fazilatlarini alohida qadrlagan edi. [Томашевский 1996: 191]

Ta'kidlanganiday, asar to'la tugallanmay qolgan bo'lsa-da, unda otasi vafot etgan va yaqinlari shafqatsiz jazolangan yosh Pyotrning taxtga kelishi, qiziqqon va o'ynoqi yoshligi, boyarlar o'rtasidagi toj-u taxt talashlari, nihoyat Rossiya sharafiga saqlab qolish va mamlakatni yuksaltirish yo'lidagi kurashlari aks etdi.

Roman qahramoni Pyotr katta kuch, fidokorlik va jasorat talab qiladigan sinov manzillarini bosib o'tadi. Ota-onasidan judo bo'ladi. Turmush o'rtog'i uni tushunmaydi. Ishongan kishisi Menshikov doimiy tarzda o'g'irlik qiladi. Sevgilisi Anna xiyonat qiladi. Bosh qahramon qayg'u va iztiroblariga hamdard topolmaydi. U o'zini muttasil yolg'iz sezadi. Pyotr harbiy sohalarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan, islohotlarga qarshi kishilar bilan goh oshkor, gohida pinhon kurashgan, xorijda sarson-sargardon kezgan, kasb-hunar sirlarini egallash uchun jon kuydirgan kezlarida xayrixoh va

hamdard insonlarga katta ehtiyoj sezadi. Muhimi, bu jarayonlarda uning insoniy shaxsi shakllanadi va kamol topadi. Yozuvchi syujetning muhim unsurlaridan bo'lgan safar, yo'l, sinov kabi poetik motivlaridan unumli foydalanadi. [Веселовский 2006: 535].

Adib Pyotr obrazini qahramon xarakterining yuksalish yo'llaridan olib o'tadi. Uchinchi kitobda biz Rossiya harbiy yutuqlari haqida qayg'uradigan o'ziga ishongan, qat'iyatli shaxs obrazini ko'ramiz. Inson zotining kuch va qudrati, dunyoni o'zgartirish iqtidor va salohiyatiga ishongan A.Tolstoy roman yaratilgan davrda adabiy siyosat ilgari surgan "yangi inson" haqidagi tezislarni to'la tasdiqlaydi. Binobarin, muallif XX asrning 30-40-yillari ijtimoiy-siyosiy, adabiy-mafkuraviy siyosatga hamqadam edi. Rossiyani Yevropa taraqqiyoti yo'lidan rivojlantirgan Pyotrning ulug' maqsadlari uning shafqatsizliklarini kechirishga undaydi, degan pozitsiyani yoqladi. Shubhasiz, "maqsad vositani oqlashi"ni yoqlagan adib ijtimoiy buyurtmani bajardi. Davrga mos badiiy yechim izlagan adib alohida bo'limlarni kompozitsion yaxlitlikka birlashtira olmadi. Har bir bo'lim alohida voqelikni qamrab oldi. Ajablanarli jihati shundaki, muallif asarga olib kirgan hamma personajlarning qismatini sinchkov kuzatib borolmaydi. Shu bois, ularning aksariyati umumsyujet bilan chambarchas bog'lanmaydi. Pirovardida syujet chiziqlarining o'ziga xos mozaikasi yuzaga keladi. Albatta, A.Tolstoyning turli tarixiy manbalar: arxiv hujjatlari, tarixiy voqealar guvohlarining xotiralari, sud hisobotlari, kundaliklar va shaxsiy xatlardan, shuningdek, tarixiy qo'shiqlar, xalqona hazil-mutoyiba hamda rivoyatlardan foydalanib romanni ziynatlashga intilganini e'tirof etmoq lozim.

### **Xulosa**

A.Tolstoy epik bayon markaziga bosh qahramon Pyotr obrazini chiqarib, barcha personajlarni uning atrofiga joylashtirib chiqadi. Uning nazdida xuddi mana shu jihat kompozitsiyaning asosini belgilashi lozim edi. Demak, ushbu tarixiy roman bosh va yordamchi syujetlar birligiga emas, balki personajlar tizimi asosiga qurilgan. Shuning uchun ham A.Tolstoy dastavval Ulug' Pyotr, so'ngra esa, unga nisbatan yaqin bo'lgan personajlar qiyofasini batafsilroq yoritgan. Avgust, Karl XII, turk sultoni, Sofiya, Vasiliy Golitsin, Anna va boshqa ko'plab personajlar bosh qahramon bilan munosabatlari tugashi hamon romandan ham chiqib ketishadi. Tabiiyki, syujet ham shunga muvofiq tarzda shakllantiriladi. Yordamchi personajlar tarixiy vaziyatni oydinlashtirishga ko'maklashadi va, albatta, ularning hech

biri o'z insoniy shaxsiyatining ko'lami, dunyoqarashining kengligi, bunyodkorligi jihatidan Pyotr bilan tenglasha olmaydi. Aynan mana shu tipdagi qiyoslar bosh qahramonning islohotchi hukmdor sifatidagi siymosi yanada yorqinroq ochilishini ta'minlaydi. E'tiborli jihati shundaki, Pyotr faoliyatining tasviri Brovkin, Loskut, Overyan, Golikov singari eng oddiy odamlar hayoti haqidagi hikoyalar bilan parallel ravishda beriladi. Bu esa, davr manzaralarini turli rakurslardan tasvirlash imkonini yuzaga chiqaradi.

Romanning ilk kitobida muallif va obrazlar tili uslubiy jihatdan uyg'unlashgan. Ikkinchi va uchinchi kitoblarda epik bayonchi (muallif) nutqi qahramonlar nutqidan ajralib turadi. Chunki A.Tolstoy ongli ravishda Ulug' Pyotrning barcha xatti-harakatlariga muayyan baho berish, qilmishlari ustidan badiiy hukm chiqarishga harakat qiladi. Adib bosh qahramon "eski" ni butkul yo'q qilish evaziga "yangi"ni qurganini u qadar xushlamaganini ham sezish mumkin. Biroq, A.Tolstoy Ulug' Pyotr faoliyatining kuchli flotni barpo etish, Sankt-Peterburgni qurish, harbiy g'alabalarga erishish singari ko'plab yutuqlari hurmat va ehtiromga loyiq ekanini e'tirof etadi. Bunday o'rinlarda u tarixiylik tamoyiliga to'la amal qiladi.

Adib roman qahramonlarining tashqi portreti, yuz ifodalari, xatti-harakatlarini tasvirlaydi. Ammo, ayrim imo-ishoralarni istisno qilganda, personajlarning o'z-o'zini taftish qilishi, ya'ni ichki dialog va monologlari orqali ruhiyat iqlimlariga chuqur kirib borishga erisha olmaydi.

### **Adabiyotlar**

- Анисимов Е. В. 1989. Время петровских реформ. – Л.: Лениздат.
- Буганов В.И. 1989. Пётр Великий и его время. – М.: Наука.
- Бузник В. В. 2005. Толстой Алексей Николаевич // Русская литература XX века. Прозаики, поэты, драматурги. Биобиблиографический словарь: в 3 томах. – М.: Олма медиа групп.
- Варламов А. Н. 2008. Алексей Толстой. – М.: Молодая гвардия.
- Варламов А. Н. 2009. Алексей Толстой. Биография. – М.: Эксмо.
- Веселовский А.Н. 2006. Поэтика сюжетов // Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – М.: РОССПЭН.
- Западов В.А. 1981. Алексей Николаевич Толстой: Книга для учащихся. – 2-е издание, исправленное и дополненное. – М.: Просвещение.
- Крестьянский А.Ю. 1973. Воспоминания об Алексее Толстом. Сборник.
- Крюкова А.М. 1989. Алексей Николаевич Толстой. – М.: Московский рабочий.
- Matyokubova, T., & Yakubov, I. 2020. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews. No. 7.

- Matyokubova T. 2024. The poetic charm of Gafur Gulam's poetry (on the example of an analysis of the poet's poems "Observation" and "Health") // *Uzbekistan: language and culture*. No. 2.
- Петелин В.В. 1978. Алексей Толстой. – М.: Молодая гвардия.
- Петелин В.В. 2001. Жизнь Алексея Толстого. «Красный граф». – М.: Центрполиграф.
- Петелин В.В. 2007. Территория любви Алексея Толстого. – М.: Алгоритм.
- Прохоров А. 1955. Рассказы А.Толстого периода Отечественном войны I. Алманах «Ставрополе», № 13.
- Резников К. 2016. Мифы и факты русской истории. От лихолетья Смуты до империи Петра. – М.: Вече.
- Соловёв С.М. 1991. История России с древнейших времён // Сочинения: В 18 кн. – Кн. VII. Т. 13-14. – М.: Мысл.
- Толстой А.Н. 1995. Новые материалы и исследования. – М.: Наследие.
- Толстая-Крандиевская Н.В. 1959. Я вспоминаю // Прибой (алманах).
- Чуковский К. 1964. Алексей Николаевич Толстой (Из воспоминаний) // Москва. – № 4.
- Толстой А. 1961. Собрание сочинений в десяти томах: т. 10. Статьи, выступления, письма, очерки. Рассказы Ивана Сударева. – М.: ГИХЛ.
- Толстой А.Н. 2017. Петр Первый. В 2-х томах. – М.: Детская литература.
- Толстой А.Н. 2023. Петр Первый. В 2-х томах. – М.: Художественная литература.
- Томашевский Б.В. 1996. Теория литературы. Поэтика: Учеб. пособие Вступ, статья Н.Д. Тamarченко; Комм. С.Н. Бройтмана при участии Н.Д. Тamarченко. – М.: Аспект Пресс.
- Труайя А. 2006. Пётр Великий. – М.: Эксмо.
- Yoqubov I. A. 2024. Description of the evolution of the hero's soul in Erkin A'zam's film story "Zabarjad" // *Uzbekistan: language and culture*. No. 2.
- Yokubova S.I. 2022. Description of poetic images related to landscape in Jadid poetry // *Uzbekistan: language and culture*. – Tashkent. № 3.
- Yakubova S.I. 2023. Symbols in modern poetry: semiotic and hermeneutic interpretation // *Uzbekistan: language and culture*. – Tashkent. № 3.
- Yakubov I.A. 2017. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. №12.
- Ҳамидова Т. 1977. Рус-ўзбек адабий алоқалари тарихидан. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

## The epic narrative center of the social-historical novel

Shuxrat Nuritdinov<sup>1</sup>

### Abstract

The article analyzes the history of writing the historical novel "Peter the Great" ("Peter I") by the famous Russian writer Alexei Tolstoy, the relationship between real life and fiction in the work, the plot and composition of the novel, the epic method of narration, the system of characters, the poetic skill of the author, and makes some theoretical generalizations.

**Key words:** *novel trilogy, protagonist, real life and artistic truth, plot, composition, epic narrative method, system of images, poetic skill.*

### References

- Анисимов Е. В. 1989. Время петровских реформ. – Л.: Лениздат.
- Буганов В.И. 1989. Пётр Великий и его время. – М.: Наука.
- Бузник В. В. 2005. Толстой Алексей Николаевич // Русская литература XX века. Прозаики, поэты, драматурги. Биобиблиографический словарь: в 3 томах. – М.: Олма медиа групп.
- Варламов А. Н. 2008. Алексей Толстой. – М.: Молодая гвардия.
- Варламов А. Н. 2009. Алексей Толстой. Биография. – М.: Эксмо.
- Веселовский А.Н. 2006. Поэтика сюжетов // Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – М.: РОССПЭН.
- Западов В.А. 1981. Алексей Николаевич Толстой: Книга для учащихся. – 2-е издание, исправленное и дополненное. – М.: Просвещение.
- Крестьянский А.Ю. 1973. Воспоминания об Алексее Толстом. Сборник.
- Крюкова А.М. 1989. Алексей Николаевич Толстой. – М.: Московский рабочий.
- Matyokubova, T., & Yakubov, I. 2020. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews. No. 7.
- Matyokubova T. 2024. The poetic charm of Gafur Gulam's poetry (on the example of an analysis of the poet's poems "Observation" and "Health") // Uzbekistan: language and culture. No. 2.
- Петелин В.В. 1978. Алексей Толстой. – М.: Молодая гвардия.
- Петелин В.В. 2001. Жизнь Алексея Толстого. «Красный граф». – М.: Центрполиграф.

---

<sup>1</sup> Shukhrat B. Nuritdinov – Senior Lecturer, Guliston State University.

**E-mail:** shuhratnur772877@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0006-2163-2658

**For citation:** Nuritdinov Sh. B. 2025. The epic narrative center of the social historical novel. *Uzbekistan: language and culture*, 3 (1): 139-148.

- Петелин В.В. 2007. Территория любви Алексея Толстого. – М.: Алгоритм.
- Прохоров А. 1955. Рассказы А.Толстого периода Отечественном войны I. Алманах «Ставрополе», № 13.
- Резников К. 2016. Мифы и факты русской истории. От лихолетья Смуты до империи Петра. – М.: Вече.
- Соловьёв С.М. 1991. История России с древнейших времён // Сочинения: В 18 кн. – Кн. VII. Т. 13-14. – М.: Мысл.
- Толстой А.Н. 1995. Новые материалы и исследования. – М.: Наследие.
- Толстая-Крандиевская Н.В. 1959. Я вспоминаю // Прибой (алманах).
- Чуковский К. 1964. Алексей Николаевич Толстой (Из воспоминаний) // Москва. – № 4.
- Толстой А. 1961. Собрание сочинений в десяти томах: т. 10. Статьи, выступления, письма, очерки. Рассказы Ивана Сударева. – М.: ГИХЛ.
- Толстой А.Н. 2017. Петр Первый. В 2-х томах. – М.: Детская литература.
- Толстой А.Н. 2023. Петр Первый. В 2-х томах. – М.: Художественная литература.
- Томашевский Б.В. 1996. Теория литературы. Поэтика: Учеб. пособие Вступ, статья Н.Д. Тамарченко; Комм. С.Н. Бройтмана при участии Н.Д. Тамарченко. – М.: Аспект Пресс.
- Труайя А. 2006. Пётр Великий. – М.: Эксмо.
- Yoqubov I. A. 2024. Description of the evolution of the hero's soul in Erkin A'zam's film story "Zabarjad" // Uzbekistan: language and culture. No. 2.
- Yokubova S.I. 2022. Description of poetic images related to landscape in Jadid poetry // Uzbekistan: language and culture. – Tashkent. № 3.
- Yakubova S.I. 2023. Symbols in modern poetry: semiotic and hermeneutic interpretation // Uzbekistan: language and culture. – Tashkent. № 3.
- Yakubov I.A. 2017. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. №12.
- Ҳамидова Т. 1977. Рус-ўзбек адабий алоқалари тарихидан. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

## “Boburnoma”da uzilgan yil voqealari xorij sharqshunoslari talqinida

Barno Abdullayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Asardagi uzilishlar olimlarni turli taxmin, tasmollarga yetakladi, har xil fikrlar oʻrtaga tashlandi. Ayniqsa ingliz sharqshunoslaridan J.Leyden, V.Erskin, L.U.King, A.S.Beverij xonim hamda fransuz tarjimoni Pave de Kurteylning “Boburnoma”da uzilgan yil voqealarini ta’irlash yo’lida olib borgan mehnatlari tahsinga sazovordir. Ular orasida L.U.King, A.S.Beverij xonim tarjimasi va tadqiqoti alohida o’rin tutadi. U nisbatan mukammalligi, ilmiy aniqligi bilan sharqshunoslar e’tiboriga tushdi. Maqola shu haqida.

**Kalit soʻzlar:** *uzilish, asl nusxa, kemitik, har xil taxminlar, ta’irlash, “qayta yaratish”, tadqiqot, ilmiy.*

### Kirish

“Boburnoma” Angliyada 9 marta nashr qilindi. Jumladan, 7 tasi mukammal nashr bo’lib, qolgan 2 tasi – 1845-yil R.M.Kaldekot bilan 1879-yili F.J.Talbot tomonidan chiqarilgan qisqa nashrlardir. [1; 7-8]

Bu o’rinda bir savol tug’iladi. To’liq bo’lgan J.Leyden va V.Erskinlarning tarjimalarini qayta nashr qilish o’rniga nima uchun “Boburnoma”ning qisqartirilgan variant yuzaga keldi? Unda nimalar qoldirildi-yu, nimalar olib tashlandi?

Ushbu nashrlarni varaqlar ekanmiz, ko’z o’ngimizda asosan harbiy yurishlar, jang maydonlari, olishuvlar va ular bilan bog’liq bo’lgan manzaralar gavdalanadi. Bunda ham yuqorida qayd etilganidek, inglizlarning “bosib olish”, “bo’ysundirish” siyosati namoyon bo’ladi. Bu lavhalar, albatta, ular uchun Hindistonni to’la-to’kis egallab olishda muhim edi. Talbot o’z nashrida nimalarni tushirib qoldirganli va nima sababli nashrni qisqartirganligi, shuningdek, unga o’zining qo’shgan hissasi haqida shunday deydi: “Memuarlarning o’zida (asl nusxasida demoqchi) qaytarishlar

<sup>1</sup> Abdullayeva Barno Umidullo qizi - Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, Impuls tibbiyot instituti o’qituvchisi.

**E-pochta:** abdullayevabarno789@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0004-6632-1226

**Iqtibos uchun:** Abdullayeva, B.U. “Boburnoma”da uzilgan yil voqealari xorij sharqshunoslari talqinida”. *O’zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 149-158.

va ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan tafsilotlar juda ko'p. Shuning uchun **ba'zilar tashlab ketildi**. Shu bilan birga ayrim joylarda **tarjimaning o'zi ham biroz o'zgartirildi**. "Boburnoma"da tasvirlangan yerlar, ularning nomlari, ayniqsa Afg'oniston va Hindistonga taalluqli geografik nomlar, hayvonot va o'simlik dunyosi, umuman, Sharq xalqlari hayoti Yevropaga nisbatan tamom o'zga bir dunyo bo'lganligi sababli ham har ikki noshir bir qator Yevropa tarixshunoslarining asarlaridan foydalanganlar. Bunday asarlar orasida Stenli Leyn Pulning "Bobir", "Avrangzeb", "Hindiston podshohlari", F.A.Stilning "Hindiston asrlar osha", Mallesonning "Akbar", V.Erskinning "Hindiston" singari kitoblari bor. Har ikki nashr "So'z boshi", "Kirish", "Bobur tasvirlangan joylar xaritasi", "Ko'rsatkichlar" kabi bo'limlardan iborat. Talbot nashrining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, unda "Boburnoma"ning Britaniya muzeyida saqlanayotgan forscha qo'lyozmasidagi hind va fors rassomlari tomonidan Bobur davrida chizilgan 25 miniatura, nashr oxirida esa Boburning o'limi va uning avlodi sakkiz kishining hayoti va faoliyati haqida qisqa tarixiy ma'lumotlar ham keltirilgan. Shu bilan birga Talbot ayrim o'rinlarda Bobur nomidan berilayotgan bayonni, to'xtatib, keyingi voqealarni o'z nomidan sharhlaydi (Masalan, 1508-1519, 1520-1525-yillar tafsilotlari). Bu o'rinda shuni aytish lozimki, 1508-1519 va 1520-1525-yillar voqealarining tafsiloti nima uchundir "Boburnoma"ning keyingi nashrlarida uchramaydi. Bunday holni biz "Boburnoma" ning turkolog olim N.I.Ilminskiy tomonidan 1857-yilda Qozonda chop ettirilgan to'liq teksti, ingliz sharqshunosi A.Bevrij tomonidan 1905-yilda Haydarobodda topilgan mukammal qo'lyozma nusxasi va mazkur qo'lyozmaning fotokopiyasi asosida 1960-yilda Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayev tomonidan nashr etilgan o'zbekcha tarjimasi va nihoyat, M.Sale tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimalarida ko'ramiz. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, Talbot va Kaldekot yuqorida keltirilgan yillar voqealarini boshqa manbalardan olib to'ldirganlar. Lekin bu tafsilotlar qanchalik haqiqatga yaqin ekanligi hozircha ma'lum emas.

### **Adabiyotlar tahlili**

Voqealar tafsilotini bayon etishda Talbot Bobur kabi ularni yillarga bo'lib beradi. Masalan, "Vaqoyin sanay tis'a miani" "1494-yil voqealari" deb avtorning uslubiga yaqinlashtiradi. Kaldekot har bir yil voqealarining asosiy tafsilotlarinigina oladi, ulardan kelib chiqib, quyidagicha boblarga bo'ladi: "Description of Ferghana" (Farg'ona tasviri), "Capture of Cabul" (Qobulning zabt etilishi) va boshqalar.

V.G.Belinskiy "ba'zi o'rinlarda asl nusxadan uzoqlashgan sari, unga shunga yaqinlashiladi: Tarjima san'atining siri ham shunda"[2;8] degandek, Kaldekot Bobur uslubidan ma'lum jihatdan chetga chiqsa-da, asarda keltirilgan kishi nomlari, voqealar tasviri orasidan eng muhim ma'lumotlarni tezda topishga imkon tug'diradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

"Boburnoma"ning farang tarjimoni Pave de Kurteylning fikricha "Xotiralar" noaniq yozilgan kundalik shaklida bo'lib, uning dastlabki qismi ( hijriy 899-914-yillar) Boburning yoshligi va qiyinchiliklari haqida izchil hikoya qiladi. Bu qism, ehtimol, Bobur Hindistonni ishg'ol qilgan davrida qayta ishlangan bo'lishi mumkin. Keyingi qismi esa vaqti-vaqti bilan, hatto ba'zan har kuni yozilgan qisqa eslatmalar, xom materiallar va rejalashtirilmagan o'zi yozgan tarjimon holi yozuvlardan iborat. Asarning oxirgi qismidagi uslub ancha sodda bo'lib, ba'zi joylari tahrir qilinmagani sezilib turadi. Leyn-Puul ta'kidlaganidek, Hindistonning batafsil tasviri Boburning hayotini oxirgi yillaridagi nisbiy osoyishtalik davrida yozilgan bo'lishi mumkin.

**Pavet de Kurteyl o'z tarjimasiga yozgan so'zboshi** da shunday deydi:

*"Xotiralarning dastlabki qismi Hindistonda (1520–30-yillar) yozilgan yoki tahrir qilingan degan fikrni Boburning Hindistondagi voqealarga tez-tez murojaat qilishi, u yerga xos so'zlarni ishlatishi va hatto ularni tushuntirib berishga ehtiyoj sezganligi tasdiqlaydi."*

Bobur kundaligida unga qiziq bo'lgan har qanday narsani tez yozib qo'yish odatiga ega bo'lgan. Bu esa uning quyidagi so'zlarida aks etadi:

*"Agar keyinchalik e'tiborga molik biror narsani ko'rsam, uni yozib qo'yaman. Agar eshitganlarim orasida eslab qolishga arziydigani bo'lsa, uni ham kiritaman."*

### **"Xotiralar" dagi besh katta bo'shliq:[3;8]**

Asarda beshta muhim davr qamrab olinmagan bo'lib, ularning barchasi Bobur tomonidan qoldirilgan bo'shliqlar ekani tasdiqlangan:

1. **Hijriy 908-909 (milodiy 1503-1504)** – Matn jumla o'rtasida to'satdan uzilib qolgan.

2. **Hijriy 914-925 (milodiy 1508-1519)** – O'n yillik bo'shliq mavjud.

3. **Hijriy 926-932 (milodiy 1520-1525)** – Yana besh yillik uzilish.

4. **Hijriy 934 (milodiy 1528-yil, 2-apreldan 18-sentyabr-**

**gacha)** – Qisqa, lekin muhim bo'shliq.

5. **Hijriy 936-937 (milodiy 1529-1530)** – Boburning hayotining so'nggi o'n besh oyi haqida hech qanday yozuv yo'q.

Bu bo'shliqlar keyinchalik Erskinning tarixiy to'ldirishlari bilan qisman to'ldirilgan. Pave de Kurteyl esa bu bo'shliqlar Boburning o'zi tomonidan qoldirilganini ta'kidlaydi, chunki ular barcha mavjud turkiy va forsiy qo'lyozmalarda bir xil joylarda ham uchraydi.

Dilip Xironing fikricha,[4;8] dastlabki turkiy (chig'atoy) tilida yozilgan "Boburnoma" Akbar hukmronligi davrida (1556-1605) fors tiliga tarjima qilingan bo'lib, afsuski, 1502, 1503, 1508-1519, hamda 1520-yil yanvaridan 1525-yil noyabriga qadar bo'lgan taxminan o'n sakkiz yillik yozuvlar yo'qolgan, 1527-yilda o'z xotiralarini yozishni boshlagan. Shu bois uning hikoyasi izchilikka ega:

U o'z kundaligini tarixiy ahamiyatga ega deb bilgan hamda xolislikka katta e'tibor bergan: **"Buni shikoyat qilish uchun yozmayapman; men sof haqiqatni yozdim"**, deb ta'kidlaydi u. **"Men bu narsalarni o'zimni ulug'lash uchun emas, aynan qanday bo'lsa, shunday yozib qoldirdim"**.

"Men foydalangan asosiy manba, A.S.Bevrij xonim tomonidan 1921-yilda asl chig'atoy turkiy tilidan tarjima qilingan "Boburnoma" bo'lib, bu asar 300 000 so'zdan iborat bo'lib, yana 80 000 so'zli izohlar bilan boyitilgan.

Tarjimon asarning o'ziga sodiq qolgan bo'lsa-da, natijada asarni o'qilishi ancha murakkab bo'lib qolgan. Hatto, mashhur tadqiqotchilar ham 906 betli izohlarga to'la bu kitobni to'liq o'qishdan cho'chishadi.

Nashriyotchimmengavazifasifatidaushbu "sumokurashchisi" hajmidagi kitobni "tennis chempioni" shakliga keltirishni topshirdi-ortiqcha yukni olib tashlash, lekin asosiy mazmun va uslubini saqlab qolish. Mening qisqartirish va tahrirlarim natijasida bu klassik asar taxminan 100 000 so'zgacha qisqardi va tarjimaning so'nggi qismida faqat oz sonli izohlar qoldirildi. Kitobning **mohiyati** ham, **ruhi** ham o'zgartirilmagan. Bu nafaqat **nasrga**, balki **she'rlarga** ham tegishli". [4;8]

Yapon olimi professor Eyji Mano ham o'sha uzilishlarga doir voqealar bayonini Bobur Mirzoning o'zi yo'qotgani haqidagi taxminga ishonib bo'lmaydi, deb quyidagi taxminlarni olg'a suradi:[5;8]

"Boburnoma" – Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) xotiralari bo'lib, u Markaziy Osiyoda, Temuriylar sulolasi shahzodasi sifatida XV asr oxirida tug'ilgan, hayotining bir qismini

Afg'onistonda o'tkazgan va XVI asr boshlarida Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solgan.

Boburning ona tili – chig'atoy tilida yozilgan ushbu asar turkiy nasr adabiyoti tarixidagi eng buyuk asarlardan biri hisoblanadi. Boburning ixcham va beqiyos darajada aniq nasriy uslubi tufayli o'quvchi hech qachon Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning XV-XVI asrlardagi jonli tasvirlaridan charchamaydi. Shuningdek, Boburning shaxsiy fikrlari va ichki kechinmalari kutilmagan darajada ochiq-oshkoralik bilan ifodalangan bo'lib, ular o'quvchini boy va o'ziga xos ruhiy olamga chorlaydi.

“Boburnoma” muallif Boburning hayotini aks ettiruvchi **uch qismdan iborat**: birinchi qism Farg'ona davri, ikkinchi qism - Kobul davri va uchinchi qism - Hindiston davri. Ushbu qismlar mos ravishda Boburning Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistondagi faoliyatini xronologik tarzda tasvirlaydi.

### **Tahlil va natijalar**

**Birinchi bo'lim** va **ikkinchi bo'limning** birinchi yarmi hikoya shaklida yozilgan, lekin ikkinchi bo'limning qolgan qismi (925-hijriy/1519-milodiy yildan boshlab) va uchinchi bo'lim to'liq kundalik shaklida yozilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, 925-hijriy yildan keyingi qismi shuning uchun ham kundalik shaklida qolgan bo'lishi mumkin, chunki Bobur vafot etishidan oldin ularni hikoya shakliga keltirishga ulgurmagan.

Birinchi qism 899-hijriy/1494-milodiy yilda, 12 yoshida Boburning Temuriylar sulolasi tarkibidagi Farg'ona taxtiga chiqishi bilan boshlanadi, uchinchi qism esa 936-hijriy/1529-milodiy yil bilan yakunlanadi. Shu ma'lumotlardan kelib chiqib, asl matn taxminan 36 yil 1494-yildan 1529-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab olgani taxmin qilinadi.

Biroq, bugungi kungacha yetib kelgan barcha qo'lyozmalarda ushbu yillar ichidan taxminan 16 yilga oid yozuvlar butunlay yo'q. Eng katta bo'shliqlar orasida 914-hijriy/1508-milodiy yildan 924-hijriy/1519-milodiy yilgacha bo'lgan taxminan 10 yillik yozuvlar va 920-hijriy/1520-milodiy yildan 926-hijriy/1526-milodiy yilgacha bo'lgan taxminan 5 yil 10 oylik yozuvlar yetishmaydi.

Ya'ni, bugungi kunda bizga yetib kelgan qismlar asl nusxaning taxminan yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Haqiqatan ham, asl matnning katta qismi yo'qolgan. Hozirgi tanqidiy nashrda mavjud bo'lgan matn 600 sahifadan ortiq bo'lsa, asl **Boburnoma ehtimol ming sahifadan oshgan bo'lishi mumkin**.

Boburnomadagi katta bo'shliqlarning sabablari haqida turli

taxminlar ilgari surilgan. Eng yuzaki ko'rinadigan taxminlardan biri Bobur o'zining ayrim yozuvlarini (masalan, sunniy Bobur va shia safaviylar sulolasi o'rtasidagi yaqin munosabatlarni aks ettirgan qismlarini) ataylab yo'q qilgan bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrdir. Biroq, Boburning ochiq fikrliligi va shaxsiy erkinligi inobatga olinsa, bu nazariyaga ishonish qiyin. Hindiston davridagi besh yarim oylik voqealar bayonining yo'qolib ketgani haqidagi, jumladan, hindiy nashrda bunday deyiladi: "1528-yildagi besh yarim oylik voqealarning yo'qolib ketishiga ikkita narsa sabab bo'lgan, degan taxmin bor- birinchisi, 1529-yilning 24-may kuni bo'ron aralash yog'gan jala, ikkinchisi, Humoyun qochoqda yurgan paytlarida kitoblarning yonib ketganidir.[6;8]

Haqiqatan ham, Bobur shunday bo'ronni boshdan kechirgan va uning natijasida ba'zi qo'lyozmalari shamolda uchib ketgan. [7;8] O'sha paytda Bobur qo'lyozmalarni tiklashga harakat qilgan va quritib saqlab qolganligi yozilgan, ammo katta qismining qayta tiklanmagani haqida aniq ma'lumot yo'q. Shuningdek, bo'ron paytida yo'qolgan matnning aynan "Boburnoma" ekanligi ham noma'lum. Bobur Mirzo kitobat qilayotgan asarni mutaxassislar, jumladan, A.S.Bevrij xonim ham, "Boburnoma" deb hisoblangan. Bevrij xonim mazkur hodisa bayoniga "Boburnoma" yozuvlarining zarar ko'rishini deb sarlavha ham qo'ygan. Professor N.Otajonovning fikri ham A.S.Bevrijnikiga yaqin.

Lekin bizning fikrimizcha, ushbu hodisa haqida boshqa mulohaza ham bildirish mumkin.

Birinchidan, kitobat qilinayotgan asarning "Boburnoma" ekanligi to'g'risida hech qayerda aytilmagan va bunga ishora ham qilinmagan. Ikkinchidan, "Tong otguncha uxlamay, avroq va ajzolari qurutmog'iga mashg'ul edik" deyilgan, hamda shu to'fon va jala oqibati "Boburnoma"ni katta qismi yo'qoldi, deyilmagan. Yo'qolgan bo'lganda, albatta, zikr etilgan bo'lardi.

Ushbu hodisa 25-may kuni bo'lgan bo'lsa, 26-maydan boshlab yana voqealar bayoni davom etavergan va hodisaning oqibatlari, xususan, asarning zarar ko'rgani haqida hech narsa deyilmagan. Professor Eyji Manoning taxminiga ko'ra, mazkur hodisa tufayli "Boburnoma" sahifalarining bir qismi yo'qolgan bo'lishi mumkin.

Shuning uchun, ushbu nazariyalar hech qanday ishonchli dalilga asoslanmagan va faqat taxminiy xulosa sifatida qabul qilinishi mumkin. Hozircha, "Boburnoma"ning katta qismi nima sababdan yo'qolganligi sirliqicha qolmoqda.

Tadqiqotchi D. Abdurahmanovanning "Boburnoma"ni

S.Azimjonova hamda H.Dalov tarjimalari ustida olib borgan tekstologik kuzatishlari jarayonida nemis tarjimoni ayrim qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yganini, ya‘ni tarjimada quyidagi yil **voqealarining bayoni yo‘qligi asliyatdan ham ko‘proq** yo‘qotilganini ta‘kidlaydi:

1. Hijriy 899-yil voqealarida, Umarshayx mirzoning zavjalariga oid voqealarni 3 sahifasi yo‘q. Boz ustiga kishi ismlarini berilishida ham qo‘pol xatolar bor: Masalan, Mehrnigor – Mir Nigar shaklida berilgan;

2. Hijriy 901-yil voqealarining boshlanishida ham 3 sahifa yo‘q;

3. Hijriy 902 voqealarining oxiri mutlaqo yo‘q;

4. Hijriy 903-yil voqealarini oxiriga 2.5 sahifasi yo‘q; H. Dalov buni o‘rniga Samarqand tasvirida “Bibixonim” masjidi va observatoriyaning bugungi ko‘rinishini rangli fotosuratlar bilan ilova qilib bergan.

5. Hijriy 905-yil voqealarida ham 3 sahifa yo‘q;

**Qobul:** H. Dalovda 910-yil voqealari deb boshlanadi – 909-yil voqealari bo‘lishi lozim.

6. Hijriy 912 voqealarida – 1 sahifa yo‘q;

7. Hijriy 913-yil voqealarining boshlanishida ham 2 sahifa yo‘q;

8. Hijriy 914- ( 1508-1509 ) yil voqealari mutlaqo berilmagan;

9. Hijriy 925-yil voqealarida 1-2 sahifa yo‘q;

10. Hijriy 926-yil voqealari – berilmagan;

#### **Hindiston:**

Hijriy 932-yil voqealari - 4 sahifa yo‘q;

Hijriy 933-yil voqealarida ham - 2 sahifa yo‘q;

Hijriy 934- yil voqealarida ham - 3 sahifa yo‘q;

Hijriy 935-yil voqealari - 5-6 sahifa yo‘q;

Hijriy 936- yil voqealari – umuman yo‘q;

#### **Xulosa**

Haqiqatdan ham “Boburnoma” bizgacha chala, to‘liq bo‘lmagan bir asar holida yetib kelgan. Uni turli-tuman tillarga ag‘dargan ko‘p sonli tarjimonlar qo‘lga tushgan har xil nusxalardan foydalanishlari natijasida voqealar buzilgan, orada uzilgan jumlar tushib qolgan yoki me‘yoriga yetkazib tarjima qilinmagan. Professor Ne‘matilla Otajanovning shahodat berishicha, A.S. Bevrij, Pave de Kurteyl tarjimalari ham, so‘nggi mukammal tarjimalardan bo‘lishiga qaramasdan kamchiliklardan xoli emas.[8;8]

Ilmiy tadqiqotlarni o'rganish bilan asarning tarjimalarini tahlil qilish orasida aytarlik aloqa yo'qday ko'rinishi mumkin.

Chunki **tarjima** - asl nusxa (original) ning boshqa tildagi teng qiymatlisini vujudga ketirish bo'lsa, **tadqiqot** – bu asar haqida muhokama yuritish, uni tahlil qilish, tushuntirishdir. Biroq masalaga chuqurroq yondashgan kishi tadqiqotlarning tarjimaga bevosita yoki bilvosita aloqasi, ta'siri borligining shohidi bo'ladi. Ayniqsa, asar o'girilgan tilda amalga oshirilgan ilmiy ishlar uni ommalashtirish, asarning yangi o'quvchilar orasida tezroq tushuntirilishini yengillatish, tarjima saviyasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda xorij sharqshunoslari ayniqsa, ingliz olimlari olib borgan ilmiy izlanishlar "Boburnoma"ni kitobxonlarga kengroq singdirish, uning mazmuni, mohiyati, ahamiyatini ochib berishga xizmat qilib, **asl nusxa** haqida to'g'ri tasavvur tug'dirdi, o'quvchilar mashhur kitobni chuqurroq tushunib o'qishga muyassar bo'ldilar.

Turli xil kamchiliklarning, yil voqealaridagi ( ayniqsa, nemischa T.Dalov tarjimasi) soxta uzilishlarning sodir bo'lganligi tarjimonlarning til bilish darajasi, ishga qay nuqtayi nazardan yondashganligi, ijodiy mehnatning me'yori bilan izohlash mumkin.

Ro'y bergan kamchiliklarning asosiy sababi "Boburnoma" ning **tanqidiy matni** hanuzgacha yaratilmaganidadir. Tarjimonlar turli yillarda ko'chirilgan, nuqsonlardan xoli bo'lmagan turli qo'lyozmalardan foydalanib kelmoqdalar. Oqibatda yana turli xil tarjimalar paydo bo'lishi va bunday chalkashliklar davom etishi mumkin.

### Adabiyotlar

- J.Leiden and W.Erskine. memoirs of Zehir-ed-Din Muhammad baber, translated by J.Leiden and W.Erskine, London, 1826.
- L.King. memoirs of Zehir-ed-Din Muhammad Baber, translated by J.Leiden and W.Erskine, London, 1921.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (Ferghana), London, 1912.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (Cabul), London, 1914.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (India), London, 1917.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (Preface, Indexes and etc.), London, 1921.
- A.Beveridge. The Baber-nama in English (Memoirs of Babur) by Zahir-ud-din Muhammad Babur Padshah Ghazi; translated from the original turki text, London, 1921.
- Life of Babur, emperor of Hindustan. An abridgment by R.M.Caldecott, London, 1845:
- Memoirs of Babur, emperor of India. An Abridgment by F.G.Talbot, London, 1879.
- Belinskiy V.G. 1953. Пол.собр.сп, Т.Р.Москва
- Memoires de Baber. 1872. Paris.

- Babur Nama, Journal of Emperor Babur. Translated from the Chaghatai Turkish by A.S. Beveridge. Abridged, edited and introduced by Dilip Hiro, Penguin Books.
- Babur-nama (Vaqayi), 1995. Critical edition based on four Chaghatai texts with introduction and notes by Eiji Mano, Kyoto, Syokado
- Boburnoma. 1974. Dehli.
- Bobur.Z.M. 2002. Boburnoma, Toshkent, "Sharq"
- N.Otajonov. 1984. "Boburnoma" jahon kezadi. Toshkent
- Life of Babur, emperor of Hindustan. An abridgment by R.M. Caldecott, London, 1845: Memoirs of Babur, emperor of India. An Abridgment by F.G. Talbot, London, 1879.
- N.Otajonov. 1984. "Boburnoma" jahon kezadi. Toshkent.
- Bobur. Z.M. 2002. Boburnoma. Toshkent.
- Notes in the MSS of the Turki text of Babar's memoirs (Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland)
- Annete S. 1905, 1907. Beveridge MSS of Turki text of Babar Memoirs, JRAS October
- Royal Asiatic society. 1900. July.
- Bobur Zahiriddin Muhammad. 1960. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchilar P. Shamsiyev, S. Mirzayev, - T.: Fan.
- Bobur Zahiriddin Muhammad. 2002. Boburnoma. - T.: Sharq NMAK.

## **Interpretations of the gap(lacuna) year events in memories by foreign orientalists**

Barno Abdullayeva<sup>1</sup>

### **Abstract**

The gaps in the Baburnama have led scholars to various hypotheses and assumptions, resulting in the emergence of differing viewpoints. In particular, the efforts of English orientalists such as J. Leyden, W. Erskine, L.U. King, and Mrs. A.S. Beveridge, along with the French translator Pavet de Courteille, in restoring the events of Baburnama are commendable. Among them, the translations and studies by L.U. King and Mrs. A.S. Beveridge hold a special place for their relative completeness and scholarly precision, attracting the attention of many orientalists. This article is devoted to this subject.

**Keywords:** *gap, original manuscript, omission, various assumptions, restoration, "reconstruction", research, academic.*

---

<sup>1</sup> *Abdullayeva U. Barno* – PhD researcher of Namangan State University.

**E-mail:** [abdullayevabarno789@gmail.com](mailto:abdullayevabarno789@gmail.com)

**ORCID ID:** 0009-0004-6632-1226

**For citation:** Abdullayeva B.U. 2025. "Interpretations of the gap(Lacuna) year events in memories by foreign frientalists". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 149-158.

## References

- J.Leiden and W.Erskine. memoirs of Zehir-ed-Din Muhammad baber, translated by J.Leiden and W.Erskine, London, 1826.
- L.King. memoirs of Zehir-ed-Din Muhammad Baber, translated by J.Leiden and W.Erskine, London, 1921.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (Ferghana), London, 1912.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (Cabul), London, 1914.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (India), London, 1917.
- A.Beveridge. The Baber-nama; (Preface, Indexes and etc.), London, 1921.
- A.Beveridge. The Baber-nama in English (Memoirs of Babur) by Zahir-ud-din Muhammad Babur Padshah Ghazi; translated from the original turki text, London, 1921.
- Life of Babur, emperor of Hindustan. An abridgment by R.M.Caldecott, London, 1845:
- Memoirs of Babur, emperor of India. An Abridgment by F.G.Talbot, London, 1879.
- Belinskiy V.G. 1953. Пол.собр.сн, Т.Р.Москва
- Memoires de Baber. 1872. Paris.
- Babur Nama, Journal of Emperor Babur. Translated from the Chaghatai Turkish by A.S. Beveridge. Abridged, edited and introduced by Dilip Hiro, Penguin Books.
- Babur-nama (Vaqayi), 1995. Critical edition based on four Chaghatai texts with introduction and notes by Eiji Mano, Kyoto, Syokado
- Boburnoma. 1974. Dehli.
- Bobur.Z.M. 2002.Boburnoma, Toshkent, "Sharq"
- N.Otajonov. 1984. "Boburnoma" jahon kezadi. Toshkent
- Life of Babur, emperor of Hindustan. An abridgment by R.M.Caldecott, London, 1845: Memoirs of Babur, emperor of India. An Abridgment by F.G.Talbot, London, 1879.
- N.Otajonov. 1984. "Boburnoma" jahon kezadi. Toshkent.
- Bobur. Z.M. 2002. Boburnoma. Toshkent.
- Notes in the MSS of the Turki text of Babar's memoirs (Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland)
- Annete S. 1905,1907. Beveridge MSS of Turki text of Babar Memoirs, JRAS October
- Royal Asiatic society. 1900. July.
- Bobur Zahiriddin Muhammad. 1960. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchilar P.Shamsiyev, S.Mirzayev,- T.: Fan.
- Bobur Zahiriddin Muhammad. 2002. Boburnoma. – T.: Sharq NMAK.

## CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TERMINSHUNOSLIK

# Ta'limga oid ayrim o'zakkdosh arabizmlar va ularning leksik-semantik xususiyatlari

Nargiza Rashidova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada arab tilidan o'zlashgan ta'lim sohasiga oid ayrim arabizmlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, ularning o'zlashish sabablari va tamoyillari ham o'rganilgan. Ma'lumki, O'rta Osiyoda arab tili islom dinining keng tarqalishi bilan bog'liq. O'zbek tilining leksik qatlamida ko'p so'zlar aynan ilm va dinga oid so'zlardir va ularning aksariyati dastlabki o'zlashgan ma'nolarini saqlab qolgan. Shuningdek, bu so'zlar orasida ma'no kengayishi va torayishi natijasida leksik-semantik o'zgarishlarga uchraglari ham bor. Morfologik o'zgarishlar, arab o'zagiga turli xil qo'shimchalarni qo'shilishi bilan kuzatilgan. Natijada o'zbek tilida yangi so'zlar vujudga kelgan.

**Tayanch so'zlar:** *o'zakkdosh qatorlar, leksik-semantik tahlil, konsonant til, o'zlashmalar, ta'lim sohasi, torayish, kengayish, leksik fond.*

### Kirish

O'zbek tili lug'at boyligining ma'lum qismini arabcha so'zlar tashkil etadi. Arabcha so'zlarning o'zlashish sabablari quyidagicha izohlangan: "Bunday so'zlarning o'zlashishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o'ynagan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalishi; v) arab yozuvining qo'llana boshlanganligi; g) madrasalarda arab tilining o'qitilishi; turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi; g) olimu fuqzalolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar".

"O'zbek tili lug'atidagi arabcha leksemalarning oz qismigina bevosita arab tilining o'zidan olingan. Bunday o'zlashtirish, asosan,

---

<sup>1</sup> *Rashidova Nargiza Baxtiyarovna* – filologiya fanlari bo'yicha falfasa doktori (PhD), dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** rashidova@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-5390-8173

**Iqtibos uchun:** Rashidova N.B. 2025. "Ta'limga oid ayrim o'zakkdosh arabizmlar va ularning leksik semantik xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 159-171.

O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi, maktab-madrasalarda arab tilining din tili sifatida targ'ib qilinishi bilan, eng muhimi – sharq olamida fan tili deb arab tilining qabul qilinganligi kabi omillar bilan bog'liq. Demak, arab tilidan bevosita o'zlashmalar, asosan, fanga va dinga doir leksemalarga to'g'ri keladi" [Rahmatullayev 2006: 103].

Arabizmlar o'zbek tilida kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalarni bajarishda ishtirok etib kelmoqda.

Arablar istilosi va arab madaniyati ta'sirida o'zbek tili lug'at fondida *kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag'rur, xafa* kabi leksemalar keng doirada qo'llanila boshlandi va qo'llanishda davom etmoqda. Arabcha so'zlar diniy atamalar va turli soha nomlaridir. O'zbek xalqi vakillariga qo'yiladigan ismlarning aksariyati arabcha. O'zbek tili lug'at fondidagi arabcha so'zlarni quyidagi xususiyatlariga ko'ra ajratish mumkin:

1. V, f, h harflari ishtirok etgan so'zlar, asosan, arabcha: *vazir, vazifa, vaqt, vasl, farq, fozil, faxr, sinf, hosil, hurmat, mashhur, huquq.*

2. "“" tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlar, asosan, arabcha: *ma'no, ta'limot, na'ra, ta'na, sun'iy, ta'lim.*

3. Ikkita bir xil unli qo'sh kelgan so'zlar arab tiliga oid: *inshoot, manfaat, tabiiy, shuur, taassurot, taalluqli.*

4. Ikkita har xil unli yonma-yon kelgan so'zlar arabcha: *soat, maorif, saodat, shoir, shior, oila, taomil, muallim.*

5. Arabcha so'zlar siniq ko'plikka ega, ya'ni ko'plik o'zak tarkibini o'zgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, she'r-ash'or, hukm-ahkom, olim-ulamo.*

6. Arabcha leksemalarda o'zakdoshlik so'z tarkibidagi undoshlar asosida hosil qilinadi: *hukm – hokim – hakam – mahkama – hokimiyat – mahkum; fikr – tafakkur – mutafakkir; kitob – maktab – kutubxona – maktub; sinf – tasnif; hurmat – ehtirom – muhtaram.*

Arab tili konsonant til bo'lib, unlilar ifoda etilmaydi. Arab tilining konsonantlik xususiyati yangi leksemalar hosil qilish jarayonida ham kuzatiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va metodlari.** M.Tojiboyeva Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilar ekan, shunday yozadi: "Tadqiqotda "Ilk devon"dan kamida ikki yoki uch marta qo'llangan arabizmlar tanlandi. Birinchidan, matnda bir marta uchraydigan so'zlar, asosan, bir ma'nosi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, matnda bir

marta uchraydigan hamma arabizmlarning ma'no xususiyatlarini tahlil etib chiqishning imkoniyati yo'q. Uchinchidan, devonda ko'p marta uchraydigan *ishq, oshiq, ma'shuqa, vasl, hajr, hijron, lafz, alfoz, ko'ngil* singari so'zlarni leksik-semantik jihatdan tahlil etishning alohida usullari ishlab chiqilsa, o'z-o'zidan boshqa arabizmlarning ma'no tarkibi va xususiyatlarini ham tahlil qilish imkoni tug'iladi. Shularni nazarda tutgan holda, tadqiqotda devonda ko'p ishlatilgan arabizmlarning ma'no qirralarini yoritish tamoyili asos qilib olindi.

Arabcha leksemalar talqinida "ma'no qirralarini yoritish" tamoyili muhim ilmiy xulosalar beradi.

Tadqiqotimizda ta'lim jarayonida faol qo'llanadigan arabizmlar tahlilga tortildi. Misollarni yig'ishda 80000 so'z va so'z birikmasini o'zida mujassamlashtirgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni manba sifatida belgiladik. Ta'lim jarayoniga oid 270ta leksik birlikni aniqladik. Bu leksemalar qo'llanish davri, semantik tarkibi jihatidan o'zaro farqli xususiyatlarni namoyon etadi. Ta'limga doir arabizmlarni tadqiq etishda komponent tahlil metodidan foydalandik. Bu metod orqali arabizmlar semantik mundarijasini tashkil qiluvchi semalar tahlil qilindi.

**O'zakkdosh arabizmlar qatori.** Arabcha so'zlarni aniqlashning muhim belgilaridan biri bo'lgan konsonant birlik o'zakkdosh leksemalar qatorini hosil qiladi. Mazkur o'zakkdoshlik qatorida, har qanday paradigmalarda bo'lganidek, leksemalar qo'llanish chastotasi, zamoni, uslubiy bo'yoqdorlikka ega yoki ega emasligi bilan farqlanadi. Bu holat arabcha konsonantlik asosidagi o'zakkdoshlik qatori elementlarining alohida leksik-semantik xususiyatlarini namoyon etadi.

Arab tiliga xos so'z yasaliş jarayoni bu tilning ichki tizimida ro'y bergan. O'zbek tiliga o'zakkdoshlik qatorining har bir a'zosi dastlabki ma'nosi bilan o'zlashgan. Keyinchalik leksik-semantik o'zgarishlar, ma'no o'zgarishi, kengayishi, torayishi sodir bo'lgan. Bu jarayonlar arabcha o'zlashmalar keng doirada iste'mol qilinayotgan o'zbek tilining leksik-semantik taraqqiyoti bilan izohlanadi. Bunday o'ziga xos semantikasi ta'lim jarayoniga oid ayrim o'zakkdoshlik qatorlari misolida tahlil qilamiz.

علم **o'zakkdoshlik qatori:** *ilm – muallim – ta'lim – olim.*

Bu o'zakkdoshlik qatoridan faol qo'llanuvchi so'zlardan biri *ilmdir.*

*Ilm – o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot* [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008:195].

علم o'zakkdoshlik qatoridagi leksik birliklar o'zbek tiliga

o'zlashib, turli darajadagi semantik o'zgarishlar bilan qo'llanadi. Arabizmlar haqida so'z borganda manbalarda ikki xil ma'noning farqlanganini kuzatamiz. Bu farqlanish adabiyotshunoslikka doir terminlarda ko'p kuzatiladi. Masalan, matla' – lug'aviy ma'nosi "quyoshning chiqish joyi"; istilohiy ma'nosi "g'azalning birinchi bayti". Ishtiqoq – lug'aviy ma'nosi: "so'zdan so'zni ajratmoq"; istilohiy ma'nosi: "baytda o'zakdosh so'zlarni keltirish san'ati". Ko'rinib turibdiki, arabcha birliklarning istilohiy ma'nolari lug'aviy ma'nolaridan o'sib chiqqan, shu ma'no asosida shakllangan hamda mazkur ma'noga aloqador hisoblanadi.

Ta'limga oid arabizmlarni tahlil qilish jarayonida xuddi shunga o'xshash holatga duch keldik: arabizm o'zbek tiliga o'zlashgach, leksema semantikasida boshqa semalar shakllangan va bu semalar denotativ ma'no, lug'aviy ma'noga bevosita bog'liq. Shunga asoslanib, ayrim arabizmlar semantikasida o'zgarish yuz bergani, bu holat leksik birlikning faol qo'llanilishi va unga qo'shimcha ma'nolar yuklanishi bilan izohlanadi. Shu sababli o'zbek tilidagi arabizmlarni semantik jihatdan ikkiga ajratish mumkin: 1. Asl, lug'aviy ma'noda qo'llangan arabizmlar. 2. O'zbek tiliga o'zlashib, faol qo'llanish natijasida shakllangan hosila ma'nodagi arabizmlar. O'zbek tilidagi arabizmlarning, deyarli, barchasi semantik taraqqiyot natijasidagi hosila ma'nolarda qo'llanadi. "Arabcha so'zlar o'zbek tiliga ko'pincha aynan olinmay, ma'lum darajada o'zlashtirib, o'zbeklashtirib, ko'p hollarda o'zbek tilining tovushlariga moslashtirib olingan" [Rahmatullayev 2006:103].

"O'zlashmaning semantik moslashuvi o'zlashmaning o'zga tildagi maqomi va vazifasini belgilash uchun xizmat qiladi. Semantik moslashuv jarayonining bosqichlari "o'zlashma makoronizm – o'zlashmaning organik tarzdagi omonat mavqeyi – o'zlashma-o'zniki, o'zlashma-potensial va okkazional so'z" tartibidan iborat [Protchenko 1975: 82].

علم o'zakdoshlik qatoridagi ilm so'zining quyidagi semalari o'zbek tili doirasida shakllangan:

**1. "Soha" semasi** – ilm - ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. Yangi maktablar ochib, Qur'oni karim va boshqa darslar bilan birga jug'rofiya, tarix, hisob kabi ilmlarni ham ta'lim beraylik (Oybek).

**2. "Soha mazmuni"** – ilm ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. Islim barlos – sodda, dilovar, ov va qush ilmining piri (Oybek, Navoiy).

علم (ilm) o'zakdoshlik qatoridagi leksemalar faolligi o'zbek

tili doirasidagi so'z yasash jarayonida ishtirok etishi bilan belgilanadi. "Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga morfologik jihatdan moslashishi ikki holatda: a) arabcha so'zlar negizida o'zbek tilida yangi so'zlar hosil qilinishida; b) arabcha so'zlarning o'zbek tilidan grammatik forma yasovchi qo'shimchalarni qabul qila olishida yorqin ko'rinadi" [Begmatov 1985: 170].

Ilm leksemasi *ilmli*, *ilmsiz* leksemalariga asos bo'lgan.

Mumtoz madaniyatimizda ilm so'zi orqali hosil qilingan bir qator izofalar faol qo'llangan: *ilmi badi'*, *ilmi sano'ye'*. Masalan, *ilmi g'ayb* (s.t. *ilmi g'oyib*) Yashirin, sirli narsalarni bilish ilmi [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008:195].

Mazkur o'zakdoshlik qatoridagi ta'lim so'zining qo'llanish chastotasi ham yuqori. **Ta'lim** [a. - o'rgatish, o'qitish, ilm berish; ma'lumot] – Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim leksik birligi *ta'lim tizimi*, *ta'lim jarayoni*, *ta'lim subyekti*, *ta'lim muassasasi* kabi bir qator birikmalar tarkibida faol qo'llanmoqda.

**Ta'lim leksemasi semantikasida quyidagi semalar shakllangan.**

**1. "Sohaga oid bilim":** ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. Boshlang'ich ta'lim. Oliy ta'lim.

**2. "Savod, madaniyat" semasi:** tarbiya, odob-axloq.... yurish-turishi maktabda ta'lim ko'rgan kishini emas, balki chapani aravakashni eslatib turar edi. P. Tursun, "O'qituvchi".

**3. So'zlashuv tilida** "ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuv" ma'nosida qo'llanilib, "faoliyatga doir yo'nalish" semasini ifodalaydi: *Arzi xola Qutbi otinning haligiday ta'limidan gangib qoldi*. R. Azizxo'jayev, "To'lg'oq yemagan juvon" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 4. 2008:29].

**Ta'lim leksik birligidan ta'limiy, ta'limli, ta'limsiz birliklari yuzaga kelgan.**

**Ta'limiy** – "ta'limga oid, ta'lim beradigan; ta'lim-tarbiya ahamiyatiga ega bo'lgan": Pokistonga adabiy va ilmiy, ayniqsa, ma'limiy hikoyalar g'oyat zarurdir. Oybek, "Nur qidirib".

**Ta'limli** – "ta'lim ko'rgan, yaxshi tarbiyalangan, axloqli, odobli". Ta'limli bola.

**Ta'limsiz** – "ta'lim ko'rmagan, yaxshi tarbiya olmagan; odobsiz, tarbiyasiz" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 4. 2008:29].

Ta'lim leksemasi asosida shakllangan ta'lim-tarbiya juft so'zining qo'llanish darajasi ham yuqori.

Ta'lim-tarbiya –ta'lim va tarbiyaga oid ishlar; ta'lim va tarbiya; pedagogika. Ta'lim-tarbiya ishlari [O'zbek tilining izohli lug'ati. 4. 2008:29].

*Ta'limiy, ta'limli, ta'limsiz leksemalarining o'zbek tilida qo'llanish chastotasi past. Bu so'zlar ayrim hollarda so'zlashuv uslubida va badiiy matnlarda uchraydi.*

علم o'zakdoshlik qatoridagi **muallim** XX asr boshlarida kirib kelgan.

**Muallim** [a. - o'rgatuvchi, o'qituvchi; ustoz]. 1. Dars beruvchi kishi; o'qituvchi, pedagog. 2. Ta'lim beruvchi, birovga biror narsa o'rgatuvchi kishi; ustod, ustoz. Bunday xulosaga kelishimizga sabab muallim so'zining mumtoz manbalarda kuzatilmasligidir. Masalan, Alisher Navoiy ijodida "ta'lim beruvchi shaxs" ma'nosida *ustod/ustoz* ishlatilgan [Tojiboyeva M. 2011:9]. *Muallimning* XX asr boshlaridagi qo'llanilish darajasi ham yuqori bo'lmagan. Bu davrda nashr etilgan mashhur jurnalning "Maorif va o'qituvchi", deb nomlanishi muallim birligi o'qituvchi tub turkiy leksemaning o'rnini hali to'liq egallamaganidan dalolatdir.

*Muallimning* qo'llanilish chastotasi hozirda ham yuqori emas. So'z badiiy uslubga xoslanib qolgan. Bundan muallim leksemaning o'zbek adabiy tilida qo'llanish chastotasini "o'rta darajada", deb baholash mumkin.

Arab tilida jins kategoriyasi mavjud bo'lib, **muallima** shakli ayol jinsidagi pedagoglarni nomlash uchun o'zlashgan. **Muallim** va **mudarris** mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'nodosh leksemalar sifatida qaralsa-da, **muallimning** o'zbek tilida qo'llanish davri **mudarrisga** nisbatan ancha keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Bu holatni muallim leksik birligining mavhum faoliyatni bildiruvchi tushuncha bilan, mudarrisning unga nisbatan aniqroq faoliyat-jarayon tushunchasiga aloqadorligi bilan izohlash mumkin. Muallima shaxs otining o'zlashishi va o'zbek tilida qo'llanish vaqti muallim birligidan ham keyingi davrlarga to'g'ri keladi. **Muallima** – muallim ayol. Bu so'z xotin-qizlarning maorif sohasiga kirib kelish davrlari bilan bog'liqdir. *Otin buvi deyishga tili bormaydi. Muallima desa-chi?* M. Ismoilov, "Farg'ona tong otguncha" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 3. 2008: 623]. Keltirilgan misolda muallima so'zidagi "ayol jinsiga mansublik", "ilmli", "ta'lim beruvchi" semalari aks etgan. Muallima so'zida **otin buviga** qaraganda quyiroq darajadagi mavqega ega bo'lgan shaxs nazarda tutilayotgani ma'lum bo'ladi.

**Olim** – "bilimli, ilmli, dono; ma'lumotli". Fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi [O'zbek tilining izohli

**Olim** leksemasi quyidagi so'zlarga yasalish asosi sifatida xizmat qilgan:

**Olimlarcha** – “olimlarga xos”: Olimlarcha aytilgan gap.

**Olimlik** – olimga xos xususiyat, xatti-harakat.

**Olimnamo** – “olimga o'xshagan, olim ko'rinishidagi”.

**Olimona** – “Olimlar kabi, olimlarga xos bir yo'sinda, olimlarcha” [O'zbek tilining izohli lug'ati. 4. 2008: 28]

**Ta'limot a.** – «ta'lim” so'zining ko'plik shakli: ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar, farmoyishlar. Fan sohalari, ijtimoiy hayot, jamiyat va sh.k. haqidagi ilmiy qarashlar, nazariy xulosalar majmui; nazariya [O'zbek tilining izohli lug'ati. 4. 2008:28]

علم o'zakkoshlik qatoridagi 4ta leksema o'zbek tilidagi so'z yasalish jarayonida ishtirok etgan.

| Ilm    | Ta'lim    | Muallim    | Olim       | Ta'limot |
|--------|-----------|------------|------------|----------|
| ilimli | ta'limiy  | muallimlik | olimlik    |          |
| ilmsiz | ta'limli  |            | olimlarcha |          |
|        | ta'limsiz |            | olimnamo   |          |
|        |           |            | olimona    |          |

*Ilm va ta'lim so'zlari o'zbek tilida faol qo'llanilib, turli so'zlar bilan birikma hosil qilishi va faol qo'llanishi natijasida semantik jihatdan taraqqiy qilgan.*

کتاب (ktb) o'zakkoshlik qatori: kitob–maktab–maktub–kutubxona–kotib.

**Maktab** – “o'qish joyi; yozuv stoli; bo'lim, idora”. 1. O'qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o'rgatib, uni ma'lumotli qiluvchi ta'lim-tarbiya muassasasi. Boshlang'ich maktab [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008: 533].

Maktab leksemasi o'zbek tilida faol qo'llanilib, lug'aviy ma'nodan farqli ravishda, ammo unga bog'liq bo'lgan bir qator voqelikni ifoda etadi. Masalan, oliy maktab birikmasi “institut”, “universitet” mazmuniga teng semantikani ifoda etadi. “Oliy o'quv yurtlarining umumiy nomi”. Aslida hokim va tobelik asosida shakllangan mazkur birikmani tasviriy ifoda ko'rinishidagi lug'aviy birlik sifatida baholash mumkin. Oliy maktab tasviriy ifodasi arabizmlar ishtirokidagi birikmaning muntazam qo'llanishi, tinglovchi ongida aniq o'rin joy otiga ishora qilishi natijasida yaxlit semantika shakllanish holatiga bir misoldir.

Maktab leksemasida “saboq, ibrat, ta'lim olish joyi”, “bilim olish maskani”, “o'quv va yozuv qurollari mujassamligidagi bino”,

“ziyo maskani”, “bir xil yoshdagi va saviyadagi shaxslar to‘planadigan joy”, “savod chiqarish maskani” semalari mavjud bo‘lib, oliy maktab tasviriy ifodasida “yuqori darajadagi bilimni o‘rganish maskani” semasi namoyon bo‘ladi.

**Maktab** – “kasb, hunar, ixtisos o‘rganiladigan o‘quv yurti”. Musiqa maktabi. Shofokorlar maktabi. Hunar maktabi. Bunda “hunar egallash” semasi asosiydir.

Maktab “ilm-fan, san’at, adabiyot, ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasida biror oqim, yo‘nalish” ma’nosida qo‘llanadi. Bunda so‘zning “ma’lum yo‘nalish, sohadagi bilimlarni egallash va keng yoyish, targ‘ib qilish” nazarda tutiladi: Maktab yaratmoq. Maktab yaratgan olim.

Hozirgi vaqtda tashkil etilgan Prezident maktabi, ijod maktablari, masalan, Abdulla Qodiriy, Ibrat, Erkin Vohidov ijod maktablari deb nomlashda maktab leksemasining lug‘aviy ma’nosi bilan “ma’lum yo‘nalish, sohadagi bilimlarni egallash va keng yoyish, targ‘ib qilish” semalari uyg‘unlashib ketgan. Demak, bu semantik taraqqiyotni maktab arabizmining o‘zbek tilida shakllangan yangi semalari sifatida qarash mumkin.

Maktab “o‘rganish, tajriba orttirish, o‘rnak olish manbai” sifatida ham qo‘llaniladi. Hayot zo‘r maktab ekan, haqiqiy fikrlar vujudga kelayotir. Oybek, Nur qidirib [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2. 2008: 533].

Maktab leksemasi maktabdor, maktabdorlik, maktabdosh leksemalari shakllanishida ham ishtirok etgan.

**Maktabdor** – XX asr boshlarida xususiy maktabi bo‘lgan muallim.

**Maktabdorlik** – xususiy maktab ochib, bola o‘qitish. Solih mahdum o‘ttiz yoshlarga borganda, maktabdorligi ham yaxshigina shuhrat topadi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2. 2008: 533].

*Maktabdorlik* – maktab+dor+lik qolipida yuzaga kelgan. Tadqiqotlarda maktabdorlik tipidagi so‘zlar bevosita so‘z yasaliş tizimiga kiritilgan. Bunda -dor affiksining genetik jihatdan forsoj tojik tiliga aloqadorligi ta’kidlanadi. “Arabcha lug‘aviy o‘zlashmalar o‘zbek tili so‘z yasaliş jarayonida bevosita ishtirok etganda, motivlovchi asos (MA) maqomidagi asosning o‘zi yasama leksemalik xarakteriga ega bo‘lib, uning yasaliş qolipi o‘zbek tiliga emas, boshqa tilga xos bo‘ladi. Bizning faktik materiallarimiz nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘zbek tili so‘z yasalişida bevosita maqom bilan qatnashadigan arab lug‘aviy o‘zlashmalari tojik tilida yasalgan

yasalmalar tarkibida keladi. Masalan, *maktabdorlik*, *mansabdorlik*, *zamonasozlik*, *bexabarlik*, *barkamollik*, *dabdababozlik* va h.k.” [Xasanova 2011: 10]. Ba’zi adabiyotlarda arabcha so’zlarning fors-tojik tili orqali o’zlashgani qayd etilgan: “Ko’pchilik arabcha leksemalarning o’zbek tiliga o’zlashuvida fors tilining o’rni katta. Asli bunday leksemalar oldin fors tiliga o’zlashgan, keyingina o’zbek tiliga o’zlashtirilgan. Bunday yo’l bilan o’zlashgan leksemalar, asosan, kundalik turmushda uchraydigan narsa va hodisalarning nomlariga to’g’ri keladi” [Rahmatullayev 2006: 103].

Bizningcha, maktabdorlik leksemasining tarkibi **asos+so’z yasovchi+so’z** yasovchi qolipida bo’lib, o’zbek tili doirasidagi bevosita so’z yasaliş usuliga kiradi. –dor va boshqa bir qator forsha-tojikcha qo’shimchalar leksemalar tarkibida o’zbek tiliga o’zlashib, so’z yasaliş jarayonida ishtirok etib keladi. Maktabdorlik leksemasini o’zbek tilining ichki imkoniyati asosida hosil qilingan lug’aviy birlik sifatida baholash mumkin.

**Maktabdosh** – bir maktabda birga o’qigan yoki o’qiyotgan bolalar (bir-biriga nisbatan). *Salimxonning xayoli shu lahzada maktabdosh oshnasi Po’latxon Sodiqovga ketdi*. Mirmuhsin, Umid.

**Maktabxona** so’zlashuv uslubida “maktab o’rnashgan joy, bino”.

**Maktabshunoslik** Pedagogika fanining maktab ishlarini boshqariş asoslari, yo’l, shakl, vosita, usul va metodlarini o’rganish bilan shug’ullanuvchi maxsus sohasi [O’zbek tilining izohli lug’ati. 2. 2008: 533].

**Maktab** asosidan yasalgan *maktabdor*, *maktabdorlik*, *maktabxona*, *maktabshunoslik* so’zlari tarixiylik bo’yog’iga ega, XX asr boshlarida faol qo’llangan, hozirda iste’moldan chiqqan. Maktabdor leksemasi “maktab tashkil etuvchi shaxs” tushunchasini ifodalagan. So’zning yasalişii ijtimoiy-siyosiy hayotda maktablarning ayrim shaxslar tomonidan tashkil etilişii bilan izohlanadi. Keyinchalik, maktablarning davlat tasarrufiga olinişi maktabdor, maktabdorlik so’zlarining iste’moldan chiqişiiga asosiy sabab bo’lgan.

O’zbek tilida faol qo’llanadigan *hayot maktabi*, *ro’zg’or maktabi* birikmalari mazmuniga “saboq, ibrat” semalari asos bo’lgan.

**Maktub** – 1. “Kimsaga, biror kishiiga yozib yuborilgan xat, noma”. Maktub yubormoq. Maktub yozmoq. 2. Yozma ravishda bayon qilingan murojaat; murojaatnoma. 3. Murojaat tarzida yozilgan badiiy asar [O’zbek tilining izohli lug’ati. 2. 2008:533].

**Maktubning** alohida janr sifatida shakllanishida “so’zlovchiniing tinglovchiiga murojaati, voqeani bayon qilish, so’rash,

*da'vat etish tartibi" semalari asosiy o'rin tutadi.*

**Maktub** so'zi o'zbek tilida yasalish asosi sifatida uchramaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan maktublashmoq so'zi ijodkorning okkazional yondashuvi bilan bog'liq bo'lib, keng nutqiy doirada ishlatilmaydi: maktublashmoq – "bir-biri bilan xat (maktub) yozishmoq, yozishib turmoq". Ko'plarini taniydi, ko'plari bilan maktublashgan. Oybek, Navoiy [O'zbek tilining izohli lug'ati. 3. 2008:333].

درس **o'zakdoshlik qatori: dars-madrasa-mudarris.**

**Dars** – ta'lim muassasalarida ilm, ma'lumot berish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, saboq. Dars olmoq. Dars bermoq.

Dars leksemasida "ibrat", "saboq", "ma'ruza", "mashg'ulot" semalari mavjud. Mazkur leksemaning o'zbek tilida qo'llanilishi natijasida "hayotiy tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq" mazmunidagi ko'chma ma'no shakllangan: Bu unga yaxshi dars bo'ldi. Shaytonga dars beradi.

**Madrasa** – "maktab, o'quv yurti; fandagi yo'nalish". Ushbu leksema o'zbek tilining eskirgan qatlamiga oid, tarixiy so'z hisoblangan: "Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, shuningdek, chor Rossiyasining ko'pchilik musulmonlar yashaydigan hududlarida diniy oliy o'quv yurti. Nodira Anvarni o'qitmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi. A. Qodiriy, "Mehrobdan chayon" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008:522]. Bu so'z XX asrning 30-90 yillarida, deyarli, ishlatilmagan. Tarixiy manbalarda, badiiy asarlarda uchragan. Mustaqillik yillarida, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan bir qator eski qatlam so'zlari, jumladan, madrasa, vazir, kotib, viloyat kabi arabizmlar qayta iste'molga kiritildi. Bu jarayon ilmiy adabiyotlarda "tirilgan so'zlar" atamasi bilan yuritildi. Madrasa bugungi kunda zamonaviy qatlamga oid birlik hisoblanadi: "O'zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi diniy maktab" ma'nosida qo'llanadi [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008:627].

**Mudarris** – o'qituvchi, muallim. Madrasada dars beruvchi kishi, madrasa o'qituvchisi. Katta amakisi Buxoroning "Xo'ja Porso" madrasasining mudarrisi bo'lib, Abdurahmon shu kishining tarbiyasiga kelgan edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008:522]. Bu so'z bugungi kunda eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan leksik birlikdir. Tarixiy-badiiy asarlarda, arxiv hujjatlarida uchraydi.

**Xulosa.** Ta'lim jarayoniga oid o'zakdoshlik qatorlarining leksik-semantik tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelish

mumkin:

1. Arabcha o'zlashmalarning o'ziga xosligi konsonantizmga asoslangan o'zakdoshlik qatorlarida namoyon bo'ladi.

2. O'zakdoshlik qatorlarining har bir elementi qo'llanish davri, uslubiy bo'yoqdorligi, semantik doirasi bilan farqlanadi.

3. O'zakdoshlik qatorlari o'zbek tilida so'z yasaliş jarayonida ishtirok etish darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Ayrim arabizmlar ikkitadan beshtagacha leksemaning shakllanishi uchun asos bo'lgani holda, ba'zi arabcha birliklar so'z yasaliş jarayonida ishtirok etmaydi.

4. O'zakdoshlik qatorlari semantik taraqqiyot, ma'no ko'chishi nuqtayi nazariga ko'ra farqlanadi. Arabizmlar konnotativ ma'nolarda qo'llanadi. Konnotatsiya leksemaning semantik taraqqiyoti natijasida sodir bo'ladi, semema semalaridan ma'lum biri dastlabki planga chiqadi. Yangi ma'no hosil bo'ladi.

5. Ta'lim tizimiga oid arabizmlar semantikasidagi o'zgarishlar tashqi va ichki omillar bilan belgilanadi. Semantik o'zgarishlar ma'no kengayishi, torayishi, yangi semaning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ta'lim jarayoniga oid arabizmlar tahlili o'zbek tiliga arab tilining ta'siri, tillararo munosabat, arabizmlarning o'zlashish omillari, arabcha leksik birliklarning semantik taraqqiyoti, yangicha ma'nolarda qo'llanishi haqida asosli xulosalar beradi.

### **Tavsiyalar.**

1. Arabizmlar tadqiqida leksemlarning semantik tahlili alohida ahamiyatga ega. So'zning bir ma'noli yoki ko'p ma'noli ekanligi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisalari o'zlashma so'zlar tabiatini yoritishda, o'z qatlam so'zlari semantikasiga munosabatini talqin qilishda ahamiyatlidir.

2. O'zakdosh arabizmlar qatori tarkibining semantik imkoniyatlari, so'z yasalişidagi ishtiroki, qo'llanish doirasi va chastotasi haqidagi ma'lumotlar alohida o'rganilishi va umumlashtirilishi lozim.

3. Arabizmlarning semantik tahlilida semalarni ajratish, yangi semalar shakllanishiga e'tibor berish, semantik o'zgarishlarni tahlil qilish o'zbek tili leksik taraqqiyoti qonuniyatlarini yoritishga, o'zlashma so'zlarning qo'llanish xususiyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

Begmatov E. 1985. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan.

- Jamolkhonov. 2005.-Hozirgi o'zbek tili. –Toshkent.
- Protchenko F. 1975. Leksika i slovoobrazovaniya v Sovetskoy epoxe. – Moskva.
- Rahmatullayev Sh. 2006. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent.
- Tojiboyeva M. 2011. Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarning leksik-semantik talqini.Filol.fan.nom.diss. avtoreferati. – Toshkent.
- O'zbek tilining izohli lug'ati.2. 2008. – Toshkent.
- Hasanova D. 2011. Arabcha o'zlashmalarning o'zbek tili nominativ va derivativ tizimidagi o'rni. Filol.fan.nom...diss. avtoreferati. – Toshkent.

## Some cognate arabic words related to education and their lexical-semantic features

Nargiza Rashidova<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes some Arabisms related to the field of education, adopted from the Arabic language. The reasons and principles of their adoption are also studied. As is known, the Arabic language was associated with the widespread spread of Islam in Central Asia. In the lexical layer of the Uzbek language, many words are precisely words related to science and religion. Their meanings have always expressed their original adopted meanings. As a result of the expansion and narrowing of meaning, they have undergone lexical and semantic changes. Morphological changes were observed with the addition of various additions to the Arabic core. As a result, new words were formed in the Uzbek language. The development of the analyzed Arabisms and their use in new meanings is of great importance.

**Key words:** *cognate words, lexical and semantic analysis, consonant language, adoptions, field of education, narrowing, expansion, lexical fund.*

### References

- Begmatov E. 1985. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan.
- Jamolkhonov. 2005. Hozirgi o'zbek tili. –Toshkent.

---

<sup>1</sup> Nargiza B.Rashidova – PhD, docent. Alisher Navoi' Tashkent State University of Uzbek language and literature.

**E-mail:** rashidova@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-5390-8173

**For citation:** Rashidova, N.B. 2025. "Some cognate arabic words related to education and their lexical-semantic features". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 159-171.

Protchenko F. 1975. Leksika i slovoobrazovaniya v Sovetskoy epoxe. – Moskva.

Rahmatullaev Sh. 2006. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent.

Tojiboeva M. 2011. Alisher Navoiyning "Ilk devon" idagi arabcha so'zlarning leksik-semantik talqini. Filol.fan.nom.diss. avtoreferati. – Toshkent.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. 2008. – Toshkent.

Hasanova D. 2011. Arabcha o'zlashmalarning o'zbek tili nominativ va derivativ tizimidagi o'rni. Filol.fan.nom...diss. avtoreferati. – Toshkent.

## Turk va o'zbek tillarida fitomorf birliklar orqali inson obrazining ifodalanishi

Zebo Salimova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu ilmiy maqolada turk tilidagi fitonimik birliklar, asosan, meva nomlari orqali inson obrazini ifodalashdagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Fitonimik lug'at orqali shaxsni obrazli ifoda etish muammosi tilshunoslikda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning lingvistik qiymati sababi insonni o'zini o'rab turgan tirik tabiat sharoitida o'zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Ushbu jarayon fitosferani antropotsentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda ta'minlanib, keng tarqalmoqda. Bir tomondan, u so'z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomondan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi. Bu darajalarning eng ahamiyatlisi – matn darajasi ham chetda qolmaydi.

Turk tilida inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda fitonim nomlari, ularning qo'llanilish darajasi va tilning so'z boyligiga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** *til, inson qiyofasi, obraz, portret, fitomorf birliklar, ijobiy, salbiy, tashqi ko'rinish, o'xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, ma'no ko'chishi.*

### Kirish

Flora nomlari har qanday til lug'at tarkibining ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan unda xalq madaniyati, uning urf-odatlar, ramzlari, afsona va diniy qarashlari aks etadi. Shu bois xalqning hayotini o'simliklar dunyosiz, tilini fitonimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki inson o'simliklarni nomlash, uni bilish orqali odam o'zining dunyo tasvirini yaratadi.

O'simlik nomlari fitonimikada o'zining o'rganish obyekti va predmetiga ega. O'simlik nomlari fitonimlar, ularning majmuyi fitonimiya deb yuritiladi.

---

<sup>1</sup> Zebo R. Salimova – Doctor of Philology (PhD) Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Turkshunoslik” oliy maktabi katta o'qituvchisi.

E-pochta: zebosalimova1990@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-9977-3948

Iqtibos uchun: Salimova, Z.R. 2025. “Turk va o'zbek tillarida fitomorf birliklar orqali inson obrazining ifodalanishi”. *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 172-179.

Fitonimik lug'at orqali tushunchani obrazli nominatsiya qilish masalasi tilshunoslikda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning lingvistik mohiyatida insonning o'zini o'rab turgan tirik tabiiy sharoitda o'zini anglashi yotadi. Ushbu jarayon fitosferani antropotsentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda uyg'un kechadi. Bir tomondan, u lug'at tarkibining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, ikkinchidan, turli darajadagi til qatlamlariga kirib boradi.

**Madsad va vazifa.** Mazkur maqolada fitonim nomlari bilan bog'liq ismlarning turk tili olamlisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash maqsadida turk tilidagi fitomorf komparativ birliklarning qo'llanilishini tahlil qilish vazifasi qo'yilgan.

**Usullar.** Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Asosiy qism.** Yer kurrasining deyarli hamma qismida uchraydigan o'simliklarning tabiat va inson hayotidagi roli beqiyosdir. O'simliklar dunyosi uning inson hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, madaniy hayot uchun alohida ahamiyatga ega. Bu esa tilshunoslikda o'simliklarni leksik-semantik va lingvistik-madaniy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Inson yaratilgandan beri o'simliklar bilan aloqada bo'lgan. Ular gohida o'simliklardan oziq-ovqat sifatida, gohida esa o'z dardini davolash uchun dori sifatida foydalanishgan. Ikkala asosiy ehtiyojni ham qondiradigan o'simliklar vaqt o'tishi bilan qondirish ehtiyojlariga qarab yoki shakli o'xshashligi natijasida turli nomlar ola boshladi. Bu jarayon insonning vaqt o'tishi bilan boyib borayotgan so'z boyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. [Yasemin 2020: 98]. Inson hayoti flora dunyosiga katta e'tibor qaratadi. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she'riy, ilmiy) ko'rib chiqish davom etmoqda. O'simliklar ko'p jihatdan tekshiriladi va bu tekshiruvlarga muvofiq ravishda nomlar berila boshlandi. Hozirda barcha o'simliklarni o'z nomlari mavjud. O'simliklarga nom berila boshlagandan keyin ularning nomlaridan insonlar o'zlari uchun ism tariqasida ham foydalana boshlashdi. Shuningdek, nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlarning roli ko'paydi.

Tirik tabiat obyektlari birliklari bilan shaxsni tavsiflashning muhim tomoni shundaki, inson uchun zarur bo'lgan fazilatlar muhim bo'lgan xususiyatlar va uning shaxsiyatini ochib beradigan xususiyatlar o'rtasida aniq chiziqli chizish deyarli mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan, odamning tashqi va ichki ko'rinishini tushunishda, inson tafakkurining bir til darajasidan ikkinchisiga harakatlanishiga e'tibor qaratib, tarkibiy jihatdan murakkab "shaxs" tushunchasini

tahlil obyekti qilib olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayon ma'lum bir til imkoniyatlariga bo'ysungan holda, uni ko'p darajali talqin qilishning bitta murakkab tizimini keltirib chiqaradi.

N.Pazliddinova o'zining "O'zbek tili fitonimlarining leksik-semantik xususiyatlari" nomli tadqiqotida hosilni odam va uning tana a'zolariga o'xshatish asosida yuzaga kelgan fitonimlar: "Kelinbarmoq"// "Kelinbarmoq husayni", "Kulja", "Malikaning kipriklari" (uzum navlari), "Qariqiz" (qovun navi) kabilar, odamlarga xos belgi-xususiyatlarga nisbat berish asosida hosil qilingan fitonimlar, xususan, *Juvonmarg handalak* (handalak navi), "A'lochi" (behi navi), "Go'zal" (bug'doy, olcha, kungaboqar, olma navlari) kabilar haqida to'xtalib o'tgan. [Пазлитдинова 2018: 15]

Dunyo tillarida inson tashqi ko'rinishini ifodalashda meva nomlari ham faol ishtirok etadi. Mevalar bilan bog'liq qiyoslar har bir xalqning yashash tarzidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Turk xalqida *nok, zaytun, xurmo, tog' pista, qovun, anor* kabi mevalar inson tashqi qiyofasini aks ettirishda keng qo'llansa, o'zbek millati uchun esa *olma, jiyda, yong'oq, bodom, tarvuz* kabilar ahamiyatlidir.

Turk lingvomadaniyatida *armut//nok* (murut) so'zi inson tabiatini aks ettirishda eng keng qo'llanadi. Xususan, "armut gibi" o'xshatishli birikmasi yordamida "gap tushunmaydigan, anqov kishi"ga nisbatan ishlatiladi. *Armut gibi ne demek? Çok anlayışsız, bön.* [www.nedirnedemek.com/armut-gibi-ne-demek]. Armut mevasi yordamida, ko'pincha, salbiy xarakterli kishilar obrazi yaratiladi. Dangasa, biror ish qilmasdan foyda kutadigan, rizqni osmondan tushadi deb o'tiradigan odamlarga nisbatan turk olam lisoniy manzarasida "*armut piş, ağzıma düş*" iborasi ham ishlatiladi. Bu o'zbek lingvomadaniyatidagi "olma pish og'zinga tush" iborasining aynan o'zidir. Bu esa turklar tafakurida *armut//nok* (murut) bilan bir xil ma'no kasb etuvchi hech bir mehnat sarflamasdan bir nima kutadigan odamlarga nisbatan ishlatiluvchi tekinxo'r obrazini ifodalashini ta'kidlash joizdir.

O'zbek va turk tillarida meva nomlarining o'shatish etaloni sifatida qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Bunday o'xshatish etalonlariga "gilos", "olma", "yong'oq" kabi meva nomlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Turk tilida "ayva göbekli" metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva- bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo'llanadi.

Har ikki tilda *kiraz // gilos* fitonimi keng tarqalgan. Uning yordamida qip-qizil lablar gilosga qiyoslangan. Masalan, *kiraz*

*dudakli//gilos dudoqli, ya'ni lablari gilosday qiyosi orqali lablari qizil va qalin bo'lgan ayollar ta'rifi uchun qo'llangan. Dildor gilosday qizil, chiroyli lablariga yoyilgan tabassum bilan boshini silkidi. Oltinrang sochlari yelkalari uzra sochilib ketgan, qayrilma kiprikli ko'zlarini ochib-yumganda gilosday qizil lablari o'z-o'zidan jilmayib qo'yadigan qo'g'irchoqqa, ochig'i, hammamizning havasimiz keldi.* [Махмудов, Худойберганова 2013: 56.] O'zbek xalq lingvomadaniyatida, shuningdek, "*labing gilosga o'xshar, ko'zing charosga o'xshar*" deb aytiluvchi qo'shiq misralari bor. Bu yerda lab gilosga o'xshatilish asnosida ko'z *charosga*, ya'ni uzumning qora rangli naviga qiyoslanmoqda. Turklarda esa qorachadan kelgan odam ta'rifida *üzüm gibi* o'xshatishi qo'llanadi va bunda qora rangli uzum ma'nosi faollashtirilgan. Shuningdek, *'çöpsüz üzüm' yakın akrabalari hayatta olmayan kişi, üzüntü verici bir şeymiş gibi dursa da özellikle zengin koca arayan hanımlar için çift katlı ekmek kadayfı durumudur.* Cho'psiz uzum birikmasi hech kimi yo'q yolg'iz ayolni ifoda etadi. [www.hurriyet.com.] *Üzüm gibi* turklarda qorachadan kelgan ma'nosida keluvchi bu metafora turk tilida asosan qorachadan kelgan qariya kishini bildirsa, o'zbek tilida bu ko'rinish uzumning quritilgani - *mayizday* ifodasi yordamida beriladi.

*Elma//olma* har ikki til egalari tafakkurida deyari bir xil komparativ ma'noda keladi. Masalan, *elma yanakli//olma yuzli* "yuzlari qip-qizil olmaga o'xshagan kishilar"ga nisbatan turk tilida ham o'zbek tilida ham ishlatiladi. O'zbek folkloridan joy olgan "Yor-yor"larda ham, aytishuvlarda ham qizlarning yuzini olmaga o'xshatish keng tarqalgan. Ayniqsa, "*Eronning olmasidek qip-qizil yuzlari*" o'xshatishli birikmasi xalq orasida mashhur.

Turklarda ko'proq ayollarning go'zalligi anor mevaiga o'xshatiladi: "Nar çiçeği" nomli she'rlari ham bor.

Canım kurban yoluna

Takıver yar koluna

Nar Çiçeğim, Yar Çiçeğim. [onedio.com]

O'zbek tilida "anordek yuzi" birikmasi ham mavjud bo'lib, bu bilan sog'lom insonlarning yal-yal yonib turgan yuzlari gavdalantiriladi. Qip-qizil, qon rangida; qizarmoq, qizil tusini olmoq kabi o'xshatishlarda *anorday* etalonidan foydalaniladi. Miryusuf Xilvatiy banoras to'ning keng etaklari orasida oyoqlari chalishib, o'rnidan turdi, qo'ltig'idan ipak matoga o'ralgan bir kitobchani olib ochdi va anorday qip-qizil, yum-yumaloq yuzi ilhomdan lov-lov yonib, ovozi hayajondan titrab, o'qiy ketdi. [Yoqubov, "Ulug'bek xazinasi"]

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o'rin tutadi. Zaytun qora bo'lishi bilan birga, ham foydali ham mazali bo'lgani uchun *zeytin gibi* o'xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta'riflashda ishlatiladi. Shuningdek, quruq meva nomlari har ikki xalq lingvomadaniyatida keng foydalaniladigan inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar hisoblanadi. Fistik yong'og'i kishilar orasida sevgilisini yoxud yosh bolani erkalab chaqirishda *fistigim* shaklida qo'llanadi, shirinligiga qiyoslanadi. Xalq orasida *çekirdekten yetişme* iborasi ham keng tarqalgan bo'lib, tug'ma iste'dodli insonga ko'ra nisbatlanadi. Bu fitonim çekirdek-pista bo'lib, turk xalqi yashash tarzida ajralmas o'ringa egadir.

Umuman olganda, meva nomlari orqali shaxsning u yoki bu xususiyatini tasvirlash yaratish til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko'rsatib beradi, ta'sirchanlikni oshiradi hamda tinglovchiga shaxs haqida aniq taassurot qoldiradi va idrok qilinishini osonlashtiradi.

Insonni xarakterlash uchun meva nomlaridan foydalanish jarayoni qadimiy hisoblanadi. Inson mavjud bo'lgan paytdan boshlab tabiat bilan chambarchas birlikda yashab, atrofdagi daraxt va o'simliklarga turli xil munosabatda bo'lgan. Tabiat va inson uyg'unligi dunyoning barcha lisoniy manzaralarida universaldir.

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog'liq fitonimlar tahlili shuni ko'rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko'proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa asosan, daraxtning kesilgan tanasi, o'tin yoki to'nka bilan bog'liq birliklar orqali ifodalanadi.

Ushbu turdagi qiyosiy tadqiqotlar taqqoslangan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini, shuningdek, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilarning milliy mentaliteti va dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, fitonimik nominatsiyalar o'zbek va turk tillarida insonning ichki dunyosi va tashqi ko'rinishini belgilashda keng qo'llanadi va ba'zi hollarda insonning har qanday xususiyatlariga (tashqi qiyofasi, aqliy qobiliyatlari, ichki hissiy holati, Yoshi, kasbi, ijtimoiy holati) o'ziga xos standart bo'lib xizmat qiladi.

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog'liq fitonimlar tahlili shuni ko'rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko'proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, uning tashqi ko'rinishi manzarali daraxt nomlariga qiyoslanadi. Insonning ijobiy yoki salbiy xarakterlari esa shirin va achchiq meva nomlari

yordamida ham aks ettiriladi.

**Xulosa.** Botanik nomlar, ayniqsa, meva nomlari bilan bog'liq ismlar insonga tabiiylik va go'zallik qo'shadi. Botanika nomlari nafaqat noyob va abadiydir, balki ular atrof-muhit bilan aloqani aks ettiradi va tabiatga muhabbatni uyg'otadi. Atirgul va yasemin kabi klassik variantlardan tortib, noodatiy nomlarga qadar har qanday afzallik va uslubga mos keladigan botanika nomi mavjud. Inson shaxsiyatiga botanika nomini qo'shish tabiiy dunyoni hurmat qilish va dunyoga hayrat va minnatdorchilik tuyg'usini uyg'otishning bir usuli hisoblanadi. Meva nomlari orqali inson obrazini ifodalash til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ismlarni ko'rib chiqayotganda, an'anaviy variantlardan tashqari mavjud botanika nomlarining keng doirasini o'rganish kerak bo'ladi. Buni o'zbek tilida ham turk tilida ham tatbiq qilish esa ikki til doirasida so'z boyligining kengayishiga zamin yaratadi.

Mevaning madaniyatda talqin qilinishi esa insonlar orasidagi mazmunli munosabatlarni namoyish etadi. Bu timsol sevgi, do'stlik, hurmat va barqarorlik kabi xos xususiyatlarni ifodalaydi. Bunday muhim timsoldan kelib chiqadigan madaniyatlar insonlarning bir-birlari bilan munosabatlari va odamlarga qarshi adabiyotini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

- Bozorov H. 2022. Some remarks on phytonyms in uzbek folk-tales. Article. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) journal, Termiz.
- Kabak T. 2021. Toplumsal Ekoloji Bağlamında Türklerin Doğa ile ilişkilerine Genel Bir Bakış: Mandıra Filozofu Filminin Düyündürdükleri. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi.
- Sariyev B. 2017. Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü, Berdi Sariyev - Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz. Emrah Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) Ankara: Akçağ Yay.
- Yasemin Y. 2020. Türkçe bitki adlarının anlam bilimi açısından incelenmesi. doktora tezi. t.c. Sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü
- Yıldız Y. 2021. Bitkilerin adlandırılmasında benzetmenin rolü. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi,
- Umarbekov O'. 2007. "Odam bo'lish qiyin" roman. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent.

### **Internet saytlar**

- [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
- <https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/>
- <https://m.sabah.com.tr>
- <https://lotusmagus.com>
- <https://astroneergo.ru>
- <https://scholarexpress.net>

# Expression of human image through phytomorphic units in Turkish and Uzbekistan

Zebo Salimova<sup>1</sup>

## Abstract

This scientific article is about the significance of phytonymic units in Turkish, mainly fruit names, in expressing the human image. The problem of figurative nomination of a person through the phytonymic dictionary has not lost its importance in linguistics. The reason for its linguistic value lies in the continuous process of self-awareness of a person in the living nature that surrounds him. This process is constantly supported by new forms of anthropocentric interpretation of the phytosphere and is spreading widely. On the one hand, it covers all new layers of vocabulary, on the other hand, it penetrates to different levels of language. The most powerful of these levels is the text level.

Phytonym names, the level of their use and the vocabulary of the language are paid attention to when reflecting the image of a person in the Turkish language and revealing their characters.

## Keywords

Language, human image, image, portrait, positive, negative, appearance, simile, image, alternative, equivalent, transfer of meaning.

## References

- Bozorov H. 2022. Some remarks on phytonyms in uzbek folk-tales. Article. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) journal, Termiz
- Kabak T. 2018. Toplumsal Ekoloji Bağlamında Türklerin Doğa ile ilişkilerine Genel Bir Bakış: Mandıra Filozofu Filminin Dünyendürdükleri. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi.
- Sariyev B. 2017. Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü, Berdi Sariyev - Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz. Emrah

<sup>1</sup> Salimova R. Zebo – Doctor of Philosophy (PhD), Tashkent State University of Oriental Studies, Senior lecturer at the Higher School of Turkic Studies.

**E-mail:** zebosalimova1990@gmail.com

**Orcid ID:** 0009-0001-9977-3948

**For citation:** Salimova, Z.R. 2025. "Expression of human image through phytomorphic units in Turkish and Uzbekistan". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 172-179.

Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) Ankara: Akçağ Yay.

Yasemin Y. 2020. Türkçe bitki adlarının anlam bilimi açısından incelenmesi. doktora tezi. t.c. Sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü

Yıldız Y. 2021. Bitkilerin adlandırılmasında benzetmenin rolü. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi.

Umarbekov O'. 2007. "Odam bo'lish qiyin" roman. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent.

**Internet sites**

[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

<https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/>

<https://m.sabah.com.tr>

<https://lotusmagus.com>

<https://astroneergo.ru>

<https://scholarexpress.net>

<https://lyricstranslate.com>

## Arab tilida fe'l so'z turkumi Sibavayh va Zamaxshariy talqinida

Dilafroz Otaxonova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada Sibavayh va Zamaxshariyning arab tilida fe'l so'z turkumi haqidagi ilmiy qarashlari yoritib beriladi. Bunda arab tili grammatikasining rivojlanish bosqichi, VIII asrdan boshlab XIV asrgacha bo'lgan yirik olimlarining, xususan, Sibavayh va Zamaxshariyning arab tilida fe'llar va ularning tadqiqi aks etgan asarlari tahlil qilindi. Bunda Zamaxshariyning "Al-Mufasssal" hamda Sibavayhning "Al-Kitob" asarlarining fe'l boblari qiyoslandi va tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** *Halil ibn Ahmad al-Farahidiy, Zamaxshariy, "Al-Mufasssal", Sibavayh, Al-Kitob", Mutarriziy, Daririy, "Unmuzaj", fe'llar, tog'ri va notog'ri fe'llar.*

### Kirish

Barchamizga ma'lumki, VIII asrdan o'rtalarida arab tilshunosligida arab tili grammatikasini tuzish bo'yicha ilk urinishlar boshlandi. Arab tili grammatikasining shakllanishi tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan.

An'anaviy arab grammatikasining shakllanish davri uzoq yillar davom etdi. Arabshunos olim D.V.Frolov "Теория предлогов в традиционной арабской грамматике" kitobida yozishicha: "Arab grammatikasining shakllanishi uch katta davrni o'z ichiga oladi:

1) Arab grammatikasining paydo bo'lishi va uning qoidalarini ishlab chiqish davri (VIII asr o'rtalaridan X asr boshlarigacha).

2) Arab grammatik maktablar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish davri (X–XII asr)

3) Arab grammatikasini ma'lum va qat'iy tartibga solish hamda qomusiy yoritish davri(XIII–XVasr) [D.K. Mamatoxunova, Sh. M. Mirziyotov;2010:28.]

Dastlab arab tili sohasida ko'zga tashlanadigan grammatik tadqiqotlarni olib borgan olim Sibavayhning ustozlari Halil ibn

<sup>1</sup> Otaxonova Dilafroz Adilbek qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** dilafrozotaxonova55@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0004-1623-0684

**Iqtibos uchun:** Otaxonova, D.A. 2025. "Arab tilida fe'l so'z turkumi Sibavayh va Zamaxshariy talqinida". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 180-186.

Ahmad Farahidiy bo'lgan. U Basra tilshunoslik maktabining yorqin namoyondalaridan biri hisoblangan. Garchi Halil ibn Ahmad Farahidiygacha arab tili sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, ularning ilmiy qiymati u darajada baland emas edi.

Halil ibn Ahmad Farahidiy an'anaviy arab tilshunosligi metodikasiga asos solgan birinchi olimdir. U arab tilida unililarni bildiruvchi harakatlarni tizimlashtirdi va arab alifbosiga hamza belgisini qoshdi. Bundan tashqari u o'zining "نعي عل باتك" (Kitabu-l-ayn) kitobi bilan lug'atchilik maktabiga asos soldi.

Halil ibn Ahmad Farahidiyning bir qancha arabshunos olimlar etishib chiqishiga xizmati katta bo'ldi. Xususan, arab tili grammatikasi asoschisi deya e'tirof etiladigan buyuk olim Sibavayh shunday olimlar jumlasidandir.

Farahidiyning « Kitabu-l-ayn » asari leksikografiya uchun juda muhim bo'lishi bilan bir qatorda uning shogirdi Sibaveyhining «Al-Kitob» (باتكلا) asarining yaratilishiga asos bo'ldi. Bu asar arab grammatikasi haqidagi eng bebaho asarlardan biriga aylandi. [A. Asanova, 2024:483]

Garchi Farahidining « Kitabu-l-ayn » asari leksikografik asar bo'lsada, bu asarda fe'llarni lug'atda berish tartibining yangi usulini ko'rishimiz mumkin. Biz bilgan lug'atlarda [An-Na'im: 2003] fe'llar alifbo tartibida berilgan bo'lib, bunda tog'ri va notog'ri fe'llar ketma-ket tartib qilingan bo'lsa, Farahidiyning « Kitabu-l-ayn » asarining tuzilishi esa dastlab tog'ri fe'llarning keyin esa notog'ri fe'llarning, xususan "misol" fe'llarining tartiblanganligini ko'rsatadi. Sababi Farahidiyning «Kitabu-l-ayn » asarida harflarni quyidagi tartibda keltirib o'tgan:

- 1.Bo'yin yordamida yasaladigan tovushlar : Ayn, Ha, Ҳa, Ğayn
- 2.Yumshoq tanglay yordamida yasaladigan tovushlar : Qof,  
Kaf
- 3.Tish va lab yordamida yasaladigan tovushlar : Sod, Dod, Jim
- 4.Tish va til orti yordamida yasaladigan tovushlar: Shin, Sin,  
Zay
- 5.Til oldi va tish yordamida yasaladigan tovushlar: Ta, Ҳa, Ba
- 6.Tishlar yordamida yasaladigan tovushlar : ʒal, Zo, Yo
- 7.Til oldi yordamida yasaladigan tovushlar : Lam, Nun, Ro
- 8.Og'iz bo'shligi yordamida yasaladigan tovushlar : Fa, Ba,  
Mim
- 9.Kichkina til yordamida yasaladigan tovushlar : Ya, Waw,  
Alif, Hamza. [A. Asanova, 2024:483].

O'z asari "Al-kitob" uchun Sibaveyh "grammatiklar imomi" laqabini oldi.

Sibavayhning "Al-kitob" asarida barcha so'zlar uchta asosiy so'z turkumiga ajratilgan: ism, fe'l, harf.

U asarida mavzularni bitta guruhga umumiy qilib bermay, dastlab, fe'llarni keltiradi, undan keyin fe'llarga doir barcha mavzular, fe'llarni nasb, jazm holatida kesimni talab etuvchi yuklamalar, noto'g'ri va to'g'ri fe'llar, illatli harflar, ikki tomonlama noto'g'ri fe'llar va fe'lga oid bo'lgan so'zlar va ularning umumiy tasnifini keltirib o'tadi. Sibavayh Basra maktabining vakili bo'lganligi sabab u ham boshqa Basra maktabining nomoyondalari singari so'zlar fe'l so'z turkumidan kelib chiqqan degan nazariyani ilgari suradi. "Ishtiqoq" masalasida fe'llarni asosiy deb bilganligi uchun ham Sibaveyhi o'zining asarini fe'l bobidan boshlaydi. Undan keyin esa, ism va harf so'z turkumlarini keltiradi.

Sibavayhning "Al-Kitob" asari arab tilshunosligida mustahkam nazariy asos hisoblanadi, u uzoq yillar mobaynida o'zgarmasdan keldi va an'anaviy arab tili grammatikasining asosi sifatida tan olindi. Hozirgi kunda ham barcha arabshunos olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida Sibavayhiyning "Al-Kitob" asariga tayanib ish ko'radilar.

Sibavayhning "Al-Kitob" asaridan keyin arab grammatikasiga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratildi, ko'plab nahvshunos olimlar fe'llar va ullarning xususiyatlari haqida bahs yuritdilar. Biroq ularning hech biri Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari singari arab nahvida qimmatli manba sifatida e'tirof etilmadi.

Arab tili grammatikasi olamida Sibavayhiyning "Al-Kitob" asaridan keyingi o'rinda turuvchi manba bu Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asaridir.

"Al-Mufassal" asari Sharqda va G'arbda arab tili va grammatikasini batafsil o'rgatuvchi yirik asar sifatida ma'lum. Arab tili grammatikasida "Al-Mufassal" kitobi ahamiyatiga ko'ra, arab olimi Sibavayhning "Al-Kitob" asaridan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Bu Zamaxshariy asari o'z vaqtida qanchalik qadrlanganligini ko'rsatadi.

Al-Mufassal [ الزمخشري المفصل في علوم العربية ] 652 ص. - 2004. asarning asosiy qismi to'rt bobdan tashkil topgan: ism, fe'l, harf va fonetika.

Asarning ikkinchi qismi arab tilidagi eng katta so'z turkumi bo'lgan (فعل "fe'l") ya'ni fe'llar va ularning tasnifiga bag'ishlangan. Bu bobda fe'llarga oid barcha qoidalar ularning uchta zamonda kelishi,

ularning ifodalanishi, o'timli va o'timsiz fe'llar, uch o'zakli va to'rt o'zakli fe'llar, ularning hosila boblari batafsil keltirib o'tilgan.

Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asarinining fe'l bobini tarjima qilish jarayonida u 10faslga ajratilgani va har bir fasl o'z navbatida mavzularga bo'linishi aniqlandi.

Masalan: fe'l so'z turkumining **2-faslida المضارع - al-mudari - "Hozirgi-kelasi zamon fe'li"** bayon qilingan. U quyida mazvulardan iborat ekanligi aniqlandi:

1. و من أصناف الفعل المضارع - Hozirgi- kelasi zamon fe'li tasnifi;  
2. ذكر وجوه إعراب المضارع - Hozirgi- kelasi zamon fe'li e'roblari (yani harakatlar olishi). Bu mavzuning o'zi 3ga bo'linadi;

a) المرفوع (Al-Marfu') hozirgi- kelasi zamon fe'lining bosh(infinitiv) shakli

b) المنصوب (Al-mansub) hozirgi- kelasi zamon fe'lining oxiri fatha bilan kelishi

c) المجزوم (Al-majzum) hozirgi- kelasi zamon fe'lining oxiri sukun bilan kelishi.

Yuqorida keltirilgan fasl ichidagi fasllardan ko'rishimiz mumkinki, Zamaxshariy o'z asarida har bir mavzuga alohida yondashib ularning har bir qirrasini ochib bergan. Shu sababli ham bitta fasl ichida bir qator unga oid mavzularni keltirgan. Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari shu jihati bilan ham Sibavayhning Al-Kitob asaridan ajralib turadi. Sababi Sibavayh o'z asarida mavzularni fasllarga ajratmaydi. "Al-Kitob"ning aynan "fe'llar bobi"da mavzular ketma-ketlikda tizimlashtirilib berilsada, aynan bitta umumiy mavzu va unga oid kichik mavzular bitta umumiy fasl yoki paragraf qilib ajratilmaydi.

Bundan tashqari "Al-Mufassal"ning fe'llar bobidagi "المنصوب - (Al-mansub) hozirgi-kelasi zamon fe'lining oxiri fatha bilan kelishi" nomli mavzu Sibavayhning "Al-Kitob" asaridagi mavzudan batafsil yo'ritilganligini, hamda Zamaxshariy bu mavzu bo'yicha arab tilidagi misollarni ko'proq keltirganini ko'rishimiz mumkin.

Garchi Sibavayhning "Al-Kitob" asari arab tili tarixida birinchi tizimlashtirilgan grammatik asar hisoblansada, mening nuqtayi nazarimda arab tili grammatikasini izchil ketma-ketlikda keltirgan, alohida fasl va guruhlariga ajratib o'z asarida jamlagan olim bu Zamaxshariy va uning asari "Al-Mufassal"dir.

Zamaxshariy "Al-Mufassal" asarida fe'lga quyidagicha ta'rif beradi:

الفعل ما دل على اقتران حدث بزمان. من خصائصه: صحة دخول "قد" و حرفي الاستقبال و الجوازم و لحوق المتصل البارز من الضمائر ، و ثناء التأنيث ساكنة

“Fe’l biror bir hodisaning zamon bilan bog’liqligiga dalolat qiladi (ishora qiladi). Qod yuklamasi, kelasi zamon qoshimchalari sa va savfa , jazm holatiga qo’yuvchi yuklamar (shart mayli qo’shimchasi), shaxs-son qo’shimchalari, muannaslikni anglatuvchi sukunli “ta” kabi qposhimchalarni olish uning(fe’lning) xususiyatlaridir” [Tarjima muallifniki].

Zamaxshariyning zamondoshlari ham arab tilida fe’llar haqida o’z fikrlarini keltirib o’tishadi. Xususan, Mutarriziy fe’lning xususiyatini Zamaxshariy kabi ta’riflab, belgilarini quyidagicha sharhlaydi: *وله ثلاثة أمثلة المفتوح الأخير و يسمى الماضي و الثاني ما يتعاقب على أوله الزوائد الأربع و يسمى المضارع و هو مشترك بين الحال و الاستقبال و اذا دخلت عليه السين* - Uning uchta shakli ham fathaga tugab, o’tgan zamonni bildiradi, ikkinchisi old qo’shimchalarni oladi, u hozirgi zamonni anglatib, hozirgi va kelasi zamon uchun umumiy shakldir, uchinchisi buyruq mayli shaklida bo’ladi”

Daririy “Muqaddima” asarida ismdan so’ng fe’lga shunday qisqacha ta’rif beradi: *و علامة الفعل: ما يحتمل طرفي الزمان أو أحدهما* - Fe’lning belgisi va xususiyatlari ish-harakatning vaqtini o’tgan yoki hozirgi-kelasi zamonda yohud ulardan birida bo’lishini taqozo etadi”.

Sarvinov Qosimova o’zining “XI-XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo’yicha ilmiy tadqiqotlari” nomli monografiyasida shunday yozadi:

“Demak Zamaxshariy fe’lning belgilarini to’liq sanagan, uning xosila boblarini qo’shib o’tgan bo’lsa, Mutarriziy Zamaxshariy alohida keltirgan fasllardagi ma’lumotni u fe’l xususiyatlari qatorida bir faslda sanab o’tgan. Daririy fe’lning asosiy xususiyatini ta’riflash bilan cheklangan. Bildirilgan fikrlar xulosasiga ko’ra, arab tilidagi fe’lning muhim xususiyatlari ish-harakat yoki hodisaning zamonini ifodalash bo’lib, “arab nahvchilari fe’lning asosiy xususiyatini “hodisaning vaqt bilan bog’liqligi” ni ko’rsatishda, deb hisoblashgan.” [S.Qosimova:2019:103.]

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga qo’shilgan ravishda shuni qo’shimcha qilmoqchimizki, fe’l faqatgina hodisaning vaqt bilan bog’liqligi” nigina bildirib qolmay ayrim xolatlarida joy va makonni ham ifodalab keladi. Masalan, *وعد* “vaada” fe’lining ismi foilini olib qaraydigan bo’lsak, *موعد* (mav’id) so’zining ikki xil ma’nosi borligini ko’rishimiz mumkin: 1) belgilangan(va’da qilingan) vaqt; 2) belgilangan(va’da qilingan) joy.

*جلس* jalasa va *جلس* qoada fe’llari haqida ham shunday fikrni bildirishimiz mumkin. Sababi ularning masdarlari *مجلس* “majlis” va

“مقعد” maq’ad” ham ma’no jihatdan farq qiladi. “مجلس” so’zi arab tilida “o’tirilgan joy” ma’nosini bildiradi va u ko’proq odamlar to’planib birga o’tiriladigan joyga ishora qiladi. Shu sababli ham majlis so’zi o’zbek tilida odamlar yig’ilib, biror narsani muhokama qolinidigan joy ma’nosida qo’llaydilar. “مقعد” so’zi ham o’tiriladigan joy ma’nosini bildiradi va u ko’proq aynan biz o’tiradigan narsa yoki joy, ya’ni o’rindiqqa nisbatan qo’llaniladi.

**Xulosa** o’rnida shuni aytish mumkinki, arab tili grammatikasi rivojlanishida o’ziga xos tarixiy davrni bosib o’tgan. Har bir tarixiy bosqichda fe’l so’z turkumi haqida qarashlar deyarli bir xil bo’lganini, faqat uni tizimlashtirishda biroz farqlar ko’zga tashlanganini ko’rishimiz mumkin.

Dastlab Farahidiy fe’llarning lug’atda berilish tartibini noodatiy tarzda, avval tog’ri, so’ngra notog’ri fe’llarni keltirgan bo’lsa, Sibavayhi o’zining Al-Kitob asarida buning aksini ya’ni dastlab tog’ri so’ngra notog’ri fe’llarni keltirdi. Zamaxshariy o’zining “Al-Mufassal” asarida Sibavayhning an’anasi davom ettirib, tog’ri fe’llar haqidagi mavzularni bitta alohida faslga, noto’g’ri fe’llarni boshqa alohida faslga jamladi va o’zining aarini Sibavayhning asariga qaraganda yanada mukammalroq tizimlashtirdi.

Bundan tashqari “Al-Mufassal”ning fe’llar bobidagi “المنصوب – (Al-mansub) hozirgi-kelasi zamon fe’lining oxiri fatha bilan kelishi” nomli mavzu Sibavayhning “Al-Kitob” asaridagi mavzudan batafsil yo’ritilganligini, hamda Zamaxshariy bu mavzu bo’yicha arab tilidagi misollarni ko’proq keltirganini ko’rishimiz mumkin.

Sibavayhi o’zining Al-Kitob asaribilan arab nahvini yuksak cho’qqiga olib chiqqan bo’lsa, Zamaxshariy o’zining “Al-Mufassal” asari bilan arab tili grammatikasini yanada sayqallashtiradi. Hozirgi kunda biz o’rganayotgan arab tili grammatikasi ham “Al-Mufassal” asari asosida shakllantirilgan.

### **Adabiyotlar**

- Ан-Наъйм» 2003.Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,  
Nosirova M. 2004. Unmuzaj fin-nahv dissertatsiyasi.Toshkent  
Қосимова С.С. 2019. XI-XIII асрларда Мовароуннаҳр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. Тошкент . В.102  
Асанова Айдайгуль Бегали кызы. (2024). Ал-Фарахиди «Китоб ал-айн» асарининг ахамияти. ИННОВАЦИОННЫЕ РАЗРАБОТКИ И ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ , 3 (25), 483–485.

" المفصل في علوم العربية " الزمخشري

## Verb phraseology in Arabic according to Sibawayh and Zamakhshari

Otakhanova Dilafruz<sup>1</sup>

### Abstract

This article discusses the scientific views of Sibawayh and Zamakhshari on the verb phraseology in Arabic. It analyzes the stages of development of Arabic grammar, the works of major scholars from the 8th to the 14th centuries that reflect the study of verbs in Arabic, and their works. In this, the verb chapters of Zamakhshari's "Al-Mufasssal" and Sibawayh's "Al-Kitab" were compared and analyzed.

**Keywords:** *Khalil ibn Ahmad al-Farahidi, Zamakhshari, "Al-Mufasssal", Sibawayh, Al-Kitab", Mutarizi, Dariri, "Unmuzaj", verbs, correct and incorrect verbs.*

### References

- An-Na'im» 2003. Tashkent, Abdulla Qodiriy Publishing House,  
 Nosirova M. 2004. Unmuzaj fin-nahv dissertation. Tashkent  
 Qasimova S.S. 2019. Scientific research on Arabic grammatical theory of Transoxiana linguists in the 11th-13th centuries. Tashkent - B.102  
 Asanova Aydaygul Begali Kyzy. 2024. The significance of Al-Farahidi's work "Kitab al-Ain". INNOVATIONNYE RAZRABOTKI I ISSLEDOVANIYA V OBRAZOVANII, 3 (25), 483-485.  
 "المفصل في علوم العربية" الزمخشري  
 "الكتاب" سبويه. 1-7 . 8891 عام. 0551 ص

<sup>1</sup> Dilafruz A. Otakhanova – doctoral student, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** dilafruzotaxonova55@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0004-1623-0684

**For citation:** Otakhanova, D.A. 2025. "Verb phraseology in Arabic according to Sibawayh and Zamakhshari". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (1): 180-186.

# Comparative locative syntaxemes in Uzbek and English

Sirojiddin Yuldoshev<sup>1</sup>

## Abstract

This study explores the comparative syntax-semantics of locative syntaxemes in Uzbek and English, focusing on their function and expression through different linguistic structures in both languages. A particular emphasis is placed on locative constructions that involve the use of specific syntactical and semantical elements and how these are translated or expressed across both languages. We analyze various examples of Uzbek literary texts and their English translations to identify the differences between similarities in syntax and meaning, paying special attention to how locative constructions are conveyed.

**Key words:** *locative syntaxemes, locative constructions, translation theory, case markers, prepositions, spatial relations, literary translation.*

## Introduction

The syntactic-semantic structures of locative syntaxemes in Uzbek and English exhibit unique characteristics, reflective of the cultural and linguistic diversity between the two languages. This article delves into the comparative analysis of locative constructions expressed through specific syntactic elements, using examples drawn from the literary texts of both languages. Our primary purpose is to understand the functioning of these syntaxemes in the respective languages, focusing on both the syntactic structure and the underlying semantics.

In Uzbek, locative expressions often utilize constructions with specific case markers, while in English, prepositional phrases play a significant role. By examining literary examples, we aim to trace how these expressions are formed, their semantic load, and how these structures are translated from Uzbek into English.

---

<sup>1</sup> Yuldoshev R. Sirojiddin – Post graduate student of the University of Tashkent State Uzbek language and Literature named after Alisher Navo'i

**E-mail:** sirojiddin10002@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0003-1364-7439

**For citation:** Yuldoshev, S.R. 2025. Comparative locative syntaxemes in Uzbek and English". *Uzbekistan: literature and language*, 3 (1): 187-191.

## Comparative analysis of locative syntaxemes

### *Uzbek syntaxemes*

In Uzbek, locative syntaxemes are often formed using the case markers *-da*, *-ga*, *-dan* (in the locative, allative, and ablative cases), and sometimes through postpositions like *oldida* ("in front of"), *orqasida* ("behind"), *ustida* ("on top of") among others. The syntactic structure typically places the locative phrase following the noun, often preceding the verb.

#### Example 1:

*Eshik ochgan Ra'no edi, bir ikki qadam ichkariga yurib to'xtadi. (122-bet)*

Here, the locative element *ichkariga* ("inside") is used to indicate movement into a space. The sentence structure showcases how locative expressions are incorporated in a simple syntactic construction.

#### Example 2:

*Rano shu so'zni aytib, orqasiga qayta berdi, eshikni boyagicha yopib, hujradan yiroqlashdi. (122-bet)*

In this example, *orqasig'a* ("to the back") is used to indicate a spatial direction in relation to the subject, forming a complex syntactic structure. The locative expression interacts with the verb *qayta berdi* ("went back"), indicating a movement towards a specific location.

### *English syntaxemes*

In English, locative expressions are generally formed through prepositional phrases like *in*, *on*, *under*, *behind* or *in front of* among others. These prepositions often follow the verb or noun and are combined with the locative noun phrase.

#### Example 3:

***It was Rano who opened the door. She stopped walking in a little. (221-bet)***

Here, the phrase *in a little* functions as a locative expression, indicating the direction of the subject's movement into a space. The phrase is a typical example of English locative syntax, where the preposition *in* combines with a directional adverb *a little*.

#### Example 4:

***Saying those words, Rano went back and closed the door. She went away. (221-bet)***

The prepositional phrase *back* indicates the direction of movement and is used with the verb *went* to express a spatial relationship. The locative expression modifies the verb, showing a

backward motion.

### **Translation and locative syntax**

The comparative analysis of Uzbek and English locative syntaxemes also involves translation studies, focusing on how locative constructions in Uzbek are rendered in English. In this section, we evaluate the fidelity of translation in terms of syntactic and semantic accuracy.

Example 5:

***Oradan biroz muddat o'tgach darvoza ochib yopildi.*** (122-bet)

***In a few minutes the gate was opened and closed.*** (221-bet)

In this translation, we see how the Uzbek construction with *darvoza* ("gate") and the verb *ochib yopildi* ("was opened and closed") is expressed through the English passive structure *was opened and closed*. The locative semantics of movement are preserved, but the syntactic structure differs due to the passive construction.

Example 6:

***Qulogi ostidagina aytilgan bu so'z Anvarni cho'chitdi va o'z yonida qo'lida bir narsa ko'tarib turgan Ra'noni ko'rdi.*** (123-bet)  
***These words were pronounced right under his ear, frightened him. Rano stood next to him, holding something in her hands.*** (222-bet)

The locative phrase *qulog'i ostidagina* ("right under his ear") is translated into English as *right under his ear*, maintaining the spatial relationship. The translation is faithful in conveying the locative semantics of proximity, though the sentence structure shifts slightly.

### **Semantic implications and translation strategies**

When translating locative constructions, one must consider both syntactic and semantic fidelity. While some locative syntaxemes may maintain a direct correspondence between languages (e.g., *in* vs. *ichkariga*), others may involve transformations due to the structural differences between Uzbek and English.

#### **1. Syntactic constructions:**

o Uzbek often employs postpositions, whereas English predominantly uses prepositions.

o The word order in Uzbek locative expressions places the case marker before the noun, while English locative phrases are generally post-nominal.

#### **2. Semantic nuances:**

o In some cases, the locative expressions in Uzbek convey a

sense of direction or place that may require additional explanation in English to maintain clarity. For instance, *orqasig'a* ("to the back") may be rendered as *back* in English, but the spatial nuance can differ depending on context.

### **Conclusion**

This comparative study of locative syntaxemes in Uzbek and English reveals that, despite the structural differences between the two languages, there are significant similarities in how locative relations are expressed. The analysis demonstrates that while both languages employ distinct syntactic strategies (case markers in Uzbek and prepositions in English), the core semantic function of locative expressions remains largely consistent. Translation between the two languages requires careful attention to both syntax and meaning, ensuring that locative expressions retain their intended spatial and directional nuances. Thus:

1. In Uzbek, locative constructions often involve case markers, which are bound to the noun. This is a feature that distinguishes Uzbek from English, which relies heavily on prepositional phrases.

2. While English uses prepositions to express spatial relations, Uzbek may use compound words or case markers to convey similar meanings.

3. The analysis of translation focuses on fidelity in both syntactic structure and semantic content, highlighting how locative expressions are adapted to meet the grammatical norms of the target language.

### **References**

- The examples are taken from the book "Utgan Kunlar" / "The Days Gone By" by Abdulla Kodiri. In Uzbek and English.
- Givón, T. 2001. *Syntax: An Introduction*. Volume 1. John Benjamins Publishing Company.
- Kiefer, F. 2001. *The Syntax-Semantics Interface in Lexical Analysis*. Cambridge University Press.
- Shakhbazov, A. 2006. *Comparative Syntax of Turkic Languages*. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.
- Smith, C. 1999. The Syntax and Semantics of Locative Expressions. *Linguistic Review*, 16(2), 123-142.

## O'zbek va ingliz tillarida lokativ sintaksemlar qiyosi

Sirojiddin Yo'ldoshev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi lokativ sintaksemlarning sintaksis-semantikasini qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqotda ikki tilda ushbu birliklarning qanday sintaktik va semantik tuzilmalar orqali ifodalanishi va funksional jihatlari o'rganiladi. Ayniqsa, lokativ konstruksiyalarning tarkibida ishtirok etuvchi maxsus sintaktik-semantik elementlar va ularning ikki til orasida qanday tarjima qilinishi yoki ifodalanishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbek badiiy matnlari va ularning ingliz tilidagi tarjimalaridan olingan turli misollar tahlil qilinib, lokativ konstruksiyalar sintaksisi va ma'nosidagi o'xshashlik hamda farqlar aniqlanadi. Shu orqali lokativ konstruksiyalarning tarjimada qanday aks ettirilishi chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *lokativ sintaksemlar, lokativ konstruksiyalar, tarjima nazariyasi, kelishik qo'shimchalari, predloglar, makon, badiiy tarjima, sintaksis va semantika.*

### Adabiyotlar

The examples are taken from the book "Utgan Kunlar" / "The Days Gone By" by Abdulla Kodiri. In Uzbek and English.

Givón, T. 2001. Syntax: An Introduction. Volume 1. John Benjamins Publishing Company.

Kiefer, F. 2001. The Syntax-Semantics Interface in Lexical Analysis. Cambridge University Press.

Shakhbazov, A. 2006. Comparative Syntax of Turkic Languages. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.

Smith, C. 1999. The Syntax and Semantics of Locative Expressions. Linguistic Review, 16(2), 123-142.

---

<sup>1</sup> Yo'ldoshev Sirojiddin Rahmatulla o'g'li – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** sirojiddin10002@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0003-1364-7439

**Iqtibos uchun:** Yo'ldoshev, S.R. 2025. "O'zbek va ingliz tillarida lokativ sintaksemlar qiyosi". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 187-191.

## Savdo sohasida nutqiy etiket qoidalari

Shahnoza Nazarova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada nutqiy etiket tushunchasi savdo-sotiq jarayonidagi suhbatlar misolida ko'rib chiqilganligi sababli, ushbu suhbatlarni yoritish ham muhim ahamiyatga ega. Unda savdo suhbatlarida nutqiy etiketga ta'sir qiluvchi og'zaki va noverbal omillar, shuningdek, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar tahlil qilingan. Suhbatlar davomida salomlashish, murojaat qilish, qisqa savol-javob (small talk) va xayrlashish kabi og'zaki ifodalar, shuningdek, xatti-harakatlar, yuz ifodasi va ovoz ohangi kabi signallar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** *nutqiy etiket, xushmuomalalik, savdo sohasi, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlar, muloqot, masofa, verbal va noverbal muloqot.*

### Kirish

Nutqiy etiket doirasida savdo-sotiq suhbatlari haqida so'z borganda, sotuvchi va xaridor o'rtasida axborot almashinuvi asosida kechuvchi muloqot nazarda tutiladi. Bu muloqotning asosiy maqsadi sotuvchi va xaridor o'rtasida bir-birini tushunish va o'zaro kelishuvga erishishdir. Bunday muloqotda og'zaki (verbal) va og'zaki bo'lmagan (noverbal) jihatlar muhim sanaladi. Og'zaki munosabatda tomonlar so'z orqali muloqot qiladilar, og'zaki bo'lmagan muloqot esa xatti-harakatlarga oid signallarning uzatilishi bilan bog'liq. [Meyer 2011:27] Bu kabi muloqotlar madaniyatlararo munosabatlarda turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Nemis millatiga mansub kishilar yuzma-yuz holatda, ko'zga tik boqib, tabassum bilan muloqotga kirishadilar. O'zbek millatida esa ko'zga tik qarash odobsizlik belgisi sanalib, biroz ko'zni olib qochish, vaziyatga qarab o'ng qo'l ni ko'ksiga qo'yib, masofa saqlagan holatda suhbat olib boriladi.

Muloqotda ijtimoiy munosabatlar alohida o'rin tutadi, chunki ular orqali muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi yaqinlik yoki masofa, rad etish yoki xayrixohlik ifodalanadi. Sotuvchilar shunday suhbat

---

<sup>1</sup> *Nazarova Shahnoza Ismat qizi* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** shahnoza.nazarova93@bk.ru

**ORCID ID:** 0009-0002-4371-9077

**Iqtibos uchun:** Nazarova, Sh.I. 2025. "Savdo sohasida nutqiy etiket qoidalari". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 192-200.

muhitini yaratishlari kerakki, xaridor o'zini ishonchli, xotirjam va do'stona muhitda his qilsin. Bunday muhitni shakllantirish uchun sotuvchilar muloqot nazariyasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlari zarur.

Germaniyada sotuvchilarni tayyorlash uchun uch yildan uch yarim yilgacha davom etuvchi kasbiy ta'lim mavjud. Ta'lim mobaynida tinglovchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki katta-kichik savdo markazlarida amaliyot o'taydilar. Natijada ularda xaridorlar bilan muomala qilish, o'zini tutish, verbal va noverbal munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish ko'nikmalari shakllanadi. O'zbekistonda esa bunday kasb-hunar maktablarining faoliyat yuritishi kuzatilmaydi. Sotuvchilikka og'zaki suhbat asosida qabul qilinadi. Savdo xodimlariga muloqot qilish ko'nikmalari ish davomida tushuntirib boriladi.

Har qanday muloqot ikki tomonlama bo'lib, bunda yuboruvchi (translyator) va qabul qiluvchi (resipiyent) ishtirok etadi. Muloqotning asosiy maqsadi axborot almashishdir. Shu nuqtayi nazardan, sotuvchi ham, xaridor ham har ikki rol ni bajarishlari mumkin: ya'ni ular bir vaqtning o'zida ham yuboruvchi, ham qabul qiluvchi bo'lishlari mumkin. Muloqotning maqsadi – yuqorida ta'kidlanganidek – o'zaro tushunishga erishish bo'lsa-da, amaliyotda bu har doim ham amalga oshavermaydi. Chunki turli omillar tufayli anglashilmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Tushunmovchiliklarga olib keluvchi ayrim sabablar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin [Friedemann 1997:25]:

- tomonlar bir-birlarini diqqat bilan tinglamaydilar;
- muloqotni bir tomon asabiy holatda olib boradi;
- ular bir-birlarini tushunmaydilar, ammo aniqlashtirishga ham urinmaydilar;
- muloqot ishtirokchilarining maqsadlari turlicha bo'ladi;
- tomonlardan biri yoki har ikkisi muloqotga qiziqish bildirmaydi;
- suhbat ishtirokchilari kayfiyatsiz bo'ladi;
- atrof-muhit omillari muloqotga xalal beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, faqat og'zaki emas, balki og'zaki bo'lmagan, ya'ni noverbal muloqot ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bularga imo-ishora (jestikulyatsiya), mimika, ohang, tovush balandligi, yuz ifodasi kabi jihatlar kiradi. Bunday belgilar nutqiy etiket ifodasini yetkazishda juda katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda nutqiy etiket va muloqotdagi ko'p qatlamlilikka ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Masalan, sotuvchi biror

axborot aytishi mumkin, u mazmunan umuman qo'pol yoki nutq madaniyatidan xoli bo'lmasligi mumkin (masalan: "Go'sht bormi?", "Go'sht mana bu yerda turibdi"), biroq u buni o'zgacha ohangda aytsa, bu axborot odobsizlik sifatida qabul qilinishi ehtimoldan xoli emas. Har bir bayonotda asosiy axborot bilan bir qatorda yana uchta teng darajadagi xabar mavjud bo'ladi: o'zini ochib berish (shaxsiy axborot), tinglovchiga nisbatan murojaat (biror narsani qilish yoki o'ylashga undov) hamda yuboruvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi axborot, ya'ni har bir bayonotda ochiq ifodalanmagan, lekin sezilishi mumkin bo'lgan ko'plab ma'lumotlar yashiringan bo'ladi. Shunday qilib, faqat og'zaki ifodalar emas, balki xatti-harakatlar ham suhbat jarayonida muhim rol o'ynaydi. Sotuvchilar bilan muloqotda ularning kasbiy bilimlari ikkinchi o'rinda turadi, eng muhim jihat mijozlar bilan qanday muomala qilishlaridir. [Meyer 2011:31] Aynan shu nuqtada nutqiy etiket tushunchasi o'z ifodasini topadi. Nutqiy etiket mijozlar bilan munosabat shakllarini belgilab beradi. Xaridorlar yoshi, jinsi, ma'lumoti, ijtimoiy maqomi jihatidan har xil bo'lganlari sababli, sotuvchilar nafaqat samarali muloqot yuritish qoidalari, balki nutqiy etiket me'yorlari bo'yicha ham yetarlicha bilimga ega bo'lishlari lozim.

Bundan tashqari, savdo suhbatlari ham muhim ekanligini turli lingvistik tadqiqotlarda kuzatish mumkin. Mazkur mavzu bilan shug'ullangan nazariyotchilar qatoriga Hundsnursher va Franke (1985), Brons va Albert (1995a), Reybayn (1995), Potman (1998) hamda Dorfmyuller (2006) kiradi. Quyida suhbatning qanday elementlardan tarkib topganligi qisqacha yoritib beriladi.

Avvalo, har qanday savdo suhbat muomala qilish jarayonidan boshlanadi. Inson do'kon eshigidan kirgan zahoti sodir bo'ladigan ilk jarayon – aloqa o'rnatish ekanligi barchaga ma'lum. Bu aloqa turli shakllarda yuzaga kelishi mumkin. Bunda muloqot ishtirokchilarining ilgari tanish yoki notanish ekani, muloqotning shaxsiy yoki ishbilarmonlik doirasida kechayotgani hamda ularning sotuvchi yoki xaridor sifatida ishtirok etayotganlari muhim rol o'ynaydi.

Ishbilarmonlik kontekstida muloqot shaxsiy doiradagi muloqotdan farqli tarzda olib boriladi, shu sababli bunday holatlarda suhbatning kirish qismi odatda minimal darajada bo'ladi. Ko'pincha, bu kabi vaziyatlarda o'zini tanishtirish zarurati tug'ilmaydi.

Og'zaki muloqotda esa salomlashish deyarli doimiy va majburiy element sifatida namoyon bo'ladi. Insonlar uchrashganida, odatda, suhbat salomlashish bilan boshlanadi. Bunday odatning

istisnosi – jamoat muassasalari, masalan, chipta kassalari, kinoteatr yoki teatr kassalarida kuzatiladi. Biroq, agar ushbu joylarda ham ma'lumot so'raladigan bo'lsa, odatda, salomlashish odatiy holat sifatida saqlanadi. Supermarketlardagi xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va mijozlar o'rtasida salomlashish majburiy ijtimoiy me'yor sifatida qaralmaydi. Biroq kichikroq do'konlarda odatda salomlashiladi, yirik savdo markazlarida esa bu faqatgina tomonlar bir-birini shaxsan tanigan taqdirdagina amalga oshiriladi. [Engel 1991:59]

Shuningdek, savdo sohasida suhbatni muvaffaqiyatli boshlashning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Sotuvchi va xaridor muloqot muvaffaqiyatli kechishi uchun suhbatning boshlanish bosqichida astoyidil harakat qiladilar. Odatda bu ikki tomon bir-birini ilgari tanimaydi, biroq ular umumiy maqsadga ega bo'ladi, ya'ni ular kelishuvga erishish uchun intiladilar. Bunday muloqot mavzu jihatidan cheklangan bo'lib, odatda, muayyan andozaga asoslangan shaklda kechadi. [Weber 2014:51]

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, suhbatni boshlash bosqichi turlicha kechishi mumkin. Agar gap o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi do'kon haqida ketayotgan bo'lsa, u holda sotuvchi bilan aloqa o'rnatishga hojat yo'q. Ammo xizmat ko'rsatish xodimi ishtirokisiz savdo amalga oshmaydigan do'konlarda esa sotuvchi bilan bevosita aloqa o'rnatish zarur bo'ladi. Bunday vaziyatlarda xaridor o'z maqsadiga — mahsulotni qo'lga kiritishga erishishi uchun avvalo, sotuvchining e'tiborini qozonishi lozim. Bunday e'tiborni yuz ifodalari, imo-ishoralar yoki ovoz ohangi orqali jalb etish mumkin. Shu orqali xaridor nafaqat samimiylilikni, balki nutqiy etiketni ham namoyon etadi.

Aloqa o'rnatilgach, keyingi bosqich — salomlashish hisoblanadi. Salomlashish odatda og'zaki shaklda ifodalanadi, ammo u noverbal ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Og'zaki salomlashish shakllari bizga allaqachon tanish va odat tusiga kirgan. Germaniyada, odatda, "Guten Tag" (Xayrli kun), "Guten Morgen" (Xayrli tong), "Hallo" (Salom), "Auf Wiedersehen" (Xayr) kabi iboralar ishlatilsa, O'zbekistonda do'konga kirganimizda ko'pincha "Assalomu alaykum", "Salom", "Yaxshimisiz?", "Hormanglar" kabi so'z va iboralar qo'llaniladi.

Noverbal salomlashish ko'rinishlari esa asosan xatti-harakatlar orqali ifodalanadi. Masalan, qo'lni ko'tarish, ko'z bilan salomlashish, jilmayish yoki boshni yengilgina qimirlatish kabilar bunga misol bo'ladi. Bunday noverbal salomlashuv shakllari, ayniqsa, insonlar bir-birini oldindan tanigan hollarda uchraydi.

Murojaat shakllari haqida gap ketganda, shuni aytish joizki, ular savdo suhbatlarida ham muhim rol o'ynaydi. Murojaat vositasida tomonlar o'zaro muloqotni o'rnatadilar. Nutq ishtirokchisi suhbatdoshning ismi yoki unvonini tilga olish orqali muloqotni yanada samimiyroq va yaqinroq tusga keltirishni istaydi. [Engel 1991:61]

Murojaat shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, nemis savdo shahobchalarida suhbatdoshga *“du”* yoki *“Sie”* (ya'ni sen yoki siz) deb murojaat qilish, *“Herr”* (Janob) yoki *“Frau”* (Xonim) kabi qo'shimcha so'zlar bilan yoki to'g'ridan-to'g'ri ism bilan murojaat qilish mumkin.[Weber 2014:59] Savdo suhbatlarida murojaat shakllarini tahlil qilganda turli xil holatlar kuzatiladi: garchi ishbilarmonlik doirasida *“Sie”* (Siz) orqali murojaat qilish tavsiya etilgan bo'lsa-da, sotuvchilar *“Sie”* (Siz) shaklidan tortib, hatto *“du”* (sen) shakligacha murojaat qilishadi. Bu holat o'zbek do'konlarida sal boshqacharoq shaklda namoyon bo'ladi, ya'ni bizda *“Aka”*, *“Opa”*, *“Amaki”*, *“Kelinoyi”*, *“Singlim”*, *“Uka”* va hokazo. Yoshi kattalarga, odatda *“Siz”* deb, yoshi kichiklarga esa *“Sen”* deb murojaat qilinadi. O'zbek madaniyatida *“Janob”* yoki *“Xonim”* jumalari ishlatilmaydi, bu jumalar faqat xorij vakillari ism-sharifi oldidan qo'yiladi.

So'nggi bosqichda xaridor o'z istagini aniq ifoda etishi kerak. Nima kerakligini ochiq va aniq bayon qilishi lozim, sotuvchi esa bu istakni amalga oshirishni ta'minlashi kerak. Istaklar turlicha ifodalanadi, bu esa sohaga qarab o'zgaradi. Bu shuningdek, xaridor nima xohlayotganini bilish yoki bilmasligiga bog'liq. Sotuvchi buni aniqlash uchun ikki savol berishi kerak. Masalan, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi do'konda xaridor to'g'ridan-to'g'ri mahsulotni ko'rib, tanlab olishi va faqat kassada to'lovni amalga oshirishi mumkin. Biroq, xizmat ko'rsatish xodimi yordamida savdo amalga oshadigan do'konda, xaridor sotuvchiga aniq nima kerakligini aytishi zarur. Sotuvchi esa mahsulotni taklif qilib, xaridorning ishini osonlashtirishi mumkinligi aniqlandi.

Savdo suhbatlarida nutqiy etiketning qanday namoyon bo'lishini aniqlash uchun ushbu ishning bir qismi sifatida aniq vaziyatlarni tahlil qilish o'rganiladi. Bu tahlil ushbu tadqiqot ishining empirik qismini tashkil etadi.

Empirik kuzatuvlarda muayyan ma'lumotlar yig'ilib, haqiqiy natijalar olinishi maqsad qilinganligi bois, ishtirokchilarga bu haqda xabar berilmagan. Kuzatuvda e'tibor asosan nutqiy etiket, xulq-atvor, harakatlar va muloqot shakllariga qaratildi. Kuzatilgan barcha vaziyatlar tabiiy bo'lib, sun'iy ravishda yaratilmadi. Ma'lumotlarni

yig'ish osonroq bo'lishi uchun kuzatuvga doir maxsus shablon ham ishlab chiqildi.

Kuzatuv bir kun davomida ikkita do'konda (Germaniya va O'zbekistonda) amalga oshirildi. Ushbu ikkita do'kon A do'kon va B do'kon deb nomlandi. Bir kun mobaynida A do'konga 40dan ortiq xaridor tashrif buyurdi va ulardan besh nafari kuzatildi. Do'kon kichik bo'lgani va o'z-o'ziga xizmat yo'lga qo'yilmaganligi bois, ikki tomon biroz ko'proq muloqotga kirishdi. Ulardan to'rt nafarida bu muvaffaqiyatli amalga oshdi. Salomlashishda *"Guten Tag"* (Xayrli kun), *"Hallo"* (Salom) jumalari ishlatilgan bo'lsa, qisqa savol-javoblarda *"Was kann ich für Sie tun?"* (Sizga nima yordam bera olaman?), *"Sonst noch etwas?"* (Yana nimadir kerakmi?), *"Was darf es sein?"* (Nima xohlaysiz?), *"Ich hätte gerne..."* (Men bajon-u dil ... olgan bo'lardim), *"Ich brauche..."* (Menga ... kerak), *"Ich möchte..."* (Men ... olmoqchi edim), *"Brauchen Sie Beleg?"* (Sizga chek kerakmi?) singari so'z va iboralardan foydalanildi. Xayrlashish jarayonida *"Tschüss"* (Xayr), *"Ciao"* (Xayr – italyan tilidan o'zlashgan xayrlashuv turi) kabi norasmiy xayrlashish iboralari ishlatildi. Sotuvchilar doimo tabassum bilan muomalada bo'lishga harakat qildi. Ammo bir nafar xaridorning kayfiyati uncha yaxshi bo'lmagani bois savol-javoblar juda qisqa, biroz noxush tarzda amalga oshdi, ya'ni sotuvchi boshqa xaridorlarga qilgani kabi muomalada bo'lishiga qaramay, xaridorda tund qiyofa kuzatilib, salom va xayr degan jumalar eshitilmadi. U suhbat mobaynida shunchaki bosh silkish, bosh chayqash bilan chegaralandi.

Kuzatuvlarda har ikki tomonning yarim metrlik chamasi masofada turgani, yuz ifodasi, xatti-harakatlardan o'rinli foydalangani ko'zga tashlandi.

B do'kon sifatida O'zbekistonda joylashgan kichik savdo shahobchasi tanlanib, kunning birinchi yarmidagi jarayon kuzatildi. Bu vaqt mobaynida do'konga 17 nafar xaridor tashrif buyurdi. Ularning ham besh nafari kuzatildi. Sotuvchi do'konga xaridor kirgan vaqtda yoniga kelib, xushmuomalalik bilan *Assalomu alaykum* deb salomlashib kutib oldi va unga nima kerakligini so'radi. Xaridor ham unga javoban *Vaalaykum assalom* dedi, so'ngra o'z istaklarini bayon qildi. Xarid so'ngida sotuvchi *"Kelib turing"*, *"Sizni yana kutamiz"* jumalarini ishlatgan bo'lsa, xaridor *"Rahmat"*, *"Salomat bo'ling!"* iboralaridan foydalangani kuzatildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, nemis va o'zbek do'konlaridagi savdo jarayonlarining bir-biridan farq qilishi ham ularda kechadigan o'zaro muloqot jarayonlariga ta'sir qiladi, ya'ni A do'konda xaridor

o'z-o'ziga xizmat ko'rsatgani, mahsulotlarning tayyor holda ma'lum miqdorda taklif etilayotganidan foydalanib, sotuvchi yoki konsultantga ehtiyoj sezmagani ma'lum bo'ldi. B do'konda esa kilolab sotiluvchi mahsulotlarni ma'lum miqdorda xarid qilish uchun sotuvchi ko'magi zarurligi, ayni shu jarayonda sotuvchi-konsultantning yordami lozimligini taqozo etadi.

B do'kondagi kuzatuvda salomlashish iboralaridan *"Assalomu alaykum"*, *"Vaalaykum assalom"* ishlatilgan bo'lsa, qisqa savol-javoblarda *"Keling, nima kerak?"*, *"Kelinoyi, yana biror narsa olasizmi?"*, *"Amaki, ... bugun keltirilgan, mazasi juda yaxshi"*, *"Sizlarda ... bormi?"*, *" Yarim\bir\ikki kilo o'lchab bering"* singari muloqot iboralarini eshitish mumkin. Xayrlashish jarayonida *"Sog' bo'ling"*, *"Salomat bo'ling"*, *"Bizni tanlaganingiz uchun rahmat!"*, *"Xaridingiz uchun rahmat"*, *"Yana kelib turing"* kabi jummalarni eshitish mumkin bo'ldi. Sotuvchilar kuzatilgan beshta holatda ham tabassum bilan suhbatni olib bordilar. Ikki tomon o'rtasidagi masofa deyarli bir metr ekani aniqlandi.

Bu do'konlar odamlar bilan muloyim muomala qilish va nutqiy etiket me'yorlariga qay darajada amal qilinganligini o'rganish maqsadida kuzatildi. Bu yerda muhim jihat sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlardir, chunki aynan shu munosabat orqali nutqiy etiketga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash mumkin. Kuzatilganlar orasida og'zaki va noverbal muloqot shakllari va ifodalari mavjudligi aniqlandi. Og'zaki ifodalarga salomlashish shakllari, murojaat, qisqa savol-javob (small talk), xayrlashish va nutqiy etiket bilan bog'liq boshqa so'zlar kiradi. Noverbal ifodalar esa tana harakati, yuz ifodasi, aloqa o'rnatish va ovozn o'z ichiga oladi. Kuzatuvda sotuvchilarning suhbat davomida salomlashish, murojaat qilish, xayrlashish kabi formulalar bilan qanday so'zlar ishlatishi va ularni stereotip sifatida ko'rish mumkinmi, degan savollar ko'rib chiqildi. Kuzatishlarning yana bir jihati noverbal nutqiy etiketga taalluqlidir. Faqat og'zaki so'zlar emas, balki xatti-harakatlar ham nutqiy etiketda muhim rol o'ynashini ko'rsatib berish maqsad qilingan. Biror so'z nutqiy etiketni ifodalashi mumkin, ammo xatti-harakatlar to'g'ri ishlatilmasa, u noxush va qo'pollik sifatida qabul qilinishi ham mumkin.

### Adabiyotlar

- Austin, John L. 2002. Zur Theorie der Sprechakte. Reclam. Stuttgart.  
Blank, Andreas, Hahn, Hans und Helge Meyer. 2011. Ausbildung im Einzelhandel. Kundenorientierte Warenkauf. Bildungsverlag EINS. Köln.

- Brown, Penelope und Steven Levinson 1987. Politeness. Some universals in language useage. Cambridge University Press. London.
- Ehrhardt, Claus. 2011. Höflichkeitsbegriffe - am Beispiel von Höflichkeit und Höflichkeitsbewusstsein in Internetforen, In: Ehrhardt, Neuland, Yamashita: Sprachliche Höflichkeit zwischen Etikette und kommunikativer Kompetenz. Peter Lang. Frankfurt am Mein.
- Felderer, Brigitte und Thomas Macho. 2002. Höflichkeit. Aktualität und Genese von Umgangsformen. Fink. München.
- Friedemann, Schulz von Thun. 1997. Miteinander reden. Band 1. Taschenbuch Verlag. Reinbekbie Hamburg.
- Weber, Peter. 2014. Verkaufsgespräche führen lernen in der Schule. Eine linguistische Untersuchung. Verlag für Gesprächsforschung. Mannheim.
- Iskandarova, Sh. 1993. O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari. Avtoreferat. Samarqand.
- Mo'minov, S. 2004. Muloqot mezonlari. Toshkent.
- Rasulov, Q. 2008. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi. Filol. fan.nomz.diss. avtoref. Toshkent.

## Rules of speech etiquette in the field of business

Shakhnoza Nazarova<sup>1</sup>

### Abstract

Since this article considers the concept of speech etiquette on the example of conversations in the sales process, it is also important to highlight these conversations. It analyzes the verbal and nonverbal factors that affect speech etiquette in sales conversations, as well as the communicative relationship between the seller and the buyer. During the conversations, verbal expressions such as greetings, addresses, small talk and farewells, as well as nonverbal signals such as gestures, facial expressions and tone of voice, are studied.

**Keywords:** *politeness, trade, relationship between seller and buyer, communication, distance, verbal and nonverbal communication.*

### References

- Austin, John L. 2002. Zur Theorie der Sprechakte. Reclam. Stuttgart.
- Blank, Andreas, Hahn, Hans und Helge Meyer. 2011. Ausbildung im

---

<sup>1</sup> Nazarova I. Shakhnoza – doctoral student of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** shahnoza.nazarova93@bk.ru

**ORCID ID:** 0009-0002-4371-9077

**For citation:** Nazarova, Sh.I. 2025. "Rules of speech etiquette in the field of business". *Uzbekistan: language and literature*, 3 (1): 192-200.

- Einzelhandel. Kundenorientierte Warenkauf. Bildungsv Verlag  
EINS. Köln.
- Brown, Penelope und Steven Levinson 1987. Politeness. Some universals  
in language useage. Cambridge University Press. London.
- Ehrhardt, Claus. 2011. Höflichkeitsbegriffe - am Beispiel von Höflichkeit  
und Höflichkeitsbewusstsein in Internetforen, In: Ehrhardt,  
Neuland, Yamashita: Sprachliche Höflichkeit zwischen Etikette  
und kommunikativer Kompetenz. Peter Lang. Frankfurt am  
Mein.
- Felderer, Brigitte und Thomas Macho. 2002. Höflichkeit. Aktualität und  
Genese von Umgangsformen. Fink. München.
- Friedemann, Schulz von Thun. 1997. Miteinander reden. Band 1.  
Taschenbuch Verlag. Reinbekbie. Hamburg.
- Weber, Peter. 2014. Verkaufsgespräche führen lernen in der Schule. Eine  
linguistische Untersuchung. Verlag für Gesprächsforschung.  
Mannheim.
- Iskandarova, Sh. 1993. O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari.  
Avtoreferat. Samarkand.
- Mo'minov, S. 2004. Muloqot mezonlari. Toshkent.
- Rasulov, Q. 2008. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi. Filol.  
fan.nomz.diss. avtoref. Toshkent.

## Use of jargons and buzzwords in English and Uzbek texts

Dilnura Sattorova <sup>1</sup>  
Shakhnoza Jalolova <sup>2</sup>

### Abstract

The article presents the differences between similarities, colorful usage of buzzwords and jargons in the English and Uzbek languages. Language is one of humanity's most versatile tools, capable of shaping thought, culture and communication. Within any language, words and phrases are used not only to convey meaning but also to define social identities, signify expertise and align with cultural trends. Among the vast lexicon of English and Uzbek, two linguistic phenomena stand out for their impact on both written and spoken communication: jargon and buzzwords. The use of jargon and buzzwords in English and Uzbek texts reveals both similarities and differences between cultural, historical and technological factors. English, as a global language, plays an important role in fields of science, technology and business, often generating terms that are later adapted or translated into other languages, including Uzbek. Uzbek as a Turkic language spoken by millions, reflects the unique blend of traditional expressions and modern influences with many buzzwords and jargons borrowed or localized to suit its linguistic structure and cultural context.

**Keywords:** *Buzzwords, jargon, startup, innovation, theoretical, cultural, medicine, law, technology, literature.*

### Introduction

These specialized forms of language serve distinct purposes, reflecting the diversity of professional, cultural and social contexts in which they are used. Understanding their use in English and Uzbek texts provides the unique perspective on how language

---

<sup>1</sup> *Sattorova Dilnura Musirmon kizi* – Bachelor's student, The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

**E-mail:** dilnurasattorova0515@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0002-8362-5622

<sup>2</sup> *Jalolova Shakhnoza Mukhamedjanovna* – Docent, Doctor of Philosophy in Philology (PhD), The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

**E-mail:** shahnoza.jalolova@mail.ru

**ORCID:** 0009-0005-1629-6525

**For citation:** Sattorova D.M., Jalolova Sh.M., 2025. "Use of jargons and buzzwords in English and Uzbek texts" *Uzbekistan: Language and Culture*, 3(1): 201-211.

adapts to serve the needs of speakers in both global and localized settings. Jargon is the specialized terminology used by professionals, academics or members of a specific group to communicate with precision. It acts as a linguistic shortcut, allowing for efficiency and clarity in discussing complex ideas or technical processes. In fields such as medicine, law, technology and literature, jargon serves to enhance understanding among experts, though it often excludes those unfamiliar with its meanings. For example, English texts in the medical field might include terms like “epidemiology” or “antimicrobial resistance”, while Uzbek medical texts use equivalents like “epidemiology” or “*antimikrobgga chidamlilik*”. Such terms highlight how jargon can evolve within both languages to suit professional needs.

Buzzwords, on the other hand, are trendy and often overused terms that capture the essence of a current cultural or professional trend. Unlike jargon, which aims for precision, buzzwords prioritize appeal and memorability often serving as persuasive tools in marketing, politics or corporate environments. Phrases like “innovation,” “digital transformation” or “sustainability” in English are echoed in Uzbek with equivalents like “*innovatsiya*”, “*raqamli transformatsiya*” or “*barqarorlik*”. Buzzwords function as linguistic mirror so societal trends, shaping perceptions and influencing public discourse. While they bring attention to important topics, their overuse can sometimes render them vague or devoid of substantive meaning.

### **Methodology**

Language plays an important role in communication serving as a tool to express ideas, share information and create connections among individuals. However, not all words are created equal. Among the vast repository of vocabulary, some terms hold specific connotations or operate within specialized contexts shaping the way individuals perceive and interact with particular subjects or communities.

Buzzwords and jargon are two such linguistic phenomena that significantly influence modern communication especially, within professional, technical and social environments. While these terms are often used interchangeably, they differ in purpose, application and audience making it essential to examine their definitions and characteristics to understand their role in language and communication.

Buzzwords are commonly understood as trendy or

fashionable terms that gain popularity within specific industries or social circles. Also called a buzz term, buzz phrase, vogue word and fashion word. The second edition of Random House Webster's Unabridged Dictionary defines buzzword as a word or phrase, often sounding authoritative or technical, that is a vogue term a particular profession, field of study, popular culture.

In *Communication at a Distance*, Kaufer and Carley nicely observe that buzzwords "come under attack with the recognition that a person may be trying to pass off for substance or meat the implication of buzzwords [Cornwall 2007: 175].

They often emerge in response to new trends, currently in vogue. Buzzwords are typically short-lived, thriving during periods of heightened interest before fading into obscurity once the trend diminishes. Despite their transient nature, buzzwords possess significant persuasive power, often used in marketing, media, and corporate communication to evoke interest or convey a sense of innovation. For example, terms like "synergy", "disruption" or "sustainability" frequently dominate conversations within business and technologies, or cultural movements, serving as a linguistic representation of what environmental contexts, drawing attention to key ideas while influencing how they are perceived. On the other hand, jargon refers to specialized language used within specific professions, industries, or communities. Unlike buzzwords, which aim at capturing widespread attention, jargon is designed for precise communication among individuals who share a common knowledge base. Jargon facilitates efficient information exchange by providing a short hand for complex concepts or processes, making it indispensable in fields such as medicine, law, technology and academia. For instance, medical professionals use terms like "myocardial infarction" instead of "heart attack" to convey detailed information quickly and accurately. While jargon enhances clarity within its intended audience, it often alienates those outside the group, leading to perceptions of exclusivity or incomprehensibility. The distinction between buzzwords and jargon lies not only in their purpose but also in their audiences and effects. Buzzwords appeal to a broad audience, aiming at generating excitement or establish relevance, while jargon caters to a niche group, prioritizing precision over accessibility. However, both buzzwords and jargon share certain characteristics that make them unique elements of language. They can serve as tools for identity construction, signaling membership within specific groups or alignment with particular

trends. Simultaneously, they can create barriers to understanding, reinforcing divisions between insiders and outsiders. This chapter delves into the definitions and characteristics of buzzwords and jargon, examining their origins, purposes, and implications within various contexts. By analyzing their similarities and differences, we can better understand how these linguistic tools shape communication, influence perceptions and reflect societal dynamics [Anderson 2006: 78].Munosabat

For professionals, being adept at identifying and interpreting these terms is crucial for effective communication, whether it involves engaging with peers, presenting ideas to stakeholders or navigating diverse cultural contexts. Similarly, for everyday language users, recognizing the nuances of buzzwords and jargon enhances critical thinking, enabling individuals to discern genuine insights from superficial hype. Furthermore, the rise of social media and digital platforms has amplified the visibility and influence of buzzwords and jargon, accelerating their dissemination across geographical and cultural boundaries. Hashtags, viral content, and online discussions have transformed how these terms are created and adopted, often blurring the lines between their original intent and public perception. While this democratization of language fosters inclusivity and creativity, it also raises questions about authenticity, overuse and the potential for miscommunication. To fully appreciate the significance of buzzwords and jargon, it is essential to approach them from multiple perspectives. Linguistically, they represent the adaptability and richness of language, showcasing its ability to innovate and respond to changing societal needs. Sociologically, they reveal patterns of identity formation, group dynamics and power structures, illustrating how language can both unite and divide. From a practical standpoint, they underscore the importance of context, audience awareness and clarity in communication, emphasizing the delicate balance between accessibility and specialization.

So, buzzwords and jargon are not merely linguistic phenomena; they are reflections of the complexities and nuances of human interaction. By examining their definitions, characteristics and roles in communication, we can gain a deeper understanding of how language shapes our perceptions, influences our decisions, and connects us to the world around us. Whether celebrated for their creativity or criticized for their exclusivity, buzzwords and jargon remain integral components of modern discourse, challenging us to navigate the intricacies of language with curiosity and discernment

[Aitchison 1991: 57]. Munosabat

Buzzwords are characterized by several key features. In other words, they have various different mechanisms, lost their meaning. Secondly, they have a general pattern of life cycle. They are adopted rapidly across entire industries and socio-political strata and proliferate every nook and cranny of those spheres. Their use escalates until they become merely a cliché and their prevalence begins to dilute their power. Almost as quickly as they are born, they fall out of favor with the public, are relegated to the dusty annals of forgotten history and dead words.

### **Discussion**

Language is a reflection of societal and cultural evolution and within this framework, buzzwords and jargon play pivotal roles. These linguistic phenomena frequently appear in literary texts, often carrying nuanced meanings that reflect the time, audience and context of the writing. By analyzing how buzzwords and jargon are used in various literary texts, we can uncover their impact on the themes, characters and communication styles within those works. This essay explores the role of buzzwords and jargon across different genres, periods and languages, with a focus on their functions, implications and effects on readers. Before analyzing their usage, it is important to define buzzwords and jargon within the scope of literature. Buzzwords are trend-driven terms or phrases that capture contemporary ideas or cultural movements. They are often used in literature to reflect the zeitgeist or as tools for satire and critique [Douglas 2007: 91]. Munosabat

Jargon refers to specialized language tied to specific fields or communities. In literature, it is often employed to enhance authenticity, signify expertise, or build a particular narrative voice. Both buzzwords and jargon contribute to the texture of a text, influencing its accessibility, tone, and impact on different audiences.

In classical literature, jargon was primarily used to reflect the knowledge systems of the time, particularly in fields like law, medicine and philosophy. For example, William Shakespeare's plays often incorporate legal jargon to emphasize themes of justice and morality. In "The Merchant of Venice" terms like "bond" and "forfeit" carry technical meanings that drive the plot and reflect the legal complexities of the time. Similarly, the ancient epics like Homer's "Iliad" include military jargon to convey the strategies

and hierarchies of war. Phrases like “bronze-clad Achaeans” serve both as descriptors and as reflections of the martial culture of the era.

During the Enlightenment, literature began to incorporate scientific jargon, reflecting the period’s emphasis on reason and knowledge. Writers like Jonathan Swift in “Gulliver’s Travels” satirized the overuse of jargon in scientific and academic communities. For example, Swift’s depiction of the Laputans, who obsess over abstract theories and use convoluted language, critiques the alienation caused by excessive technicality [Jonathan Swift 1726: 67]. Munosabat

*19<sup>th</sup> Century Industrialization and Buzzwords:* The 19<sup>th</sup> century saw the emergence of buzzwords tied to industrialization and social change. Terms like “progress”, “innovation” and “efficiency” became central to literary narratives. Charles Dickens, in *Hard Times*, uses industrial buzzwords like “utilitarianism” to critique the dehumanizing effects of factory culture. By embedding these terms in his characters’ dialogue and philosophy, Dickens highlights the tension between human values and mechanistic efficiency.

*20<sup>th</sup> Century Modernism and Jargon:* Modernist literature often embraced jargon to explore themes of alienation and fragmentation. For example, T.S. Eliot’s “The Waste Land” incorporates religious, philosophical and cultural jargon to reflect the disintegration of traditional values [Eliot 1922: 109]. The inclusion of Sanskrit terms like “Shantih” alongside literary and biblical references creates a layered text that challenges readers to decipher its meaning. Meanwhile, buzzwords from political and social movements, such as “revolution” and “liberation,” became prominent in texts like George Orwell’s “Animal Farm”. Here, buzzwords serve as tools of propaganda, illustrating how language can manipulate perception and consolidate power [George 1949: 127].

In contemporary literature, buzzwords often mirror cultural trends, serving as markers of identity and societal shifts. For example, novels set in corporate or technological environments frequently incorporate buzzwords like “synergy,” “disruption,” and “start-up culture.” Dave Eggers’ *The Circle* critiques the tech industry’s obsession with buzzwords, using them to satirize the hollow promises of innovation and transparency. Similarly, young adult fiction incorporates buzzwords to connect with its audience

and reflect generational concerns. In Angie Thomas's *The Hate U Give*, buzzwords like "woke" and "privilege" resonate with contemporary discussions on social justice, lending authenticity to the narrative while engaging readers in critical conversations.

### **Result**

Jargon plays a critical role in genre fiction, particularly in science fiction, fantasy and crime novels. By employing specialized language, authors create immersive worlds and convey the intricacies of their narratives. In science fiction, jargon often reflects technological advancements or speculative concepts. For example, Isaac Asimov's *Foundation* series uses terms like "psychohistory" to describe the mathematical prediction of societal trends, grounding the narrative in a sense of scientific plausibility. In fantasy literature, authors invent jargon to establish the rules and cultures of their worlds. J.R.R. Tolkien's *"The Lord of the Rings"* introduces Elvish words and phrases like "Mithril" and "Lembas" to enrich the world-building and deepen the reader's immersion. In crime fiction, legal and forensic jargon enhances the realism of the plot. Michael Connelly's *The Lincoln Lawyer* uses terms like "subpoena" and "pro bono" to convey the protagonist's expertise while anchoring the narrative in the legal profession [Adams 2013: 36].

#### **- Impact of buzzwords and jargon on readers**

The use of buzzwords and jargon in literature can have both positive and negative effects on readers:

##### **- Positive effects:**

- enhances authenticity and credibility, especially in genre fiction or texts set in specialized contexts;
- encourages engagement with contemporary or historical issues, particularly when buzzwords reflect societal trends;
- creates immersive experiences through detailed world-building.

##### **- Negative effects:**

- overuse of buzzwords can render a text clichéd or superficial, detracting from its thematic depth;
- excessive jargon can alienate readers unfamiliar with the terminology, limiting accessibility;
- risk of misinterpretation if terms are not adequately explained or contextualized.

The analysis of buzzwords and jargon in literary texts reveals their multifaceted roles in shaping narratives, characters,

and themes. From reflecting societal trends to enhancing authenticity, these linguistic elements contribute significantly to the richness and complexity of literature. While they can create barriers to understanding, their strategic use allows authors to engage readers, critique systems, and build immersive worlds. By examining their usage across different genres, periods, and languages, we gain deeper insights into the evolving relationship between language, culture, and storytelling.

### **CONCLUSION**

In conclusion, the use of jargon and buzzwords plays a significant role in both English and Uzbek texts, often serving to convey specialized knowledge and align with specific professional or cultural groups. In English, jargon is widely utilized across various industries such as technology, medicine and law, providing a short hand for complex concepts and facilitating efficient communication among experts. However, the use of jargon and buzzwords is not without challenges. Their specialized nature can create barriers to understanding, particularly for those outside the intended audience. This is especially relevant in educational or public contexts, where the overuse of technical terms or trendy phrases can alienate readers or listeners. In Uzbek texts, the integration of English-derived buzzwords has sparked debates about linguistic purity and accessibility, with some critics arguing for the preservation of traditional Uzbek expressions. Similarly, in English texts, the over-reliance on buzzwords in corporate or academic settings has been criticized for prioritizing style over substance. The interplay between English and Uzbek texts offers a rich field of study for examining how language evolves in response to societal needs. By exploring the use of jargon and buzzwords in these two languages, we can better understand the role of language in shaping communication across different cultures and contexts. This coursework aims to investigate how these linguistic forms function in English and Uzbek texts, analyzing their definitions, characteristics, and implications for communication. Through comparative analysis, it will highlight the ways in which global and local factors influence language use, offering insights into the dynamics of linguistic adaptation and innovation. This study is particularly relevant in today's interconnected world, where multilingual communication and cross-cultural interactions are increasingly common. Understanding the use of jargon and buzzwords in English and Uzbek texts is not only an academic exercise but also a practical necessity

for effective communication in diverse fields such as education, business, and media. By examining how these terms are created, used and perceived, this coursework seeks to contribute to a deeper understanding of language as a tool for connection, expression, and influence. The use of jargon and buzzwords in English and Uzbek texts represents a fascinating intersection of linguistics, culture, and communication. These linguistic phenomena, while often criticized for their exclusivity or overuse, play an essential role in shaping modern discourse. By studying their definitions, characteristics and applications, we can gain valuable insights into the ways language adapts to meet the demands of a rapidly changing world, bridging gaps between cultures and creating new opportunities for understanding and collaboration.

However, the overuse of jargon and buzzwords can lead to misunderstandings and alienate those outside the specific field, creating barriers to effective communication. Similarly, in Uzbek texts, incorporation of jargon is prevalent in professional and academic settings reflecting the influence of globalization and the integration of technical language. While this trend enhances precision and clarity within specialized domains, it can also pose challenges for broader audiences, especially when terms are borrowed from other languages without clear contextual explanations. Both languages face the challenge of balancing the need for specialized terminology with the importance of accessibility and inclusivity. Effective communication depends on the ability to adapt language use to suit diverse audiences, ensuring that complex ideas are conveyed clearly without unnecessary reliance on jargon. Ultimately, the thoughtful use of jargon and buzzwords can enrich communication, but their misuse or overuse risks diminishing the clarity and impact of the message.

### **References**

- Anderson C. 2006. *The long tail: Why the future of business is selling less of more.* – New York: Hyperion.
- Aitchison J. 1991. *Language Change* – England: Cambridge University Press.
- Hibbert Aurelia. 2013. *Buzzwords: Devaluing or evolving global issues?* – New York: Palgrave.
- Aitchison J. 1998. *Language Change: Progress or Decay?* – New York: Cambridge University Press.
- Adams R. 2013. *Buzzwords and Authenticity: The Tension Between Meaning and Commercialization.* – London: Routledge

- Cornwall A. 2007. Buzzwords and fuzzwords: Deconstructing development discourse. – Cambridge: Cambridge University Press.
- Brown L. 2014. Buzzwords in the Media: How Attention-Grabbing Terms Shape Public Discourse. – London: HarperCollins.
- Davis J. Davis, J. 2021. The Social Dynamics of Buzzwords: Group Identity and Social Capital, – Glasgow: HarperCollins Publishers.
- Douglas N. 2007. The life of a buzzword. – London: Bloomsbury
- Bruzzo Dr. John 2020. Buzzword technologies in digital transformation, – Glasgow: HarperCollins Publishers.

## **Ingliz va o'zbek matnlarida ommalashgan so'zlar ya'ni buzzwordlar hamda jargonlarning qo'llanilishi**

Dilnura Sattorova<sup>1</sup>  
Shahnoza Jalolova<sup>2</sup>

### **Abstrakt**

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tililarida ommalashgan so'zlar (buzzwords) va jargonlardan rang-barang qo'llanilishi, ular orasidagi tafovutlar, o'xshashliklarni yoritib berish tadqiqiga qaratilgan. Til insoniyatning eng ko'p qirrali vositalaridan biridir, bu fikr, madaniyat va aloqalarni shakllantirishga qodir. Har qanday tilda so'zlar va iboralar nafaqat ma'nosini etkazish, balki ijtimoiy identifikatorlarni aniqlash, imtiyozni tasdiqlash va madaniy tendentsiyalarga moslashtirish vazifasini o'taydi. Jargon va buzzwords-dan ingliz va o'zbek matnlarida foydalanish madaniy, tarixiy va texnologik omillar shaklida ham o'xshashlik va farqlarni aniqlaydi. Ingliz tili global til sifatida ko'p sohalarda shuningdek ilm-fan, texnologiya, tadbirkorlik yo'nalishlarida muhim rol o'ynaydi. Millionlab insonlar tomonidan so'zlab kelinayotgan o'zbek tili turk tili sifatida, an'anaviylik, an'anaviy iboralar va zamonaviy ta'sirlarning o'ziga xos aralashmasini aks ettiradi. Izlanishlar

---

<sup>1</sup> *Dilnura Sattorova Musirmon qizi* – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

**E-mail:** dilnurasattorova0515@gmail.com

**ORCID:** 0009-0005-1629-6525

<sup>2</sup> *Shahnoza Jalolova Muxamedjanovna* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti dotsenti

**E-pochta:** shahnoza.jalolova@mail.ru

**ORCID:** 0009-0002-8362-5622 0009-0005-1629-6525

**Iqtibos uchun:** Sattorova D.M., Jalolova, Sh.M. 2025. Ingliz va o'zbek matnlarida ommalashgan so'zlar ya'ni buzzwordlar hamda jargonlarning qo'llanilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 201-211.

natijasiga binoan bu til qurilmalari o'zbek va ingliz tillarining yorqin qirralarini ochib bera oladi.

**Kalit so'zlar:** *Buzzwords, jargon, startup, innovatsiya, nazariy, madaniy, tibbiyot, huquq, texnologiya, adabiyot.*

### **Adabiyotlar**

- Anderson C. 2006. The long tail: Why the future of business is selling less of more. – New York: Hyperion.
- Aitchison J. 1991. Language Change – England: Cambridge University Press.
- Aurelia Hibbert. 2013. Buzzwords: Devaluing or evolving global issues? – New York: Palgrave.
- Aitchison J. 1998. Language Change: Progress or Decay? – New York: Cambridge University Press.
- Adams R. 2013. Buzzwords and Authenticity: The Tension Between Meaning and Commercialization. – London: Routledge.
- Cornwall A. 2007. Buzzwords and fuzzwords: Deconstructing development discourse. – Cambridge: Cambridge University Press.
- Brown L. 2014. Buzzwords in the Media: How Attention-Grabbing Terms Shape Public Discourse. – London: HarperCollins.
- Davis J. Davis, J. 2021. The Social Dynamics of Buzzwords: Group Identity and Social Capital, – Glasgow: HarperCollins Publishers.
- Douglas N. 2007. The life of a buzzword. – London: Bloomsbury.
- Bruzzo Dr. John. 2020. Buzzword technologies in digital transformation, – Glasgow: Harper Collins Publishers.

## “Izohsiz lug‘at”ga ayrim izohlar

To‘lg‘anoy Quljanova <sup>1</sup>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyati vakili Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostoni tasavvufiy-ma‘rifiy va falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot shoirning poetik mahorati va asarda ifodalangan ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalar, tasavvufiy qarashlar, ramziy- majoziy obrazlar hamda badiiy uslubning xususiyatlariga oid fikrlardan iborat. Bundan tashqari, dostonning kompozitsion tuzilishi, poetik til uslubi o‘rganildi va ichki dramatism, lirizm va badiiy tasvirga oid ayrim mulohazalar berildi. “Izohsiz lug‘at” dostonining bugungi adabiy jarayondagi o‘rni va badiiy qimmati ham yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** *Abduvali Qutbiddin, “Izohsiz lug‘at”, modernizm, postmodernizm, lirizm, ramz, tasavvuf, badiiy tafakkur.*

### Kirish

O‘zbek adabiyotida tasavvufiy meros an‘analari davom etib kelmoqda. XX asr oxiri XXI asr boshlarida bu an‘analarni o‘z poetik tafakkuri bilan davom ettirgan shoirlardan biri Abduvali Qutbiddindir. Uning “Izohsiz lug‘at” dostoni insoniy ruhiyat tafakkuri, dunyo va borliq haqidagi falsafiy mulohazalarni o‘ziga xos tarzda badiiy aks ettirgan asardir. Ushbu asarda zamonaviy oqimlar modern va postmodern ga xos tasvirlash usuli ko‘zga tashlanadi. Lekin uning mazmuniy tomoni abadiyatga daxldor umrboqiy g‘oyalar tarannumi bo‘lib, bu g‘oyalar dunyo madaniyatida turli ko‘rinishlarda har doim bo‘lgan va hali ham yashab kelmoqda.

“Izohsiz lug‘at” dostoni sarlavhasidanoq kitobxonni o‘ylashga majbur qiladi. Asar sarlavhasi ham ramziylik kasb etib, shoir bugungi insoniyatning chalkash-chulkash xayollarini, izoh topib bo‘lmaydigan muammolarni va talqintalab haqiqatlarni tasvirlashga harakat qiladi. Asarning asosiy g‘oyasi so‘zning ichki ma‘nosi, ruhiy iztirob va sukunatning kuchi orqali insoniyatning sirli qatlamlarini ochishdir. Shoir bu doston orqali hayotda izohga muhtoj, ammo

---

<sup>1</sup> Quljanova To‘lg‘anoy Shodiyor qizi – Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** tulganoyquljanova@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0008-2892-9395

**Iqtibos uchun:** Quljanova, T.Sh. 2025. “Izohsiz lug‘at” ga ayrim izohlar”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*, 3 (1): 212-221.

so‘zga sig‘maydigan haqiqatlar mavjudligini anglatmoqchi bo‘ladi.

“Izohsiz lug‘at” dostonining kompozitsion tuzilishi o‘zining murakkabligi, ko‘pqatlamliligi va ramziy izchilligi bilan ajralib turadi. An‘anaviy epik syujetdan farqli o‘laroq bu doston parcha-parcha voqeliklardan, monologik ifodalardan va ramziy-majoziy tasvirlardan iborat. Doston kompozitsion jihatdan 15 bob va xotimadan iborat. Har bir bo‘lim syujet jihatdan mustaqildek ko‘rinsa-da, ularni bir-biriga bog‘lab turuvchi ichki mantiqiylik sezilib turadi. Har bir bob umumiy mazmunga bo‘ysunadi, ya‘ni ularning barchasida inson ongining o‘zgarishi jarayoni, ruhiy iztirob va poklanish g‘oyasi, jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi norozilik va lirik qahramonning ichki isyoni asosiga qurilgan. Xuddi turli toshlar bir joyga jamlansa o‘ziga xos mozaika hosil bo‘lgani kabi, dostondagi har bir bob farqli voqelikni ifodalasa-da, bir maqsadga yo‘naltirilgan. Ba‘zi boblardagi voqelik ichki monolog shaklida berilgan bo‘lib, lirik qahramon o‘z-o‘zi bilan, o‘tmishi bilan, vijdoni bilan muloqotga kirishadi. Bu ichki monologlar orqali ruhiy voqelik tasvirlanadi. An‘anaviy dostonlarda syujet ketma-ketligi voqealar rivoji asosida bo‘lsa, bu dostonda ruhiy fazalar muhim hisoblanadi. Ya‘ni g‘azab, pushaymonlik, vijodon bilan yuzlashuv, tan olish, izlash, umidvorlik va ruhiy poklanish bosqichlarini tashkil qiladi va bu dostonning kompozitsion zanjirini belgilaydi. Dostonga Hazrat Alisher Navoiyning baytlari epigraf qilib olingan. Bu bilan shoir asar g‘oyasini shu ikki misraga hamohang ekanligiga urg‘u beradi. Shoir hazrat Navoiy qalbidagi o‘tli iztirob va nolani esga olish orqali o‘z holiga ishora qiladi.

Dostonda dunyo va ma‘no o‘rtasidagi ziddiyatlar, zohiriy va botiniy tafakkur o‘rtasidagi farqlar tasvirlanadi. Unda so‘zdan ko‘ra sukunat ustun qo‘yilgan. Bizga ma‘lumki, modern adabiyotda asosiy e‘tibor insonning ichki kechinmalari, ong oqimi, ruhiy tushkunlik va o‘zini anglash jarayonlariga qaratiladi. Ushbu doston ham xuddi shu uslubda yozilgan. Shoir suhbatdosh sifatida “bobo”ni tanlagan, ammo u real shaxs emas, balki ramziy obraz bo‘lib, otaxon va yosh lirik qahramon suhbatlari orqali ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi ruhiy tafovutni ko‘rsatadi. Xususan, “*sanduvoch*” obrazi tinchlik, sokinlik, donolik timsoli bo‘lib, qahramon o‘zining beqarorligini, g‘am anduhini otaning sukuti orqali ochib beradi. Bunda til va qalb, sukut va iztirob o‘rtasidagi ziddiyat aks ettiriladi. Bobo bilan olib borilayotgan dialog aslida shoirning ichki iztiroblari ifodasi bir monologdir. She‘rda an‘anaviy syujet yo‘q. Aksincha, fikrlar ketma-ketligi ong oqimi uslubida berilgan. Sukunat, bezovtalik, jimjitlikni

buzuvchi harakatlar (*“pichirlaysiz”, “yelkangizda sanduvoch o'ltiradi”, “ming'irlyaman”*) badiiy ong holatini ko'rsatadi. She'rda psixologik murakkablik bo'lib, lirik qahramon ham suhbatdosh ham noaniq ruhiy holatda. Biri sukut saqlaydi, biri esa harakat qilmoqchi bo'ladi. Bu o'zaro zidlik modernistik qiyofani kuchaytiradi. Buni tasavvufiy jihatdan ham tahlil qilish mumkin va bunda har bir obraz ramziy ma'no kasb etadi, ya'ni sukunat– Haqiqat belgisi. *“Sukut saqlab o'ltirasiz shundoqqina yelkangizda sanduvoch o'ltiradi”* [Qutbiddin 1990: 6]. Sukunat bu yerda dunyoviy so'zlardan holilik, ya'ni tasavvufdagi sukut alomati sifatida talqin qilinadi. Haqiqat so'zda emas, sukutda yashiringan. Sanduvoch qush obrazida ishlatilgan bo'lishi mumkin, ammo ramziy ma'noda ilhom yoki qalbdagi ruhiy uyg'onish belgisi sifatida talqin qilingan. Dostondagi *“Pichirlaysiz: – Yurakni ko'z etmajak makon”* [Qutbiddin 1990: 6] misrasi sof tasavvufiy mazmun kasb etadi. Yurak (qalb) va ko'z (zohiriy idrok) o'rtasidagi farq tasavvufda muhim masala hisoblanadi. Aniqrog'i, haqiqiy ilm qalb orqali anglanadi, ko'z bilan emas. Xuddi shu kabi keyingi misralarda tilning ojizligi haqida gap ketadi. *“Pichirlaysiz:- Tilni ipdek eshib bo'larmi, Jonni bo'lurmi unga o'tqazib, Keyin sanab bo'lurmi jonni Oxirgi kungacha, uzmasdan?!”* [Qutbiddin 1990:6], ya'ni til ham ilohiy haqiqatni ifodalay olmaydi. Bu ham tasavvufiy qarash bo'lib, haqiqatni uzluksiz tilga solish juda mushkul ish. Demak, shoir jasoratli tajriba va poetik soddalik orqali teran falsafiy fikr ifodalagan. Doston voqelikning ifodalanishi nuqtai nazardan modernizmga xos bo'lsa ham ruhiy jihatdan tasavvufiy g'oyalar bilan hamohang.

Dostonning ikkinchi bobida shoir insonlarga qarata payg'ambarona ogohlantirish berishni istaydi, ya'ni payg'ambarlar insoniyatga buyuk Zotdan kelgan xabarlarini yetkazadilar. Bu ogohlantirish negizida tavba qilish zaruriyati bo'lib, shoir fikricha ham insoniyat tavba qilishi kerak. U xayoliy elchi timsolida tabiatga, ilohiy qudratga, vaqt va adolatga oid g'oyalarni tarannum etadi. Shoir nazdida yer yuziga ezgulik tarqatish uchun payg'ambar bo'lish shart emas, oddiy inson ham bajarishi mumkin. Uchinchi bobda ruh va vujud o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, o'z-o'zini tanqid qilish, pushaymonlik va insonning xatolari haqida so'z ketadi. *“chiiy-chiiy”* tovushlari ham ramziy ma'noda lirik qahramon vijdonining nidosidir. Shoir qalbidagi tavba qilish va poklanish istagi lirik qahramon tilidan ramziy tasvirlar orqali keltiriladi. Dostonning to'rtinchi qismida insonning ongli qullikka, ruhiy halokatga yuz tutishi, ijtimoiy buyruqlar ba ma'naviy qadriyatlar orasida yo'qolib qolgan

zamonaviy odamning fojiaviy jihatlari falsafiy-tasavvufiy talqinlarda beriladi. Bu qismda boshidan oxirigacha “xo‘jayin” obrazi markaziy figura bo‘lib, u nafaqat ijtimoiy ustun sinf vakili, balki yolg‘on tuzum, yolg‘on g‘oyalar yoki moddiy manfaat uchun sotilgan vijdon ramzi bo‘lishi mumkin. She‘r bir qarashda oddiy bir mehnatkash yoki qabristonda ishlayotgan kishining tasviri bilan boshlanadi. Ammo u chuqur falsafiy ma‘no, ijtimoiy-tasavvufiy zamin ustiga qurilgan. Bu yerda asosiy g‘oya inson ongini bosib olgan yolg‘on–“xo‘jayin” obraziga qullik va bu qullikning insonni ichkaridan yemirishi haqida bo‘lib, bu aslida ruhiy jihatdan zaif insonning botiniy halokatini ko‘rsatadi.

Dostonning beshinchi qismida alohida syujetga ega hikoya keltiriladi. Bu hikoyada ma‘naviy yuksalish, dunyoning o‘tkinchiligi, riyozat, tarbiyat, fano va baqo, haqiqat izlash kabi tasavvufiy tushunchalar ifodalangan. Shoir tasavvufiy -ma‘rifiy qarashlarini ifodalashda xalq orasida saxiyligi bilan shuhrat qozongan badavlat kishi Hotam Toy obraziga murojaat qiladi. Hotam – Valiy sifatidagi timsol bo‘lib, tasavvufda valiy o‘z nafsini yenggan, dunyoviy boylikdan kechib, uni Alloh roziligi yo‘lida sarf etgan zotdir. U qarilik chog‘ida ya‘ni dunyoviy hayotning oxirgi bosqichida nafsni butunlay yengib, Navoiy tili bilan aytganda, axiylik fazilatini namoyon etadi. Xotam komil inson, murshid sifatida tasvirlanadi. U faqirga, yetimga yordam beradi, so‘ngra uzlatga chekinadi. Bu tasavvufda fano, ya‘ni o‘z “meni”dan kechishdir. Shuningdek, oqish maymuncha obrazi orqali hayvoniy nafs, johillik va soddalik ko‘rsatiladi. Hotam uni tarbiya qiladi – bu esa nafsni poklash, tasavvufdagi tarbiya va tazkiya jarayoni ramzidir. Keyinchalik murshid olamdan o‘tadi, maymuncha yolg‘iz qoladi va haqiqatni izlash, jamiyatdagi zulm va adolatsizlikka qarshi kurashga yo‘lga kiradi. Shoir zulmga to‘lgan dunyoni (*Olamda Odam Isoni mixlardi ustunga, Muhammadni toshparron qilardi quvonib, Sulaymon farzandlarin zirillatardi, Yusufdan qizg‘anardi sevgini...*) [Qutbiddin 1990: 10] nafsni poklangan oqish maymuncha nigohida tasvirlaydi. She‘rdagi asosiy g‘oya shuki, haqiqiy inson bo‘lish – ruhiy tarbiya, nafs ustidan g‘alaba, ma‘naviy ustozdan saboq olish va haqiqatga tazkiya orqali erishiladigan yuksak martabadir. Doston tasavvufiy jihatdan qaralganda, “insonni maymundan insonga aylantirish jarayoni”dir. Tarixiy shaxs Hotam orqali murshidlik fazilati, insoniylik tarbiyasi va ma‘naviy ozodlik uchun kurash ko‘rsatiladi. Uning tarbiyasidagi “oqish maymuncha” obrazi esa nafs ustidan g‘alaba va insoniy sadoqat timsoli.

Shoir bugungi jamiyatda ruhiy qadriyatlar emas, balki

manfaatparsatlik, shaklga berilishning hukmronligini tanqid qiladi. Bu tasavvufda qoralanadigan “dunyoparastlik” (dunyoga haddan tashqari bog‘lanish) g‘oyasining ifodasi. Tasavvufda dil Allohning “maskani”, ya’ni qalb pok bo‘lsa Haq unda tajalli qiladi. Shoir bu yerda qalbning vayronligi orqali insoniyatning ma’naviy inqirozini ifodalaydi. Qalb muqaddas, lekin insonlar undan yuz o‘g‘irgan. Shoir *“Do‘konimni yopib ketsammikin endi?!”* [Qutbiddin 1990: 10] misralari orqali dunyoni tark etish istagi – zohidlikka ishora qiladi. Shoir jamiyatdagi fisq-u fasod, ma’naviy tanazzul, yolg‘on va razolatdan charchab, “do‘kon”ning dunyodagi ijtimoiy ishtirokini yopmoqchi bo‘ladi. Tasavvufda bu “uzlat”, ya’ni tanholikka chekinish orqali Haqni izlashdir. Shoirning “do‘kon”i ramziy ma’noda uning qalbi, ichki dunyosi va she’rlaridir. U bu dunyoviy shovqin ichida uni hech kim qadrlamayotganidan charchagan.

Tasavvufda qalb insonni ichki ko‘zgusi sifatida qaraladi. Bu yerda ham shoir qalbdan to‘kilayotgan tuyg‘ularini ilohiy ilhom sifatida ko‘rsatadi. *“Shu dilimdan-da chiqar, Shu dilimdan-da oqar”* [Qutbiddin 1990: 10]. Unga ko‘ra, bu dunyoda inson faqat qalbidagi haqiqat bilan yashashi mumkin. Shoir zamonaviy insonning ma’naviy hayotdan ko‘ra jismoniy, moddiy faoliyatga berilib ketganligini, muhabbat, ruhiy hayot, ilohiy haqiqatlarning unutilganini tanqid qiladi. Tasavvufda haqiqiy harakat qalbgaga safardir. *“Asli ho‘kiz shoxida turgandir dunyo...”* [Qutbiddin 1990:10] misralari ramziy ma’noda dunyoning beqarorlik, yolg‘on va aldov ustiga qurilganligini ifodalaydi. Lirik qahramon dunyodan charchagan, ruhan taskin topishni, nafsni tark etishni va Haqni izlashni xohlaydi. She’r ichki monolog shaklida yozilgan. Shoir dunyo, odamlar, san’at va jamiyat haqidagi dardini bevosita o‘quvchiga emas xuddi o‘ziga aytayotgandek ta’sir qoldiradi. Bu ichki to‘lg‘onish she’rga ohang va samimiyat bag‘ishlaydi. She’rda ko‘plab ramziy obrazlar mavjud. *“Do‘kon”* (shoirning ruhiy olami), *“dili biyron”* (ma’naviy iztirobdagi qalb, insonning botiniy vayronligi), *“Masxaraboz san’at olamiga boshliq azaldan”* (san’atning qadrsizlanib, soxtalik va ko‘ngilocharlikka aylangani tanqidi), *“chegarachilar qonunshunos Odam Atodan keyin”* (inson ruhiyatini cheklovchi qonunlar va me’yorlar kinoyaviy tilga olinadi) kabi obrazlar chuqur falsafiy ma’no beradi. She’rda metafora, kinoya va satira, takrorlardan keng foydalanilgan. Ohangda iztirobli va ruhiy g‘amginlik, charchoq seziladi. Notekis ritm, qisqa va uzun misralarning almashinuvi ichki hissiyotni, charchoq va g‘azabni ifoda etadi. Jumladan: *“Birisi o‘q uzar, birisi osar, birisi... Undan ham bezor olomon”* [Qutbiddin 1990:

10]. Bu joydagi pauza, ya'ni ko'p nuqta (...) dramatik ruhni oshiradi, ichki bo'shliqni his ettiradi. Shoir bu qismda falsafiy-tasavvufiy g'oyalarni, jamiyat tanqidi va san'at haqidagi qarashlarini ifoda etadi. U jamiyatdan, odamzoddan norozi ohangda nido qiladi.

Dostonning yettinchi qismi o'zining vahimali tasvirlari, metaforik mazmuni va falsafiy qatlamlari bilan o'quvchini larzaga soladi. Uning tub zamirida insonning ruhiy halokati, ma'naviy yo'qotish, gunohlar ichida yo'qolish, ruhiy najotga yetolmaslik va oxiratga tayyorgarlikning yo'qligi haqida chuqur tasavvufiy-ma'rifiy ogohlik yotadi. Bu qism boshidan oxirgacha *"kechikding"* degan da'vat asosiga qurilgan. Tasavvufda insonning ruhiy yuksalishi zuhd, taqvo, tavba va zikr orqali sodir bo'ladi. Ammo she'rdagi lirik qahramon ushbu najot yo'liga kechikkan, ya'ni u ruhiy uyg'onish uchun kech qolgan odam. Tasavvufda bu "qalb ko'rliqi" – dil Haqni his etmay qolgan holatdir.

*Ko'zingdan, burningdan bitlar chiqmoqdalar amal taqal qilib,  
Og'zingdan semirib ketgan qurbaqa zo'rg'a tushayotir,  
kekirdagingni yorib yuborar* [Qutbiddin 1990:11].

Bu satrlar orqali shoir inson nafsining ifloslanishi, hayvoniy istaklar va shahvatlar ichida ezilishi holati tasvirlanadi. Uningcha, nafsga xizmat qilgan odam o'z jismida tirik chirimoqda va bu ma'naviy o'lim deganidir. She'rdagi qizil va sariq shoqol obrazi dunyoviy fitnalar ramzidir. Shoir ranglar va ramziy timsollar orqali inson ruhiyatini chalg'ituvchi dunyoviy fitnalarni tasvirlaydi.

*"Vataning bor edi – sotding,  
Onang bor – edi otding,  
o'g'ling bor edi– qimorda yutqazding..."* [Qutbiddin 1990:11]

Bu satrlarda ma'rifiy da'vatni ko'rishimiz mumkin, ya'ni inson o'z yurtiga, oilasiga, farzandiga sadoqatli bo'lishi kerak. Shoir bu qadriyatlardan voz kechgan odamni qaysidir ma'noda ruhiy-ma'naviy yo'ldan adashgan deb hisoblaydi. Vatanga, onaga, bolaga xiyonat bu fitratdan voz kechish ramzidir. Vatan – baraka, ona – mehr, farzand – kelajak ramzi bo'lishi mumkin. Bularning barini boy berish butkul ma'naviy halokat belgisi sifatida talqin qilingan.

*"Faqat- qizil va sariq shoqolni jazolashga jo'natgan  
kechikmadikmikin, Odamni qutqarmoqqa?!*  
*Yirtqichni qaytarmoq mumkinmi asliga?*  
*Faqat Odam emas kechikkan jazo!* [Qutbiddin 1990:11]

She'rdagi bu satrlar lirik obrazning ruhiy uyg'onish belgisi bo'lib, u najotga kechikkan odamni emas, balki dunyoviy fitnalarni jazolashga chaqiradi. Haqiqatni o'z vaqtida da'vat qilishga ya'ni yomonlikdan qaytarib yaxshilikka undash kerakligini uqtiradi.

*"Hammayoq yig'i, hammayoq yig'i, hammayoq yig'i,  
Yig'layapman men ham, yig'layapman men ham!..."* [Qutbiddin 1990:11]

Yuqoridagi misralarda shoir va lirik qahramon o'rtasidagi chegaralar butunlay yo'qoladi va ma'naviy iztirob umumiy lashadi. Bu yig'i butun insoniyat nomidan yig'i bo'lib, ruhlar, axloqlar, vijdonlar yig'isidir. Bu tasavvufiy jihatdan "nola", "shikoyatnoma" uslubida Haqqa yuzlanish hisoblanadi. Bu doston Abduvali Qutbiddin tilidan jaranglagan hayqiriq bo'lib, odamzotni "ruhiy halokat va kechikkan najot"dan ogohlantiradi. Dunyo lazzatlari ichida halok bo'layotgan insoniyatni hushyorlikka – kechikmaslikka chorlaydi. Shoir tarixi buyuklikka daxldor bu millatning boshidan o'tkazgan qora kunlariga ishora qiladi. She'r ramziy obrazlarga nihoyatda boy bo'lib, ular orqali muallif insonning ruhiy tanazzulini, ma'naviy halokatini va dunyo fitnalariga berilib, Haqdan uzoqlashgan holatini tasvirlaydi. Masalan, Qarg'aning jasadi va tumshug'i ramziy ma'noda bo'lib, qarg'a qadimdan o'lim, balo va halokat timsoli sifatida talqin qilingan. She'rda bu o'lik qush yo'lning oxiri, ya'ni ma'nan chirigan, najotsiz ruhning manzili. Tumshug'i esa allaqachon yutmoqchi bo'lgan halokat og'zi bo'lib, unga qarshi insonlar faqat "pu" bilan qarshi tura oladi. Bu esa ilojsizlik ifodasidir. Bit, qurbaqa va hasharot obrazlari she'rxon tasavvurida g'ashlik uyg'otadi. Ular nafsning ochko'zligini va inson vujudining ruhiy ifloslanishini tasvirlaydi. Safro, balg'am va qon tasvirlari inson organizmining ichki muvozanatini buzilganligi ifodasi bo'lib, tasavvufda tanani poklabgina runi najotga olib chiqish mumkin. Shu jihatdan qarasak, bu timsollar zaharlangan tana va cho'kib qolgan ruhning ramzidir. Cho'kib qolgan, najotsiz ruh esa eng katta fojia. "Kechikding" iborasi markaziy ramziy obraz bo'lib, tasavvufda inson umrining har bir nafasida tavba, toat ibodat qilish, qalbni poklash imkoniyati bor. Ammo bu she'rda lirik qahramon najot sari kech qolgan. U endi faqat tomoshabin. Parchada yana bir qancha ramziy obrazlar bo'lib, cho'chqaga xizmat qilish– nafsga qullik timsoli. "Balg'ammushuk va safroqushga ergashish, yo'lbarso't panjasiga tushish..." bular bari zamon talvasasi bo'lib, shoir buni insonlarning hayvoniy obrazlarga ergashishi sifatida tasvirlaydi.

Shoir keyingi boblarda ruhiy halovatga yetish uchun ibodatga intilish lozimligini uqtiradi. Shoir uchun "so'z" ilohiy

haqiqat timsolidir. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, “so‘z”, ya‘ni kalom yaratuvchilikning timsoli hisoblanadi. Shoir har kuni so‘zga ibodat qilishini ta‘kidlab, ma‘rifatning manbai sifatida uni ko‘rsatadi. Bu Qur‘onning “Kun” ya‘ni, “Bo‘l” degan so‘zidan boshlangan borliq bilan uyg‘unlikdadir. Samarqand va Registon ramziy ma‘noda ma‘rifat, ilm va haqiqat markazi sifatida eslanadi. Lekin endilikda u yerda qarg‘alar muazzin ya‘ni haqiqat o‘rnini mutelik va soxta da‘volar egallagani tanqid qilinmoqda. Bu esa jamiyatda ilmning ma‘naviyatdan uzilishini ifodalaydi. Aynan shu g‘oyalarni imom G‘azzoliy, Attor yoki Rumiy qarashlariga hamohang ko‘rish mumkin. Shoir dostonida xalq og‘zaki ijodi namunalariga ham murojaat qilgan va ertak qahramonlaridan ham ramziy foydalangan. Bunga malika, yalmog‘iz, shahzoda, boyqush timsollarini keltirish mumkin. Shoir bu obrazlar yordamida absurd syujet yaratgan va u orqali tarixiy adashishlar, o‘zgarishlar, qadriyatlar tanazzuli haqida so‘z ochadi. Tovushlar, hayvon obrazlari va mifik unsurlar orqali jamiyat inqirozi tasvirini yaratadi. Ilon obrazi vasvasa, gunoh, o‘zlikni tan olish ramzi bo‘lishi mumkin.

Shoirning ushbu dostoni boshdan oxirigacha ramziylik asosiga qurilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotida modern uslubning yorqin namunasi hisoblanadi. Shaklan modernizm yetakchilik qilsa-da, mazmunan xalqimiz qadriyatlariga xos ma‘rifiy-tasavvufiy g‘oyalar kuylangan. Dostonning xotimasi uning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Bugungi til bilan aytganda final sahna – orzudagi ideal jamiyat, tasavvufiy Jannat manzarasi tasvirlanadi. U yerdagi hayot tinch, adolatli, mehrga to‘la. Bu shoirning eng ulug‘ orzusi haqiqiy “odami zot” jamiyatini barpo qilish bo‘lib, bu jamiyatga yetishning birdan-bir yo‘li ruhiy tarbiya orqali yuksalishdir.

**Xulosa.** Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” dostoni o‘zbek modern she‘riyatida portlash hodisasi bo‘ldi. Shoir ijodiga xos ramziylik va majoziylik “Izohsiz lug‘at” ni oddiy doston emas, ramzlar orqali gapiradigan poetik matnga aylantirdi. Bu she‘rda shoir insoniyat tarixidagi ma‘naviy tanazzul, axloqiy buzilish va ruhiy yo‘qotishlarga ishora qiladi. She‘r zamonaviy voqealar va arxaik ramzlar orqali inson tabiatining nafs, jaholat, g‘aflat bilan halokatga yuz tutishini ochib beradi. She‘rda bir qancha g‘oyalar ifodalangan bo‘lib, buni quyidagicha tasniflash mumkin:

Birinchidan, dostonida g‘aflat va tanazzul g‘oyasi ifodalangan. Shoir butun she‘r davomida “orada”, “ora-chorada” deya takrorlaydi. Bu takroriy shakl odamzodning doimiy chalg‘ishi, Haq yo‘lidan chekinishini ifodalaydi. Inson bir oraliqda, muvozanatsiz holatda

qolgan mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Ikkinchidan, bugungi insoniyatning vaqt o'tishi bilan ma'naviy rivojlanishdan taboro tubanlashuv sari ketish holati ifodalangan. Masalan, asarda malikaning ilmi, ammo yalmog'iz holatda tasvirlanishi, tuya tilidan so'zlovchi elat, odamlar bilan nikohga kirgan iblis qizlari bular hammasi insoniyatning ruhiy yuksalish o'rniga tubanlik sari ketayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, shoir simbolik obrazlar orqali jamiyatni qattiq tanqid qiladi. Bunda turli ramziy obrazlardan foydalanadi va bu obrazlar orqali jamiyatdagi axloqiy-insoniy inqirozni fosh etadi.

To'rtinchidan, shoir turli ofatlar tufayli halokatga uchragan dunyo manzarasining ramziy tasvirini yaratadi. Yantoq terayotgan kampir, quduq qazish, quyoshda qovurilgan yer kabilar orqali halokatdan keyingi ezilgan jamiyatni ifodalaydi. Bu g'aflat natijasida yuksalish o'rniga qulagan insoniyat manzarasidir.

Beshinchidan, shoir dostonida modern, postmodern yo'nalishlar bilan birga so'fiyona ishoralar va tasavvufiy g'oyalarga ham murojaat qiladi. Shu jihatdan she'r nafsning zo'r kelishi, qalbning mag'lubligi, ammo najot umidini aks ettiradi. Shoirning fikricha, inson umid bilan yashashi lozim.

Umuman olganda, atoqli yozuvchi va adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam aytganidek, *"Haqiqiy adabiyotda har ikki olamga ishora bo'lmog'i va, eng muhimi, bunday adabiyot har ikki olamdan ma'naviy turtki olib yaratilmog'i kerak"* [U. Hamdam, 2013, ziyo.uz saytidan]. Darhaqiqat, shoir Abduvali Qutbiddin ijodida xuddi shu yo'nalishning bugungi kundagi ideal tasvirini kuzatish mumkin. Shoir "Izohli lug'at" dostonining bosh g'oyasi ham insoniyatga, xususan millatga qarata ogohlantirish nidosidir.

### **Adabiyotlar**

Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. 2010. –Тошкент.

Hamdam, U. 2013. Yangi avlod ovozi (suhbat). Ziyo.uz sayti

<https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/yangi-avlod-ovozi-suhbat>

Komilov Najmiddin. 2019. Tasavvuf. –Toshkent.: "Movaraunnahr".

Qutbiddin, A. 1990. Izohli lug'at. Doston. Sharq yulduzi: №10.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. 2021. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: "Hilol-Nashr".

## Some commentaries "Izohsiz lugat"

Tolghanoy Kuljanova<sup>1</sup>

### Abstract

This article analyzes the epic poem "Izohsiz lugat" by Abduvali Qutbiddin, a representative of contemporary Uzbek poetry, through the lenses of Sufi-educational and philosophical approaches. The study discusses the poet's artistic mastery and the spiritual and educational ideas expressed in the work, including Sufi perspectives, symbolic-metaphorical imagery, and the features of the artistic style. In addition, the composition structure of the epic, its poetic language style, internal dramatism, lyricism, and artistic imagery are also examined. The article also highlights the place and artistic value of "Izohsiz lugat" in today's literary process.

**Keywords:** *Abduvali Qutbiddin, "Izohsiz lugat", modernism, postmodernism, lyricism, symbolism, Sufism, artistic thinking.*

### References

- Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. 2010. – Тошкент.  
Hamdam, U. 2013. Yangi avlod ovozi (suhbat). Ziyoz.uz sayti  
<https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/yangi-avlod-ovozi-suhbat>  
Komilov Najmiddin. 2019. Tasavvuf. – Toshkent.: "Movaraunnahr".  
Qutbiddin, A. 1990. Izohli lug'at. Doston. Sharq yulduzi: №10.  
Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2021. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: "Hilol-Nashr".

---

<sup>1</sup> *Tolghanoy Sh. Kuljanova* – doctoral student of Samarkand state university.

**E-mail:** [tulganoykuljanova@gmail.com](mailto:tulganoykuljanova@gmail.com)

**ORCID ID:** 0009-0008-2892-9395

**For citation:** Kuljanova, T.Sh. 2025. "Some commentaries "Annotated dictionary". *Uzbekistan: Language and Literature*, 3 (1): 212-221.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

### III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

**Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

#### VII.2. Kitoblar uchun

**Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

### **Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

## **VII.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

#### **Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

#### **Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

## **GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS**

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of

the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

### **1. General**

#### **- Submission Guideline**

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

### **2. Manuscript format**

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

## 1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

## 2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

## 4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

## 5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

## 6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

## BOOK

### Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

#### In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

### Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

#### In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

### Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

#### In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

### Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

#### In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

## BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

### Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

#### In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

### Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago>.

edu/founders

**In Text Cite:**

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

**JOURNAL ARTICLE**

**Article in a print journal**

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

**Reference List (hanging indent):**

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

**In text cite:**

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

**Reference List (hanging indent):**

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

**In text cite:**

[Kossinets and Watts 2009, 411]

**Article in a newspaper or popular magazine**

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

**Reference List (hanging indent):**

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

**In text cite:**

[Mendelsohn 2010, 68]

**Reference List (hanging indent):**

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

**In text cite:**

[Stolberg and Pear 2010, 12]

## WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

### **Bibliography (hanging indent):**

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

### **In text cite:**

[Google 2009]

### **Reference List (hanging indent):**

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

### **In text cite:**

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot  
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga  
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.trans.compliterary.tsuull.uz](http://www.trans.compliterary.tsuull.uz)  
E-mail: [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)